



Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti

KAMOLOT SARI

to'plamining 20-soni

- TILSHUNOSLIK
- ADABIYOTSHUNOSLIK
- TARIX
- FALSAFA
- XALQARO
MUNOSABATLAR
- IQTISODIYOT
- JURNALISTIKA
- TURIZM



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI**

KAMOLOT SARI



IQTIDORLI YOSHLAR ILMIY TO‘PLAMI

20-SON

Toshkent – 2023

Ushbu to‘plam O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni sohibi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, filologiya fanlari doktori Azizxon Qayumov xotirasiga bag‘ishlanadi.

Mazkur to‘plam avvalida olimning izdoshlari va shogirdlarining samimiy fikrlari o‘rin olgan hamda to‘plamda tilshunos, adabiyotshunos, tarjimashunos, tarixchi, faylasuf, siyosatshunos va iqtisodchi sharqshunos yoshlarimizning ilmiy izlanishlaridan namunalar jamlangan.

Mas’ul muharrir:

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori L.A.To‘rayev

Muharrirlar:

PhD. Abdullayeva Dilafruz

PhD. Rasuleva Nigina

PhD. Alimov Zuhridin

PhD. Po‘latov Sherdor

PhD. Alimov Oqiliddin

PhD. Xodjimuratova Dilshoda

PhD. Bo‘ronov Suhrob

PhD. Mustapova Hilola

Nashrga tayyorlovchilar:

Y. Kushanova

I. Karimov

Mazkur to‘plam 2023-yil 1-apreldagi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 8-sonli bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Maqolalarning mazmuniga ilmiy rahbar
va mualliflar mas’uldir.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2023

МИЛЛИЙ МАЪНАВИЯТИМИЗ ТАРИХИДА АКАДЕМИК АЗИЗХОН ҚАЮМОВ МАКТАБИНИНГ ЎРНИ

*Муҳаммаджон ИМОМНАЗАРОВ,
ТДШУ профессори, филология фанлари доктори*

“Мактаб” сўзи улуғ сўз. “Мактаб кўрган” билан “мактаб кўрмаган” инсонлар орасида ер билан осмонча фарқ бор. Аллоҳ таолонинг муқаддас китобида айтилмиш: “Ўқи! Парвардигоринг қарамлиларнинг қарамлисидир. У қалам билан илм ўргатгандир. У инсонга билмаган нарсасини ўргатди.” Мактабнинг, устоз фаолиятининг улуғлигини шу ояти қарималардан ҳам англаб етса бўлади. Ота-она болани бу ёруғ дунёга келтирар экан, бир муддат ўзлари тарбиялайди, маълум ёшга етказиб сўнг уни устоз қўлига топширади. Бу устоз боғча мураббийси бўладими, бошланғич синф ёки ўрта мактаб ўқитувчиси бўладими, қўлидан келганча, қудрати етганча болага таълим-тарбия беради. Қалам ушлашни ўргатади, ҳарф танитади, илк бор илм дунёсига етаклайди. Мурғак жон балоғатга етгунча унинг маънавий камолоти йўлида ўнлаб тарбиячилар бош қотирадилар. Балоғатга етган йигит-қиз энди илм қидириб олий мактаб сари интилади. Бугунги кунда маърифатли юртларда бошланғич ва ўрта мактаб тарбияси аксарият ёш авлодга насиб этса, олий мактаб улар орасидан энг иқтидорлиларини танлаб олади.

Аммо “мактаб” сўзининг маъноси бундан-да кенг, бундан-да теран. Инсониятга сезиларли даражада нафи тегадиган шахс бўлиб етишиш учун бошланғич ва ўрта мактабгина эмас, ҳатто олий таълим даргоҳларида олинган билимлар ҳам етарли эмас. Ҳақиқий устозлар таълими бунданда юқори. Ҳар қандай соҳада — у деҳқончилик бўладими, хунармандчилик бўладими, ошпазлик-нонвойлик бўладими, илм ёки ижод аҳлида бўладими, ҳақиқий устоз кўрган одам билан ҳар қанча ўқиса ҳам яхши устоз кўрмаган одамнинг фарқи доим билиниб туради. Ҳақиқий устоз ўз соҳасининг фидойиси бўлади, у шогирдларини ҳам шу руҳда тарбиялайди. Албатта, шогирд ҳам ҳар хил. Бири ундайроқ, бири мундайроқ. Аммо, қандай бўлмасин, ҳақиқий устоз ўз хислатларидан шогирдларига юқтира билади, бусиз у ҳақиқий бўлмаган бўларди. Хулоса қилиб айтганда, мактаб — бу маънавий тарбия маскани, улуғ олимларни, фидойи зиёлиларни, оддий инсофли, диёнатли инсонларни етиштирувчи, инсониятни жаҳолатдан маърифат сари етакловчи мўътабар муҳит.

Жаҳон тарихида қанчадан-қанча адабий мактаблар, илмий мактаблар фаолият кўрсатган. Мен бевосита ўзим тарбия кўрган маънавий муҳит доирасини оладиган бўлсак, менга бутун онгли ҳаётим мобайнида ҳақиқий устозлик қилган уч улуғ инсон – филология фанлари докторлари, профессорлар Шоислом Шомухамедов, Нури-Мухаммад Осмонов, Азизхон Қаюмовлар ҳар бирлари нафақат ўз юртида, балки жаҳон илмида тан олинган йирик илмий мактабларнинг етакчиларидан ҳисобланадилар. Ушбу илмий-адабий мактабларнинг ҳар бири алоҳида тадқиқотларга арзийди. Ёки агар менинг она шаҳрим Қўқон адабий-илмий муҳитидан етишиб чиққан биргина Қаюмовлар сулоласини эслайдиган бўлсак, бир оила – ота-бола, ака-укалар доирасида 3 йирик мактаб – Пўлатжон домла Қаюмов мактаби, Азизхон Қаюмов мактаби, Лазизхон Қаюмов мактаби ҳақида тўлақонли фикр юритиш мумкин. Чунки бу азиз инсонларнинг ҳар бири миллий маънавиятимиз ривожига ўзига яраша из қолдирган катта илмий-маърифий мактабларнинг асосчилари, ўнлаб таниқли шогирдлар етиштирган аллома тадқиқотчи ва маърифатчи сифатида элга танилган шахслардир. Биз бу ўринда юқорида тилга олинган икки тизим учун умумий бўлган ва, назаримда, санаб ўтилган мактабларнинг энг салмоқли ва кўп жиҳатлардан энг ибратлиси деса бўладигани – **академик Азизхон Қаюмов атрофида шаклланган илмий-маърифий мактаб** ҳақида ёшлар учун ўрнак мисолида икки оғиз сўз айтмоқни ният қилдик.

Биз назарда тутган *“Академик Азизхон Қаюмов мактаби”* тушунчаси анчагина кенг маъноли бўлиб, биргина Азизхон Қаюмов ва унинг шогирдлари яратган илмий мактаб маъносини билдириш билан чегараланмайди. Биринчидан, бу тушунча уч авлод кишиларини, яъни 1) Азизхон Қаюмовдек инсон ва олимни тарбиялаб етиштирган муҳит ва инсонлар, 2) Азизхон Қаюмов билан ҳамнафас ижод этган ҳаммаслак ва фикрдошлари, 3) Азизхон Қаюмов тарбиясини кўриб ижодкор ва олим бўлиб етишган учинчи авлод вакиллари ўз ичига қамраб олади. Иккинчидан, бу мактабнинг ўзига хослиги у фақат илмий-маърифий мактаб бўлибгина қолмай, яшаш мактаби, ҳаётга, илмга, инсонларга муносабат мактаби, яъни маънавият ва ахлоқ мактаби, ўзига хос алоҳида маънавий-илмий-ахлоқий муҳит ҳамдир. Бу мактабнинг ибратли жойи ҳам шунда. **Бу мактабнинг етакчи тамойиллари – илмга жиддий ва масъулиятли муносабат, инсонларга меҳрли ва талабчан ёндашув, ҳаётнинг турли синовлари, ўнқир-чўнқир йўлларида сабр ва бардош билан улуғ**

мақсад сари тинмай интилиш, ҳар қандай замонда эзгу амаллардан оғишмай, босиқлик ва матонат билан ҳаракат қилиш, ҳар бир талаб этилган вазифага жиддий ва ҳалол ёндашув, меҳнаткашлик, ижодкорлик ва самимий ҳамкорлик муҳитини ташкил этиш, ўтмишга ҳурмат, келажакка ишонч ва умид билан қараш, бир жумлада ифодаласак, илм ва ҳилм, меҳр ва масъулият уйғунлигидир.

Бу мактаб ҳақида батафсил ёзишни кўнгилга тукканимга 20 йилдан ошди. Китоб икки қисм, 10 бобдан иборат бўлиши керак эди. Унинг 1-қисми **“Устозлар ва тенгдошлар”** деб номланиб, унинг биринчи боби **“Азизхон Қаюмов ва Қўқон адабий муҳити”** сарлавҳаси остида алоҳида китоб шаклида 1910 йили **“Мумтоз сўз”** нашриётида босилиб чиққан.

Унда Азизхон Қаюмовнинг оталари Пўлатжон домла Қаюмов, шеърятда устозлари Ўзбекистон халқ шоири Асқарали Чархий, мактабдаги илк устозлари тил ва адабиёт муаллими Ҳамзахон Аббосов, укалари ҳамзашунос олим ва публицист, йирик жамоат арбоби филология фанлари доктори, профессор Лазизхон Қаюмовлар ҳақида, ёш шоир **Азизий** ҳақида, мактабдаги улуг шоир Ғафур Ғулом билан учрашув ҳақида батафсил ёзилган. Маълумки, Азизхон Қаюмов 1961 йили **“Қўқон адабий муҳити”** номли илмий монографиясини нашр эттирган ва ўша йили шу мавзуда фан доктори илмий даражасини олиш учун диссертация ёқлаган эди. Шундан келиб чиқиб, китобнинг асосий қисми XVIII аср охиридан – XXI аср бошларигача Қўқон адабий муҳити ҳақидаги маълумотларга бағишланди.

Келгуси режамизда **“Азизхон Қаюмов – шарқшунос”**, **“Азизхон Қаюмов – навоийшунос”**, **“Азизхон Қаюмов ва ўзбек адабиёти”**, Олимнинг илмдаги сафдошлари, шогирдлари ва издошлари, олимнинг ўзбек кино санъатига қўшган ҳиссаси, унинг Ўзбекистон Фанлар академияси тил ва адабиёт илмий-текшириш институтидаги раҳбарлик йиллари, Тошкент давлат маданият институти раҳбари сифатидаги фаолияти (мен 5 йил ушбу ўқув юртида устоз қўл остида форс тили ўқитувчиси сифатида фаолият кўрсатганман), устознинг Ўзбекистон Фанлар академияси Қўлёзмалар институтини бошқаришдаги хизматлари, нашр эттирган илмий асарлари ва бадиий ижод намуналари ҳақида батафсил ёзиш ниятимиз бор.

Чунки устознинг барча ишлари, шогирдлар ва илм аҳлига муносабати ниҳоятда ёшларимиз учун ўрнатилган бўладиган жиҳатлари кўп. Бугунги кунда устоз тарбиясини олган кўплаб шогирдлари

Тошкент давлат шарқшунослик университети, Миллий Университет, Ўзбекистон Халқаро Ислом Академияси, Алишер Навоий номидаги ўзбек тили ва адабиёти университети, Низомий номидаги Педагогика университети, Ўзбекистон Фанлар академияси тил, адабиёт ва фольклор илмий-текшириш институти ва бошқа илм даргоҳларида ўзлари устозлик даражасида фаолият кўрсатиб келмоқдалар.

АЗИЗ ПЎЛАТОВИЧ ҚАЮМОВНИНГ ЭЪЗОЗЛИ ХОТИРАСИГА

*Мирсодиқ ИСҲОҚОВ,
ТДШУ профессори, тарих фанлари доктори*

Мен бу буюк олим ва улкан қалб эгаси, бир марта мулоқотда бўлган одамлар учун тақдирга айланишга қодир инсон ҳақида 1961 йилдан бошлаб билар эдим. Ўша йили марказий газеталардан бирида ака-ука фан докторлари – Азиз ва Лазиз Қаюмовлар ҳақида мақолага кўзим тушиб, қизиқиб ўқиганим эсимда. Айниқса, Азиз Қаюмовнинг “Кўқон адабий муҳити” номли диссертацияси ва монографияси ҳақида билгач, бу фундаментал асарни топиб ўқишга ҳам муваффақ бўлгандим. Ўша вақтларда ўзим Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика институтининг “Тарих, ўзбек тили ва адабиёти” факультети талабаси эдим ва адбиётшуосликка ҳавасим баланд эди. Дарвоқе, мен ўқиган факультет номига эътибор бердингизми, азиз ўқувчим. Таълим жараёни учун, хусусан, филология соҳаси учун тарих билан қўшиб ўқитиладиган йўналиш, яъни тарихий-филологик таълим энг оқилона жуфтлик сифатида, афсуски, бизлар битирганимиз 1963-64 ўқув йилидан бошлаб тугатиб ташланди. Тарих алоҳида, ўзбек тили ва адабиёти алоҳида факультетга айланди. Шундан бошлаб тарихчи филологик билимсиз, филолог тарихий билимдан маҳрум кадрлар авлоди чиқа бошлади. Ҳолбуки, бу икки соҳа доимо бир-бирини тақозо этади. Мисол учун, агар тарихчи бирор манба билан қизиқса, унга сўзсиз филологик билим зарур, филолог бирор классик мерос ҳақида изланар экан, ўша манбаининг тарихий муҳити, пайдо бўлиш шарт-шароитларини билиши зарур ва ҳоказо.

Хуллас, Азиз Қаюмовга, тўғрироғи, ака-ука олимларга ҳавас менинг кўнглимга тугилган эди. Орада мен институтни тугатдим. 1964

йили Тошкент вилоят маъориф бўлими мудир Иброҳим Порсоевнинг шахсан берган йўлланмаси билан Бўка районига ишга жўнадим. Районо мудир Аъзам Солиев мени Бўка совхозининг Ўзбек овул қишлоғида янги очилган Абу Райҳон Беруний номидаги 70-сон етти йиллик тўлиқсиз ўрта мактабга ўқитувчи қилиб юборди. Бир йил у ерда ўзбек тили, адабиёти ва тарих фанларидан дарс бердим. 1965 йили Ўзбекистон Фанлар академияси Тарих ва археология институтига археология ихтисослиги бўйича имтиҳон топшириб, аспирантурага кирдим. Тақдир мени талабалик йилларимда маърузаларига маҳлиё бўлган устозим, ўша вақтда ЎЗР ФА мухбир аъзоси Яҳё Ғуломов билан юзма-юз қилди. Бу учрашув менинг ҳаётим мазмунига айланган суғдшунослик, авестошунослик, исломгача қадимий ёзувлар ва ёзма ёдгорликлар манбашунослиги соҳаларига йўл очган муҳим бурилишга айланди. Аспирантура даврим буюк устоз тавсиялари билан Россиялик олим, улкан эроншунос, суғдшунос В.А.Лившиц раҳбарлигида, СССР ФА Осиё ва Африка (кейинчалик “Шарқшунослик”) институтининг Ленинград шаҳрида ўтди. 1972 йилда “Суғд тилида феъл тизими” мавзусида кандидатлик диссертациясини ёқладим.

Бу ўртада 1969 йил куз ойларида ЎЗР ФА Тарих ва археология институти таркибидан археология бўлими ажратилиб, Археология институти ташкил топди ва ўша вақт ҳукумат қарори билан Самарқанд шаҳрида очилди. Институтга кадрларни жалб қилиш мураккаб кечди. Тошкентдан археолог мутахассисларни Самарқандга кўчириш бошланди. Шу жумладан мен ҳам институт директори А.Асқаровнинг даъватига лаббай деб оилам билан Самарқандга кўчдим. Саккиз йил Археология институтида кичик, катта илмий ходим вазифаларида ишладим. Афросиёб, Ерқўрғон, Сеталак, Рабинжонтепа, Қўштепа каби объектлар қазилмаларида қатнашдим. Жумладан, Ерқўрғонда зардуштийлик даврига ҳос даҳманинг қуйи қатламларидаги зинапоя қисмини, қурилманинг шимолий ва жанубий ёнбағридан солинган чох (траншея)лар орқали кириб бориш усули билан ташқи деворлари периметрини аниқлашга эришдим. Даҳманинг реконструкцияси учун етарли асос яратилди. Самарқанд вилоятининг Ургут районида жойлашган Қўштепа I объектининг маҳаллий несторчилик христиан черкови эканини аниқлашга эришилди. Мен археология институтида 1978 йилгача ишладим. Бу йиллар мен учун улкан ҳаёт мактаби бўлди. Академик Аҳмадали Асқаровнинг қатъиятли раҳбарлик стили, ёш кадрларга уларнинг ривожини учун яратган шароитларидан баҳраманд бўлдим. Ниҳоят, 1978 йили илмий изланишларимнинг асл моҳияти

филологик ва тарихий манбашуносликка қаратилгани туфайли Археология институтидан бўшашга қарор қилдим. Тошкентга оилам билан қайтдим.

Энди Тошкентда иш қидириш билан бир муддат мавҳумликда қолдим. ЎзР ФА Шарқшунослик институтидан, Ўша вақтда янги очилган Қўлёзмалар институтларидан рад жавобини олдим. Алма матер Низомий номидаги педагогика институтидан умидвор бўлиб, кунлардан бирида Киров боғидаги сомсахонада тушлик қилаётсам, талабалик йилларимда аспирант бўлган, ўшанда эса фан доктори раҳматлик Абдуҳолик Абдурахмонов келиб қолдилар. Мендан ҳол сўрадилар. Дардимни айтдим. Э, ташвишланма, мен билан юр-чи, Маданият институтида кафедра мудириман. Сенга ўхшаган кадрлар менга керак, – дедилар. Ана шунда менинг тақдирим чин маънода улуғ устоз, ўша пайтда Маданият институтининг ректори Азиз Пўлатович Қаюмов билан боғланди.

Холиқ Абдурахмонов билан Азиз Пўлатович ҳузурларига кирдик. Очик, самимий табассум билан кутиб олдилар. Вазиятни тушунгач, Азиз Пўлатович мендан касби корим ҳақида қисқагина сўрадилар. Мен аввало филолог-тарихчи эканимни, суғдшунослик соҳасидаги ишларимни, археологик амалиётимни қисқагина сўзлаб бердим. Азиз Пўлатович менинг Ўзбекистонда янги илмий соҳаларга қўл урганимни, бунинг жуда муҳимлигини таъкидлаш билан баробар Абу Райҳон Берунийнинг суғдийлар ҳақида “Осор ул-боқия...”да ёзганлари ҳақида гапириб кетдилар. Суғдийлар тарихи, уларнинг ёзма ёдгорликлари ҳақида ўзбек зиёлилари кўп нарсга билишмайди. Сиз бу соҳани кенг ўрганишингиз, тарғиб қилишингиз лозим дедилар. Умуман, исломгача тарихий-маданий масалаларга эътиборимизни кучайтиришимиз лозим, зеро, чет элларда ҳам бу соҳаларга қизиқиш катта дедилар. Суҳбат якунида менга ариза ёзишни таклиф қилдилар. Ўша кунийёқ мен Маданият институтининг катта ўқитувчиси, кейинроқ доцент вазифасини бажарувчисига айландим.

Бир йил ўтар-ўтмас Ўз Р ФА қўлёзмалар институти директори, машҳур навоийшунос профессор Ҳ.Сулаймонов вафот этишлари муносабати билан Азиз Пўлатович шу институтга директор лавозимига ўтдилар. Бир муддат ташкилий жараёнлардан кейин 1981 йилда Азиз Пўлатович мени институтга таклиф қилдилар ва катта илмий ходим лавозимига ишга қабул қилдилар. Шу вақтда Қўлёзмалар институтида Азиз Пўлатович қадимги туркий, эски уйғур, менинг пайдо бўлишим билан боғлиқ эса, суғдшунослик ва авестошунослик , яна бир қатор ёш

олимларни жалб қилган ҳолда фольклор манбашунослиги ва тадқиқотлари, классик адабиёт матншунослиги, йирик адиблар архившунослиги ва бошқа муҳим йўналишларни шакллантираётган эканлар. Қўлёзма манбаларнинг китобат тарихи, ва маданияти билан боғлиқ экани муносабати билан Маданият институтидан китобшунос Эркин Охунжонов ҳам Қўлёзмалар институтига жалб қилинган экан. Биз Эркин билан шундан бошлаб кўп масалаларда ҳамкор, ҳамфикрларга айландик. Бу ҳикоядан мурод Азиз Пўлатович илмда бугунги кун билан эмас, фаннинг эртаги куни билан яшаганларини кўрсатиш эди.

Азиз Пўлатовичнинг раҳбарлик усуллари ўзига хос эди. Менинг назаримда у кишининг илмий ишлари биринчи, раҳбарликлари иккинчи ўриндадек кўринар эди. Кабинетларига кирсанг, ташкилот раҳбари ўтиргандек эмас, илмий ходим ишлаб ўтиргандек эди. Шу орада ташкилий ишларни шу қадар аниқ ва осон ҳал қилар эдиларки, иш ҳал бўлгач, яна илмий ишлари давом этар эди. Ярим йиллик, йиллик ҳисоботларда Азиз Пўлатович институт ходимлари қатори илмий кенгаш олдида ҳисобот ҳам берар эдиларки, бундай ибратни мен бошқа ташкилотлар раҳбарларида кўрмаганман.

Шундай қилиб, Азиз Пўлатович раҳбарлигида ишларим давом этди. 1985 йилда бир монографик режам пишиб етилгандек бўлди. Суғдий ёзма ёдгорликлар палеографияси бўйича тадқиқот ишини ният қилдим. Бу иш суғдий матнларда етиб келган ёзувлар мураккаблиги туфайли соҳа адабий, тарихий, фалсафий манбашунослигида қийинчиликларга барҳам бериши лозим эди. Режамни Азиз Пўлатович маъқулладилар. Шу орада номзодлик ишимга илмий раҳбарлик қилган, мени суғдшунослик машаққатларига олиб кирган устозим Владимир Аронович Лившиц Тошкентга келиб қолдилар. У киши билан академик Эдвард Ртвеладзенинг уйида суҳбатлашиб, режамни кўрсатдим. Бироз таҳрирдан кейин режамни маъқулладилар ва бу ишни Тошкентда туриб бажаришингиз қийин, деб қўйдилар. Бу фикрни Азиз Пўлатовичга билдирдим. У киши зарур бўлса мени Ленинградга жўнатишга рози эканларини билдирдилар. Шундай қилиб, 1986-89 йилларда Ленинград илмий муҳиtida диссертация устда ишладим. 1992 йилда “Суғдий ёзма ёдгорликлар палеографик тадқиқи” номли докторлик диссертациямни ҳимоя қилдим. Тадқиқотнинг тарихий манбашунослик соҳаси учун муҳимлигини ҳисобга олиб, Илмий кенгаш менга тарих фанлари доктори илмий

даражасини берди. Шундай қилиб, мен филология фанлари кандидати, тарих фанлари доктори бўлиб қолдим.

Азиз Пўлатович исломгача давр манбашунослигининг муҳимлигидан ва кам ўрганилганидан келиб чиқиб, туркий, уйғурий, суғдий, хоразмий ва бошқа йўналишларни бирлаштириш мўлжалида институтда янги бўлим туздилар. Унга камина раҳбар этиб тайинланди. Бўлимда тез орада бир қатор йирик илмий ишлар амалга ошиб, Китобат тарихи ва маданияти соҳаси бўйича Э.Охунжонов, туркология соҳаси бўйича Қ.Содиқов, Н.Раҳмоновлар докторлик диссертацияларини, Қудрат Омонов уйғур ёзувли ёдгорликлар бўйича номзодлик ишини ёқладилар. Бу орада Б.Тўқлиев, Ш.Турдимовлар номзодлик ва докторлик ишлари устида муваффақият билан иш олиб бордилар. Боқижон Тўқлиев Юсуф хос Хожибнинг “Қутадғу билиг” асари бўйича олиб борган тадқиқотлари ўзининг теранлиги ва қамрови билан ушбу буюк асар ҳақидаги билимларни фавқулодда янги поғонага кўтарди ва халқаро миқёсда эътироф қозонди. Ш.Турдимовнинг фольклор манбашунослиги ҳамда фольклордаги образлар тизимининг рамзиятлари, эпос ва этнос йўналишидаги тадқиқотлари халқ оғзаки ижодиёти турли жанрларининг ижтимоий моҳияти, жамият ҳаётининг инъикоси сифатидаги ўрни ва аҳамияти, қолаверса, фольклонинг ўзи халқ нафаси билан қандай яшаб келгани ҳақидаги назарий умумлашмалари соҳага оид қонуниятлар кашфиёти сифатида муҳим бўлди ва соҳа ривожига чуқур таъсир кўрсатди. Ана шу мураккаб изланишлар, кашфиётларнинг томир зарблари устида Азиз Пўлатовичнинг бармоқ учлари тургандек эди. Зеро, устоз ўз қўллари остидаги ҳар бир ходимнинг фаолиятини зийраклик билан кузатиб борар эдилар. Ўқтин-ўқтин у ёки бу ходимни саволга тутиб, ишларининг боришини суриштирар эдилар. Қизиғи шундаки, шу масалалар бўйича аввалги суҳбатда аниқланган масалаларнинг айни давомини аниқлашга, керак бўлса янги йўриқлар беришга ҳаракат қилар эдилар.

1998 йили Азиз Пўлатович ўзларига қаттиқ олган ва кейинчалик турли муносабатлар билан афсус аралаш эслаб юрганлари бир воқеа юз берди. Бу ЎзР ФА таркибидаги бир қатор илмий муассасаларнинг тақдири билан боғлиқ воқеа эди. Жумладан, Ҳамид Сулаймонов номидаги Қўлёзмалар институти тугатилиб, унинг қўлёзма ва тошбосма китоблар фондини Абу Райҳон Беруний номидаги шарқшунослик институти фондига қўшиш ҳақида қарор пайдо бўлди. Бу ишнинг бошида Ўша пайтда фанлар академияси президенти бўлган Тўхтамурод Жўраев турган эди. Қўлёзмалар ва Шарқшунослик

институтлари бир хил иш билан шуғулланади, деган гапни бундай масъулиятсиз ташкилий кадам учун баҳона қилиб кўрсатилган эди. Азиз Пўлатовичнинг Қўлёзмалар институти таркиби, ундаги йўналишларнинг шарқшунослик институтидан фарқли ва илмий жиҳатдан алоҳида аҳамияти ҳақидаги тушунтиришлари натижа бермади. Айниқса, Қўлёзмалар институтида йўлга қўйилган тарихий, адабий матншунослик йўналиши барбод бўлганидан Азиз Пўлатович қаттиқ изтироб чекканлари ҳаммамизни ҳам изтиробга солган эди. Шундай қилиб, Қўлёзмалар институтидан бизлар кўпчилик турли муассасаларга тарқалдик. Қисман ходим ва ходималар шарқшунослик институтига ўтди. Қисман Алишер Навоий номидаги адабиёт музейида қолди. Менинг зиммамга ЎзР ФА тарих институти директорлиги вазифаси юкланди. Шу билан бир вақтда Академик Неъматулло Иброҳимов таклифи билан Тошкент давлат шарқшунослик институти “Марказий Осиё халқлари тарихи” кафедраси мудирлигига тайинландим. Бу масала алоҳида мавзу ва бу ҳақда кейинроқ ўз ўрнида ёзарман, деган ниятда қоламан.

Ўша 1998 йили суғдий, қадимги туркий, ва классик туркий адабиёт бўйича тадқиқотлардан иборат жамоавий монография шаклланган эди. Бу ҳақда муаллифлар Қ.Содиқов, Б.Тўқлиев, Азимхўжа Отахўжаевлар билан маслаҳатлашиб, Азиз Пўлатович ҳузурларига кирдим. У кишидан монографияда қатнашишларини илтимос қилдим. Мамнуният билан розилик бердилар ва кўп ўтмай Авестонинг зардуштийлар энг зарур кундалик диний амалиётда фойдаланган терма матнларидан иборат “Хўрдак Авесто” (Кичик Авеста) номли китоби тафсилотларига бағишланган ишни бизга топширдилар. Бу иш амалда “Хўрдак Авесто”нинг ўзбек тилига таржима ва изоҳли нашри эди. Шундай қилиб, 2000 йилда бу жамоавий монография чоп этилди.

Азиз Пўлатович кейинги ўн йиллар давомида қўлларида ишлаган ходимлар билан алоқаларини узмадилар. Масалан, мен 1998 йилдан то 2012 йилгача Тошкент давлат шарқшунослик институти “Марказий Осиё халқлари тарихи” кафедраси мудир вазифасида ишлаган пайтларимда Азиз Пўлатович кўп марта кафедра меҳмони бўлганлар, талабалар билан учрашувларда ибратли суҳбатлар берганлар, конференцияларимиз иштирокчиси бўлганлар. Ҳар бир чиқишларида суҳбат мазмунига мос Навоийдан қуйилиб келган ғазаллар ўқир эканлар, қувваи хофизаларига ҳайрат билан қарардик...Бу таассуротларнинг чеки йўқ.

Ниҳоят, 2016 йили мен Навоий кон металлургия комбинати бош директори, Навоий кон металлургия институти ректори, техника фанлари доктори, профессор, сенатор Қувондиқ Санақулов томонидан Абу Райҳон Берунийнинг “Китоб ал-жамоҳир, фи маърифат ал-жавоҳир” (Минералогия) асарини таржима қилиш ва нашр этиш бўйича таклиф олдим. Бу масала юзасидан тайёргарлик бўйича маслаҳат учун Абу Райҳон Беруний номидаги шарқшунослик институтига бордим. Директор ўринбосари С.Каримова билан суҳбат асносида маълум бўлдики, Азиз Пўлатович кўп йиллардан бери мазкур асарни рус тилидаги А.М.Беленицкий таржимаси асосида ўзбек тилига ўгириш билан оз-оздан шуғулланиб юрар эканлар. Дарҳол Азиз Пўлатович билан боғландим. Уйларида суҳбат чоғида таржима қай даражада экани маълум бўлди. Азиз Пўлатович бу ишни тез фурсатда тўлдириб беришга ваъда бердилар ва шу билан бирга унинг нашрига рухсат ҳам олинди. Аммо нашрга тайёрлаш давомида металлар билан боғлиқ бир дафтар таржима матни йўқолгани маълум бўлди. Бу қисм таржимасини тўлдирдик ва асарнинг ўзбекча баёни тайёр бўлди. Иш жараёнида Азиз Пўлатовичнинг тўқсондан оша кекса ёшларига қарамай, ғайрат ва масъулият билан қилган ҳаракатлари ҳар ким учун ҳам улуғ ибрат десам, бу кам туюлади. Ушбу китоб ниҳоят, 2017 йилда (нашрга тайёрловчи ижодий гуруҳ А.Ҳасанов, М.Исҳоқов, О.Хаитова, Р.Ўразова) Миллий энциклопедия нашриётида чоп этилди.

Хулоса ўрнида шундай дегим келади: бизлар баъзан олдимизда оққан сувнинг қадрини билмай қоламиз. Кўз ўнгимизда авлиёлардек буюк инсонлар яшаб ўтишади, яшаб туришибди. Бизлар эса бепарвомиз. Этакларини тутмай қоламиз, қўлларини ўпиб кўзимизга сурмай қоламиз. Баъзан ўзимизнинг тубан кибримиз соясида улуғ инсонларга қошимизни чимирамиз. Келинг, улуғларни ёнимизда “кўрмаётган” бўлсак, сал нарироқдан бир қараб қўяйлик. Олам гўзаллигини унинг ичида туриб кўра олмаслик табиий. Уни бир қадам ортга ташлаб қарасак, англаймиз ва бунга шукр қиламиз. Бу эса ўз навбатида афкорларга хос. Авом эса еб-ичиб, ҳаёт шу экан деб ўтаверади. Зеро, буюклар соғлом жамиятда албатта кадрларини топадилар. Азиз Пўлатович (Азизхон) Қаюмов миллий хотирот осмонимизнинг қалбларга абадий муҳрланган сўнмас юлдузи бўлиб қоладилар.

АЗИЗ ҚАЮМОВНИНГ ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚЛАРИНИНГ КЎҲНА ЁЗМА ЁДГОРЛИКЛАРИНИ ЎРГАНИШДАГИ УЛУҒ ХИЗМАТЛАРИ

*Қосимжон СОДИҚОВ,
ТДШУ профессори, филология фанлари доктори*

Илк ўрта асрларда яшаб ижод этган улуг донишманд Юсуф Хос Ҳожибнинг “Билиглиг кишилар башиғ бил асиғ”, яъни “Билимли кишиларнинг (жамоага) бош бўлишини фойдали деб билгин” деган сўзлари бор. Бу сўзлар устоз Азиз Қаюмовнинг кечмиши ва раҳбарлик фаолиятига ҳам тегишли.

Мен ушбу мақолада устоз А. Қаюмов илмий ва раҳбарлик фаолиятининг бир қиррасига – ота-боболаримизнинг исломга қадар қўллаган ёзувлари ва уларда яратилган битигларни ўрганиш соҳасидаги ишларига тўхталмоқчиман.

Олимнинг бу соҳадаги фаолиятини икки даврга ажратиш мумкин:

Биринчиси, унинг Ўзбекистон Фанлар академияси Тил ва адабиёт институтига раҳбарлик қилган йилларга тўғри келади.

Иккинчи ва энг кўзга кўрингани, Ўзбекистон Фанлар академияси Қўлёзмалар институтига раҳбарлик қилган йиллардир.

А. Қаюмов Тил ва адабиёт институтига раҳбарлик қилган чоғларда эски ёзма ёдгорликларнинг илмий нашрларини яратиш ва уларни чоп эттиришга катта эътибор қаратди (мен бунининг суҳбатлари ва ўша замонларни кўриб билган олимларнинг оғзидан эшитганман). Ўша кезлар А. Қаюмовнинг кўрсатмаси билан С. Муталлибов “Девону луғати-т-турк” асарининг, Қ. Каримов “Қутадғу билиг” маснавийсининг, Қ. Маҳмудов эса “Ҳибату-л-ҳақойиқ”нинг илмий нашрларини яратиш чоп эттирганлар. А. Қаюмов бошчилигида амалга оширилган бу ишлар ўзбек адабиётшунослиги, қолаверса, бутун туркологияда катта воқеага айланган эди.

А. Қаюмов фаолиятининг кейинги босқичи, табиийки, Қўлёзмалар институти билан боғлиқ. Бу даргоҳдаги ўзининг узоқ йиллик илмий ва раҳбарлик фаолияти давомида олим ўзбек илмида, ўзбек шарқшунослигида ўта муҳим ва мураккаб, ўзига яраша катта бир йўналишга асос солди. Ўзбекистонда Ўрта Осиё халқларининг энг эски ёзма ёдгорликларини кенг қўламда илмий ўрганиш ишларини бошлаб берган, кўҳна битигларни тадқиқ этувчи мутахассислар етиштириб, бу соҳанинг юксалувига бош-қош бўлиб турган олим Азиз Қаюмовдир.

Ўзбекистонда Ўрта Осиё халқларининг энг кўхна ёзувлари ва уларда яратилган ёдгорликларни кенг кўламда ўрганиш иши 80-йиллардан бошланган. Сир эмас, бир пайтлар ўзбек олимларининг илк ўрта асрларнинг ёзма ёдгорликлари бўйича яратган илмий ишлари рус ва Европа олимлари яратган тадқиқотларга, улар чиқарган транскрипцион нашрлар асосида яратилар эди. Фанимиз олдидаги бу камчилиكنи бартараф этиш мақсадида Ўзбекистон Фанлар академияси Қўлёзмалар институтида Азиз Қаюмовнинг ташаббуси билан Ўрта Осиё халқларининг энг эски ёзма ёдгорликларини ўрганиш бўлими очилди. Бўлимнинг муҳим вазифаси араб хати кириб келгунига қадар аجدодларимизнинг қўллаган ёзувлари ва уларда яратилган ёзма обидаларни тарихий ва филологик ўрганишдан иборат эди. Бу соҳада ўтмишда кенг ишлатилган ва кунимизга дайин кўплаб ёдгорликлари сақланган учта йирик ёзув танланди. Булар: суғд, туркий рун (ўрхун-енисей) ҳамда эски уйғур ёзувларидир.

Суғд ёзуви милоддан аввал юзага келиб, араб истилосига қадар кенг ишлатилган. Суғдларнинг Буюк ипак йўлида олиб борган савдотик ишлари, буддизм ва монийликни ёйиш мақсадида турган уринишлари ҳамда маданий таъсирлар туфайли суғд тили билан бирга, ёзуви ҳам узоқ ўлкаларга ёйилди. Шунинг учун ҳам суғдча битиглар суғдларнинг ўз тупроқларидан ташқари, Марказий Осиёнинг узоқ ўлкаларидан ҳам топилган.

Туркий-рун, урхун-енисей, кўк турк ёзуви деб аталаётган қадимги туркий хат аجدодларимизнинг йирик кашфиётларидан бири эди. Ўз даврида бу ёзувнинг доираси Узоқ Шарқдан бошлаб, Олтой ўлкалари, Марказий Осиё бўйлаб Шарқий Европага қадар ёйилган. Кўк турк ёзувида битилган тарихий-бадий асарлар адабиётимиз тарихининг тенги йўқ классик ёдгорликлари бўлиб, улардаги шоҳ сатрлар ўқиган кишини ларзага солади, ёшларга она-юртни севмакликни, муқаддас ер-сувни кўз қорачиғидек сақламокни ўргатади.

Ҳозир фанда “уйғур ёзуви” дея аталаётган қадимги алифбони Маҳмуд Қошғарий “турк ёзуви”, Алишер Навоий “туркча хат” деб атаган. Ушбу ёзув оромий тизимидан ўсиб чиққан бўлиб, исломга қадар ҳам, ислом даврида ҳам кенг қўлланган. Муҳими, бу ёзув XI–XV юз йилларда турк-ислом дунёсида араб хати билан ёнма-ён ишлатилган. Ота-боболардан қолган ушбу ёзувдан Темурийлар ҳам кенг фойдаланди. Уйғур хати шарқий уйғурлар орасида ҳатто XVIII юз йилда ҳам ишлатилган. Шунинг учун бўлса керак, уйғур хатида

битилган туркий ёдгорликлар ниҳоятда кўп. Айни чоғда улар дунёнинг йирик қўлёзма фондларида сақланиб турибди.

А. Қаюмов ўзбек ёзуви маданияти тарихини, ўзбек адабиёти ва адабий тили тарихини, ота-боболаримиз меросини ўша битиглар ва уларда яратилган ёдгорликларсиз тасаввур эта олмади. Тарихимиз ўша обидалардан бошланганлигини қаттиқ туриб ёқлади. Шогирдларини ҳам халқ тарихи, адабиёт тарихига ана шундай кенг қарашга, миллат илдизларини теранликдан излашга ўргатди.

Қўлёзмалар институтида очилган янги бўлимнинг таркиби ҳам шаклланди. Қадимги суғд ёзуви ва унинг ёдгорликларини ўрганиш бўйича Мирсодиқ Исҳоқов, туркий рун ёзуви ва унда яратилган битигларни ўрганиш бўйича Насимхон Раҳмонов, эски уйғур ёзуви ва унда яратилган обидаларни ўрганиш бўйича мен иш бошлаганмиз. Бўлимда яна китобат тарихи йўналишида ҳам тадқиқот олиб борилар эди. Бу соҳада Муҳаммаджон Ҳакимов ва Эркин Охунжонов ишлаган.

Бўлимда илк ўрта асрларда Ўрта Осиё халқлари яратган ёзма обидаларни илк манбалардан, уларнинг қўлёзмалари асосида ўрганишга киришилди. М. Исҳоқов суғд ёзуви тарихи, палеография ва илк ўрта асрлар историографияси масалалари, Н. Раҳмонов қадимги туркий битиглар поэтикаси, мен эса уйғур ёзуви тарихи ва бу ёзувда яратилган туркий обидалар тили, хусусан, “Қутадғу билиг” маснавийсининг тил хусусиятларини ўрганишга киришдик.

А. Қаюмов – кенг фикрли олим; у узоқни, келажакни кўра билиб, фанга раҳбарлик қилди; ўз фаолияти давомида кадр етиштиришнинг энг унумли усулларини ишга солди. Юртимизда бу соҳаларда мутахассислар етишмай турган бир пайтда, қўшни республикаларнинг мутахассислари, ҳатто чет эллик таниқли олимлар, йирик илмий марказларга мурожаат қилди. Қадимги туркий битигларнинг билимдонлари, филология фанлари докторлари А. Аманжолов, Г.Айдаров, И. В. Стеблева, У.Ф. Серткая сингари туркологларнинг эътиборини Ўзбекистонга қаратди; қадимги ёдгорликларни ўрганувчи ёш мутахассисларни етиштиришда уларнинг кенг қамровли билими, тажрибаси ва кўмагидан фойдаланди. А. Аманжолов, Г. Айдаров, И.В.Стеблева сингари туркология фанининг жонкуяр-фидойилари А.Қаюмов билан елкама-елка туриб, Ўзбекистонда битигшунослар плеядасини етиштиришга кўмаклашдилар, ёш ўзбек олимларининг илмий ишларига раҳбарлик қилдилар. Хусусан, Г. Айдаров менинг номзодлик диссертациямга илмий раҳбар этиб тайинланди. А.Аманжолов, И.В. Стеблева, И.Л. Кизласов бизнинг докторлик

диссертацияларимизга расмий оппонентлар сифатида қатнашдилар. Биз, ўзбек олимлари, илмий ишларимиз ана шундай таниқли олимларнинг назаридан ўтиб, юқори баҳоланганидан бениҳоя бахтиёрмиз. Буларнинг бари А. Қаюмовнинг саъй-ҳаракатлари, ташаббуси билан бўлди.

Ўша чоғларда Қўлёзмалар институтида аждодларимизнинг энг эски ёзувларини ўрганиш бўйича йирик илмий марказ шаклланди. Бу мактабнинг бошида А. Қаюмов турди.

А. Қаюмов ўз раҳбарлиги чоғида илмий муҳитни тутиб туришни ҳам билди, теварагида чинакам илмий муҳитни ярата олди. Биз А. Қаюмов бошчилигида ўтадиган илмий кенгашларни орзиқиб кутардик. Илмий кенгашларда ўткинчи нарсалар эмас, балки ўзбек илми, шарқ қўлёзмаларини ўрганиш, манбашунослик ва матншунослик учун муҳим саналган масалалар ҳал қилинар ва ҳар мажлисда бирор бир илмий маъруза тингланарди. Илмий кенгашнинг кенгайтирилган мажлисларига вақт-вақти билан ташқаридан келган йирик олимларнинг маърузалари ҳам киритилган. Қўлёзмалар институти-нинг илмий мажлислари билим ва тафаккурнинг ҳақиқий тантанасига айланар эди. А. Қаюмов бошқарган илмий мажлислар биз учун катта мактаб бўлди. Илмий кенгашларни уюштириш ва бошқариш маҳоратини А. Қаюмовдан ўрганмак керак.

Институтда турли саналар, классик ижодкорларнинг юбилейлари муносабати билан илмий конференциялар ўтказиб туриш анъанага айланган эди. Йирик илмий анжуманларнинг бир қанчаси аждодларимизнинг энг эски ёзма меросини ўрганишга ҳам аталганди. Ўрта Осиё халқларининг исломга қадар яратган ёзма ёдгорликлари, қадимги туркий битиглар, Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг”, Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғати-т-турк” асарларига бағишланган илмий анжуманлар кечагидай эсимизда турибди. Ушбу анжуманлар А. Қаюмовнинг ўзбек фанидаги улкан ютуқлари, энг кўҳна ёзма обидаларни ўрганиш соҳасидаги улуғ ишларининг натижаси, ҳисоботи сифатида ўтар эди.

А.Қаюмов “Девону луғати-т-турк” асарининг ҳам тадқиқот-чисидир. У Маҳмуд Кошғарий ўз асарида қадимги сўзлар маъносини очиқлаш учун келтирган туркий шеърларни ҳозирги ўзбек тилига моҳирлик билан, назмда ўгириб чиқди. Унинг ўгирмалари “Ўзбек адабиёти бўстони” туркумида чоп этилган “Қадимий ҳикматлар” китобига киритилган (Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. 59–88- б.).

2000 йили “Ёзувчи” нашриётида А. Қаюмов, М. Исҳоқов, А.Отаҳўжаев, Қ. Содиқов биргаликда ёзган “Қадимги ёзма ёдгорликлар” китоби чоп этилди. Унинг чоп этилиши ўзбек истореографиясининг катта ютуғи эди. Китобга кирган “Авесто” бўлимини А. Қаюмов ёзган (китобнинг 4-32-бетларида).

Ҳурматли устозимиз Азиз Қаюмов ўзбек илми ва унинг равнақига катта ҳисса қўшди.

Азиз Қаюмов Тошкент давлат университети шарқ факультетининг битирувчиларидан эди. У умрининг сўнгги йилларига қадар Тошкент давлат шарқшунослик институти билан яқин бўлди. Институт қошидаги ихтисослашган Илмий кенгашнинг аъзоси эди. Билим ўрганувчи ёшлар билан ўтадиган учрашувларга домлани тез-тез чорлаб турардик. У ўзининг мазмунли суҳбатлари, илмий маслаҳатлари билан ёшларга мадад бўлиб келди.

КОМИЛЛИК КАЛИТИ ЁХУД АЗИЗ ҚАЮМОВ ФЕНОМЕНИ ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

*Боқижон ТЎХЛИЕВ,
ТДШУ профессори, филология фанлари доктори*

Азиз Пўлатович Қаюмов мамлакат ва миллат тарихидаги энг ардоқли инсонлардан бири эди. У кишининг ҳаёти, ижоди, илмий, ижтимоий фаолияти ҳақида оддий одамларнинг ниҳоятда катта гуруҳи ҳам яхши таассуротга эга. Ўтироф этиш жоизки, устозни академик сифатида бутун мамлакат шахсан танир эди.

Устоз замондошлар қалбини буюк қомусий олимларга хос бўлган серқирра ижоди билан забт этган. Қолаверса, илм-фан ютуқларини оммавий ахборот воситалари, хусусан, газета ва журналларда, айниқса, радио ва телевидения воситасидаги фаол тарғиботчилиги уни юртимизнинг энг чекка ҳудудларида ҳам таниқли ва машҳур бўлишида муҳим омиллар бўлган бўлса, ажаб эмас. Бизнинг кўз олдимизда устоз том маънодаги комил инсон бўлиб гавдаланар эди.

Улардаги асосий фазилатларни энг ихчам тарзда санаганда ҳам узун рўйхатдан чекинишга йўл тополмай қолади, киши. Назаримда, энг ихчам тавсиф шундай бўлиши мумкин: ўткир ақл, қизиқиш доираларининг кўз илғамас даражадаги кенглиги, одам ва оламга оид ҳодисалар моҳиятини англаш ва ҳис этишдаги теран мушоҳадакорлик,

хотира қувватининг фавқуллода юксак даражаси, масъулият ҳиссининг кемтиксиз яхлитлиги, ҳар қандай вазиятда ҳам мумкин бўлган энг қисқа ва тўғри йўлни кўриш ва кўрсата олиш имкони, талабчанлик ва меҳрнинг табиий омукталиги, фанга, илмга, адабиёт ва санъатга муҳаббатнинг туғма ва баркамол шакли... Ва албатта, ҳар қандай ҳолатда ҳам янги ва эзгу ишларга суҳбатдошининг рағбатини уйғота олиш лаёқати.

Устоз содда ва табиий, самимий инсон эдилар. Аммо бу соддалик ўзларига жуда-жуда ярашиб турар, мана шу соддаликларида уларнинг бор фазилатлари, салоҳияти, иқтидори, буюклиги, улуғворлиги, меҳру муруввати ҳам тўла мужассам эди. Ўрни келганида, айтиш жоизки, бу табиий самимият ва соддалик устознинг ташқи кўринишларидан бошлаб иш маромига, ҳаёт тарзига бир хилда эди.

Домланинг қизиқиш доираларига қараб ҳайратингиз ортади. Устоз энг қадимги обидалар ҳақида кўплаб мақолалар ёзган. Улар орасида “Авесто”, Ўрхун-Энасой обидалари, “Девону луғот ит-турк” ҳақидаги, буюк алломаларимиз ҳақидаги мақолалар салмоқли ўрин тутди. Уларнинг битта намунаси бўлган “Қадимият обидалари”¹ китобини биз талабалик пайтида қўлга олганмиз.

У киши рус ва хорижий ориенталистика – шарқшунослик илмининг йирик дарғалари ҳақида соатлаб суҳбат қилиб бериши мумкин эди. Биз Аҳмад Фарғоний, Форобий, Беруний ва Ибн Синонинг ҳаёти ва ижоди ҳақидаги кўплаб факт ва материалларни домланинг нутқ ва маърузаларидан эшитганмиз. Домланинг “Қадимият обидалари” китоби ҳавасимизни келтирган. Устознинг китобларини варақлаб туриб, у кишининг назари тушмаган бирор мумтоз адабиётмиз вакили йўқ”, – дегинг келади.

Навоийшунослик устознинг диққат марказидан ҳеч қачон силжиган эмас. Бу борадаги илмий ишлар силсиласи нақадар узун ва бардавом бўлса, оммавий руҳдаги ишлар ҳам шунчалик салмоқли. Устоз Алишер Навоий ҳаёти ва ижодининг энг толмас тадқиқотчиси ва тарғиботчиси бўлганлар. Илк марта “Машҳур кишилар ҳаёти” сериясида Алишер Навоий ҳақидаги ажойиб монографияни яратган. Унинг бир афзал томони бор: китоб худди бадиий асар сингари енгил ва осон ўқилади.

¹ А.Қаюмов. Қадимият обидалари. Т. 1972, с

Навоий ҳақидаги асарларнинг умумий салмоғи ниҳоятда катта. Улардаги илмий мушоҳадаларнинг залвори ҳайратланарли. “Ҳамса” дostonларининг таҳлили эса бугунгача ҳам муносиб намуна сифатида ўз вазифасини шараф билан адо этиб келаётир.

“Насойим ул-муҳаббат”нинг илк жиддий таҳлили ҳам олим қаламига мансуб. Навоийнинг тарихий асарларини Азиз Қаюмов талқинида ўқиганлар бу ишларнинг қадрини яхши билишади. Умуман, устоз мутафаккир адиб қўйган сарлавҳадан тортиб уларнинг хотималаригача бўлган ораликдаги барча қисмларига ниҳоятда ўткир кўз ва зукко ақл билан қараганлар. Устознинг тафаккур тарзи, ифода йўсини, моҳиятни ёритиб беришдаги кучли мантиқ ва содда.енгил сўзларни танлаш иқтидори китобхон учун энг қийин адабий-эстетик ҳодисаларни ҳам қулай ва ёқимли тарзда “ҳазм қилиш” имконини беради.

Буларнинг барчаси эса ниҳоятда катта куч ва ғайратни, билим ва иштиёқни ўзида мужассамлаштирган алоҳида бир инсонда намоён бўлишининг олий намунасидир. Устоздаги комилликнинг асл калити ҳам мана шуларда бўлса ажаб эмас.

Домла янгиликлар ичида яшашни хуш кўрарди. Шунинг учун ҳам мен домлани бутун умрлари давомида китобдан айро тушган лаҳзаларини тасаввур эта олмайман. Қўлёзмалар институти директори лавозимида бўлишига қарамасдан, устоз янги китобларнинг илк тавсифи – дастлабки маълумотларни ёзиш билан шуғулланаверар эдилар. Домланинг иш столи устида ҳар куни фондга янги қабул қилинган қўлёзма ёки тошбосмаларнинг илк тавсифи учун мўлжалланган бир неча нусхалар келтириб қўйилар эди. Бу вазифалар Б.Қосимхонов ёки А.Шокировлар томонидан ўрнига қўйилар эди.

Айни пайтда, домла Ўзбекистоннинг, ўзбек олимларининг туркийшунослик йўналиши бўйича жаҳонда етакчи мавқега чиқиши зарурлиги ҳақида кўп гапирар эдилар. Бу қуруқ гаплардангина иборат тарғибот ёки ўй-орзулар эмас эди. Ўша пайтларда домла том маъноси билан Ўзбекистондаги туркийшунослик йўналишининг пойдеворини мустаҳкамлаш билан шуғулландилар. Собиқ Иттифокда кўзга кўринган мутахассисларни Қўлёзмалар институтига таклиф этиш, йирик олий ўқув юртлари ёки ЎзР ФА институтларига маъруза учун келган нодир мутахассислар билан учрашув ва суҳбатларнинг ташкил этилиши тасодифий эмас эди.

Булар каторида дунё эътирофидаги туркийшунос олим Губайдулла Айдаровнинг ўтган асрнинг саксонинчи йилларида институтга таклиф этилиши алоҳида воқеа бўлган эди. Бу йирик олим бу ерда устоз ташаббуси билан махсус курс ташкил этиб, қизиқувчи ходимлар учун қадимги туркий тил илми (Ўрхун-Энасой обидалари ёзуви ва тили)дан сабоқлар берган.

Худди шу ҳолатни яна бир йирик туркийшунос олима Ия Васильевна Стеблеванинг ташрифи билан боғлиқ ҳолда ҳам эслаш жоиз. Бундай йирик олимлар билан учрашув ва суҳбатлар, ёшлар учун ижодий байрам бўлган эди. Уларнинг таъсир ва раҳбарликларида кўплаб мутахассисларнинг шу соҳада бутун номдор олимлар сифатида туриши бежиз эмас. Хусусан, бугун қадимий обидалар бўйича номлари мамлакатимиздан ташқарида ҳам кенг эътироф этиладиган профессорлар: Мирсодиқ Исҳоқов, Насимхон Раҳмонов, Қосимжон Содиков, Боқижон Тўхлиев, Шомирза Турдимовлар мана шу мактабнинг қалдирғочлари эди.

Мен биринчи марта Қўлёмалар институти илмий минбарида туриб нутқ сўзлаганимни яхши эслайман (бу салкам ярим аср олдинги гап). Ўшанда мен Ўзбекистон давлат (ҳозирги Миллий) кутубхонасининг нодир китоблар бўлимида илмий ходим эдим. Дўстларнинг шарофати билан Ҳамид Сулаймонов номидаги Қўлёмалар институтида ташкил этилаётган илмий анжумандан хабардор бўлиб унга бир маъруза матнини етказдим. Анжуман куни ўша маърузамни ўқиб бердим. Маъруза “Қутадғу билиг”даги ташбиҳлар ҳақида эди.

Анжуман охирида домла мени хоналарига таклиф этдилар. Устоз билан илк суҳбат анчагина давом этди. Натижа шу бўлдики, менинг бундан кейинги фаолиятим бевосита Қўлёмалар институти билан боғланадиган бўлди.

Шундан кейинги даврлар устоз билан бизни бир умрга яқинлаштирди. Биз тақдирнинг иноятидан миннатдормиз. Зеро, домла билан ҳар галги учрашув ва суҳбатлар бизга янги ва яхши ишларни режалаштириш ва амалга ошириши учун қўшимча куч бағишларди.

Устозда кишини сафарбарликка ундайдиган, ўз кучи ва имкониятига ишончини кучайтирадиган ва руҳлантирадиган нодир бир хислат бўларди. Ҳар галги суҳбатдан кейин мана шундай ёқимли ва ижодий руҳ билан чиқардик устоз хонасидан.

Устоз мисоллар билан гапиришни хуш кўрарди. Мисолларнинг асосий қисми ҳаёт билан, домлани қуршаб турган илм-фан оламига дахлдор бўлган шахслар билан боғлиқ бўлса, уларнинг салмоқли қисми Алишер Навоийнинг ҳаёти ва ижоди билан алоқадор бўлар эди. Домла салбий мазмун ташийдиган мисолларни деярли қўлламас, агар бунга зарурат бўлса, мисоллар мумтоз адабиёт намуналарига қараб кўчар эди.

Алоҳида таъкидлаш жоизки, биз Алишер Навоий ҳикматларининг асосий қисмини Устознинг тилларидан эшитганмиз. Шахсан мен, домла билан бўлиб ўтган суҳбатлармизнинг бирортасида Алишер Навойдан ҳеч бўлмаганида битта байт айтилмаганини эслай олмайман.

Бизнинг назаримизда, Устоз Алишер Навоийнинг бутун ижодини ёддан билар эди. Мисолларнинг асосий қисми “Ҳамса” дostonларидан бўлар эди. Улар орасида ҳам иккита дoston, дастлабки “Ҳайрат ул-аброр” ҳамда якунловчи “Садди Искандарий” ҳикматларига мурожаатлар кўпроқ бўлган. Буни биз кейинчалик бу дostonларни қайта-қайта ўқиш жараёнида билиб олганмиз. Айни пайтда “Ҳазойин ул-маъоний”нинг тўрт девони намуналари ҳам бу суҳбатларнинг алоҳида беақалари бўлгани кечагидек ёдимизда. “Маҳбуб ул-қулуб” ҳикматларига меҳр ҳам бизда кўпроқ устоз суҳбатлари шарофати билан шаклланган.

Албатта, улар бежиз келтирилмас, ҳар бир мисра, байт ёки банднинг суҳбатимиз мавзусига бевосита дахлдорлиги очик кўриниб турарди. Бизнинг ҳайратимизни оширган томони шу эдики, ўша суҳбатдаги ҳаётий вазиятга мос ва муносиб бўлган Алишер Навоий шеърӣ дурдоналари домланинг ҳаёлига муносиб тарзда келиб “навбат кутиб тургани” эди.

Ҳақиқӣ олимлар ўз мактабига эга бўлишади. Фавқулодда истеъдод эгаларигина бир неча мактаблари бўлиши мумкин (аммо ҳар соҳани бир “чўқиб ўтадиганлар” бу сирага қирмайди). Азиз Қаюмов мана шу силсиладаги зарҳал ҳалқалардан бирини ташкил этади.

Алишер Навоийдан кейин яшаган ижодкорлар қаламига мансуб асарларнинг асосий қисми ҳам домланинг назарига тушган. Бобур ва бобурийлар силсиласи, Шайбонийхон, Мунис ва Огаҳийлар ижодининг тадқиқи бунинг ёрқин мисоли бўла олади.

У кишининг Қўқон адабий муҳитини ўрганиш заминида шу йўналишдаги мактабнинг асосчиси ҳам бўлганларини мутахассислар яхши билишади. Ҳозик, Ғозий, Амирий, Фазлий, Увайсий, Маҳзуна, Маъдан... сингари адибларнинг ижодлари илк маротаба устоз талқини ва таҳлилида берилган.

Ушбу илмий ишлар давомида қадимги адабиёт ва фольклор мавзусини, бу йўналишга дахлдор бўлган кўплаб факт ва материалларнинг тўпловчиси ва тадқиқотчиси бўлганларини ҳам эсга олиш жоиз.

Устоз Азиз Қаюмовнинг жисми бугун орамизда йўқ. Аммо у кишининг руҳи ҳамиша барҳаёт. У кишининг ёрқин сиймолари ўнлаб, юзлаб, минглаб ва миллионлаб ўзбекларнинг, ўзбекистонликларнинг хотираларида сақланади. Шогирдлар давом эттираётган илмий-ижодий ишлар эса у кишининг маънавий умрларининг муносиб давомчилари сифатида улар ҳақидаги хотираларни ҳам асрлардан асрларга ошиб ўтиши учун муҳим манба ва омил вазифасини адо этаверади.

АСЛО ЎЧМАС ЯХШИЛАР ЁДИ

*Қудратулла ОМОНОВ,
ТДШУ профессори, филология фанлари доктори*

Ўзбек илмининг жонкуяри, фидоий олим, мумтоз ўзбек адабиётининг улкан тадқиқотчиси, дунёга танилган навоийшунос, манбашунос, шарқшуносларнинг азиз ҳамда ҳурматли устози Азизхон Қаюмов ҳақида сўз борганда у киши асос солган илмий мактабнинг толиби бўлганимдан фахр туяман. Боиси у кишининг фан соҳасида олиб борган илмий ишлари ўзбек фани, адабиётшунослиги, айниқса, навоийшунослик ва унинг такомилига бетакрор ҳисса бўлиб қўшилди.

Азизхон Қаюмов илмий мактабида етишиб чиққан мутахассислар ва шогирдлар фанимиз равнақи йўлида айнаи чоғларда турли соҳаларда меҳнат қилмоқда.

1995 йининг апрель ойлари. Биз Тошкент давлат университети битирувчи курс талабалари диплом ишни ёзиш ва уни якунига етказиш ишлари билан югуриб-йилиб юрибмиз. Мени мавзуим эски туркий тилда битилган ҳужжатларнинг тарихий-филологик таҳлилига бағишланган. Диплом иши раҳбарим профессор Қосимжон Содиков. Домла бизга – университет талабаларига дарс ўтиш билан бирга асосий иш жойлари Ҳамид Сулаймонов номидаги Қўлёзмалар институтида фаолият юритар эди. Диплом иши бўйича йиққан ва ёзган материалларни кўрсатиб туриш мақсадида домланинг ишхонаси – Қўлёзмалар институтига тез-тез бориб турар эдим. Домла ёзиб келган тадқиқотимни пешма-пеш кўриб бериб, маслаҳатларини аямас эди. Шундай кунларнинг бирида, тадқиқот ишини кўриб бериш асносида сўриб қолдилар: “Ўқишни тугатиб нима иш қилмоқчисиз?”. Мен ўйланиб ҳанузгача аниқ қарорга келмаганимни айтдим. Шунда домла: “Агар истасангиз, мана шу институтга ишга келишингиз мумкин. Мен институт директори Азиз Қаюмов билан гаплашиб кўраман” деб қолдилар. Мен ўйланмасдан рози бўлдим.

Қосимжон аканинг олдида кейинги келишимда тўсатдан директорнинг олдида кириб чиқамиз, деб қолдилар. Мен мамлакатга доврўғи кетган, улкан олимни мени қабул қилишини ҳам тасаввуримга сиғдира олмай турганимда, домла “кетдик” дедилар. Минг ҳаяжон билан қандай қилиб иккинчи қаватдан биринчи қаватга тушганимни ҳам, баланд эшикни олдида келиб қолганимни ҳам билмайман. Эшикка ёзиб қўйилган “қабулхона” тахтачасидан кейингина Азиз Қаюмов хонаси олдида эканимни тушуниб етдим. Домла котиба қиздан директор олдида киришлари мумкинми ёки йўқлигини сўраганларида, мени ҳаяжон чўлғади. Домла “юринг ортимдан” деб ичкарига бошладилар. Кенг, катта хона стол ва стуллар қўйиб ташланган. Тўрида институт директори Азизхон Қаюмов ўтирган эканлар. Қосимжон келинг ўтиринг, шогирд йигитми деб жилмайдилар. Домланинг жилмайиши содда ва беғубор эди. Мендаги ҳаяжон ва кўрқув бир пасда тарқалди. Қосимжон ака секин гап бошладилар: “Сизга айтган шогирдим, шу йигит. Қадимиятга анча кириб қолди”. Азизхон Қаюмов менга қараб: “қадимги уйғур ёзувини ўқий оласизми” деб сўрадилар. Мен “ҳа” дейишим билан: “домлангиз Қосимжонни институтга уйғур ёзувли ёдгорликларни ўрганиш учун олганмиз. Бу соҳа биз учун жуда муҳим. Биз сизни ўқишни

тугатишингиз билан ишга оламиз. Ҳозирча деканатингизга ишга олишимиз тўғрисида маълумотнома тайёрлаб бериб турамиз” деб гапни тугатдилар. Шунинг билан биз домла қабулидан чиқдик. Ўша куниёқ Азизхон Қаюмов имзоси туширилган ишга олиши тўғрисидаги маълумотномани олиб университетга факультетга “қуш бўлиб учдим”. Ўша дамларда мендан бахтли одам йўқ эди.

1995 йилнинг Август ойидан Ҳамид Сулаймонов номидаги Қўлёзмалар институтида лаборант вазифасида иш бошладим. Директоримиз Азизхон Қаюмов институтда илмий иш олиб бораётган ёшлардан тез-тез хабар олар, уларнинг илмий тадқиқотлар қандай бораётгани билан қизиқар эди. Бундан ташқари ёшларни бирга тўплаб ўзи учрашувлар ташкил этар ҳамда ҳар биримиздан тадқиқоти ҳақида эринмасдан эшитар эди. Ана шундай учрашувларнинг бирида гал менга келганда диссертацияни ёзиш жараёнида ўзимизга қадар амалга оширилган ишларни танқид қилиб, уларни эскирган дея, муносабат билдирдим. Шунда Азиз Пўлатович биз сингари бошловчи тадқиқотчиларга қарата: “Тадқиқотда илмий ишларни танқид қилиш йўлидан борманглар, боридек кўрсатинглар. Баҳони ўқувчининг ўзи берсин. Чунки, ёзилган ва эълон қилинган ҳар қандай тадқиқотни вақти келиб, тафтиш қиладиган авлод, албатта келади. Шунинг учун фақат таҳлил йўлидан боринглар” дегандилар. Орадан кўп ўтмай домланинг ўзлари илмий ишим ҳимоясида Ҳимоя кенгаши мажлисида раислик қилиб, тадқиқотимни ниҳоятда яхши баҳолаб кейинги ишларда оқ йўл тилаган эдилар.

Орадан бир оз фурсат ўтиб мен ўз илмий ва иш фаолиятимни Шарқшунослик олийгоҳи билан боғлаганимда домлани кўп ўғитлари иш жараёнида қўл келган. Университетда Шарқ филологияси факультетида деканлик қилган чоғларим Азизхон Қаюмовни кўп маротаба талабалар билан учрашувга таклиф этган эдим. Домла ҳеч қачон йўқ демас эдилар. Шарқ факультетининг илк битирувчиларидан бўлганликлари учун ўзларини бизнинг олий ўқув юртимизга ниҳоятда яқин тутар эдилар. У кишининг талабаларимиз билан кўплаб ўтказган қизиқарли, мароқли суҳбатлари, хотиралари талабаларимизнинг эсида. Бунинг сингари суҳбатлар етук шарқшунослар етиштиришда бизга доимо қўл келган.

Айниқса, домланинг “Шарқ факультетида” номли рисоалари шарқшунослик университети талабаларининг энг сеvimли китобларидан бирига айланган. Ушбу китобда шарқ факультетида ўтган талабалик йиллари, тенгдошлари, олим сифатида шаклланиш

йўллари баён қилинган. Бугунги шарқшунос ёшларнинг ҳам соҳага бўлган қизиқишини ошишига ушбу рисола ни ёрдами катта бўлмоқда.

МАЪРИФАТПАРВАР СИЙМОЛИ ШАХС

*Эркин АХУНЖОНОВ,
ТДШУ профессори, тарих фанлари доктори*

Ҳаётда ўзининг илиқлиги, меҳрибонлиги ва яхши муомуласи билан ҳаётим давомида елкадош яхши инсонларни топиш менга доим насиб этган. Уларнинг сони кўп ва бу инсонлар орасида ҳаётим ва тадқиқотчилик фаолиятимда муҳим ўрин тутган инсон Азиз Пўлатович Қаюмов сиймоси алоҳида ажралиб туради. 1969-йилнинг март ойида Москвада улар билан танишганман. Ўша вақтда мен талаба, улар эса Ўзбекистон Давлат кинематография вазири лавозимида эдилар ва Москвада хизмат сафари билан келган эдилар. Улар қирқ уч ёшлардаги, бақувват қадди-қомати келишган одам эди.

Бир сафар тор доирада ўтирганимизда, уруғим, боболарим, ота-онам ва ўқишларим ҳақида сўради. Келажакда мени журналист, муҳаррир, ношир, каби соҳаларнинг моҳир мутахассиси бўлишни таклиф қилиди ва бу соҳалар истиқболли соҳалар сифатида республикада муносиб ўрин эгаллаётганини таъкидлади.

Устоз билан иккинчи учрашувим 1977-йил март ойида бўлиб ўтди. Ўша йили маданият институти ректори сифатида мени кутубхоначилик факультетига ўқитувчи сифатида ишга қабул қилдилар. Диссертация ҳимояси 1977-йил 7-июнга белгиланган ва апрел ойида Москвада бўлишим керак эди. Мен жудаям бахтиёр эдим, ота-онам эса, Азиз Пўлатовичга кўнглидаги барча эзгу ниятларни тилаб қолишди.

Кейинроқ, мен Азиз Пўлатович билан қўлёзмалар институтида ишладим. Ўша пайтларда (1980-1982 йилларда) рафиқам Москва давлат университетининг кундузги бўлимида аспирантурада ўқир, мен эса йилига бир-икки маротабагина улардан хабар олишга бора олар эдим. Шундай пайтларда, оталарча меҳрибонлик билан Москвага шу сўзлар билан кузатиб қўярди: “Эр ва хотин узоқ вақт ажралмаслиги керак, айниқса ўғлингиз ўсиб улғаяётган пайтда хабар олиб туриш

зарур”. Бу каби ўғитлари учун Азиз Пўлатовичдан бутун оиламиз билан миннатдормиз, уларнинг хотирасини доим қадрлаймиз.

1978-йил ёзида қўлёзма ва литографикага бағишланган илмий тадқиқот ишим – биринчи китобим нашр этилгандан сўнг, Азиз Пўлатович олдиға чақириб янги катта вазифани юклади: “Ўқув режамизда, – деди у, “Китобат тарихи” фани киритилган. Талабаларимиз ўрганишда фойдаланаётган Москва муаллифлари қўлланмасида Ғарбий Европа мамлакатлари ва Россиянинг китоб маданияти тарихи ёритилган. Бизга Марказий Осиё ва Ўзбекистон бўйича дарслик керак. Сиз тадқиқот муаллифи сифатида Ўзбекистон китоботининг XX-аср тарихи, Ўрта Осиё минтақаси ва Қозоғистон китобот маданиятининг 2,5 минг йиллик тарихини ўрганишингиз лозим” – деди. Бу бир неча ўнлаб номзодлик ва докторлик диссертациялари учун муҳим мавзу бўлиб бу ишни дарҳол бошлашимни таъкидлади. Ойда бир марта учрашиб, иш жараёнини муҳокама қиламиз. Бир сафар шундай деди: “Маслаҳатим шуки, эрта тонгда янги фикрларни тўплаб, ўйлаш осон бўлган вақт соат 4-5 дан бошлаб ишланг ва илмий ишлар ёзинг ва кун давомида маълумотлар тўпланг, келгуси фасллар ва боблар ҳақида ўйланг. Кечки соат 21-10 дан кечиктирмасдан ухлашга ётинг”. 1979-йил сентябрь ойида Азиз Пўлатович Фанлар академияси Қўлёзмалар институти директори этиб тайинланди ва ўша йилнинг сентябрида мени ўз олдиға чақирди, у ерда илк кунларданок тарихни қайта тиклаш каби кенг мавзу билан шуғуллана бошладим. Хусусан, илк ёзувлар, қўлёзма ва тошбосма китоблар, китобат санъати, кутубхоначилик тарихи, библиография каби соҳалар билан шуғулландим. 1985-йилда Маданият институтига қайтганимдан сўнг ҳам мавзу устида ишлаш ва Азиз Пўлатович билан маслаҳатлашувлар давом этди. Бизнинг натижаларимиз Азиз Пўлатовичга мавзуга оид бир қанча дарслик ва монографик тадқиқотлар илмий жамоатчилик ва ўқув фаолиятга маълум қилинди.

Азиз Пўлатовичга бўлган чексиз меҳр ва ҳурматим сабаб, уларнинг вақтини, соғлиғини, кучини тежаш учун ортиқча безовта қилмасликка ҳаракат қилдим. Аммо қийин кунларида доимо ёнида бўлишга интилдим. У уйда ишхонасидан бутунлай бошқача эди. У меҳрибон, оталарча ғамхўрлик қилар, дастурхонга ҳар доим мазалироқ егулик қўйишга ҳаракат қиларди.

У, айниқса, қандай ҳазил қилишни билар ва бошқаларнинг ҳазилини қадрлар эди!

Баъзида у суҳбатдошларини шу даражага солар эдики кулгидан ғайритабиий шивир-шивирларга ва ғўнғирлашларга ўтишарди,

кулгидан деярли ўриндиқларидан йиқилиб тушишарди. Ўзининг бир юз ифодаси ёки кулгили сўзи билан атрофидагиларнинг кулгусини уч ёки тўрт ҳатто беш барабар таъсирлантирар эди. Аския Азиз Пўлатовичнинг севимли услуби эди! У ҳазиллар, кулгисиз ҳаётини тасаввур қила олмас эди. Ҳар қандай оммавий нутқ ёки ҳамкасблар ўртасидаги жиддий суҳбат пайтида у доимо ҳазил учун фурсат топарди. Аскиядаги пайров каби ҳазилга ҳозиржавоблик ака-ука Азиз ва Лазиз Қаюмовларнинг қонига сингиб кетган ва улар ўзларини сувдаги балиқдек ҳис қилишарди. Мени Москвада устоз билан таништирган танишларимнинг айтишича, янги йил базимларидан бирида юқори мартабали раҳбарлар билан бирга қандай нишонлаганликлари, ҳаётий ҳазиллар, латифалар борлигини айтиб беришди. Шарқ ва Ғарб халқлари, одамлар дуч келадиган кулгили ҳаётий вазиятлар ҳақида нозик ҳазиллар билан навбат билан сўз олган ака-ука тандеми ҳеч кимга дастурхон атрофида қадди-қоматини қад кўтариб ўтиришга бир онга ҳам имкон қолдиришмасди. Янги йил арафасида соат 22:00 дан 4:00 гача бутун ҳамкасблар бу икки ижодкор инсонлар “сеҳри” остида қолишар эди.

Психологияга оид илмий-оммабоп китоблардан бирида Азиз Пўлатович шахснинг бу тури “синтоник пикник” (ҳаётни севувчи, жонли, дунёвий одам) деб таърифланади. Айни пайтда нафис, нутқи ифодали интонацияларга бой. Бу каби инсонларга хос бўлган энг юқори даражадаги эмпатия (ҳиссиёт, эмпатияси) Азиз Пўлатовичга ҳатто бегоналар билан ҳам ҳайратланарли даражада осон мулоқот қилиш имконини берарди ва бир-бирини тушунишлари учун ҳеч қандай тараддуд қилинмас эди.

Шу билан бирга, бу олим билан мулоқотда, суҳбатдошда юзакилик қолмас, муаммоларингизга чин дилдан қайғулар, суҳбатдошнинг ҳар қандай ташвишлари ва тажрибасини баҳам кўрар ва ташвишларингиз ҳақида бажонидил гаплашар, таниш ёки нотаниш бўлишидан қатъй назар суҳбатдошини жуда яхши тушунарди.

У ҳаётни севувчи, дунё одами эди. Уни ҳамма танир, у ҳам ҳаммани танир эди, маслаҳати билан ҳам, амали билан ҳам ёрдам беришга доим тайёр, ишончли, инсонпарвар ва суяниш мумкин бўлган инсон эди. Қачон ва қайси пайтда нима қилиш лозимлигини англаб, тез фурсат ичида бир вазифадан иккинчисига ўта оладиган уддабурон ташкилотчи.

Оқил ва истеъдодли шахс сифатида Азиз Пўлатович ҳамма соҳада юксак маҳорат эгаси эди: депутат сифатида давлат ишларини олиб

бориш, ўзбек адабиёти тарихини ёзиш, буюк Алишер Навоий ва Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижодий меросини ўрганиш, Қўқон адабиётининг XVIII-XIX-асрлар муҳити шоирларини ўрганиш, гуманитар мавзуларда турли илмий асарлар яратиш, республикада фан ва илмий тадқиқотларни ташкил этиш, илмий жамоаларга раҳбарлик қилиш, Партия қўмитаси, тил ва адабиёт институти, Шарқшунослик қўлёзмалар институти, Олий таълим–Маданият институтини бошқаришда бўладими барча соҳаларда истеъдодли эди. Давлат кинематография қўмитасида фаолиятида ҳам ўз ўрнига, ўз сўзига эга эди. У вазирликдаги фаолияти тугасада Давлат кинематография соҳасида ҳеч қачон ажралмаган. У умрининг охиригача Кенгаш аъзоси бўлган, энг йирик кинорежиссёр Шухрат Аббосов, бошқа режиссёр ва сценарий муаллифлари билан дўст бўлган. Фанлар академияси қошидаги Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институтида диссертациялар ҳимоя кенгашининг у энг қадрли ва энг суюкли аъзоси эди.

Унинг қўлидан ва илмий раҳбарлигидан юзлаб яхши олимлар етишиб чиқди.

Азиз Пўлатович қаерда ишламасин, чинакам ижод муҳитини яратди. У шахсий намунаси билан одамларга изланиш, узлуксиз илмий юксалиш руҳини сингдирди. Жумладан, Қўлёзмалар институтида ишлаган даврида (1979-1988 йй) у Республикада янги илмий йўналишлар сўғдология, қадимий ёзма ёдгорликлар палеографияси, туркология, уйғур ёзуви ёзма ёдгорликлари, тарих ва назария каби илмий-тадқиқот гуруҳларини тузди. Ёзув (грамматология), библиология ва китоб маданияти тарихи, ўрта асрлар терминологияси ва типологияси, араб, форс ва туркий тиллардаги ўрта аср ёзма ёдгорликларининг манбашунослиги ва матншунослиги, тилшунослик, герменевтика, адабиёт тарихи манбашунослиги, тарих Ўрта асрлар антологиялари (тазкиралари), Шарқ ва Ғарб ўртасидаги маданий-адабий алоқалар, шунингдек, адабиёт тарихи, адабиётшунослик, кодикология каби шаклланган фанларнинг масалаларини ривожлантириш, албатта, шарқ қўлёзмаларини тавсифлаш бўйича узлуксиз ишлар олиб борди. Тошбосма китоблар, уларнинг каталогларини тузиш ва нашр этиш, натижада ўнлаб янги китоблар, диссертациялар, илмий янгиликлар ва кашфиётлар дунё юзини кўрди.

Азиз Пўлатович нафақат давлатимизнинг илмий ҳаётида ўзининг бетакрор изини қолдирди. Унинг ижодий асарлари китоблар тарзида халқнинг зеҳнида мустаҳкам ўрин олди. У ўз фаолиятида ҳамиша давлат ва халқ манфаатларини биринчи ўринга қўйган, одамларда

одобни, олижанобликни, ақл-заковатни, ўзининг ва ўзганинг камчилигига кула билишни, барчани қадрлашни, одамлар ўртасидаги баъзи эски феодал муносабатларнинг қолдиқлари ва кўринишларидан нафратларди. 80-йилларнинг охиридан бери фан доктори, академикликнинг маоши билан яшади, Ҳалол луқма билан яшади. У ажойиб оптимист эди, ҳаётни барча кўринишларида севди, оилавий қадриятларни ҳурмат қилди, рафиқаси Инесса Владимировна билан қарийб 70 йил давомида муҳаббат ва ҳамжиҳатликда яшади. У ҳаммага хайрихоҳлик билан муносабатда бўлди ва ҳамма унинг самимийлиги эвазига уни яхши кўрар эди. У мажозий муҳаббатни жуда эъзозлаган. Азиз Пўлатович инсон руҳини жунбушга келтира оладиган феъл-атвор соҳиби, ярим феодал ва майда буржуа хурофотларини мутлақ рад этган, ҳар хил қийинчиликлардан тап тормас улуг бир сиймо эди. У ўз атрофидаги мафкуравий тўсиқларга қарамасдан соф ва ёрқин муҳит яратди, чинакам миллий ўзбек жамоат арбоби – жадинлар анъаналарининг инсонпарварлик соҳасидаги содиқ давомчиси бўлди.

TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK

HOZIRGI XITOIY TILIDA (快板儿) JANRI HAQIDA

Aziza UMAROVA

TDSHU, Xitoyshunoslik fakulteti 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: PhD, v.b. dotsent L.A. Sultanova

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi xitoy tilida hajviy diskursning ya'ni 快板儿 janrining kelib chiqishi va hozirgi kundagi o'rni haqida ma'lumot berilgan bo'lib, uning mohiyati keng tushuntirilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Kuaiban, janr, komik rechitativ, hajviy tarannum, satirik, syanshen, allegro, jestikulyatsiya, shulaybao, shunkoulyu, lyanszitszuy, lyukouchje.

Ma'lum bir tilni o'rgangach, uning tarixi, madaniyati, ayniqsa, adabiyoti va san'atini o'rganish muhim sanaladi. Shu bilan birga, ushbu xalqning ilmiy va madaniy rivojlanishi, xalq yozuvchilarning asarlari, she'riyati, hajviyalari va maishiy hayoti haqida ham habardor bo'lishi shartdir. Zamonaviy xitoyning qadimgi davr she'riyati va hajviyatining taranumining rivojlanishi, she'riyati, aholi orasidagi qofiyali dialoglari va musiqa asbobidan foydalanishi va xalq orasidagi chiqishlarni kishini e'tiboridan chetda qolmaydi. "Kuayban" xitoy san'atining yorqin namunalaridan hisoblanadi.

"Kuayban" komik rechitativ\hajviy tarannumi. Kuayban komik chiqishlarning shaqildoqqa o'xshash musiqa asbobi jo'rligida ohangga solib ijro etiladigan xitoy estrada janridir. "Kuayban" so'zi ikki iyeroglifdan iborat (快板): "tez" va "yog'och", mazkur nomdagi musiqa asbobi bir nechta bog'langan yog'och taxtachalar, buqa suyaklari va boshqa shu kabi buyumlardan iborat bo'ladi. Janrni tashkil qiluvchi belgilar. Kommunikativ maqsadi – ijtimoiy voqealarni ovoza qilish, tashviqot, madh qilish, hajviy yoritish yohud oddiy vaqtichog'lik. Shu sababli kuaybanlarga yumoristik, ironik, ba'zi hollarda esa satirik yoki sarkastik ohanglar xos bo'lishi mumkin. Kuaybanlar sahna asarlari sifatida o'z muallifi va nomiga ega; reklama kuaybanlarining muallifligi atayin qayd etilmaydi. Kuaybanlar og'zaki shaklda mavjud: maksimal komik effektga erishish uchun aktyorlarning o'yinini ko'rish yoki ularning ovozlarini hech bo'lmasa musiqa jo'rligida tinglash zarur. Mazkur janrdagi komik effektни beruvchi usullarning barchasini ham qog'ozda aks ettirib bo'lmaydi. Kuaybanlar

syanshenlar kabi monolog, dialog yoki polilog shaklida bo‘lishi mumkin; har bir aktyor uchun chiqish matnlari quyidagi tamoyillarga asosan oldindan yoziladi: 1) g‘oyaning mavjudligi; 2) yaxlitligi (mavzu va syujet bor, hikoya rivoji tuzilgan va o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan personajlar mavjud); 3) tugallanganlik; 4) emotivlik; 5) bayon etishning qisqaligi; 6) fikrning bevosita bayoni (mavzuga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tish tamoyilining mavjudligi); 7) personajlar almashinuvining ravonligi; 8) musiqa jo‘rligi; 9) qofiya; 10) marom¹. Namoyish joyi odatda an’anaviy tarzda “kuayban” tomoshalari “syanshen” tomoshalari kabi choyxona yoki ko‘cha maydonlarida o‘tkaziladi. Ayni kunlarimizda ularni konsert zallarida va televideniye orqali ham ko‘rish mumkin. Ko‘cha maydonlaridagi chiqishlar reklama iboralariga aylangan: Xitoyning hattoki yirik shaharlarida bir qo‘lida mahsulotga to‘la aravani sudrab, boshqa qo‘lida esa shaqildog‘ida usul berib mahsulotlarini sotib olishga chaqiruvchi qisqa qofiyalangan iboralarni aytib kelayotgan savdogarni uchratish mumkin. Ijro etuvchilar (adresantlar) va ishtirokchilarning jinsi va soni haqida aytadigan bo‘lsak, an’anaviy tarzda mazkur janrning aktyorlari erkaklar bo‘lgan, ammo hozirgi paytda ba’zan ayollar ham chiqishlarda ishtirok etmoqdalar. Odatda ushbu janrda monolog shakli qabul qilingan, biroq dialog va polilog shakllari ham yetarlicha keng tarqalgan. Bir polilogda odatda o‘ntadan ko‘p bo‘lmagan ishtirokchilar qatnashadilar. Tashqi ko‘rinishlari odatda “kuayban” janrida ishtirok etadigan aktyorlar syanshenchi aktyorlar kabi uzunligi yergacha bo‘lgan an’anaviy xitoy milliy liboslarini kiyadilar. Ba’zan boshqa kiyimda chiqish ham mumkin, biroq, agar gap sahna chiqishlari haqida ketsa, “kuayban” janrida syanshendani ko‘ra kiyimning kundalik shakli kamroq uchraydi. Kuaybanning reklama shakllariga kelsak, bu holatda kiyim shakli ahamiyatga ega emas. Odamlar kundalik kiyimlarida, ba’zida esa ancha kir ustiboshlarda bo‘lishlari ham mumkin. “Syanshen” janrida esa bunday holatga yo‘l qo‘yilmaydi. “Kuayban” janrida chiqishlarning o‘ziga xos belgisi – turli yog‘och shaqildoqlar kabi musiqa asboblaridan foydalanishdir. Kuaybanning reklama turlarida baland ovoz chiqaruvchi har qanday buyum bilan usul berib turilishi mumkin: tog‘ora, chelak, kastyulcha va boshqa buyumlarga tayoq bilan zarb berish orqali ijro etiladi. Ushbu janrda musiqiy jo‘rlik doimiydir, u asar matni va aktyor o‘yiniga mos kelishi lozim, bundan tashqari uchta vazifaga ega: tinglovchining diqqatini jalb qilish, usul berish, muayyan kayfiyat yaratish. Odatda yog‘och taxtachalar bilan urish usuli daqiqasiga 144-160 zarbni tashkil qiladi. Bu

¹ [朱光斗 , 1982, c. 189; 刘学智, 刘洪滨, 1981, c. 9–10].

“allegro” musiqa maromiga mos keladi. Yangrayotgan musiqa butun chiqish davomida o‘zgarmasligi mumkin. Bu holatda u bir tekis, ravon yangrash lozim. Kuy syujetning rivojiga moslab chalinishi ham mumkin. Chiqishda ikki yoki undan ziyod musiqa asbobi qo‘llanilgan holda ssenariyda har bir cholg‘u uchun alohida partiyalar yozilishi lozim, ohang bir-biriga mos kelishi kerak; qo‘pol xatolar va uyg‘unlashmagan tovushlar eshitilishining oldini olish uchun har bir musiqa asbobining yangrash vaqtini oldindan hisoblab chiqish lozim. Bundan tashqari ayni janrda stol, yelpig‘ich va asar muhitini yetkazib berishga yordam beruvchi boshqa buyumlar ham qo‘llanilishi mumkin. Biroq kichik unsurlarning aksariyati aktyorlar tomonidan mustaqil ifodalanadi, shuning uchun sahnadagi bezaklarning soni kamdir. Chiqish vaqtida artistlar o‘z qahramonlarining obraziga kirishib ketadilar va kommunikativ rollarni syujetga moslab taqsimlaydilar. Artistiklik jihatidan “Kuayban” janri artistlarining aktyorlik iste’dodlariga bo‘lgan talablar juda yuqori. Chiqish paytida artist hissiyotlarni ko‘rsata olish va ko‘z ifodasi, mimika, tana harakati, ovoz tempi va tembri yordamida personaj xarakterini ko‘rsata bilish bilan bir qatorda “kuayban” asbobini o‘ziga jo‘r qila bilishi lozim. Artist tomoshabin diqqatini o‘zida ushlab qola olishi kerak. Uning nutqi tez, aniq va ravon, diksiyasi ya’ni talaffuzi esa mukammal bo‘lishi lozim. Artist quyidagi qoidalarini hisobga olishi kerak: 1) pekin dialekti (shevasi) ga muvofiq qabul qilingan putunxua me’yorlariga ko‘ra so‘zlarni aniq va to‘g‘ri talaffuz qilish; bu Pekindan uzoqda bo‘lgan provinsiyadagi artistlar uchun nihoyatda muhim; 2) chiqish davomida so‘zlardagi urg‘u va aksentlarni to‘g‘ri qo‘yish, tovushlarni aniq talaffuz qilish; ayniqsa z, c, s va zh, ch, sh tovushlarini farqlash muhim. Bu Xitoyning shimoliy-sharqidan bo‘lgan artistlar uchun nihoyatda murakkabdir; 3) boshqa hech qanday o‘zga tovushlar paydo bo‘lmasligi uchun ideal diksiyaga ega bo‘lish.

Hozirgi paytda eski davrlardagi kabi xitoy sahna janrlarida an’anaviy tarzda kam sonli sahna bezaklari qo‘llaniladi. Shu sababli artistlar hissiyotlarni yetkazib berish, voqea-hodisalarni va hattoki buyumlarni ifodalash uchun mimika, imo-ishora va tana harakatlaridan faol foydalanadilar (masalan, sahnada yolg‘iz, hech bir buyumsiz artist otda ketayotganini, stol atrofida o‘tirganini, kamondan o‘q uzayotganini va boshqa holatlarni ijro etadi). “Kuayban” san’atini o‘rgatuvchi qo‘llanmalarda, xususan “Syanshen, pinshu, kuayban: yozish, taqdim etish”¹ kitobida nigohga oid maxsus qoidalar bayon etilgan: 1) artistning

¹ 相声评书快板写作与表演, 1982

nigohi bir nuqtada mujassam bo‘lishi, ya’ni “yassi” emas, “ipak ipi kabi tovlanib turadigan” bo‘lishi kerak; agar nigoh tomoshabinlarga qaratilgan bo‘lsa, tomoshabinlar ham namoyishga diqqatli bo‘ladilar, agar nigoh tarqoq bo‘lsa, tomoshabinlar ham chalg‘iy boshlaydilar; 2) aktyorning nigohi so‘z yuritilayotgan voqealarni aks ettirishi kerak, undan tomoshaning barcha unsurlari: atrofdagi muhit, qahramonning hissiyoti, voqealar almashinuvi va boshqalar o‘qilishi lozim; 3) artist nigohini doimo muayyan predmet yoki shaxsga qaratishi zarur; 4) artist tomoshabin bilan o‘zaro harakatda bo‘lishi lozim, chunki namoyish aynan tomoshabinlarga mo‘ljallangan. “Kuayban” aktyori imo-ishorasining bir nechta qoidalari mavjud: 1) harakatlar qissaga muvofiq (sinxron) bo‘lishi kerak (artist gapirib turgan buyumiga ishora qiladi, qahramoni his qilayotgan hisni tasvirlaydi, syujetga mos xatti-harakatlarni bajaradi); u har bir aniq harakatni qachon bajarishi kerakligini aniq bilishi kerak – so‘zlashdan avvalmi, so‘zidan keyinmi yoki gapira turibmi. Shuning uchun namoyishdan oldini u barcha harakatlarini muvofiqlashtirib olishi lozim; 2) imo-ishoralar (jestikulyatsiya) yuz ifodasi (mimika) bilan mutanosib bo‘lishi kerak; 3) tana harakatlari uyg‘unlashtirilgan bo‘lishi kerak (artist sahnada dadil turadi va qahramoni obraziga muvofiq holda qad rostlaydi); barcha xatti-harakatlar puxta o‘ylangan, aniq, tushunarli; artistning barcha harakatlari tomoshabin diqqat-e’tiborini jalb qilishga yo‘naltirilgan, shu sababli u sahnada o‘zini erkin sezib, belgilangan tana harakatlarini maqsadga qaratilgan holda amalga oshirishi lozim; 4) kuayban artisti tomosha davomida o‘ziga shaqildoq bilan usul berib turadi (uni o‘ng qo‘lida ushlaydi, ammo biron imo-ishorani tasvirlash uchun ba’zan qo‘lini bo‘shatishi mumkin. Biroq shaqildoqni o‘zgartirishning uch yo‘li mavjud: shaqildoqni chap qo‘ltiqda ushlab turish, bilagiga ilib olish yoki stolga qo‘yib qo‘yish mumkin).

Xulosa qilib aytganda, hozirgi xitoy tilida 快板儿 janrining o‘ziga xos xususiyatlari juda uzoq tarixga ega bo‘lib, uning hozirgi kundagi o‘rni ham yo‘qolmagan. Bunga sabab qilib xitoyliklarning milliy an’analariga juda katta e’tibor berib uning rivojlanishiga va avloddan avlodga o‘tishiga o‘z hissalarini qo‘shishlari bilan bog‘liq hisoblanadi. Kuiban bu janr, xiangsheng va anekdotga qaraganda, o‘zining milliyligini eng katta darajasida saqlab qolgan. Kuaiban tilida venyan yozuvi (qadimgi xitoy tili yozuvi) hali ham uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 相声·评书·快板·写作与表演 (Сяншэн, пиншу, куайбань: написание, выступление) / 群众文艺辅导丛书. — 沈阳: 春风文艺出版社, 1982. 224 页.
2. Косинова, Л В. Китайский юмористический жанр «сяншэн» / Л. В. Косинова // Изв. Волгогр. гос. соц.-пед. ун-та. Сер. «Филологические науки». – 2012. – № 6 (70). – Волгоград: Изд-во ВГСПУ «Перемена», 2012. – С. 146-149. – 0,35 печ.л.
3. 朱, 光斗 (Чжу Гуандоу). 对口快板表演技巧 (Диалогический куайбань: артистические навыки) / 朱光斗 // 相声·评书·快板·写作与表演. 群众文艺辅导丛书. — 沈阳: 春风文艺出版社, 1982 6. – 第 205-224 页.

病, 症, 炎 IYEROGFLIFLARINING AFFIKSLAR MISOLIDA YASALGAN TIBBIYOT TERMINLARI

Safiyaxon ABDULLAYEVA
TDSHU, Xitoyshunoslik fakulteti 4 -kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD, v.b. dotsent L.A. Sultanova

Annotatsiya: Ushbu maqola tibbiyot terminlari haqida olib borgan ilmiy izlanishlar bilan tanishib chiqish; termin va terminologiya haqida asosiy tushunchalarni shakllantirish; tibbiyot terminlarining yasalishi; affiksatsiya haqida ma'lumotga ega bo'lish; affiksatsiya usulida tibbiyot terminlarni 病, 症, 炎 iyerogliflari bilan yasalashini yoritib berish.

Kalit so'zlar: Termin, terminologiya, so'z yasalishi, affiksatsiya, affiks, 病, 症, 炎 yarim suffiks holda.

Hozirgi zamonda tibbiyot terminlari jamiyat uchun hayotiy ahamiyatga ega faoliyat hisoblanadi. Tibbiyotning tizimli va funksional jihatlarini tadqiq qilishni talab qiluvchi ilg'or terminlar qatoriga kiradi. Terminlarni xalqaro tizim talabalarini hisobga olgan holda tanlash va muvofiqlashtirishning umumiy qoidalari va mezonlarini ishlab chiqish esa tibbiyot terminlarini ilmiy o'rganishining ustuvor vazifalaridan biridir. Tildagi atamalarning vujudga kelib, taraqqiy etib borishi turli yo'llar bilan sodir bo'ladi. Bu hodisa

milliy tilning mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlarga, ijtimoiy vaziyatga, ilm-u fanning taraqqiyotiga va boshqa ko'pgina omillarga bog'liqdir.

Til – bu murakkab, ko'p jixatli hodisa bo'lib, uni o'rganishda turli xil qarashlar, fikrlar, xulosalar, kelib chiqadi va demakki turli xil uslublarni qo'llashni taqozo etadi. Atamashunoslik sohasini tartibga solish amaliyotda ham bir qancha lisoniy tahlil uslublari qo'llaniladi. Hozirgi kunda alohida uslublari, ularning xususiyatlari haqida bir qancha maxsus izlanishlar olib borilgan.

Ma'lum bir soha yoki fan yuqori darajada taraqqiy etgandagina o'sha tilda maxsus terminologiya vujudga keladi. Terminologiyani rivojlanishi, boyish yo'llari har xil: boshqa tillardan o'zlashishi, qo'shimcha qo'shish orqali yangi so'z yasash, ayrim kategoriyalarning leksikalashuvi, so'z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va boshqalar. Bugungi kunda o'zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z yasash hisobiga ro'y bermoqda. U yoki bu soha terminologik tizimining barqarorligini belgilovchi asosiy omil uning tartibga solinganligi va muntazamligidir. Terminologiya ma'lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma'lum terminologik me'yorlar asosida amalga oshiriladi. Terminologiya rivojida fan sohalariga oid maxsus lug'atlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega. [4: 45].

Termin tushunchaning mohiyatini ochib bera oladi hamda tuzilishi jihatidan aniq, ixcham, qulay va qisqa bo'ladi, eng asosiysi esa termin biror-bir tizimga solingan bo'ladi. [1:2]. Tibbiyot terminologiyasi hozirgi davrda faol rivojlanayotgan terminologik tizimlardan biri bo'lib, bu shubhasiz, tibbiyot va farmakologiya sohasidagi ilmiy taraqqiyot bilan bog'liq. Tibbiyot sohasining terminologik tizimida, boshqa har qanday sohada bo'lgani kabi, barqaror fond mavjud – o'nlab yillar va hatto asrlar davomida dolzarb bo'lgan nomlar va oz sonli eskirgan atamalarni hamda juda ko'p sonli yangi atamalarni o'z ichiga olgan periferik hududdir. Bu ikki qatlamning lug'at tarkibi o'rtasidagi munosabat uning semantikasi, uslubiy bo'yalishi, o'ziga xos qo'llanishi, shakllanish va nominatsiya usullariga asoslanadi.[5: 6].

Yuqorida aytib o'tilganidek, xitoy tilida ham aksariyat boshqa tillardagi kabi tibbiyot terminlari boshqa tillardan o'zlashish, so'zlarni qo'shish yoki qisqartirish, turg'un birikmalarni shakllantirish, affiksatsiya usullari orqali yasaladi. Affiksatsiya (加词缀 – jiācízhui) – affikslarning mustaqil ma'noli morfemaga birlashishidan kelib chiquvchi so'z yasash yo'lidir.[3:63]. Zamonaviy xitoy tilida termin yasashning ikkinchi usuli hisoblanadi. Affiks

(词缀 – cízhui) – bu formal morfema bo‘lib, u mustaqil ma’noli morfemaga birlashadi. Xitoy tilidagi affiksalar, xuddi boshqa tillardagidek, mustaqil ma’noli so‘zlarning ma’no yo‘qotishi natijasida so‘z yasovchi vositalarga aylanishi oqibatida paydo bo‘lgan. Ma’lumki, mustaqil ma’noli so‘z affiks bo‘lgandan oldin sekin-asta o‘z asl ma’nosini yo‘qotadi.[2: 68].

Xitoy tilida 病, 症, 炎 kabi mustaqil ma’noga ega iyerogliflar tibbiyot terminlarini yasashda unumli hisoblanadi. 病 [bìng] va 症 [zhèng] yarim suffiksining “kasallik”, “xastalik” kabi ma’nolari mavjud: 缺氧症 [quēyǎngzhèng] “gipoksiya”; 肠胃病[chángwèibìng] “gastroenterit”; 肥胖症 [féipàngzhèng] “adipoz”. 病 (bìng) iyeroglifi asosan kasallik haqidagi so‘z va so‘z birikmalarida uchraydi va ular ot va fe’l so‘z turkumlarida bir nechta ma’noli so‘zlarni yasaydi. 症 (zhèng, zhēng) bo‘lsa, tibbiyot terminlarini yasashda ikki hil ohangda qo‘llaniladi.

炎 [yán] yarim suffiksi “yallig‘lanish” deb tarjima qilinadi, kasallik yoki infeksiyani anglatuvchi atamalarni hosil qiladi: 大脑炎[dànnǎoyán] “ensefalit” (bosh miyaning yallig‘lanishi); 扁桃体炎 [biǎntáotīyán] “tonzillit” (tomoq bodomsimon bezlarining yallig‘lanishi); 喉头炎 [hóutóuyán] “laringit” (hiqildoq shilliq pardasining yallig‘lanishi). 炎 (yán) iyeroglifi ham ot va fe’l so‘z turkumlarida qo‘llanilib, fe’l o‘z ichida ikki xil ohangda qo‘llaniladi.

Tibbiyot sohasi asrlar mobaynida mavjud va inson hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan eng asosiy sohalardan biri. Ushbu sohada izlanish va tadqiqotlar olib borayotgan, tarjimashunoslik bilan shug‘ullanayotgan mutaxassislar uchun soha bilan bog‘liq so‘zlarni yasash xususiyatlarni bilish va e’tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiyotda yangidan – yangi terminlar soni o‘sib borarkan, undagi qo‘llanma va adabiyotlarga bo‘lgan ehtiyoj ham ortadi. Tibbiy terminlar o‘rganilarkan aksariyat terminlar so‘z qo‘shish va affiksatsiya usuli orqali hosil bo‘lishini ko‘rib chiqildi. Bu sohaga oid terminlarni shakllanish holatini o‘rganib, uni amaliyotga tadqiq qilish esa hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Султанова Л.А. “Хитой тилида тиббиёт терминларининг ясаиш хусусиятлари” maqolasidan 2-bet.
2. Sultanova L.A. “Xitoy tili leksikologiyasi” Toshkent-2019 68-bet

3. Горелов В.И. Лексикология китайского языка М.: Просвещение, 1984. – 63с.

4. Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – T.: 1977. 45 b.

5. Фан Сян. Автореферат. “Закономерности номинации болезней в языках разных типов” Минск, 2018. С- 6

XITOIY TIL MADANIYATIDA “GO‘ZALLIK” TUSHUNCHASI

Sabrina RO‘ZMATOVA
TDSHU, Xitoyshunoslik fakulteti 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD, v.b. dotsent L.A. Sultanova

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tadqiqotimiz orqali biz Xitoy tili madaniyatida “Go‘zallik” tushunchasining keng ma’nolarda qo‘llanilishini yoritdik. Go‘zallik – estetika tushunchasi. Tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning, inson faoliyatining kishida mehr-muhabbat, quvonch, zavq, erkinlik tuyg‘ulari hosil qilishga qodir bo‘lgan xususiyatlarini ifodalaydi. Hayotda go‘zallik xilma-xil darajada namoyon bo‘ladi. Tabiatdagi go‘zallik ijtimoiy hayotdagi, oddiy faoliyatdagi esa badiiy ijoddagi go‘zallikdan farq qiladi. Lekin go‘zallik xilma-xilligi bilan bir-biridan qancha farq qilmasin, barchasi qandaydir umumiy belgiga egadir. Mana shu umumiylik tufayli hodisalarni go‘zallik tushunchasi tarzida in’ikos etamiz. Go‘zal narsalar inson amaliy faoliyatiga, manfaatlariga mos bo‘lib, ularni idrok etish hayrat va quvonch bag‘ishlaydi, shaxsning uyg‘un rivojlanishiga, unda eng yaxshi insoniy xislat-fazilatlar tarkib topishiga ko‘maklashadi.

Kalit so‘zlar: estetik qadriyat, madaniy timsol, lingvistik belgi, yin va yang, Li Yun, etimologik lug‘at, estetik zavq, zoomorfik taqqoslash, metafora.

Go‘zallik estetik qadriyat sifatida har bir tilda mavjud bo‘lgan va har bir insonga tegishli bo‘lgan eng muhim madaniy atamalardan biridir. Bir tomondan, “go‘zallik” tushunchasi madaniy timsolga, ikkinchi tomondan, lingvistik belgiga ega. An’anaviy xitoy falsafasida go‘zallik ko‘pincha inson va tabiatning birligida namoyon bo‘ladi, chunki inson tabiiy va yuqori kuchlarning mahsulidir. Inson va tabiat kuchi bir-biriga intiladigan, lekin ayni paytda bir-birini qaytaruvchi yin va yangning birligi hamda qarama-

qarshiligidir. Go‘zallik qarama-qarshiliklarning birligida tug‘iladi va o‘zini namoyon qiladi, Xitoy estetikasida u nafis 优美 yoki ulug‘vor va monumental 壮美 bo‘lishi mumkin. Bir tanganing bir-birini inkor etmaydigan, balki bir-birini to‘ldiradigan ikki tomoni hisoblanadi.

Ko‘pgina dunyo madaniyatlarida, insonlar go‘zallikni atrofdagi dunyoning ikkita diniy toifasi bilan bog‘liq deb hisoblaydilar. Ya‘ni ular: tabiatning go‘zalligi va ayolning go‘zalligi, yerdagi va samoviy go‘zallikdir. Bir qancha xalqlarning eposida ayollarning go‘zalligi samoviy boshlanishga ega. Ayol uchun go‘zallik har qanday yoshda dolzarbdir. Xitoylik yozuvchi Li Yuning xitoylik ayollarning go‘zalligi, jozibasi va jozibasining siri haqida ajoyib gapi bor: “Ayollar keksani-yosh, xunukni- go‘zal, tanishni – hayratlanarli qilish kerak”.

Xitoy tilida “go‘zallik” tushunchasini ifodalovchi leksik birliklar tashqi va ichki xususiyatlarni estetik baholash bilan bog‘liq bo‘lgan baholash komponentini o‘z ichiga oladi, bu esa Xitoy til madaniyatida qabul qilingan ushbu estetik baholash bilan belgilanadi. Xitoy tilida “go‘zal”, “ajoyib”, “chiroyli”, “go‘zallik” so‘zlari qadimgi etimologik lug‘atda echkinning ta‘mi bilan bog‘liq, go‘sht aniq ko‘rsatilgan, kelib chiqishi aniq 美 bo‘lgan iyeroglifi bilan belgilanadi. Garchi bu go‘shtning xilma-xilligi o‘ziga xos hid va ta‘mga ega bo‘lib, ular har doim ham idrok etish uchun yoqimli bo‘lmasa-da, qadimgi Xitoyda ular go‘zallik tushunchasiga yaqin bo‘lgan va ma‘lum bir estetik zavq bag‘ishlaganligi aniq. Ushbu iyeroglifga qo‘shimcha ravishda, qadimgi etimologik lug‘atda “shirin, yoqimli ta‘m” ma‘nosi bilan bir qatorda “go‘zallik” ma‘nosini anglatuvchi gan iyeroglifi ham ko‘rib chiqilgan.

Go‘zallikni anglatuvchi asosiy belgi 美 “baxt”, “farovonlik” ma‘nosini ham anglatishi mumkin: 美满的 baxtli oila; baxtli hayot; baxtli nikoh; baxtli yakun. Ayol go‘zalligi va dunyoning go‘zalligini ifodalash uchun ko‘pincha 美丽 belgilar kombinatsiyasi qo‘llaniladi.

Masalan:

美丽的城市(chiroyli shahar);

美丽的眼睛(chiroyli ko‘zlar).

美 belgisi, xitoy tilidagi boshqa sifatlar singari, bir necha darajali go‘zallikni ifodalashi mumkin. Muloqotda odatda bitta belgi ishlatiladi.

Masalan :

我剪了新发型，看起来怎么样？-美！，(Yangi soch turmagi qildim. Qanday ko‘rinishga egaman? — Chiroyli!).

Bu neytral shakl. 美 “juda” qo‘shimchasi bilan birgalikda yuqori darajani bildiradi, Masalan:

非常美的国家(juda go‘zal mamlakat).

Keyingi, ustunlik darajasi, iyerogliflar birikmasi bilan ko‘rsatilgan. Go‘zallikning eng yuqori darajasi mei 美 ni istisno qiladi:

特别美的姑娘(o‘ta chiroyli qiz).

Erkakning go‘zalligi kombinatsiyalar tomonidan 英俊的, 帅的, 潇洒的, 玉树临风, 风流倜傥. Birinchi va ikkinchi kombinatsiya erkakning yuzi va shaklini tasvirlashda ishlatiladi. Uchinchisi, xulq-atvor uslubi, o‘zini tutish qobiliyati, xushmuomalalik va boshqalarni anglatadi. To‘rtinchisi, odamni tashqi ko‘rinish, xulq-atvor, yaxshi didning uyg‘unligi bilan tavsiflaydi. Beshinchisi o‘z fikrini aytishdan qo‘rqmaydigan bilimli va mustaqil shaxsni tasvirlaydi. Bunday erkaklar, ayniqsa, ayollarning iltifotidan bahramand bo‘lishadi. Hayvonning tashqi qiyofasini tasvirlashda mei 美 belgisi qo‘llanilmaydi, uning o‘rnida 好看的, 漂亮的, masalan, 好看的猫漂 (chiroyli mushuk), 亮的老虎 (chiroyli yo‘lbars) birikmalari qo‘llaniladi. Xitoyliklar qushlar bilan alohida munosabatda bo‘lishadi, ularning go‘zalligining tavsifi 美 iyeroglifi bilan bog‘liq bo‘lib, bu tasvirga o‘ziga xos “insonlashtirish” beradi: 美丽的孔雀 (go‘zal tovu).

Tarixan, 品 (pin) belgisi ham ta‘m sezgilari va baholashlari bilan chambarchas bog‘liq, ammo zamonaviy qo‘llanishda bu belgi odatda guruch, baliq, karam va boshqalar kabi ovqatlarning nomi bilan birlashtirilmaydi, lekin agar bu ovqatlar bo‘lsa taom sifatida pishiriladi, bu juda mos keladi. 品 nafaqat ichimliklar va lazzatlanishlarni odatiy tatib ko‘rish bilan, balki ularni professional baholash bilan ham bog‘liq bo‘lgan estetik zavqlarning butun majmuasini anglatadi. Masalan, sharobning yangi turini yaratishda. 品, 美 va 味, belgilarini birlashtirish mumkin, bu kombinatsiya bir nechta holatlarda ishlatilishi mumkin: qandaydir taomni sinab ko‘rish uchun hurmatli va xushmuomalalik bilan taklif bilan: 请品尝这道美味 “Iltimos, bu mazali taomni sinab ko‘ring!” (mehmonlar va styuardessaning holati uchundir). Inson qiyofasi tabiatning eng muhim yaratilishi hisoblanadi. Tabiatning o‘zi go‘zallik me‘yorida. Xitoy tilida inson go‘zalligi ko‘pincha tabiat tasvirlari bilan taqqoslanadi; go‘zal ko‘rinishni (ayniqsa, ayolni) tabiat go‘zalligiga o‘xshatish uchun juda ko‘p barqaror metaforalar va taqqoslashlar mavjud. Qadimgi xitoy ertagida o‘zining go‘zalligi bilan tabiat go‘zalligiga soya solgan to‘rtta go‘zal haqida hikoya qilinadi, ulardan;

1. 闭月羞花 (qizning go‘zalligi oydan oshib, gullarni sharmanda qilishi mumkin); 2. 沉鱼落雁 (qizning go‘zalligini ko‘rgan baliq suvga cho‘kdi, yovvoyi g‘ozlar balandlikdan quladi).

She'riyat va nasrda ayol go'zalligini madh etuvchi, uni gullarga, nefritga, qorga, suvga, oyga va hokazolarga qiyoslovchi metaforalar juda ko'p uchraydi, masalan, 出水芙蓉 (go'zal, suvdan chiqqan lotus kabi); 如花似玉 (guldek go'zal, nefrit kabi); 花容月貌 (yuz guldek, oydek chiroyli). So'zlashuv nutqida bunday taqqoslashlar juda kam qo'llaniladi, chunki bu kabi metafora va taqqoslashlar yozma badiiy adabiyotni boyituvchi xazinalaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Muayyan xalq tomonidan dunyoni idrok etishning milliy-madaniy o'ziga xosligi dunyoning inson ongi va uning tilida aks etishida iz qoldiradigan ko'plab xususiyatlar bilan belgilanadi. Ammo turli xalqlarning "go'zallik" tushunchasiga bo'lgan munosabatidagi barcha farqlar bilan, har bir kishi go'zallikka qoyil qolishning ma'lum bir madaniyatlararo va xalqaro g'oyasi bilan birlashadi. Sharqiy Xitoydagi go'zal tog' manzaralari, janubiy Xitoyda ishlab chiqarilgan nozik chinni kosa, qadimiy miniatyurada tasvirlangan yosh xitoylik ayol millatidan qat'i nazar, odamlarda hayrat tuyg'ularini uyg'otadi. Go'zallik xalqlarni birlashtiradi. Go'zallik dunyoni qutqara oladi. Go'zallik tor ma'nodagina insonning tashqi go'zalligidir. Aslida esa butun borliqga sinchikovlik bilan nazar tashlaydigan bo'lsak go'zallikning aslidan bahramand bo'lishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xitoyning ma'naviy madaniyati: ensiklopediya: 5 jildda / Ch. ed. M.L. Titarenko; Uzoq Sharq instituti. – M.: Vost. lit., 2006. T. 3. Adabiyot. Til va yozuv / ed. M.L. Titarenko va boshqalar – 2008. – 855 b.
2. Rus va Xitoy reklamalarida ayol go'zalligining ideali (kontrastli tavsif tajribasi) // Vestnik RUDN universiteti: filolog bo'lmaganlar uchun rus tili. Nazariya va amaliyot. Moskva: RUDN universiteti. – 2006. – No 7-b. 86-94.
3. Pak A.O. Xitoy va rus tillarida "go'zallik" tushunchasini qiyosiy o'rganish: Muallif konspekti ... dis. samimiy. filol. Fanlar. – Dushanbe: 2009. – 25s.
4. Xua Li Xitoy go'zalligi va rus go'zalligi // Ruscha nutq. – 2006. – No 4. – B. 74-80.
5. Sultanova Lola Akmalovna. Xitoy tili leksikologiyasi- T: Toshkent, 2015
- 7.<http://saviya.uz>

MALAY TILIDA MAJHUL NISBAT VA UNING O‘ZBEK TILI BILAN O‘XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

Shahlo RAHIMOVA

TDSHU, Filologiya (malay tili) yo‘nalish 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: o‘qituvchi E. Bekkulov

Annotatsiya: Ushbu maqolada malay tilida majhul nisbat va ularning grammatik tuzilishi hamda o‘zbek tilidagi majhul nisbatning qo‘llanilishidagi o‘xshash va farqli jihatlarni, gapda qo‘llanilishi va ahamiyatini ochib berishga harakat qilamiz. Fe’llarga qo‘shiluvchi old qo‘shimchali prefikslar bilan yasaladigan fe’llarning gap tuzilishida qo‘llanilishi va ma’nolari, shaxs-sonda majhul nisbat yasalishi hamda o‘zbek tili bilan o‘xshashlik va farqli tomonlarini ochib berishga harakat qilamiz.

Kalit so‘zlar: malay tilida aniq va majhul nisbat ma’nolari va turlari, fe’llarga qo‘shiluvchi **di-, ter-, ber-**old qo‘shimchasi, so‘zlardagi di qo‘shimchasi

Hozirgi paytda g‘arb va sharq tillarini o‘rganishga bo‘lgan katta qiziqish va ehtiyoj yoshlar va talabalar o‘rtasida yildan yilga ortib bormoqda. Har qanday xorijiy tilning grammatik qoidalarini aniq va batafsil o‘rganish til o‘rganishning eng muhim jihatlari hisoblanadi. Ushbu maqolada malay tili va o‘zbek tilidagi majhul nisbatli fe’llarning yasalishi, o‘xshash va farqli jihatlari shu bilan birga o‘zbek tiliga mutlaqo o‘xshamaydigan nisbat ma’nosini beruvchi fe’llarni o‘rganishga harakat qildik.

Malay tilida aniq va majhul nisbat fe’llar ma’nosi va tuzilishi o‘zbek tili bilan ma’nosiga ko‘ra ayrim jihatlari bilan o‘xshash, ammo malay tilida nisbatlar o‘zbek tilidagidek besh turga bo‘linmaydi. Faqatgina malay tilida ayrim old predloglar va so‘zlarning fe’l oldidan kelishi majhul nisbatning o‘zbek tilidan farqli jihatini bildiradi.

Fe’l nisbati maxsus fe’l yasovchi affikslar (old qo‘shimcha) yordamida yasaladi. Bu affikslar fe’lning ma’nosini tamomila o‘zgartirmaydi, balki unga qo‘shimcha ma’no beradi. Ana shu qo‘shimcha ma’nolar gap qurilishining qanday bo‘lishini bildirib turadi. Ega va to‘ldiruvchining qanday ifodalanishi, qanday shakl va ma’noda birikishi fe’l nisbatining ma’nosi bilan bog‘lanadi. Masalan: ishla-eganing o‘zi bajaradigan harakat, ammo ishlat-to‘ldiruvchi bajaradigan harakat, yasa-biror narsani vujudga keltirish harakati, ammo yasan-eganing o‘zida yangi holat vujudga keltiradigan harakatdir.

Fe'l nisbatlari-fe'ldan anglashilgan harakat va holatning amalga oshirilishida harakat bajaruvchisining qay darajada ishtirok etishini yoki harakat bajaruvchisining harakat va holatga munosabatini anglatuvchi fe'l shakllaridir. Malay tilida nisbat o'zbek tili kabi 5 turga bo'linmaydi.

Aniq nisbat-bajaruvchisi aniq bo'lgan harakat yoki holatni ega tomonidan bajarilishini bildirgan fe'l shaklidir. Aniq nisbatdagi fe'lda harakat ega (subyekti) tomonidan bajariladi, to'ldiruvchi esa harakatning obyekti bo'ladi. Masalan: Ibu **membeli** sayur. Ona sabzavot **sotib oldi**.

Ushbu gap **membeli** so'zi aniq nisbatli fe'ldir. Sayur **dibeli oleh** ibu¹ (ayat pasif-majhul nisbat). Sabzavot **ona tomonidan sotib olindi**. Ushbu gapda esa **dibeli** so'zi majhul nisbatdagi fe'ldir. Ikkala gapda fe'llar old qo'shimchalar o'zgarishi hamda majhul nisbatli gapda esa fe'ldan keyin oleh so'zining ishlatilishi bilan nisbatlar o'rtasidagi farqni anglash mumkin. **Malay tilida majhul nisbatdagi bir necha fe'llar di old qo'shimchasi** qo'shilishi bilan yasaladi.

Majhul fe'l ish-harakat (bajaruvchisi)predmeti shaxsiga qarab turli shakllarga ega bo'ladi. 1 va 2 shaxsda majhul nisbat nol (prefikssiz-old qo'shimchasiz) hosil bo'ladi: saya baca (men o'qidim, ya'ni men tomonimdan o'qildi), awak baca, kau baca (siz/sen tomoningdan o'qildi)

Istisno holati! Bu shakl bir-biridan ajralmas hisoblanadi, ya'ni tur, vaqt, jihat, modallik, sifat darajasi, inkorning barcha ko'rsatkichlari harakat bajaruvchisi oldida turadi: **Buku ini sudah saya baca. Men bu kitobni allaqachon o'qiganman/bu kitob men tomonimdan allaqachon o'qilgan. Buku ini belum awak baca. Sen hali bu kitobni o'qimagansan. Yoki-bu kitob sen tomoningdan hali o'qilmagan.**

3-shaxsda fe'l **di+oleh** shaklida keladi, ba'zan qisqartirilishi, ya'ni **oleh** so'zi **tushib** qoldirilsa ham xato sanalmaydi: **dibaca{oleh}dia** (u o'qidi/o'qigan); **dibaca oleh mereka** (ular o'qigan yoki ular tomonidan o'qilgan).

Eslatma! ish-harakat predmeti ~**nya** orqali ifodalanishi mumkin, u **oleh** predlogi bilan,u bo'lmaganda esa fe'l bilan birga yozilishi mumkin: **Buku ini sudah dibaca {oleh} dia/ mereka=Buku ini sudah dibaca olehnya=Buku ini sudah dibacanya**² Bu kitob u/ular tomonidan allaqachon o'qildi yoki o'qilgan.

¹ Siri Kemahiran Bahasa Ragam Ayat Kamarudin Jeon,Dewan Bahasa dan Pustaka KL2013;page- 38

² Учебник Малайского Языка Дорофеева,Кукушкина стр156

Biroq hamma majhul gaplar ham aniq nisbatli gaplardan tuzilmaydi. O'timli fe'llarning faol gaplarini passiv(majhul) holatga keltirish mumkin, lekin *o'timsiz faol fe'llarni passiv(majhul)lashtirib bo'lmaydi*. Masalan:

Musa **berenang** di kolam itu. (o'timsiz aniq nisbat gap) Muso hovuzda cho'mildi. Ushbu *gapni majhul nisbatli gapga aylantirib bo'lmaydi*, ya'ni: ~~Berenang oleh Musa di kolam itu~~. Bu gap xato, o'timsiz aniq nisbat fe'llarni majhullashtirib bo'lmaydi.

Malay tilida majhul nisbat faqatgina fe'llarga **di-prefeksi** bilan emas, **ter-, ber** old qo'shimchalari bilan ham yasaladi, ammo bu kabi fe'llarning yasallishining o'ziga xos jihatlari bor, ya'ni bu kabi prefikslar o'z o'rnida majhul fe'l ham yasaydi. Masalan: Baju ini **dibeli oleh ibu**. Bu ko'ylak ona tomonidan sotib olingan. **Telefon ini belum dipasang olehnya**. Bu telefon u tomonidan o'rnatilmagan.

Baju yang koyak itu sudah **berjahit**¹. Yirtilgan ko'ylak allaqachon tikilgan.

Ber-prefiksi bilan yasaluvchi fe'llar o'zbek tili grammatikasidagi o'zlik nisbatiga o'xshash jihatlarni misollar yordamida tahlil qilib kuzatishimiz mumkin. Masalan, o'zbek tilida o'zlik nisbatidagi ayrim tabiat bilan sodir bo'ladigan fe'llar o'zlik nisbatida bo'ladi: **g'uncha ochildi, gul ochildi, shamol qo'zg'aldi, quyosh ko'rindi** kabi. Umuman **ber-** old qo'shimchasi alohida katta mavzu sanaladi, ammo uning bir ma'nosidan biri majhul nisbatda ham kelishi ham mumkin.

Di-bilan boshlanadigan fe'llar aslida **meN**-bilan boshlanadigan fe'llardan olingan.

Membeli-dibeli (sotib oldi-sotib ol**in**di/olingan), **menjawab-dijawab** (javob berdi-javob berilgan), **membaca-dibaca** (o'qidi-o'qilgan/o'qildi), **memakai-dipakai** (kiydi-kiyilgan), **menulis-ditulis** (yozdi-yozilgan), **membina-dibina** (qurdi-qurilgan/qurildi), **mencari-dicari** (qidirmoq-qidirildi) kabilar.

!!! Ammo hamma o'timli aniq nisbatdagi fe'llar ham majhul nisbatdagi fe'llarga aylanmaydi. Masalan:

~~Menangis-ditangis~~ (yig'lamoq), ~~mendatang-didatang~~ (kelmoq), ~~memengah-ditengah~~ (o'rta), ~~menyatu-disatu~~ (birlashtirish), ~~melawak-dilawak~~² (hazil qilmoq) kabi.

Majhul fe'llardagi **di-** va **ot bog'lovchisi di...**ni farqlash ham malay tilida eng muhim grammatik jihatlardan biridir. Biz ko'p marotaba gap

¹ Ragam Ayat Kamarudin Jeon Dewan Bahasa dan Pustaka KL 2013 page -40

² Tata Bahasa Praktis Bahasa Indonesia Edisi Revesi, Abdul Chaer/Renika Cipta, 2011. page-245

tuzganimizda **di** bog'lovchisini ishlatamiz va bu *o'zbek tilidagi ~da,dan bog'lovchiga* to'g'ri keladi, lekin bu bog'lovchi vazifasida kelgan **di** ot oldidan ajratib yoziladi. Misol uchun: *Buku ini dibeli oleh ibu di kedai Pak Abu. Bu kitobni ona Pak Abuning do'konidan sotib olgan.* Diqqat qilish kerak bo'lgan yana bir tomoni, **di** fe'llar bilan kelganda fe'lga qo'shib yoziladi, ajratib yozish esa xato sanaladi hamda **di...**ot oldidan *bog'lovchi bo'lib kelganda esa ajratib yoziladi: di atas-ustida, di bawah-tagida, di Johor-Johorda, di Universiti-Universitetda, di gudang –omborda,* va hokazolar. O'zbek tili grammatikasida bu kabi hodisalar kuzatilmaydi, ya'ni har bir kelishik qo'shimchalari so'zlarga qo'shib yoziladi.

Di- bilan boshlanuvchi fe'lli nisbat *gaplar faqat uchinchi shaxs uchun* ishlatiladi. Masalan: *mereka(ular), Ali, pelajar itu (ana u talaba), baginda (roja, xalifalar uchun ishlatiladigan 3 shaxsdagi hurmat ma'nosidagi kishilik olmoshlari)* va boshqalar. Birinchi va ikkinchi shaxsli olmoshlar: saya (men), aku (sen), anda (siz) va kamu(sen) kabilar bilan yasalgan gaplarga hech qachon **di-** majhul nisbatli qo'shimcha qo'shilmaydi. Masalan: ~~di kedai~~ va hokazo.

Ter-bilan keladigan fe'llar passiv belgi vazifasini bajarsa-da, bu old qo'shimchalar aniq gaplardagi fe'llar bilan ham qo'llanilishi mumkin. Biz ahamiyat berishimiz kerak bo'lgan jihat-bunday fe'llar aniq nisbatli gaplarda ham, majhul gaplarda ham kelishi mumkin.

Aniq nisbatda ter- prefiksi: Kereta itu **terlanggar** sebatang pokok di tepi lorong itu. Mashina xiyobon chetidagi daraxtga *to'qnashib ketdi.* Gapda **ter-**biror *narsaning xohlamay, bexosdan, to'satdan sodir bo'lishidagi* hodisada qo'llanilgan, lekin **ter-**prefiksi bilan ishlatiladigan fe'llar hamda so'zlarning ma'nolari, gap tuzilishda qo'llanilish qoidalarini ham turlicha. Bu qo'shimchaning malay tilida ishlatilishi katta mavzu hisoblanib, bir ma'nosi esa majhul nisbatda ham kelishi ta'kidlanadi. Keltirilgan jumlaning *majhul nisbatdagi ko'rinishi:* Sebatang pokok di tepi lorong **terlanggar** oleh kereta itu. Xiyobon chetidagi daraxtga mashina *urilib ketdi* (yoki urilgan). O'zbek tilida barchaga ma'lum bo'lgan ravishning ma'no turlaridan biri, **ya'ni holat ravishi** (*qo'qqisdan, majburan, tasodifan, birdan*) ni biz aynan **ter-**prefisli fe'lli majhul nisbatli gaplarga o'xshatishimiz xato sanalmaydi. Masalan: *Mirza ota sovib qolgan choyni birdan simirdi kabi.*

Xulosa qilib aytganimizda, yuqoridagi ilmiy-nazariy qarashlar hamda misollardan malay tilida nisbatning ma'no jihatlarining o'rni katta ahamiyat kasb etishini misollar va qo'shimchalarni grammatik tahlil qilish orqali tegishli xulosaga ega bo'ldik. Ushbu tahlillardan biz sharq tilida nisbat mavzusi orqali til boyligimiz yanada mukammal bo'lishiga asos bo'ladi. Biz

malay tilida nisbat mavzusi orqali nafaqat Malayziya tilini, balki shu davlat urf-odati, madaniyati, soʻzlashish uslubi, yashash sharoiti va boshqa jihatlarini oz boʻlsa-da oʻrganishga harakat qildik. Bobokalonimiz Alisher Navoiy aytganlaridek, “Til bilgan-el biladi”.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbek tili. M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulov:Toshkent -1970.
2. Учебник малайского языка. Т.В.Дорофеева, Е.С.Кукушкина; Московский гос.ун-т им. М.В.Ломоносова, Инс-т стран Азии и Африки, Москва: Акад.гуманитарных исслед., 2006
3. Siri Kemahiran Berbahasa Ragam Ayat.Kamarudin Jeon:Dewan Bahasa dan Pustaka. Kuala Lumpur 2013
4. Tatabahasa Dewan:Edisi Ketiga.Nik Safiah Karim, Farid M.Onn, HashimHaji Musa,Abdul Hamid Mahmood
5. Tatabahasa Praktis Bahasa Indonesia:Edisi Revesi, Abdul Chaer, Renika/Cipta, 2011.

INGLIZ TILIDAN QABUL QILINGAN QOʻSHIMCHALARNING MALAY AFFIKSATSIIYASIDAGI MUAMMOLARI

Gulzoda UTKUROVA

TDSHU, Sharq mamlakatlari va tarjimashunoslik fakulteti

2 kurs talabasi

Ilmiy rahbar: PhD N.R. Ismatullayeva

Annotatsiya: Malayziyada tarjima bilan bogʻliq muammolar hech qachon Zamonaviy malay tilining muhim bir boʻlagi boʻlmagan edi. Zamonaviy chet soʻzlarning malay tiliga kirib kelishi bilan shugʻullanuvchi Devan Bahasa va Pustaka (Til va kutubxona kengashi)ning Terminologiya qoʻmitasi asosan ilmiy-texnikaviy atamalarga eʼtibor qaratgan va tarjimada, xususan, ingliz tilidan malay tiliga tarjima qilishda koʻplab muammolarga duch kelgan.1973-yildan beri davom etayotgan muammolardan biri inglizcha affikslarni tarjima qilishdir. Ushbu maqolada ingliz tilidagi affikslarning malay tiliga tarjimasi bilan bogʻliq ayrim masalalar yoritilgan.

Kalit soʻzlar:Devan Bahasa va Pustaka,Chiev Kin Quah, Oksford 3000™.

Ushbu maqola dastlab taxmin qilinganidan ko‘ra murakkabroq bo‘lgan malay tili tarjimalarining lingvistik muammolari bilan bog‘liq. Ingliz tilidan malay tiliga tarjimalarda namoyon bo‘ladigan muammolar aslida 1960-yillarning boshida malay tilini tizimli shakllantirish bilan boshlangan. Ingliz tili malay tiliga sanskrit va arab tilidan keyin uchinchi eng muhim ta’sirdir. Bu ta’sir ilmiy va texnik atamalarning malay tilidagi lug‘atini, shuningdek, yangi fonemalar, bog‘lamalar va affikslarning yangi tartiblari¹ va ingliz tilidan qabul qilingan so‘zlarning imlosi kabi tarkibiy elementlarni rivojlantirishga yordam berdi.

Ilmiy va texnik atamalarning katta qismi malay fonologiyasi va grafologiyasi qoidalariga solinadi. Malay tilidagi ilmiy-texnik atamalarning asl manba tili atamalariga yaqin bo‘lishini ta’minlash maqsadida o‘zlashtirilgan atamalarning orfografik imlosiga ustuvor ahamiyat beriladi. Ingliz tilidan olingan ilmiy va texnik atamalar asosan yunon va lotin tillaridan kelib chiqqan².

Malayziya mustaqillikka erishgunga qadar malay tili uchun tizimli til qolipi mavjud emas edi, chunki ta’lim vositasi mustamlakachi davlat tili bo‘lgan ingliz tili edi. Tilning tizimli qolip zaruriyati mustaqillikka erishgandan so‘ng maktab va oliy o‘quv yurtlarida malay tili rasmiy tilga aylanganidan keyin paydo bo‘ldi. Ingliz tilidan malay tiliga o‘tish siyosati tarjimoni (asosan ingliz tilidan malay tiliga) birinchi o‘ringa olib chiqdi, chunki fan va texnologik ma’lumotlarning malay tilida taqdim etilishi juda muhim edi. Biroq, mustaqillikdan keyingi dastlabki davrda malay tilini maktablarda milliy til va ta’lim vositasi sifatida joriy etish va unga amal qilishga e’tibor qaratildi. Tarjima kabi boshqa muhim sohalarga e’tibor qaratilmay kelindi.

Tilni shakllantirish natijasida malay tilini ilmiy-texnikaviy lug‘at bilan tez boyitishga to‘g‘ri keldi. Ilk islohot Devan Bahasa va Pustaka (Til va kutubxona kengashi) tomonidan tilni standartlashtirish va modernizatsiya qilishning o‘rnatilishi bilan boshlandi. Malay tili lug‘atini kengaytirishga qo‘mita eng katta e’tiborni qaratdi va yangi leksika ingliz va yunon-lotin tillaridan katta miqdorda o‘zlashtirildi. Uning natijalarini mavzu bo‘yicha tuzilgan ilmiy-texnik atamalardan ko‘rish mumkin. Masalan, *Istilah Biologi Bahasa Inggris-Bahasa Malaysia* (Inglizcha-malaycha biologik ro‘yxatlar va inglizcha-malaycha lug‘at)ning so‘nggi nashri (1992-yil), *Kamus Dewan Inggris-Melayu*, tarjimonlar uchun qo‘llanma sifatida 40 000 leksik

¹Asmah Haji Omar. The Philippines Journal of Linguistics. -P, 1984. – h. 12. 8-13.

²Asmah Haji Omar. Essays on Malaysia Linguistics. Kuala Lumpur, Dewan Bahasa dan Pustaka. -P, 1975. 77-123.

yozuvdan iborat.1960-yildan 1992-yil sentyabrigacha DBP tomonidan turli mavzulardagi 120 ga yaqin terminologiya ro'yxati nashr etilgan¹.

Malay tilida boshlang'ichdan to oliy o'quv yurtigacha bo'lgan ta'lim tili bo'ladigan bo'lsa, to'liq o'rnatilishi kerak edi. Shuning uchun malay tili uchun ilmiy-texnikaviy nutq yaratish uchun uni modernizatsiya qilish kerak edi. Asmah Haji Omarning fikricha, turli ixtisoslashgan sohalaridagi yangi g'oyalarni malay tiliga kiritish uchun ingliz fonemalari, morfemalari, iboralari yoki jumllalarini olish yoki ularni to'g'rilash orqali foydalanib, tilning so'z boyligi kengaytirish kerak edi. Bundan kelib chiqib, ingliz tilining malay tiliga kuchli ta'siri tufayli akademik kitoblarni ingliz tilidan malay tiliga tarjima qilish kutilganidan ancha murakkabroq deb aytish mumkin.

1957-yilda mustaqillikka erishgandan keyin o'tgan 40 yil ichida malay tili o'z taraqqiyotida ulkan o'zgarishlarni boshdan kechirdi. U milliy tilga, keyin esa ta'limda o'qitish tiliga aylandi va hozirda Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidan tashqaridagi davlatlarda kengroq muloqot tili sifatida targ'ib qilinmoqda. Shu bilan birga, so'nggi 50 yil ichida ingliz tilidan malay tiliga bilim va ma'lumotlar almashinuvi keskin o'sdi.

Faqat so'nggi o'n yil ichida tarjima Malayziyada muhim o'rganish sohasi sifatida ko'rilmogda. Bu qishloq xo'jaligidan texnologiyaga asoslangan iqtisodiyotga o'tish bilan bog'liq bo'lib, buning natijasida ingliz tilidagi so'zlar, xususan, fan va sanoat sohalarida ommaviy ravishda o'zlashtirib olingan. 1956-yil 22-iyunda tashkil etilgan DBPga malay tilida foydalanish uchun ilmiy va texnik atamalarni yaratish vazifasi yuklatildi. Ushbu vazifani bajarish uchun maxsus komissiya tuzildi. Hozirgi kunda o'n-o'n besh minglab ilmiy-texnik atamalar yaratilgan va yangi atamalar malay tiliga tez sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Dastlab bu tobora ortib borayotgan atamalar oqimi bilan ingliz tilidan malay tiliga tarjima qilish osonroq bo'ladi deb taxmin qilingan edi. Biroq, atamalarning aksariyati malay tiliga ushbu atamalar turli kontekstlarda qanday ishlatilishini hisobga olmagan holda kiritilgan edi.

Ilk ingliz affikslarini tarjima qilish muammosi 1973-yilda ko'rib chiqildi. Unga ko'ra, *-ic* va *-ical* qo'shimchalarini qanday tarjima qilish mumkinligi masala sifatida qo'yildi. Lekin yuqoridagi masala haligacha o'z tasdig'ini topmagan.

Ammo ekvivalent sifatida:

-ic → *-ik*;

-ical → *-is, -ikal* olingan.

¹Berita Peristilahan. Majlis Bahasa Brunei Darussalam-Indonesia-Malaysia (Mabbim). – P, 1992. 234.

Masalan:

- political information → *maklumatpolitik*
- good topic → *topik baik*
- theoretical → *teoritis*

Ba'zan gapdagi kontekstdan kelib chiqqanda tarjima qilinmaydi.

Masalan:

- embryonic development → *perkembangan embrio*
- geomagnetic field → *medan geomagnet*

Shuningdek ba'zi so'zlarni o'zlashtirish ancha qiyinlashdi. Chunki ekvivalent so'zning yoki qo'shimchaning yo'qligi sabab bo'ldi. Bunga "idea" sozining malay tilida ham "idea" bo'lib qolishini misol qilish mumkin.

Shuningdek, Chiev Kin Quahning ilmiy maqolasida "normal" so'zi malay tiliga hech qanday o'zgarishsiz olingan. Xuddi shunday, "abnormal" so'zi "abnormal" deb olingan, ammo "yo'q" degan ma'noni anglatuvchi "tak" so'zining boshqa shakli mavjud: "tak normal" (normal emas) kabi ilmiy yondashuvni guvohi bo'lamiz. Qo'shimcha yondashuv sifatida "inorganic" so'zining muqobil variant sifatida "inorganik" sifatida qo'llay olmaymiz. Sababi bunday qo'llanilish malay tili me'yorlariga zid. Shu asnoda "tak organik" sifatida qabul qilingan.

Yana bir muammo – ingliz tilidagi *a-*, *in-*, *im-*, *ab-*, *ir-*, *dis-*, *de-*, *un-*, *non-* kabi qo'shimchalarning tarjimasi. Yuqorida keltirilgan qo'shimchalar uchun malay tilida uchta ekvivalent mavjud: "tanpa", "bukan" va "tidak".

Ushbu tadqiqotda yuqori sifatli inglizcha so'zlar uchun asosiy havola Oksford 3000™ bo'ldi, ushbu kitobda boshlang'ich so'zlarning 3000 tasi mavjud. Ushbu tadqiqot muallifi malaycha ekvivalentlar doirasida qo'shimchalarni tahlil qiladi.

Ingliz tilidan so'z olish ikki omilga bog'liq. Birinchi omil – bu ingliz tilidagi so'zning malay tilidagi ma'nosi to'g'ridan to'g'ri ochib beradigan yoki aniq ma'nosi yo'q bo'lsa qabul qilinadi. Shu o'rinda, texnik va ilmiy atamalar malay tiliga faqat malay tili va uning shevalarida yoki yava, iban va boshqa yaqin tillarda topilmasa qabul qilinadi. Ikkinchi omil shuki, so'zlar malay tilida bo'lsa ham, boshqa tilshunoslik bilan bog'liq atamalarining kelib chiqishiga mos kelmasligi mumkin. Misol sifatida "qorin" so'zi malay tilida "perut". "Qorin og'rig'i" sifatida "sakit perut" ishlata olamiz. Lekin oshqozonga oid kasalliklar va ularga oid nomlarni ishlatganda "perut" ni ishlata olmaymiz. Bunga muqobil inglizcha termin – "gaster". Bu so'zdan kelib chiqqan "*gasterectomy*", "*gastric*" va "*gastrocentrous*". Shu so'z orqali tibbiy-ilmiy ma'no kasb etadi.

Malay tilida o‘zlashtirishning ikkita keng tarqalgan usuli mavjud. Birinchi usul: a) so‘zlarning to‘liq ma’nosi va imlosi bilan qabul qilish, b) ingliz tilidagi so‘zlarning malay tilidagi orfografik imlosiga eng yaqin o‘xshashlikni berish orqali o‘zlashtirish.

Ikkinchi usul esa bir ingliz qo‘shimchasini malay tili tomonidan qabul qilingan boshqa ingliz qo‘shimchasi bilan almashtirish.

Birinchi usul:

a)so‘zlarning to‘liq ma’nosi va imlosi bilan qabul qilish	b) ingliz tilidagi so‘zlarning malay tilidagi orfografik imlosiga eng yaqin o‘xshashlikni berish orqali o‘zlashtirish
motor → <i>motor</i>	quality → <i>kualiti</i> ^{b₁}
editor → <i>editor</i>	innovation → <i>inovasi</i> ^{b₂}
virus → <i>virus</i>	impact → <i>impak</i> ^{b₃}
data → <i>data</i>	executive → <i>eksekutif</i> ^{b₄}
mineral → <i>mineral</i>	museum → <i>musium</i>

Ingliz affikslarini moslashtirish tizimli amalga oshirildi. Quyidagi misollar bu fikrni tasdiqlaydi:

^{b₁}-yasalish. -ry, -try, -gy, -ty qo‘shimchalari bilan tugallanuvchi so‘zlarning o‘zlashishi malay tilidagi -i harfiga o‘zgaradi.

Strategy	<i>Strategi</i>
Industry	<i>Industry</i>
Theory	<i>teori</i>
Diary	<i>diari</i>
Category	<i>kategori</i>
Sympathy	<i>simpati</i>
Economy	<i>ekonomi</i>
Quality	<i>kualiti</i>

^{b₂}-yasalish. Ingliz tilidagi -tion qo‘shimchasi malay tilidagi -si qo‘shimchasi nisbat qilib olingan.

communication	<i>Komunikasi</i>
Demonstration	<i>Demonstrasi</i>
Imagination	<i>Imaginasi</i>

Innovation	<i>Inovasi</i>
Inspiration	<i>Insprasi</i>
Motivation	<i>Motivasi</i>

^b₃-yasalish. Soʻz oʻzlashayotgan vaqtda oxirgi harfning tushib qolishi. -t harfi misolida

Project	<i>Projek</i>
Conflict	<i>Konflik</i>
Concept	<i>Konsep</i>
Product	<i>Produk</i>

^b₄-yasalish. -tive bilan tugaydigan soʻzlaning malay tilidagi -tif ga oʻzgarishi.

Conservative	<i>Konservatif</i>
Sensitive	<i>Sensitive</i>
Positive	<i>Positif</i>
Initiative	<i>Inisiatif</i>
Objective	<i>Objekif</i>
Negative	<i>Negative</i>
Active	<i>Aktif</i>

Ikkinchi usul

- *reformers* → *reformis* (English = reformist)
- *theoretical* → *teoritis* (English = theorist)
- *political scientist* → *ahli sains politik* [science = sains; politics = politik]
- *cultural phenomena* → *fenomena budaya* [culture = budaya]
- *anthropologist* → *ahli antropologi*
- *economist* → *ahli ekonomi*
- *sociologist* → *ahli sosiologi*
- *psychologist* → *ahli psikologi*
- *psycholinguist* → *psikolinguis*
- *determinist* → *determinis*

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, affikslar malay tilida muhim oʻrin tutadi, chunki ularning qoʻllanilishi standart malay tili grammatikasida muhim ahamiyatga ega. Biroq malay tilida affikslarning qoʻllanishi muammo tugʻdirdi. Malay tilidagi affikslarning chegaralanganligi malay tili

lugʻatini boyitish uchun tarjimada xorijiy affikslarni qabul qilishi va moslashtirishi kerakligini anglatadi. Bu affikslarning tarjimasi malay tilida katta muammolarni keltirib chiqaradi. Ingliz tilidagi affikslarning tarjimasiga oid tekshirishlardan bir qancha xulosalar chiqarish mumkin:

- a. Devan Bahasa va Pustaka (Til va kutubxona kengashi) tashkil etilgandan keyin ilk ilmiy-texnik lugʻatlar qiyinchilik bilan tarjima qilingan;
- b. Ingliz tilidan tarjima qilingan lugʻat-qoʻshimchalar toʻgʻridan toʻgʻri tarjima qilinib, gap kontekstiga mos kelmagan;
- c. Malay tilidagi tarjimalardagi baʼzi ingliz prefikslari va qoʻshimchalari koʻrsatmalar yoki terminologiya roʻyxatiga mos kelmagan;
- d. -ic va -ical qoʻshimchalarni qay tarzda tarjima qilish hozirgi kunning muammosi;
- e. Prefikslar yoki qoʻshimchalar malay tiliga bir necha usulda tarjima qilingan;
- f. Eng keng tarqalgan usul soʻz va qoʻshimchalarni maʼnosi va imlosi bilan qabul qilish.

Tadqiqot ingliz tilidan tarjima qilib yasalgan yoki oʻzlashtirilgan soʻzlarda bir qator kamchiliklarning paydo boʻlishi orqali malay tilidagi affiksatsiya sohasining oqsashiga sabab boʻlganligini va bu muammolar qoʻshimcha tekshirish zarurligi haqida dalillar topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Asmah Haji Omar:
 - *The Philippines Journal of Linguistics*. -P, 1984. – h. 12
 - *Essays on Malaysia Linguistics*. Kuala Lumpur, Dewan Bahasa dan Pustaka. -P, 1975
2. Berita Peristilahan. Majlis Bahasa Brunei Darussalam-Indonesia-Malaysia (Mabbim). – P, 1992.
3. Lindquist, Hans (1989): *English Adverbials in Translation: A Corpus Study of Swedish Renderings*, Sweden, Lund University Press.
4. Nik Safiah Karim (1971): “Modernizing Bahasa Malaysia: The Malaysian experience in implementing its national language”, *The Philippine Journal of Linguistics*, vol. 2, 2, pp. 57-69.
5. Quah, C. K. (1999). Issues in the Translation of English into Malay.

ЗАПИСКИ О КОШАЧЬЕМ ГОРОДЕ: КИТАЙСКАЯ ФИЛОСОФИЯ И ИСТОРИЯ В РОМАНЕ ЛАО ШЭ

Хуришид ТОЛИБОВ

ТГУВ, Студент 4-го курса китайской филологии

Научный руководитель:

PhD, доцент и.о. Л.А. Султанова

Аннотация: Китайская литература XX в. обогатилась жанрами и жанровыми модификациями, которые сочетались с попытками реформировать традиционную форму. В начале прошлого века на поэтической арене преобладали представители «сунской школы» и в области романа господствовали нравоописательное и авантюрно–героическое направления. В это время роман был доминирующим жанром. Наибольшую известность имели «обличительные романы», которые вскрывали язвы старого Китая. Видное место в литературе занимало просветительство, которое знакомило читателей с жизнью разных народов. Появляются многочисленные переводы европейских классиков, а также писателей Америки, Японии, Индии [1, с. 167]. **Лао Шэ** (老舍 1899–1966) – один из первых китайских писателей, который привнес в китайскую литературу жанр антиутопического романа, который не был характерным для китайской литературы, чем и обуславливается наш интерес к данному произведению.

Ключевые слова: Лао Шэ, китайская литература, Китай, традиция, кошка, роман, философия, история, культура.

Лао Шэ (老舍 1899–1966) – один из первых китайских писателей, который привнес в китайскую литературу жанр антиутопического романа, который не был характерным для китайской литературы, чем и обуславливается наш интерес к данному произведению. В силу жизненных и творческих обстоятельств Лао Шэ был хорошо знаком с мировым искусством слова. Знание английского языка позволило ему познакомиться с английской литературой. В переводах на английский язык писатель также познакомился с русской литературой. Ему как писателю были близки герои Ч. Диккенса, У. Теккерея, а потом и Л.Н. Толстого, М. Горького, А.П. Чехова, Ф.М. Достоевского. Лао Шэ рос в бедной семье. В раннем детстве он потерял отца, погибшего во время усмирения восстания Ихэтуаней. С шести лет обучался в частной школе, через несколько лет перешел в государственную начальную школу. После окончания Лао Шэ удалось поступить за казенный счет

в педагогическое училище. В 1917 году писатель закончил училище и сразу же стал директором одной из пекинских начальных школ. Преподавал язык и литературу в средней школе при Нанькайском университете в Тяньцзине. В 1919 писатель возвращается в Пекин, где он поступил вольнослушателем в Яньцзинский университет, изучал английский язык.

После «литературной революции», произошедшей в связи с событиями «движения 4 мая», которое обозначило поворот во взглядах китайской интеллигенции и массовую переориентацию с традиционной культуры на вестернизацию, затронуло все стороны интеллектуальной жизни Китая, ознаменовалось распространением разговорного языка байхуа, пересмотром конфуцианских этических норм, критикой традиционной историографии, новыми требованиями к образованию, осмыслением республиканской формы, – Лао Шэ опубликовал в студенческом журнале свой первый рассказ. В 1924 году он уехал в Великобританию преподавать китайскую словесность сначала в Лондоне, а затем и в Оксфорде. В этот период Лао Шэ пишет «Философию достойного Чжана» («張議員的哲學»), который был опубликован в журнале «Ежемесячник прозы» в 1926 году.

В 1933 г. была издана книга Лао Шэ «Записки о кошачьем городе» («猫城记»). Китай переживал сложные времена и этот роман явился сатирической моделью китайского общества 1930-х гг. и был направлен против режима Гоминьдана. Роман-антиутопия вскрывал коррупционные схемы того времени и критиковал внутреннюю и внешнюю политику Китая. В целом в произведении Лао Шэ исследуются многие черты китайского национального характера, и сатира направлена как на консерваторов-традиционалистов, так и на радикалов. Именно этим характеризуется новаторский характер данного произведения писателя. Ряд работ русских и китайских литературоведов, касающихся творчества Лао Шэ, носят в основном общий характер. Довольно значительное место творчеству Лао Шэ отведено в работах В.И. Семанова [4], О.Б. Болотиной [3], А.А. Антиповского [2]. Также имеются разделы о творчестве Лао Шэ в книгах китайских литературоведов, в частности, Ван Яо [5]. Но и в работах соотечественников автора довольно кратко дается обзор его творчества. В качестве переводчика романа на русский язык выступил В. И. Семанов [4].

Роман «Записки о кошачьем городе» Лао Шэ написан в 1940-х годах и является одним из наиболее значимых произведений китайской литературы XX века. В нем прослеживается сильное влияние китайской

культуры и истории, которое сказалось на формировании многих тем и символов в романе. Одной из наиболее ярких черт китайской культуры, которая нашла отражение в романе, является ее глубокий философский характер. Кошки в романе, например, являются символом трансцендентности и бессмертия, а их взгляд на мир является более эстетическим и гармоничным, чем у людей. Таким образом, китайская философия и мировоззрение сильно влияют на главные темы и символы романа. Еще одним важным аспектом, который оказал влияние на роман, является история Китая. Роман был написан в период национального кризиса в Китае, когда страна столкнулась с многочисленными проблемами, такими как политические расколы, войны и экономический кризис. Эти проблемы отразились в романе, который является критикой городской жизни, а также представляет кошек как символ жизни и возрождения. Однако, несмотря на то, что роман является продуктом китайской культуры и истории, его отношение к современной Китайской Республике было сложным. После того как Коммунистическая партия Китая пришла к власти в 1949 году, многие из произведений Лао Шэ были запрещены в Китае, в том числе и «Записки о кошачьем городе». Это было связано с тем, что роман, хотя и был написан до прихода Коммунистической партии к власти, содержал многие антикоммунистические идеи, которые противоречили официальной идеологии. Тем не менее, роман «Записки о кошачьем городе» продолжал оставаться популярным среди китайских читателей за пределами Китая, а также получил признание за рубежом. В современной Китайской Республике роман стал символом свободы мысли и выражения, а его главные темы и символы, такие как критика городской жизни и идеалы эстетики, по-прежнему остаются актуальными. Некоторые китайские исследователи считают, что роман «Записки о кошачьем городе» является примером того, как китайский национальный дух и культурные традиции могут быть сохранены в условиях глобализации и унификации. Роман открывает возможности для рефлексии над традиционными китайскими ценностями и идеалами, а также заставляет задуматься над тем, как сохранить китайскую культуру и историю в мире, который все более становится международным и космополитичным.

Таким образом, можно сделать вывод, что роман «Записки о кошачьем городе» является важным произведением китайской литературы, которое отражает влияние китайской культуры и истории на его создание, а также их отношение к современной Китайской Республике.

Закключение. Роман «Записки о кошачьем городе» Лао Шэ является одним из наиболее значимых произведений китайской литературы XX века. В романе прослеживается влияние китайской культуры и истории на формирование тем и символов. Кошки в романе являются символом трансцендентности и бессмертия, а их взгляд на мир является более эстетическим и гармоничным, чем у людей. История Китая также оказала влияние на роман, который является критикой городской жизни и представляет кошек как символ жизни и возрождения. Роман был запрещен в Китае после прихода Коммунистической партии к власти из-за содержащихся в нем антикоммунистических идей, но за пределами Китая он оставался популярным и получил признание за рубежом. Роман стал символом свободы мысли и выражения в современной Китайской Республике, открывая возможности для рефлексии над традиционными китайскими ценностями и идеалами. Он также является примером того, как китайский национальный дух и культурные традиции могут быть сохранены в условиях глобализации и унификации. Роман Лао Шэ также известен своей философской глубиной и метафорической символикой. Кошки, которые в романе обладают человеческими качествами и образуют свой собственный мир, представляют собой аллессию на тему человеческой природы и общества. Роман также известен своим проникновенным описанием природы и окружающей среды, что свидетельствует о глубоком уважении автора к природе и ее роли в жизни человека.

Кроме того, «Записки о кошачьем городе» являются примером использования мифологических и литературных элементов китайской культуры в литературе XX века. В романе используются мотивы из традиционной китайской поэзии, живописи и фольклора, что придает ему особую глубину и значимость. Также стоит отметить, что роман «Записки о кошачьем городе» стал значимым произведением не только для китайской литературы, но и для всего мирового искусства. Он вдохновил многих современных писателей и художников, а также стал объектом исследований в области культурологии, литературоведения и философии. Кроме того, роман представляет собой своего рода мост между традиционной китайской культурой и современным миром. Он показывает, как культурные ценности и традиции могут быть переданы через литературу и искусство, сохраняя свою значимость и актуальность в условиях глобализации и культурных перемещений.

В целом, роман «Записки о кошачьем городе» является не только важным произведением китайской литературы XX века, но и уникальным шедевром мировой литературы, который продолжает вдохновлять и просвещать читателей по всему миру.

Список использованной литературы:

1. Турушева, Н. В. Современная китайская литература как отражение социальных процессов в КНР. Вестник Томского государственного университета. –2014.№383. –С.167.
2. Антиповский, А.А Раннее творчество Лао Шэ. Темы, герои, образы сюжеты–М; Наука,1967–187с.
3. Болотина, О.Б. Лао Шэ Творчество военных лет: 1937–1949 – [М] Наука, 1983 – 231с.
4. Семанов, В.И. Предисловие // Лао Шэ. Записки о кошачьем городе. – М.: Муравей, 2000.

Ссылки:

1. cyberleninka.ru/article/n/sovremennaya-kitayskaya-literatura-kak-otrazhenie-sotsialnyh-protsessov-v-knr
2. www.orient.spbu.ru/images//knigi/A.A.Rodionov%20-%20Laoshe.pdf
3. cyberleninka.ru/article/n/otrazhenie-literaturnogo-protssessa-v-kitae-40-50-h-godov-hh-veka-v-rabotah-otechestvennyh-kitayskih-i-zapadnyh-issledovateley
4. http://lib.ru/INPROZ/SHE/cat_town.txt

“FAROSAT” UMUMIY MA’NOLI MAQOLLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Fotima SAYFULLAYEVA

Navoiy davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti fakultet 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.d., v.b. dotsent F.H. Yuldashev

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollarida “farosat” umumiy semali maqollarning tarbiyaviy ahamiyati yoritildi. “Farosat” umumiy ma’noli sinonimlarning maqollarda qanday leksik va uslubiy ma’nolarda kelishi asoslandi. Maqollar zamirida “ma’naviyat” semasi va

uning leksik-semantik kategoriyalarining aks etishi va ularning yosh avlod uchun tarbiyaviy ahamiyatga egaligi asoslab chiqildi.

Kalit soʻzlar: Maʼnaviyat, farosat, zakovat, tarbiyali, fahm, xalq maqoli, aql-zakovat.

Maʼnaviyat jamiyat taraqqiyotining muhim omili boʻlar ekan, u nafaqat bugungi madaniy boyliklarga, qadriyatlarga, zamonaviy tamoyillarga, shu bilan birga xalqimizning koʻp asrlik maʼnaviy merosiga ham tayanadi. Har bir xalqning maʼnaviyati nafaqat oʻzining milliy omillari, shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarning taʼsiri natijasida ham amal qiladi. Shu maʼnoda milliy mustaqilligimizni mustahkamlashning maʼnaviy-axloqiy negizlaridan biri umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik hisoblanadi. [1:78]

Maqol va matallarda, naql va barqaror iboralarda xalqning hayotiy muammolari mehnat-mashaqqati, gʻam-anduhi, rohat-farogʻati, muvaffaqiyat va magʻlubiyati, rasm-rusumlari maʼnaviyati hamda madaniyati–hamma-hammasi koʻzgudagidek aks etib turadi. Bu koʻhna xalq ijodi qachon va qanday vaziyatda, kim tomonidan yaratilganligini aniq aytish qiyin. Ammo maqollar xalqimizning noyob durdonalaridir. Har holda, bu sodda va murakkab, turgʻun va barqaror iboralarni maqol va matallarni ixcham, loʻnda va chuqur mazmunli naqlarning yaratilishida oddiy ijodkor xalq bilan birga uning madaniyati, maʼnaviyatidan, urf-odatidan kelib chiqib olim-ulamolarning hissalarini ham katta boʻlgani, shubhasiz. Demak, maqollarda xalqimizning urf-odatlari, anʼanalari aks etadi.

Maqollar bejizga yaratilmaydi. Har birining zamirida olam-olam maʼnaviyat yotadi. Maqollarni hayot qomusi, xalq ogʻzaki ensiklopediyasi, oʻziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini oʻtkirlashtiradi, nutqini ravshan va taʼsirchan qiladi, hayotda toʻgʻri yoʻlni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni toʻgʻri yechishga oʻrgatadi. Shuningdek, maqollar oʻz ijodkori boʻlmish xalqning dunyoqarashini, madaniy, maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik ogʻzaki ijod namunalari sifatida juda qadimiydir. maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik ogʻzaki ijod namunalari sifatida juda qadimiydir.

Maʼlumki, tarbiya koʻproq taʼlim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kundan boshlab, bilim olishga havas tuygʻusi shakllantiriladi. Ularda asta-sekin bilim olishga ehtiyoj paydo boʻladi va bu orqali oʻquvchilar maʼnaviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, xayr-u ehsonda sofdillik, ona Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik, milliy gʻurur, matonat, mehr-oqibat, doʻstlik, ezgulik kabi yuksak hislar paydo boʻladi.[2] Albatta,

bu jarayonda xalq maqollarining o'zni beqiyosdir. Jumladan, maqol janridagi asarlar ham boladagi qo'pollik, qo'rslik, yolg'onchilik, yalqovlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi. Xalq maqollari asrlar davomida sayqal topib, mumtoz qiyofa va mazmun kasb etgan, nutqda faol ishtirok etuvchi paremik birlik sifatida xalq qadriyatlari, urf-odat va an'analari, tarix va madaniyat, ta'lim va tarbiya, odob-axloq masalalari talqini va tavsifini, umuman, millat mentalitetini to'la namoyon etuvchi ko'p qirrali hodisadir. Xalq og'zaki ijodi tomonidan yaratilgan maqollarning mavzu doirasi keng va rang-barangdir. Xalqning til boyligi-uning bo'yoqdor, serjilo leksikasining, frazeologiya qatlamining boyligi bilan ham o'lchanadi.

Maqollar o'z navbatida pedagogika sohasida, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonida bizga eng kerakli, vaqt sinovidan o'tgan ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi. Maqollar to'plamlarda yetmishdan ortiq mavzu guruhlariga bo'lingan. Ularning ichida nutq madaniyati, muomala, muloqot odobi masalasiga oidlarining o'zi ichki tasniflashda *oz so'zlash, tinglash, sukut saqlash, shirinso'zlik, to'g'ri so'zlash, mushohadakorlik, Vatan, kasb-hunar, farzand tarbiyasi, farosat* va hokazo mavzularni o'z ichiga oladi. Albatta, biz ulardan o'z o'rnida unumli va o'rinli foydalansak, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Mana shu mavzulardan biri "farosat" umumiy ma'noli leksik birliklarning maqollarda ifodalanishini tahlil qilamiz.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "farosat" so'zi quyidagicha izohlangan: Farosat [a. y – samimiyat, ziyraklik; zakovat, o'tkir aql]. Kishidagi tez va to'g'ri fahmlay olish qobiliyati, sezgisi; fahm; zakovat; did. [3:331]

O'zbek tilida "farosat" va unga oid terminlar bilan bog'liq izohlar turli adabiyotlarda ma'nodoshlari va uyadoshlari bilan izohlanadi. Azim Hojiyevning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"da *farosat* so'zining *farosatli, zehnli, didli, zakovatli, zukko, zakiy, zol* kabi sinonimlari berilgan. *Zehn* – "farosati yaxshi" ma'nosini anglatadi. *Zukko, zakiy* nisbatan eskirgan xususiyatga ega. *Zakovatli* yozma nutqda uchraydi. *Zol, zakovatli* aql-farosati juda kuchli bo'lgan, asosan, katta yoshdagi kishilarga nisbatan qo'llanadi. [4:207] Bundan tashqari, "farosat" umumiy ma'noli birliklar bilvosita *aql, idrok, fahm* kabi semalarni o'z ichiga oladi. "Farosat" umumiy ma'noli maqollarni tahlil qilib ko'ramiz.

"O'zbek xalq maqollari"da "farosat" mavzuiy guruhi quyidagi ma'noviy uyalarga bo'linadi:

1. "Farosat" semasi qatnashgan maqollar: Farosatni befarosatdan o'rgan. Farosatsiz odamdan til bilmas hayvon yaxshi. Farosatsiz falokatga

yo‘liqar. Til – aqlning qilichi, farosat g‘ilofi. Shogirdning befarosati Ustozni muttaham qilar.

2. “Fahm” semasi qatnashgan maqollar: Befahmning dardi o‘ziga yuk. Bir gapning qirq fahmi bor.

3. “Ziyraklik” semasi qatnashgan maqollar: Do‘stingga do‘st bo‘l, Dushmaningga–ziyrak. Aqli kirmagan qaridan, Ziyrak tug‘ilgan bola yaxshi. Ziyrakning aqli tosh yorar, Nomardning mushti bosh yorar O‘z aqling aqlidir, Elning aqli naqlidir. Aqli kirmagan qaridan, Ziyrak tug‘ilgan bola yaxshi.

4. “Zehn” semasi qatnashgan maqollar: Yigitning zehnli bo‘lgani – Adashmay yo‘lidan yurgani. Zehn qo‘ysa, ong qo‘nar, Hunar ortsa, ish unar.

5. “Did” semasi qatnashgan maqollar: Didli yigit – ilmi yigit. [5:512]

“Farosat” umumiy ma’noli maqollarning tarbiyaviy ahamiyati juda yuqoridir. Masalan, *farosatsiz odamdan til bilmas hayvon yaxshi* maqolida farosatning qanchalik muhim fazilat ekanligi, uning har kimga ham beravermasligi, hatto farosatsiz odamdan ko‘ra ongsiz til bilmaydigan hayvonning yaxshi ekanligi aytilmoqda.

Ziyrakning aqli tosh yorar, Nomardning mushti bosh yorar. Ushbu maqolda *ziyraklik va aql* haqida fikr yuritiladi, ya’ni ziyrak insonning aqli har qanday ishga qodir, hattoki, toshni yorishga ham, nomard insonning kuchi faqatgina boshni yorishga qodir. *Bir gapning qirq fahmi bor.*

Fahm va farosat ko‘pincha juftlashib birgalikda qo‘llanadi. Maqolda har bir gapirgan gapimizning qirqta fahmi borligi, ya’ni, purma’nolar fikrlar ko‘pligi aytilyapti. *Til – aqlning qilichi, farosat g‘ilofi.* Demak, til bilan farosat yonma-yon yuradi. Tildagi so‘zlarini to‘g‘ri qo‘llay olgan kishi farosatli bo‘ladi. Har qanday farosatli kishi qayerda qanday gapirish kerakligini biladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, farosat kerakli fazilatdir. Yosh-u qarida bu fazilat bo‘lishi kerak. Farosat, avvalo, oiladan boshlanadi. Yosh avlodga farosatni o‘rgatish zimmasi farosatli ayollar zimmasiga tushadi. Ona farosatli bo‘lsa, albatta, farzand ham farosatli bo‘lib ulg‘ayadi. Insonlar orasida farosat yo‘qolib ketmasligi uchun ham xalqimiz tomonidan mana shunday maqollar yaratilmoqda. Maqollarning tub mohiyatini anglash biz uchun ma’nolar xazinasiga yo‘l hisoblanadi. Aql-farosat egalarigina buyuk yurti qura olishadi. Demak, “farosat” umumiy ma’noli maqollarning biz uchun tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Nafaqat “farosat” umumiy ma’noli maqollar balki, maqollarimizning barchasida sharqona tarbiya odob-axloq g‘oyasi yotadi. Bu maqollar xalqimizning qon-qoniga singib ketgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. Toshkent. 1992 yil. B – 78.
2. <https://zenodo.org>
3. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.I. – Toshkent: O'z. ME, 2006 yil. – B. 369
4. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1974 yil. – B. 308.
5. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent.: Sharq nashriyoti, 2006 yil. – B. 512.

XITOIY TILIDA JOY NOMLARINING IFODALANISHI

Dilmira MAMIDOVA

TDSHU, Xitoyshunoslik fakulteti 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: J.T. Kuralova

Annotatsiya: Xitoy tilida joy nomlarini madaniy tomondan tahlil qilish orqali, ularning kelib chiqishi, chuqur tarixi, ma'lum bir joy nomining qanchalar chuqur ma'no anglatishini o'rganish, madaniy tomondan uning qay darajada baholanishi va qadrlanishini bilish, ularni lingvistik tomondan ham tahlil qilishni bilish.

Kalit so'zlar: Xitoy joy nomlari, Xitoy madaniyati va an'analari, geografik joy nomlari, rivojlanish, iqtisod, madaniyat, ma'naviyat

Joy nomlari lisoniy hodisa bilan bir qatorda madaniy hodisa hamdir. Geografik nomlar til belgilarining bir turidir, tildagi so'zlar sifatida joy nomlari, avvalo til lug'atining ma'lum qoidalariga rioya qilish natijasida hosil bo'lgan qismidir, joy nomlari lingvistik lug'atsiz shakllanmaydi. Joy nomlari ma'lum so'zlar bilan ifodalanib, til va belgilar orqali tasvirlanadi. Ularning xarakterlari, tabiati, tuzilishi va rivojlanishini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Ko'pgina joy nomlarini bir o'qigandayoq, familiya, o'simlik nomlari yoki tabiiy geografik obyektlar bilan bog'liq nom nazarda tutilayotganini bilishimiz mumkin. Bu joy nomlarida so'zlarning qo'llanish tarixi, so'zlarning tabiati va tuzilishini o'rganishdan iborat ekanligini ko'rsatadi. Masalan, Pingdingshan (平顶山 *píng dǐng shān*)¹ yonidagi Yinyan (淫阳 *yín yáng*), u yerda tog'lar va suvlar, tuproq va hasharotlar borligi sababli

¹ 魏宏泽."公示语汉语地名及英译的转喻解读." *上海理工大学学报(社会科学版)* ..

“loyqalik”(浊 *zhuó*) soʻzi paydo boʻlgan. “Tsi Xay” izohli lugʻatida bu soʻzning talqini quyidagicha: u Xenan provinsiyasidagi joy nomiga ishora qiladi deyilgan; yana bir misol, Pingdingshan (平顶山 *píng dǐng shān*), Lushan(鲁山 *lǔ shān*) okrugidagi aylana lagerining nomi, asl iyeroglifi “yumaloq”(滚). Biroq “yumaloq”(滚) va “zi”(子) belgilari tabiatan bir-biriga mos kelmaydi, agar uning oʻrniga singan toshlardan yasalgan “kosa”(碗) soʻzi yozilsa, “zi”(子) soʻzi iboraga aylanishi mumkin va matn alifbo tartibida boʻladi. “Lushan okrugi yilnomalari”ga koʻra(鲁山县志), Nianzi(碾子) koʻprigining eski nomi boʻlsa, bu yerda “Nianzi”(碾子)ni “yaxmalak/gʻaltak”(碾子) ga oʻzgartirish mumkin. Tahlillar orqali, 水滚滚¹ iyeroglifidagi 滚 soʻzi, “qoʻl yozma”(手头子) xatoligi ekanligi tushuniladi. Joy nomlar maʼlum bir talaffuz, maʼnoga ega boʻlib, odatda, talaffuz, shrift va semantikaning birikmasi boʻlgan yozma shaklga ega boʻladi. Uning tarkibi maʼlum bir grammatik qoidalarga va oʻziga xos ifoda vositalariga ega, demak, joy nomlari tilshunoslarning tashvish obyektiga aylanadi, bular joy nomlarining tildan tashkil topgan timsollar tizimining ichki tuzilishini aks ettiruvchi aniq shakllardir. Moddiy sivilizatsiya, ijtimoiy tuzum, qadriyatlar, tafakkur tarzi, estetik didi, diniy eʼtiqodlari, urugʻ oilalari, turmush urf-odatlar, harbiy siyosat va boshqalar kabi joy nomlarining shakl va tuzilishi ortida aks ettirilgan madaniy maʼnosi, uning retsessivligi, bu joy nomlarining jismoniy dunyosini, madaniy dunyosini va psixologik olamini aks ettiruvchi joy nomlarining chuqur qatlamidir. Odamlar koʻpincha til tarkibidagi koʻplab madaniy omillarni koʻrsatish uchun “Lingvistik paleontologiya” (语言的古生物学 *yǔ yán de gǔ shēng wù xué*)²dan foydalanadilar, bu omil Xitoy joy nomlari tizimida ham mavjud. Masalan, sharqda Yalu daryosidan(鸭绿江 *yā lǜ jiāng*)boshlanib, gʻarbda Jiayuguan(嘉峪关) shahrigacha boʻlgan qadimiy buyuk arxitektura- Buyuk Xitoy devori (万里长城) maʼnosida shunchaki yozuv emas, balki u timsol hamdir. U Xitoy xalqi tarixidagi turli etnik guruhlarining ziddiyatlari, integratsiyasi va Xitoy xalqining anʼanaviy madaniyati ramzi hisoblanadi. Bu Xitoy sivilizatsiyasining ramzi, insoniyatning qimmatli tarixiy va madaniy merosi. Yana bir misol, Xitoy xalqining beshigi va Xitoy xalqining ona daryosi deb ataladigan Xuanxe (黄河) daryosi va Yangszi(长江) daryosi endi shimol va janubdagi eng katta daryo emas, balki ularning muqaddasligi, buyukligi, kuchi va ulugʻvorligi tufayli, ular Xitoy xalqi ruhining ramziga aylandi. Yana bir misol, bugungi

¹ 瞿元庆. 《汉语大字典 (第二版) 》所收地名用字研究[D].四川外国语大学, 2018.

² 高彩慧. 汉语地名中的方向方位词的认知探讨[J]. 汉字文化, 2022, (23):19-21.

kun shoiri Li Bai (李白 *lǐ bái*) ning asrlar davomida o‘n besh marta kuylagan mashhur binosi- Sariq turna minorasi (黄鹤楼 *huáng hè lóu*) allaqachon binoning o‘zidan oshib ketgan, u madaniyat va ruhning vakiliga aylandi, usiz Uxanda (武汉 *wǔ hàn*) tarixiga sahifa yetishmaydi, usiz Yangszi (长江 *cháng jiāng*) daryosi tutiladi, u mashhur “Guiyuan ibodatxonasi” (归元寺 *guī yuán sì*) va mashhur “Xalq jannati” (民众乐园 *mín zhòng lè yuán*) bog‘i bilan birga Uxan (武汉 *wǔ hàn*) ning ramziga aylandi. Shu sababli, boy madaniy merosga ega Xitoy joy nomlari alohida madaniy hodisa, insoniyat madaniyatining tirik qoldiqlari, Xitoy madaniy merosining muhim jihati, Xitoy madaniyatining juda muhim qismidir, Xitoy madaniyati esa, Xitoy moddiy madaniyati, institutsional madaniyati va ma’naviy madaniyati rivojlanishining ta’sirida va cheklanishi ostida shakllangan. U Xan (汉 *hàn*) madaniyati kuchiga ega bo‘lib, Xan (汉 *hàn*) millatining madaniy mentaliteti va xalq urf-odatlarini ozida mujassam etgan.

Xulosa o‘rnida, Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda, xitoycha joy nomlarining ko‘p mazmuni mamlakat ijtimoiy madaniyati, ijtimoiy hayoti, milliy madaniyati va etnik migratsiya bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin. Xitoy joy nomlarini o‘rganish orqali biz nafaqat turli joylarning tabiiy landshaftlari va tabiiy-madaniy joy nomlarini o‘rganishimiz, joy nomlari va geografik muhit o‘rtasidagi munosabatlarni chuqur tushunishimiz, bundan tashqari, Xitoy xalqining tafakkuri, g‘oyalari va psixologik xususiyatlarini tushunish va tarixdagi yirik siyosiy o‘zgarishlarini ko‘rsatish mumkin. Siyosiy o‘zgarishlar, iqtisodiy yuksalish va pasayish, etnik migratsiya, diniy e’tiqod va boshqa shart-sharoitlar cheksiz boy madaniy kannotatsiyalar maqsadini joy nomlari nuqtai nazaridan ro‘yobga chiqarishda katta ahamiyatga ega. Xitoycha joy nomlarini o‘rganish orqali biz ijtimoiy hayotning barcha jabhalari- moddiy ishlab chiqarish, siyosat, harbiy ishlar, iqtisod va hatto mafkurani chuqurroq anglashimiz mumkin. Janob Feng Jicai (冯骥才 *féng jì cái*) ¹“ Joy nomlarining ma’nosi (地名的意义 *dì míng de yì yì*) maqolasida ta’kidlaganidek, “Joy nomi shunchaki ma’lum bir hududning nomi emas, joy nomi, hayot va hayot bilan bo‘liq boy va chuqur ma’noga ega”. Xitoycha joy nomlari “o‘zining noyob tarixiy madaniyatini bosqichma-bosqich shakllantiruvchi”, “mahalliy tuyg‘ularga ta’sir qiluvchi” va “betakror tarixiy madaniyati” mavjud. Agar keng va chuqur Xitoy an’anaviy madaniyati Xitoy joy nomlari uchun boy ma’nolarni anglatadigan bo‘lsa, unda Xitoy joy nomlari Xitoy an’anaviy madaniyating yorqin misoli bo‘la oladi. Joy

¹ 陈思. 对外汉语视域下的温州地名教学研究[D].西南大学,2018.

nomlari nafaqat Xitoy xalqining umumiy madaniy xususiyatlarini, balki ayrim mintaqaviy madaniyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 《汉语大词典》，汉语大词典出版社，2012年。
2. 《河南省平顶山市地名志》，天津人民出版社，2008年。
3. 《湖北省县概况》，湖北省地方志编纂委员会出版，2012年。
4. 《平顶山市志》，河南人民出版社，2014年。
5. 《实用中国地图集》，西安地图出版社，2014年。
6. 谭安强.旅游汉语中的中国地名教学.2022.兰州交通大学,MA thesis.

XITOIY VA O'ZBEK TILLARIDAGI TABULARNING QIYOSIY TAHLILI

Nafisa NORBEKOVA

TDSHU, Xitoyshunoslik fakulteti 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: J.T. Kuralova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xitoy va O'zbek tilidagi tabu so'zlar, ularning orasidagi farqlari ochib berilgan. Shuningdek Xitoy va O'zbek tilidagi tabu so'zlar qiyosiy tahlil qilingan. Bundan tashqari tabu so'zlarning ijtimoiy hayotga ta'siri borasida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: tabu, Jeyms Kuk, Polineziya, tilshunoslikdagi tabu so'zlar, evfemizmlar, so'kish oid tabu so'zlar, falokat oid tabu so'zlar, ismlarga oid tabular, mavzulariga oid tabular

Tabu¹ (polonezcha – taqiqlash) – ibtidoiy jamiyat bosqichidagi xalqlarda tarqalgan taqiqlash tizimi. Bu so'z aslida Polineziyada paydo bo'lib, dastlab mashhur ingliz dengiz sayyohi Jeyms Kuk (1728-1779) tomonidan Yevropaga ma'lum qilingan va bayon etib berilgan. Polineziya xalqlarida² tabu tizimini kim buzsa, rioya qilmasa, zodagonlar tomonidan qattiq jazolangan. Tabu obyektlari – buyumlar, so'zlar, hayvonlar va boshqa narsalar bo'lishi mumkin. Hozirgi davrda ham tabuning ba'zi ko'rinishlarini

¹ Mead, Margaret (1937). "Tabu". *Encyclopaedia of Social Sciences*.

² Пучков П.И. Этническая ситуация в Океании, М., 1985;

uchratish mumkin. Masalan, tilshunoslikda muayyan soʻzlar, iboralar yoki atoqli otlarni qoʻllashni taqiqlash, man etish.

Tilshunoslikdagi tabu soʻzlar. Agar suhbat davomida odamlar beixtiyor tabu soʻzni aytsa, boshqa odam xafa boʻlib, noqulay vaziyatni keltirib chiqaradi. Shuning uchun biror bir inson bilan suhbatlashayotganimizda tabu soʻzlarni notoʻgʻri ishlatmaslikka alohida eʼtibor qaratish, muqarrar boʻlsa oʻrniga evfemizmlarni qoʻllash kerak.

Evfemizmlar¹. Tilning taqiqlangan elementlaridan foydalanishdan farqli oʻlaroq, odatda taqiqlangan mavzular haqida aniq eslatmaslik uchun ishlatiladi. Ijtimoiy oʻzaro munosabatlarda evfemizmlar maʼruzachi yoki ularning tinglovchilari uchun salbiy, uyatli yoki boshqa noqulay deb topilishi mumkin boʻlgan mavzularga toʻgʻridan-toʻgʻri murojaat qilishdan qochish uchun ishlatiladi.

Umuman olganda, tabu soʻzlar quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. Soʻkishga oid tabu soʻzlar (脏话类禁忌词语)²

Bu yerda soʻkish, xususan, boshqalarni haqorat qilishga ishora qiladi, bu tildagi soʻkinishning eng qadimgi va eng qoʻpol shakli sifatida qaralishi mumkin. Bunday tillarga ixtisoslashgan olimlar uchun soʻkinish psixologiyada avtomatik stressga javob sifatida ham hisoblanadi.

Qadimgi oʻzbek tilida soʻkinish soʻzlari jinoyatchilar, jodugarlar va boshqalar tomonidan ishlatiladigan soʻzlardan olingan va jodugarlar bu soʻzlarni boshqalarni laʼnatlash uchun ishlatishgan. Keyinchalik soʻkinish soʻzlar asta-sekin vulgarizm³ boʻlib, koʻpincha jinsiy aʼzolarning qoʻpol maʼnolari va jinsiy aloqa maʼnolari bilan bogʻlanib, jamiyatda qabul qilib boʻlmaydigan tabu soʻzlarga aylandi. Haqorat qilish va soʻkish Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksida fuqarolar-ning huquq va erkinliklariga tajovuz qiladigan huquqbuzarlik sirasiga kiritilgan. Ushbu kodeksning 41-moddasiga koʻra, Haqorat qilish eng kam ish haqining 20 baravaridan 40 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

Har bir tilda man etilgan soʻkinish soʻzlari mavjud boʻlib, ular tabu soʻzlarning eng qoʻpol boʻlib, muloqotda tabu hisoblanadi. Masalan, xitoy tilida “小兔崽子” (ablah), “猪猡” (choʻchqa), “去死吧” (jahannamga ravona

¹ Lockwood, W. B. (1955). "Word Taboo in the Language of the Faroese Fishermen". Transactions of the Philological Society.

² 维卡 (Polikarpova Viktoriia) . 汉俄禁忌语对比研究[D].哈尔滨师范大学,2020.

³ Johannes Tromp, The Assumption of Moses: A Critical Edition with Commentary, Studia in Veteris Testamenti Pseudepigrapha (Brill, 1993), pp.

bo‘l), “弱智” (ahmoq) va boshqalar; o‘zbek tilida “jin ursin”, “esi past”, “tentak”, “bezbet” va shu kabilardir.

2. Falokatga oid tabu so‘zlar (灾祸类禁忌词语)¹

Insoniyat odatda ofatlar bilan bog‘liq mavzularda tabu hisoblanadi va eng jiddiylari kasalliklar, baxtsiz hodisalar va o‘limdir. Bu tabu so‘zlar omadsiz va kelajakda baxtsizlik olib keladi deb hisoblanadi. Shuning uchun odamlarni tushkunlik va noqulay his qilishadi, hattoki o‘zbek xalqida shunday so‘zlar ishlatilganda “Nafasini shamol uchirsin” degan ibora ham qo‘llaniladi. Bu ibora o‘sha tilga olingan kasallik, baxtsiz hodisa yoki o‘lim hech qachon sodir bo‘lmasin, shamol bilan uchib ketsin degan ma‘noni anglatadi. Odatda suhbatda bu kabi so‘zlarga aloqador mavzular ko‘pincha ko‘tarilmaydi va bunday so‘zlarni ishlatish kerak bo‘lganda, o‘rniga evfemizmlar qo‘llaniladi. Masalan, o‘lim haqidagi tabu so‘zlarini misol qilib olsak, xitoy tilida odatda “老了”, “走了”, “去了”; o‘zbek tilida “vafot etdi”, “olamdan ko‘z yumdi”, “olamdan o‘tdi” va shu kabilardir².

“Kasallik” mavzusi ham umumiy tilda tabu, odamlar kasallik haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri gapirmaydilar, chunki oddiy shaxslararo muloqotda kasallik taqiqlangan mavzudir va odamlar sizning sog‘lig‘ingiz haqida eshitishni xohlamaydilar.

Mavzular, ayniqsa olomonda, hech kim boshqa odamlarning kasalliklari, ular qanday tashxis qo‘yilgani va azoblanishi haqida eshitishni xohlamaydi.

Umuman olganda, agar xitoyda falokat bilan bog‘liq tabu so‘zlar beixtiyor tilga olinsa, ko‘pincha ularni qaytarishning qat’iy yo‘llari mavjud. Masalan, agar siz omadsiz tabu so‘zini aytsangiz yoki ma‘lum bir tabuni buzganingizda siz “呸呸呸” (“pēi pēi pēi”) deyishingiz yoki joyingizda turgan holatda sakrashingiz kerak.

3. Ismlarga oid tabular(姓名称谓禁忌)

Zamonaviy xitoycha ismlar odatda ikki qismdan iborat bo‘lib, avval familiya, keyin esa birinchi ism, masalan, “周树人” (Chjou Shuren), “马云” (Ma Yun), “刘诗诗” (Liu Shishi), “姚明” (Yao Ming) va boshqalar. Xitoyda odatda odamlarni to‘liq ismlari bilan chaqirishmaydi. Oqsoqollar yoki yuqori martabali kishilarning ismlari bilan chaqirish mutlaqo mumkin emas. Umumiy muloqotda ismlar teng maqomga ega va o‘xshash yoshdagi

¹ 郭美彤. 来华留学生禁忌语教学研究[D]. 沈阳师范大学, 2018

² Lockwood, W. B. (1955). “Word Taboo in the Language of the Faroese Fishermen”. Transactions of the Philological Society.

odamlar orasida kamdan-kam ishlatiladi. Xitoyliklar ko‘pincha hurmat ko‘rsatish uchun odamlarning familiyalari va kasblarini birga qo‘llash orqali bir-birlariga murojaat qilishadi, masalan: Menejer Van, Doktor Chjan, O‘qituvchi Ma va boshqalar. Siz janob Li, Liu xonim va boshqalar kabi umumiy ismlardan ham foydalanishingiz mumkin. Bir oz yaqinroq munosabatlar uchun Siz ularni “Birodar Vang”, “Opa-singil Li” va hokazo deb atashingiz mumkin.

O‘zbekcha ismlar uch qismdan, ya’ni “ism, otasining ismi va familiyasi” dan iborat, masalan, “Islom Abdug‘aniyevich Karimov”, “Shavkat Miromonovich Mirziyoyeva”, “Gulchehra Shavkatovna Rixsiyeva” va boshqalar. Agar boshqa tomon muloqotda yoshi katta bo‘lsa, maqom yuqori bo‘lsa, faqat ism bilan chaqirish mumkin emas. Bu tabu hisoblanadi. Hurmat ko‘rsatish uchun ism va otaning ismini yoki ismdan keyin opa, aka so‘zlarini qo‘llagan holda chaqirish kerak. Faqatgina do‘sti yoki o‘zi bilan teng yoshda bo‘lgan qarindoshi bo‘lsa, ismini aytgan tarzda chaqirishingiz mumkin. Umumiy kasblarga murojaat qilganda o‘qituvchilar va shifokorlar yoki boshliqlar va boshliqlar kabi ma’lum maqomga ega bo‘lgan kishilar uchun “ism + otasining ismi” dan foydalaning, masalan: “Jahongir Obidovich”, “Abdulla Nig‘matovich”.

4. Mavzulariga oid tabular(话题禁忌)¹

O‘zbeklar va xitoylar o‘rtasidagi suhbat mavzulari mutlaqo boshqacha bo‘lsa-da, suhbatda bir xil mavzularda tabular ham mavjud. O‘zbeklar va xitoylar odatda milliy liderlar, din, pul va yosh kabi mavzularni omma oldida muhokama qilishni istamaydilar.

Dindor odamlar uchun, agar kichik suhbat diniy mavzudan boshlansa, suhbat ko‘pincha sizning e’tiqodingiz ta’limotlarini targ‘ib qilishga yoki bir xil dunyoqarashga ega bo‘lmagan noqulay vaziyatlarni ayblashga aylanadi, “Nega dindorsiz?” (你为什么信教?) deb so‘ramang. Siyosiy mavzular uchun ham xuddi shunday. Har kimning o‘z siyosiy qarashlari bor. Boshqalar siz bilan qo‘shilishlari mumkin, lekin ularda turlicha fikrlar bo‘lishi mumkin. Bunday holda, muloqot muqarrar ravishda hissiy qo‘zg‘alishga va hatto jiddiy qarama-qarshilikka olib keladi, bu esa keyingi muloqotga ta’sir qiladi. Qolaversa, suhbat davomida daromad, iste’mol darajasi, avtomobil yoki uy va boshqa moddiy boyliklar haqida gapirib tursangiz, ayniqsa, bir tomon o‘zini ko‘rsatsa, ikkinchi tomonning daromadi past, hayoti nisbatan qiyin bo‘lsa, bu haqoratli bo‘ladi.

¹ 李振雨.汉英禁忌语比较研究[J].北方文学,2018

O'zbek ayollarining birinchi tabusi ularning yoshini so'ramaslikdir. "Necha yoshdasan?" deb so'rasa, ko'pchilik ayollar mavzuni xushmuomalalik bilan o'zgartiradilar yoki xafa va norozi bo'lishadi. Ayollarining ikkinchi tabusi bir-birining tashqi ko'rinishiga juda ko'p e'tibor bermaslikdir. Har bir inson o'z tashqi ko'rinishining afzalliklari va kamchiliklarini biladi. Agar siz boshqa odamni "to'lishib qolibdi" deb o'ylayotgan bo'lsangiz, albatta buni ochiq aytmang. Chunki bu so'z haqoratdek eshutilishi mumkin. Shuningdek, boshqa odamning tashqi ko'rinishi va kiyimi haqida salbiy fikr bildirmang, "bu ko'ylak eski ko'rinadi demang, bu yoqimsiz bo'ladi. Oddiy ayol uchun suhbatning eng yaxshi turi – bu ko'plab maqtovlar.

O'zbekistonda ba'zi mavzularni omma oldida muhokama qilib bo'lmaydi. Eng jiddiy tabu so'zlar "oiladagi zo'ravonlik" va "sevgi munosabatlari". Bu mavzular, ayniqsa, uyatli va yoqimsiz bo'lib, odamlar o'rtasida osongina janjal keltirib chiqarishi mumkin. Bu bilan birga oila obro'-e'tiboriga ham ta'sir etishi mumkin.

Xulosa: Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek tabu so'zlardan foydalanmaslikka harakat qilish lozim. Agarda tabu so'zlarni ishlatishga ehtiyoj bo'lsa, ular o'rniga evfemizmlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Shuningdek Xitoy va O'zbek tillaridagi ma'lum bir darajada o'xshash tabu so'zlarni ko'rishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda agar biz madaniyatlararo muloqotimiz samarali va hech qanday ko'ngilsizliklarsiz o'tishini istasak, tabu so'zlarda voz kechishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Johannes Tromp, The Assumption of Moses: A Critical Edition with Commentary, Studia in Veteris Testamenti Pseudepigrapha (Brill, 1993), pp.
2. Lockwood, W. B. (1955). "Word Taboo in the Language of the Faroese Fishermen". Transactions of the Philological Society.
3. Mead, Margaret (1937). "Tabu". Encyclopaedia of Social Sciences.
4. 郭美彤. 来华留学生禁忌语教学研究. 沈阳师范大学, 2018
5. 李振雨. 汉英禁忌语比较研究[J]. 北方文学, 2018
6. Пучков П.И. Этническая ситуация в Океании, М., 1985;
7. 维卡 (Polikarpova Viktoriia). 汉俄禁忌语对比研究[D]. 哈尔滨师范大学, 2020

XITOIY TILIDA RUHIY HOLAT FE'LLARI

Aziza SODIROVA

TDSHU, Xitoyshunoslik fakulteti, 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: PhD N.A. Rasuleva

Annotatsiya: Ushbu maqolada xitoy tilidagi ruhiy holat fe'llari tasnifi, bir nechta xitoylik olimlarning ruhiy holat fe'llariga bergan ta'riflari, grammatik qo'llanilishi hamda turkumlarga bo'linishi bo'yicha bir qancha misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: ruhiy holat fe'llari, 吕叔湘, 黄伯荣, 廖序东, fe'llarning takrorlanishi.

Ushbu maqolada zamonaviy xitoy tili tadqiqotlarida muhim ahamiyat kasb etadigan va o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan ruhiy holat fe'llari tanlab olingan. Fe'llar nutq bo'laklarining eng muhim va eng murakkab qismidir. Janob Lu Shu Xiang 吕叔湘先生 shunday degan edi: “动词是句子的中心、核心、重心。” “Fe'l gapning markazi, o'zagi va og'irlik markazidir”. Ruhiy holat fe'llari esa fe'llarning alohida o'ziga xos bir kategoriyasidir. Bu semantik jihatdan ruhiy faoliyat va ruhiy holatni ifodalovchi fe'llardir. Ko'zga ko'rinadigan va sezilib turuvchi, tashqi faoliyatni ifodalovchi fe'llar ancha nozik va hukm qilish qiyin: grammatik jihatdan u oddiy harakat fe'llaridan ham ko'p jihatdan farq qiladi. Masalan, ruhiy holat fe'llarining ko'pchiligi ikki valentli fe'llar bo'lib, egasi tirik tana bo'lishi shart, aksar ruhiy holat fe'llari “juda” so'zi bilan ishlatilishi mumkin. Bu o'ziga xos grammatik va semantik xususiyatlar bizni shartli ravishda ruhiy holat fe'llarini mustaqil fe'l turkumi sifatida qarashga undaydi.

Turli xil xitoy tili grammatika kitoblari va darsliklarida ruhiy holat fe'llari fe'llarning kichik bir kategoriyasi sifatida keltirilgan, ammo ular tomonidan aytib o'tilgan ruhiy holat fe'llari orasidagi farq juda ham katta. Masalan, Huang Borong 黄伯荣 va Liao Xudong 廖序东 (2001) shunday deyishgan: “Ruhiy faoliyatni ifodalovchi fe'llar ruhiy holat fe'llaridir “表示心理活动的动词是心理动词”; Fan Xiao 范晓 (1987) shunday degan: “Hissiyot, niyat, idrok, his-tuyg'u va boshqa shu kabi ruhiy faoliyat yoki ruhiy holatni ifodalovchi fe'llarning barchasi ruhiy holat fe'llaridir “表示情感、意向、认知、感受等方面的心理活动或心理状态的动词都是心理动词”; Li Yingzhe 李英哲 va Zheng Liangwei 郑良伟 (1990) sanab o'tilgan ruhiy holat

fe'llarining doirasi kengroq, deb hisoblashgan va quyidagilarni misol qilib keltirishgan, jumladan: og'zaki fe'llar (masalan, gapirmoq), kognitiv fe'llar (masalan, bilmoq), tasavvur qilish fe'llari (masalan, fikrlash), ma'qullash fe'llari (masalan, rozi bo'lish), fikrlash fe'llari (fikrlash kabi), surishtiruvchi fe'llar (so'rash, taxmin qilmoq), minnatdorchilik fe'llari (masalan, minnatdorchilik bildirmoq). 述说动词(比如说)、认知动词(比如知道)、想象动词(比如认为)、赞成动词(比如同意)、思考动词(比如想)、询问动词(比如追问、猜)和感谢类动词(比如感谢)等7类。

Chen Guanglei 陈光磊 (1987) ta'kidlaganidek, "Ruhiy holat fe'llari fe'llarning ruhiy faoliyatni ifodalaydigan ma'nosiga ko'ra emas, aksincha asosan fe'llarning grammatik funksiyalari bo'yicha ba'zi umumiy xususiyatlariga ko'ra tasniflanishi kerak." "划分心理动词不能根据这些动词具有表示心理活动的意义,而主要地应根据这些动词在语法功能上的一些共同特点". Ushbu maqolada ruhiy holat fe'llarini aniqlash uchun quyidagi qoliplardan foydalaniladi:

A:主(人)+很+动词+宾语

A: Ega (shaxs) + juda + fe'l + to'ldiruvchi

B:主(人)+有点+动词或主(人)+动词+得很

B: asosiy (shaxs) + biroz + fe'l yoki ega (shaxs) + fe'l + juda

C:主(人)+从心里/打心眼里/在潜意识里+动词+谓词性成分 ABC uchta qolipning istalganiga kira oladigan barcha fe'llarni ruhiy holat fe'llari deb atash mumkin va aksincha bo'ladigan bo'lsa, demak ular ruhiy holat fe'llari emas. "Xitoycha fe'llardan foydalanish lug'ati" 《汉语动词用法词典》da sanab o'tilgan fe'llar yuqoridagi qoliplarga qo'yib ko'riladi. Sinovdan so'ng A qolipga kira oladigan fe'llar quyidagilarni o'z ichiga oladigan fe'llardan ayrim namunalar:

爱	Sevmoq	感动	ta'sirlanmoq
爱护	sevib avaylamoq	感谢	minnatdorchilik bildirmoq
爱惜	Avaylamoq	关心	qayg'urmoq
担心	xavotir olmoq	害怕	qo'rqmoq
理解	Tushunmoq	恨	Nafratlanmoq
反对	qarshi bo'lmoq	后悔	Afsuslanmoq

期待	intizor bo‘lib kutish	怀念	sog‘inmoq
怀疑	shubhalanmoq	埋怨	Nolimoq

B qolipga kirishi mumkin bo‘lgan fe’llarga quyidagilar kiradi:

Xitoycha	Tarjimasi	Xitoycha	Tarjimasi
尊重	Hurmat qilmoq	放心	Xotirjam bo‘lmoq
希望	Umid qilmoq	愿意	Xohlamoq
发愁	Qayg‘urish	失望	Umidsizlanish

C shakliga kira oladigan fe’llarga quyidagilar kiradi:

Xitoycha	Tarjimasi	Xitoycha	Tarjimasi
打算	rejalashtirmoq	考虑	O‘ylab ko‘rish
感到	His qilmoq	盘算	Hisoblash
估计	Taxmin qilmoq	期望	Umid qilish
觉得	O‘ylamoq, his qilmoq	以为	Xato o‘ylamoq
认为	...deb o‘ylamoq	推测	Taxmin qilish

心理动词的重叠

Ruhiy holat fe’llarining takrorlanishi

Takror qo‘llanish fe’llarning muhim xususiyatlaridan biri, lekin bu hamma fe’llar ham takror qo‘llana oladi degani emas. Umuman olganda, takror qo‘llanishi mumkin bo‘lgan fe’llar barqaror harakat fe’llarini ifodalash bilan chegaralanadi va takrorlanish orqali vaqtning qisqaligi yoki harakat yengilligini ifodalaydi. Bir bo‘g‘inli fe’llarning takrorlanish shakli AA, masalan, “想想、气气”; ikki bo‘g‘inli fe’llarning takrorlanish shakli ABAB bo‘lib, “考虑考虑、照顾照顾”, “o‘ylab ko‘rish, g‘amxo‘rlik qilish” kabi; undan tashqari yana bir maxsus takrorlanish shakli ham bor bo‘lib, u quyidagicha: AAB “留留心、着着急”.

Takror qo‘llana oladigan ruhiy holat fe’llarining o‘ziga xos xususiyatlari:

1、语义上有“量”的差别,即在表示该概念的数量、范围、程度、级别上存在“内部层级性”。

2、重叠以后表示的“时量”或“动量”比原来小。

Takrorlanganidan keyin ifodalaydigan “vaqt miqdori” yoki “harakat miqdori” avvalgisidan kamroq bo‘ladi.

3、心理动词重叠以后一般不能再用“不”、“没”等否定词修饰,只有在反问句中才有可能出现否定形式。

Ruhiy holat fe’llari takrorlanganidan keyin odatda “不”、“没” kabi inkor hosil qiluvchi so‘zlar bilan ishlatilmaydi, faqat ritorik so‘roq gaplardagina inkor shaklida uchrashi mumkin.

XX ASR OXIRI XXI ASR BOSHIDA XITOIY ADABIYOTIDA DETEKTIV JANRINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Mahbuba ABDULAZIZOVA

TDSHU, Xitoyshunoslik fakulteti 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: PhD N.A. Rasuleva

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy Xitoy Xalq Respublikasida yaratilayotgan detektiv asarlar haqida so‘z boradi. Eng mashhur detektiv janrida yozilgan romanlar va ularning mualliflari tanishtirilib, romanning qisqacha mazmuni, g‘oyasi, qachon va qayerda chop ettirilgani haqida ham ma’lumot keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: detektiv roman, milliy meros, “Psixologik jinoyat”, jinoyat sahnalari, “Murdalar shiviri”, “Fitna jamoasi”, roman – triller, sud tibbiyot eksperti.

Adabiy tafakkur taraqqiyoti jarayonida qadriyatlarining doimiy ravishda qayta baholanishi, badiiy asarlarni tashkil etish uslub va yo‘nalishlarining o‘zgarishi kuzatiladi. Boshqacha qilib aytganda, doimiy o‘zgarishlar, modifikatsiyalar orqali adabiyot uzluksiz ravishda yangilanib, kengayib boradi. Adabiyotning zaruriy tarkibiy qismlari bo‘lgan adabiy janrlar ham o‘zgarishlarga muvofiq qayta shakllanadi. Bunga detektiv janrining rivojlanishi yorqin misol bo‘la oladi. Detektiv janri o‘zining shakllanish tarixi davomida adabiyotshunoslar orasida ko‘plab savollar va bahslarga

sabab bo'ldi. XIX asrda g'arbda paydo bo'lgan detektiv janri asta-sekin boshqa xalqlar adabiyotiga ham kirib bordi. Ushbu maqolada detektiv janrining XX asr oxiri XIX asr boshlarida Xitoy Xalq Respublikasida shakllanish bosqichlari haqida so'z yuritamiz.

Xitoy xalqi rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari, milliy merosga bo'lgan muhabbat, kitob chop etish ixtirosi tufayli ming yillar davomida o'z madaniyati davomiyligini himoya qilishga muvaffaq bo'ldi. Quldorlik va feodal tuzum, ko'chmanchilar va mustamlakachilar bilan bo'lgan urushlarda ham uzoq asrlarning ko'plab yodgorliklarini sotsializm davriga qadar asrab kelgan. Qadimiy yodgorliklar sifatida qo'lyozmalar, adabiy asarlar ham hozirgi kunimizga qadar saqlanib qolgan. Shular orasida avvalgi davrlarda yaratilgan detektiv janriga oid asarlari ham uchratishimiz mumkin. Qadimgi Xitoyda detektiv asarlar deyarli yaratilmagan bo'lsa-da, shakl va mazmun jihatdan detektivni eslatadigan asarlar mavjud bo'lgan. Xitoyga detektiv janri XX asr bo'sag'asida kirib keldi hamda o'z rivojlanishining barcha bosqichlaridan o'tdi. Bugungi kunga kelib esa, Xitoyda detektiv janrida bir qancha mashhur asarlar yaratilgan. Quyida xitoy detektiv adabiyoti durdonalarini keltirib o'tishni lozim topdik.

Ulardan birinchisi "Psixologik jinoyat" – yozuvchi Remi qalamiga mansub ushbu asar 2007-yilda Chongqing nashriyotida chop etilgan. Roman muallifi xitoy adabiyoti doirasida jinoyat romanlari orqali mashhur hamda Xitoydagi eng taniqli jinoyat detektivi yozuvchisiga aylangan. Ushbu roman teleserial, film ko'rinishida ko'p marotaba ekranlashtirilib, tomoshabin e'tiborini qozongan.¹

Real voqealarga asoslangan "O'n o'lik gunoh" asar muallifi Zhi Zhu bo'lib, ushbu asar 2010-yilda Hunan Adabiyot va San'at Nashriyot uyida nashr qilingan. Romanda atrofimizda sodir bo'lgan o'nta vahshiy qotillik haqida so'z boradi. Shuningdek, turli xil manzillarda sodir etilgan yirik jinoyatlarni fosh etish jarayoni kaskadyorlik bilan shug'ullanadigan to'rt nafar politsiyachi nigohida ochib beriladi.

Keyingi mashhur roman "Sud-tibbiyot eksperti Qing Ming" deb nomlanadi. Ushbu romanlar turkumi Qing Ming ismli haqiqiy sud tibbiyot eksperti tomonidan yaratilgan. Olti qismga bo'lingan bo'lib, "Liszyan" hamda "Hunan adabiyot va san'at" uyushmalarida nashr qilingan. 2017-yilda romanning bir nechta qismlari veb-dramalarga aylantirilib, ekranlarga

¹ Семанов В.И. Эволюция китайского романа: Конец XVIII – начало XX в. / АН СССР. ИМЛИ. – М.: ГРВЛ, 1970. – 343 с.

chiqazilgan. 2018-yil Hurun Original Literature Value List reytingida 93-o‘rinni egallagan.¹

“O‘lim xabari” asari mashhur mahalliy detektiv yozuvchi Chjou Xiaoxuy qalamiga mansub hamda “Xalqaro madaniyat” nashriyotida chop etilgan. Bu asarda 18 yil oldin ketma-ket qotilliklar tufayli tog‘dan chiqib qotil bilan musobaqalashgan adolatli politsiya dahosi haqida hikoya qilinadi.

“Arvoh budda yuragi” deb nomlangan “Murdalar shiviri”ni yozuvchi Qing Ming yozgan. Kitob psixologik chegara bilan bog‘liq 20 ta jinoyat sahnalaridan iborat. Asar bosh qahramoni Qing Ming hamda uning sheriklari bilan birgalikda olib borgan tergov tafsilotlari detektiv romanlarda misli ko‘rinmagan miqyosni o‘rnatdi.

“Xotorn detektivlari to‘plami” bu xitoylik detektiv asarlar ustasi Chen Syaoping qalamiga mansub va 1997-yilda Qunzhong nashriyoti tomonidan nashr qilingan.²

“Fitna jamoasi” – Qu Uyu tomonidan yozilgan va 2009-yil “China Pictorial Publishing House”da nashr etilgan roman-triller. 2010-yilda bu asar asosida film suratga olingan. Asarda shaharda sodir bo‘lgan juda ham g‘aroyib voqea haqida gap boradi. Asar qahramonlari birma-bir yo‘llarida duch keladigan to‘siqlarni yengib o‘tishadi.³

“Poyun” 2018-yil 21-fevralda Jinjiang Adabiyot shahrida yozuvchi Huai Shang tomonidan yaratilgan eng yaxshi o‘nta romandan biridir. Asar og‘ir yaradan shifo topib, barcha qonli va sirli haqiqatlarni tiklashga intilgan otryad lideri hikoyasidir.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, XIX asr oxiri XX asr boshlarida detektiv janri Xitoy adabiyotiga kirib kelganidan so‘ng, avval g‘arb yozuvchilari asarlari tarjima qilinib, ularning tajribalaridan foydalanib detektiv asarlar yaratilgan. Oradan vaqt o‘tgandan so‘ng esa xitoylik yozuvchilar ham bu janrda o‘z yo‘nalishi va o‘z o‘rnini topishgan. Lekin shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, xitoy detektiv adabiyoti hali ham rivojlanish bosqichida. Yozuvchilar yanada ko‘proq o‘z ustida ishlab, qalamlarini charxlasa, Xitoy detektiv adabiyoti ham o‘z rivoji cho‘qqisiga erishishi shubhasiz.

¹汤锐。神探迈克狐千面怪盗篇。世界文学评论。— 2009。— № 1。— 第298–300页。

² Захарова Н.В. Христианские миссионеры и западная литература в Китае // Проблемы литературы Дальнего Востока: сб. материалов VI Международной научной конференции. — СПб.: Студия НПП-Принт, 2014. — Т. II. — С. 210–215.

³汤锐。狐狸侦探。南京：江苏少年儿童出版社， 1995。— 271页。

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Семанов В.И. Эволюция китайского романа: Конец XVIII – начало XX в. / АН СССР. ИМЛИ. – М.: ГРВЛ, 1970. – 343 с.
2. Захарова Н.В. Христианские миссионеры и западная литература в Китае // Проблемы литератур Дальнего Востока: сб. материалов VI Международной научной конференции. – СПб.: Студия НП-Принт, 2014. – Т. II. – С. 210–215.
3. 汤锐。神探迈克狐千面怪盗篇。世界文学评论。– 2009. – № 1. – 第298–300页。
4. 汤锐。狐狸侦探。南京：江苏少年儿童出版社， 1995. – 271页。

SAN MAO ASARLARIDA INSON TABIATINING GO‘ZALLIGI HAQIDA

Sevinch ASHIRBAEVA

TDSHU, Xitoyshunoslik fakulteti 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: PhD. N.A. Rasuleva

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xitoy adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri, Tayvanlik ayol yozuvchi San Mao ijodidagi inson tabiatining go‘zalligi asarlarida qanday tasvirlanganligi haqida so‘z boradi. Bunda yozuvchining turli asarlari misol qilib olingan holda, ularda inson tabiatining go‘zalligi qay yo‘sinda tasvirlanganligi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: San Mao, cho‘l, Soqov qul, Sahroi Kabir, Basili, Shoida, Hose, “Soqol va men”, “Sahrodagi mehmonxona”, “Uylanish”.

San Mao ijodini uch bosqichga bo‘lish mumkin: yomg‘irli mavsum adabiyoti davri, cho‘l adabiyoti davri va yangi davr adabiyoti. San Mao o‘zining yorqin, aniq, sog‘lom va hazilomuz uslubi bilan ajralib turadi, u dunyoning haqiqiy tuyg‘ularini sodda tilda tasvirlaydi; keyingi asarlari yolg‘izlik, vayronagarchilik va qayg‘u ohangida namoyon bo‘ladi va u insoniyatning umidsizligi hamda qayg‘usini erkin ifodalaydi. San Mao haqiqiy tajribani o‘z ijodiga singdirishni yaxshi biladi. O‘qish jarayonida nafaqat asar qahramonlari bilan bir tan-u- bir jon bo‘lamiz, balki, uning asarlari orqali – qon va tanadan, qolaversa, haqiqiy tuyg‘ulardan tashkil topgan asar qahramonlaridan ta’sirlanamiz.

San Mao asarlarini o‘qiganimizda, shubhasiz, asarlardagi inson tabiatining go‘zalligi bizni hayajonga soladi. Inson tabiatining go‘zalligi

deganda insonning samimiyatiga, haqiqatga, ezgulikka, go‘zallikka intilishi nazarda tutilgan bo‘lib, u bizni shaxsiyatimizni yaxshilashga, hayotga yuz tutishimizga, go‘zallikning ma’naviy olamiga intilishimizga yordam beradi. “Inson tabiatining go‘zalligi insonning tashqi ko‘rinishi, so‘zi va xatti-harakati, ichki axloqiy tuyg‘ulari va mafkuraviy sohasining ziddiyatli birligini bildiradi hamda u ichki va tashqi munosabatlarni uyg‘unlashtirgan dialektik birlik hisoblanadi. Inson tabiatining go‘zalligi qalbni namlaydi, his-tuyg‘ularni o‘stiradi, ruhiyatni yuksaltiradi, inson ulug‘vorligini taratadi, odamlarga kuchli go‘zallik tuyg‘usini beradi.”¹

1. Qiyinchilikda inson tabiatining go‘zalligi

(1) Shafqatsiz cho‘lda mehribon cho‘l ruhi

San-Mao asarlari haqida gap ketganda, biz “cho‘l majmuasi” ni eslatib o‘tishimiz kerak. San Maoning cho‘lga bo‘lgan muhabbati uning doimiy ijodiy ilhomiga aylandi va u bu sahroni kitobxonlar orzu qiladigan sirli muqaddas maskanga aylantirdi. Hammamizga ma’lumki, cho‘l atrof-muhiti nihoyatda og‘ir joy. Sahroda yashovchi odamlar ko‘pincha oddiy odamlarning tasavvuriga ham sig‘maydigan ko‘p mashaqqatlarga duch kelishadi. Bu Sahroi Kabirda, o‘sha cho‘l ahlining og‘ir hayotida, eng samimiy tuyg‘ular bilan bu bepoyon sahroga indamay, muhabbat rangini qo‘shadiganlar ham bor.

(2) Ovozdan ko‘ra sukunat yaxshiroqdir

Uy odamlar hayotining ajralmas qismidir. Insonning boyligi cheksiz bo‘lsa ham, uyi bo‘lmasa, u kambag‘al hisoblanadi, agar u kambag‘al bo‘lsa-da, lekin uni sevadigan oilasi va uyi bo‘lsa, u baxtlidir. Ishonamanki, Sanmao asarlarini o‘qigan har bir kishi quldan taralayotgan insoniylik yog‘dusidan ta’sirlanadi. – Soqov qul, yarim devorga suyanib, qo‘yxonadan ko‘tarilgan singan somon to‘shagiga burkangan, endi kurasha olmaydigan keksa itdek bukilib yotibdi.² U sahroda yolg‘iz o‘zi eng og‘ir va charchatuvchi ishni bajaradi, bu yerdagi sahroliklar esa hech qachon soqov qulga odamdek munosabatda bo‘lmaydilar, chunki u qul. Ammo, u bundan umidini uzmaydi³. Uning uyi kamtarin bo‘lsa-da, oilasini doimo chuqur sevardi. Faqat qora terisi borligi uchun uning avlodlari kelajagi bu sahroda barbod bo‘ladi. Biroq, u sahro qo‘shnilaridan ko‘ra ko‘proq minnatdor bo‘ladi: “Biz bu hududdagi sahro qo‘shnilariga har kuni son-sanoqsiz narsalarni qarzga

¹ 芮渝萍，范谊．成长在两个世界之间——当代美国成长小说研究概论 [J]．西南民族大学学报（人文社科版），2009，(9):188.

² 三毛．哭泣的骆驼 [M]．哈尔滨：哈尔滨出版社，2003，(6)：193-217.

³ 三毛．哭泣的骆驼 [M]．哈尔滨：哈尔滨出版社，2003.

olamiz, lekin menga to'lovni berayotgan odam juda kambag'al qul bo'lib, tanasi unga tegishli emas.”¹ Soqov banda ham erkinlik va hurmatni, oilasini baxtli hayot kechirishini orzu qiladi. Shuning uchun, mening nazarimda, soqov qul nafaqat yaxshi er, balki yaxshi ota. Soqov qul ahmoq xotinini juda yaxshi ko'radi, bolalarga ham har tomonlama g'amxo'rlik qiladi. Ularning oilasi bir umr bir-biriga bog'liq bo'lib, soqov qul oilaning yagona ustuni bo'lganidan hamisha oilasini baxtli qilish uchun qo'lidan kelganicha harakat qiladi va o'zi uchun eng yaxshi deb bilgan narsani oilasiga ilinadi. – Yo'lakda tosh haykalday o'tirib, bir oz apelsin suvi ichadi, qurigan nonini yeb, boshqa hech qanday qimirlamay, yemaganini ko'rdim-da, qo'llarimni chalishtirib jimgina qaradim. Soqov qul rostdan ham tushundi, darrov o'rnidan turdi va menga imo qildi: – Jahl qilmang, yemayman, ayollarimga, bolalarimga olib bormoqchiman.”² Uning qalbida oilasi doimo birinchi o'rinda turadi. U San Mao bergan yumshoq non, quruq pishloq va qaynatilgan tuxumni olganida, bular uning uchun eng yaxshi taom edi. U ularni umuman iste'mol qilishni istamasdi. Odatda echkilarni oziqlantirish uchun ishlatiladigan eski quruq non u yerda ishlagan ustalar uchun yemak edi. Menimcha, u hozir baxtli bo'lsa kerak. U hali ham eng yomon ovqatni yesa-da, ishdan uyga qaytsa, uyda xotini va bolalari mazali taomlarni yeyishi mumkin. Soqov qul qashshoqlikda yashasa-da, u g'ururli edi. U o'z harakatlaridan bolalarga ta'sir o'tkazish va tarbiyalash uchun foydalangan hamda ularni minnatdor va halol bo'lishga o'rgatgan. Hayotda har xil xo'rliklarga indamay chidab, nekbinlik bilan qaraydi, tanini ozod emas, qalbi ozod bo'lishi mumkinligini biladi.

Vayrona uyidan, sevgan oilasidan uzoqda, boshqa joyga sotilishi arafasida turganida, taqdirning nohaqligiga doim indamay chidab kelayotgan soqov qul ham nihoyat mardona qarshilik ko'rsatdi. “U birdan ko'rpani quchoqlab, yig'layotgandek baqirib yubordi, mashinadan sakrab tushdi, mana shu chiroyli ko'rpachani quchoqlab, uyiga noiloj yugurdi, chunki oyog'idagi arqon bo'shashib qolgan edi, u kichik qadamlar bilan yugurib ketardi, men esa, uning uyga aql bovar qilmaydigan tezlikda yugurayotganini kuzatardim.” Bu naqadar achinarli va ta'sirli manzara, uning qalbidagi uyning o'rne haqiqatan ham juda muhim ekanligini ko'rish mumkin. Garchi bunday qarshilik oxir oqibat hech narsani o'zgartirmasligini bilsa-da, bu ko'rpacha qarindoshlaridan uzoqda bo'lganida xotini va bolalarini isitib yuborar, pul ham xotini va bolalariga hayotdagi ba'zi qiyinchiliklarni yechishda yordam berar edi. Menimcha, uni

¹ 三毛 . 哭泣的骆驼 [M]. 哈尔滨 : 哈尔滨出版社 , 2003,(6):65-119.

²三毛 . 哭泣的骆驼 [M]. 哈尔滨 : 哈尔滨出版社 , 2003,(6):17-38.

yaqinlaridan uzoqlashtirish uning hayotidagi eng og‘riqli nuqtasi bo‘lsa kerak. Soqov qul o‘zining sokin dunyosida bu bechora cho‘l uyini azaliy mehr-muhabbati bilan, iliqlik bilan to‘ldirdi. Biz ko‘chib yurganimizda, bu oilaning ayanchli taqdiridan biz ham qayg‘urdik.

Xulosa. Inson tabiatining go‘zalligini ifodalashning turli yo‘llari bor, lekin u qanday ifodalangan bo‘lmasin, barchasi uning asosiy qalbi – “yaxshi” so‘zi atrofida tasvirlangan. San Mao asarlari odamlarning qalbiga ta’sir qilishi shubhasiz. Uning go‘zal so‘zlardan unumli foydalanishi bilan bir qatorda, satrlar orasidagi haqiqiy his-tuyg‘ulari eng muhimidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 百度百科 . 人性美 [DB/OL]. 互联网数据库, 2015.
2. 三毛 . 哭泣的骆驼 [M]. 哈尔滨 : 哈尔滨出版社, 2003.
3. 三毛 . 哭泣的骆驼 [M]. 哈尔滨 : 哈尔滨出版社, 2003.
4. 三毛 . 哭泣的骆驼 [M]. 哈尔滨 : 哈尔滨出版社, 2003.
5. 三毛 . 雨季不再来 [M]. 哈尔滨 : 哈尔滨出版社, 2003.
6. 要么看书 [DB/OL]. 互联网数据库, 2015.
7. https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%B0%D0%BD%D1%8C_%D0%9C%D0%B0%D0%BE
8. 【三毛_百度百科】
<https://mr.baidu.com/r/nB4fJKIX60?f=cp&u=2310d2d62458d46b>
9. 作者简介 :
10. 王伶俐 (1975-), 女, 汉族, 湖北汉川人, 黔南民族师范学院文学与传媒学院讲师, 主要研究方向: 中国现当代文学。
11. 罗祖敏 (1993-), 女, 布依族, 贵州福泉人, 黔南民族师范学院文学与传媒学院 2012 级学生。

ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В ТВОРЧЕСТВЕ БИ ФЭЙЮЯ

Юлдузхон ХОШИМОВА

ТГУВ, Китайская филология 4курс

Научный руководитель:

PhD и.о. доцент Л.А. Султанова

Аннотация: В настоящее время Китай переживает эпоху стремительного развития, что является причиной трансформации китайского общества и образа жизни. Это позволяет по-новому взглянуть на процессы, происходящие в политической и культурной сферах, а также проследить их влияние на изменения китайского общества. В этой связи актуальным представляется изучение восприятия социальных процессов обычными гражданами КНР через обращение к творчеству современного писателя, уделяющего внимание таким важнейшим вопросам, как уровень культуры в провинции, проблемы разных общественных слоев населения, изменение образа жизни и реакция людей на происходящие события.

Именно таким и является творчество современного китайского писателя, члена союза писателей КНР Би Фэйюя (毕飞宇, род. в 1964 г.). Особый интерес в его произведениях вызывают женские образы, их внутренний мир, сфера чувств и переживаний.

Ключевые слова: Китай, проза, Би Фэйюй, образ женщины, литература, история

Образ женщины в литературе всегда был объектом пристального внимания исследователей. Он не просто вызывает интерес благодаря своему богатству и разнообразию, но и поражает загадочностью и, зачастую, противоречивостью и непредсказуемостью. Стремление разгадать таинственную и прекрасную женскую душу и породило то огромное количество посвящённых женщине произведений, череда которых тянется с глубокой древности. Китай со своей многотысячелетней историей в этом плане не стал исключением. И даже, несмотря на отсутствие вплоть до XX века китайской женской литературы как таковой ввиду социального положения женщины, при внимательном изучении данного вопроса мы обнаруживаем, что в богатейшей литературе Китая изображению женских образов отведено далеко не последнее место, благодаря чему, собственно, мы и можем составить представление о китайской женщине и её положении в обществе. В китайской литературе женская тематика, включающая

презентацию и характеристику женских образов, представлена достаточно ярко и разнообразно. Это касается как современных литературных произведений, так и древних памятников китайской литературы, среди которых мы находим довольно богато представленный пласт произведений, где так или иначе вырисовываются образы женщины. Литература, как известно, наилучшим образом реагирует на малейшие изменения в социокультурном и политическом пространстве общественной жизни, на связанное с этим мировоззрение народа.

Образ женщины в китайской литературе один из самых древних. Это основа многовековых традиций, норм, устоев, что, в свою очередь, стало базой для формирования и становления образа современной женщины.

В контексте факторов, повлиявших на творчество Би Фэйюя, особое место следует отнести западной литературе. Увлечение европейской формой изложения пришлось на годы обучения в Янчжоуском педагогическом университете. В тот период он уделял много времени изучению творчества таких зарубежных прозаиков, как Маркес, Хэмингуэй, Борхес и Кафка. В годы обучения пришло и понимание того, что он имеет в себе силы писать рассказы. В 80-х гг. XX в., в годы литературного бума, вызванного появлением в открытом доступе переводов произведений, написанных в стиле модерн, писатель начинает изучать в своем творчестве особенности человеческой природы. Данный выбор Би сделал под влиянием молодых писателей того времени, таких как Мо Янь, Цань Сюэ, Сунь Ганьлу, Гэ Фэй, и особенно Юй Хуа и Су Туном. [19, с. 140–147].

На примере произведения «Женщина в период кормления» (一个女人在喂养期间) можно проследить способность писателя к работе с несколькими героями, не имеющими ничего общего между собой. Все они обладают богатыми качествами и сложными характерами, позволяющими оценивать их как полноценных личностей. Это говорит о высоком мастерстве писателя и ориентированности на экспериментирование с героями.

В то же время в творчестве Би Фэйюя четко прослеживается влияние родителей. Так, строгий и депрессивный образ персонажей рассказов «Белая ночь» (白夜) и «Письмо» (信) навеян пессимистичным отношением к миру и чувствительной натурой отца Би Фэйюя. Влияние отца на формирование ориентиров и ценностей писателя, позволившее заложить в писателе представления о порядочном и

образованном человеке, четко прослеживается в произведениях, герои которых являются сильными личностями, смело преодолевающими трудности. [18, с. 70].

Также не меньшее влияние на него оказали мягкость и доброта матери, что нашло отражение в образах женских персонажей произведений. Именно мать заложила в писателе понимание о том, что в каждом человеке есть положительные качества, а это в свою очередь подтолкнуло Би Фэйюя к изучению человеческой натуры.

Таким образом, подводя итог анализу женских образов в творчестве Би Фэйюя, сформулируем определенные выводы, которые могут иметь значение для последующих исследований данного вопроса.

Творчество Би Фэйюя отличается весьма оригинальной и интересной писательской манерой. В сборнике «Лунная опера» он затрагивает важные вопросы современности: отношение женщины к семье, к деньгам, к работе. С одной стороны, перед нами женщины, которые хотят добиться желаемого. Они целенаправленны и настойчивы. С другой стороны, писатель осуждает методы, которыми они хотят достичь этих целей. Если говорить о психологизме рассказов, то стоит отметить, что Би Фэйюй очень тонко чувствует женское настроение, разбирается в женской натуре.

Условия, в которых происходило формирование творчества Би Фэйюя, можно назвать благоприятными. Полученное образование способствовало закреплению как традиционных, так и современных ценностей. Немаловажную роль сыграли заложенные жизненные ориентиры и оказанное благотворное влияние, что позволило Би Фэйюю оформиться как писателю и не потерять в результате смелых экспериментов со стилями столь ценной для его настоящих работ самобытности. Поиск творческих ориентиров и направления работы у писателя был неразрывно связан с условиями пребывания и влиянием среды. Нужно было пройти через целый ряд процессов, чтобы в результате остановить выбор на реализме.

Наибольшее развитие в произведениях получают проблемы поколений, взаимоотношений родителей и детей, детства, гендерная проблема. Через проблему детства писатель обращает внимание на необходимость понимания потребностей детей, признание за ними права на свою позицию. Кроме того, автор затрагивает тему одиночества детей, причиной чему является заработок родителей в других населенных пунктах, увлечение решением своих проблем. В результате этого, уровень общения наряду с взаимопониманием, снижается.

Список использованной литературы:

1. Алексеев, В. М. Китайская литература: избранные труды / В.М. Алексеев; сост. М. В. Баньковская; отв. ред. Н. Т. Федоренко; вступ. ст. Л. З. Эйшлин. – М.: «Наука», ГРВЛ, 1978. – 595 с.
2. Би Фэйюя: Во-первых, у меня нет малой родины, во-вторых нет фамилии [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.chinanews.com/cul/2013/11-08/5478713.shtml>. – Дата доступа: 27.02.2021.
3. Любичкий, А. А. Би Фэйюя: жизнь и творчество / А. А. Любичкий // Молодежь XXI века : шаг в будущее : материалы XVIII региональной научно-практической конференции (18 мая 2017 г.). – М., 2017. – С. 231–232.

ABDULLA QAHHORNING “O‘TMISHDAN ERTAKLAR” ASARIDA QO‘LLANGAN TOPONIMLAR TALQINI

Mohichehra MUSTAFOYEVA
Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: dotsent O‘.A. Oripov

Annotatsiya: Ushbu ishda Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” qissasida keltirilgan toponimlar hamda ularning o‘rganilish tarixi, tuzilishi, leksik-semantik xususiyatlari va badiiy asardagi o‘rni o‘rganildi hamda tahlil va talqin qilindi.

Kalit so‘zlar: toponim, toponimika, toponimlarning tuzilishi, mikrotoponimlar, makrotoponimlar, sodda toponimlar, qo‘shma toponimlar, birikmali toponimlar.

Hozirgi kunda tilshunoslik jadal sur‘atlarda rivojlanib borar ekan, fanning barcha tarmoqlariga o‘z ta’sirini sezilarli darajada ko‘rsatmoqda. Onomastika fani ham bundan mustasno emas. Bu fanning bo‘limlaridan biri toponimika ham rivojlanib, lug‘atlarda, badiiy asarlarda o‘z qimmatini saqlab kelmoqda.

Joylarga qo‘yilgan nomlar, ya’ni toponimlar bugungi kunda ham ma’naviy meros, ham madaniy boylik, ham tilimizning qadimiy xususiyatlarini o‘zida saqlab qolgan ko‘hna tarixiy yodgorliklardan biri sanaladi: “Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va

an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi" [1:30]

Toponimika (yununcha topos – joy va onyma – nom) – joy nomlari (geografik atoqli nomlar)ni, ularning paydo bo'lishi yoki yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanishi va o'zgarishini, tarixiy-etimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o'rganuvchi bo'lim.[2:59-80] Toponimika haqida S. Qorayev quyidagi fikrlarni keltirib o'tgan. "Bir joyni ikkinchisidan, bir jilg'ani boshqa bir jilg'adan, bir ko'chani yonidagi ko'chadan, tog'adirlarni, shahar va qishloqlarni birini ikkinchisidan farqlash uchun ham kishilar nom o'ylab topishgan. Bular joy nomlari, geografik nomlar yoki toponimlar deb ataladi. Toponimlarni toponimika fani o'rganadi" [3:5].

Toponimlarning o'rganilish tarixi. Geografik obyektlar va ularning nomlari hisoblanmish toponimlarni o'rganish, tahlil etish, leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash toponimikaning asosiy vazifasidir. O'zbek toponimikasi keyingi yillarda bir qator yutuqlarni qo'lga kiritdi. Sohaning nazariy va amaliy masalalari E. Begmatov, H. Hasanov, Z. Do'simov, B. O'rinboyev, S. Qorayev, T. Nafasov, N. Oxunov, Yo. Xujamberdiyev, M. Ramazonova, T. Enazarov, O'. Oripov, R. Nuriddinovalarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topdi. Shunga qaramay, toponimikada hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar ham anchagina. Jumladan, nomshunoslikning amaliy muammolari haqida gap ketar ekan, o'zbek toponimlari imlosi mutlaqo tadqiq qilinmaganini alohida qayd etishga to'g'ri keladi. O'zbekiston hududidagi toponimlarning imlo lug'ati yaratilmagan. Badiiy asarlar tilidagi toponimlarning ma'no jihatlari maxsus tadqiq etilmagan.

Geografik joy nomlari har bir xalq tilida ma'lum qatlamni tashkil qiladi. Toponimlar bevosita xalq tarixi bilan bog'liqdir. Ko'pchilik hollarda mikro va makronimlarda uzoq o'tmishning "belgilari" saqlanib qoladi. Mana shu belgilar vositasida mazkur joy yoki millat tarixi yana qo'shimcha faktlar bilan boyiydi. xalq tasavvuridagi ayrim noto'g'ri xulosa, qarashlar faktlar asosida oydinlashtiriladi. Shuning uchun ham tilshunoslikda toponimik tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud. [4:110-111]

Biz quyida Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" asarida uchraydigan toponimlarni tahlil va tadqiq qilishga harakat qildik. Qolaversa, bu bo'yicha mulohazalarimizni asar syujetida uchraydigan toponimlar misolida ko'rib chiqdik va imkon qadar tahlil qildik.

Toponimlarning tuzilishi. Toponimik nomlar obyektlarining hajmiga ko'ra tasnifi ikki ko'rinishga ega:

1) mikronomlarga: qishloq, ko‘cha, mahalla nomlari kabi kichik topoobyektlar kiradi: Yaypan, Nursuq, Qudash, Olqor, Yulg‘unzor, Oqqo‘rg‘on, Oyimqishloq, Avg‘onbog‘, Qirqketmon, Arg‘amchiqishloq, Oqtepa, Chilgijiyda, Naymancha, Qo‘shariq, Galaboqollik, Ko‘mirbozor, Degrezlik, G‘ishtko‘prik, Shayxulislom, Qorategin, Chanoq qal‘a;

Seshanbadan boshlab G‘afforjon ikkovimiz uzoq-yaqindagi qarindoshlarimiz, tanish-bilishlarimizni to‘yga xabar qila boshladik, katta ammamizni aytgani *Oyimqishloqqa* bordik. (“Hur qiz” 33-bet) Ko‘chko‘ronimizni eshak-aravaga ortib *Qo‘shariqqa* ko‘chdik. (“Falokatning sharofati” 19-bet)

2) makronomlarga shahar va viloyat nomlari: Qo‘qon, Andijon, Toshkent, Buxoroyi sharif, Farg‘ona.

Biroq Yaypandan *Qo‘qonga* ko‘chadigan bo‘ldik. Anjir xazon bo‘lay deganda *Qo‘qondan* amakim keldi. (“Zinger”li boy” 28-bet) *Sharqiy Buxoroga Turkiya* podsholaridan Anvarbek kelgan emish, degan gap ham chiqdi. (“Qo‘qon xarobalari orasida” 138-bet)

Tuzilishiga ko‘ra yoki morfologik xususiyatlariga ko‘ra, odatda, uchta kichik guruhlariga bo‘ldik, ya‘ni tasnifladik:

1) *sodda toponimlar* – toponimlar bir so‘z yoki bir o‘zak va qo‘shimchadan shakllangan holatda bo‘lsa, ular sodda toponimlar sanaladi: Yaypan, Olqor, Naymancha, Yulg‘unzor, Tolliq, Buxoro, Qo‘qon, Turkiya;

Ertalab yo‘lovchilar *Olqorning* kiraverishidagi yakka baqaterak ostida cho‘qqayib o‘tirgan bir odamni ko‘rishibdi; ertalabki quyoshning nurida erib to‘kilayotgan bulduruq boshiga, yelkasiga tushsa ham qimir etmas emish. (“Teshiktosh” 83-bet)

2) *qo‘shma toponimlar* – qo‘shma toponimlar ham qo‘shma so‘zlar kabi bir so‘z ma‘nosini beradigan toponimlar sanaladi: Oqqo‘rg‘on, Oyimqishloq, Avg‘onbog‘, Qirqketmon, Arg‘amchiqishloq, Oqtepa, Chilgijiyda, Qo‘shariq, Galaboqollik, Ko‘mirbozor, G‘ishtko‘prik, Qorategin;

U: “Bitsin boylar, bitsin zolimlar!”, –degan gapdan og‘zi qulog‘ida, hay-hay qilinmasa, *Qorateginga* jo‘nash oldida Qudashga borib Roziq vofurush va amin bilan “ikki og‘iz gaplashib” kelishdan ham toymas edi. (“Qo‘qon xarobalari orasida” 119-bet)

3) *birikmali toponimlar* – ikki so‘zning shakl va mazmuniga ko‘ra birikib, birikmani hosil qilishi kuzatiladi: Katta Chorsu, Sharqiy Buxoro, Turk o‘rda qal‘asi.

Subhiy afandi shu muhoraba, *Turk o‘rdasi*, Chanoq qal‘a qirg‘oqlarini o‘z qoniga bo‘yagani mashhur Turk sarkardalari to‘g‘risida gapirib,

Anvarbekdan soʻz ochdi va: “Turk oʻgʻli turk Anvarbekni ruslar oʻldirmishlar”, – dedi. (“Qoʻqon xarobalari orasida” 141-bet)

Toponimlarning leksik xususiyatlari. Toponimlarining leksik xususiyatlarini quyidagicha tarzda guruhlariga boʻlib oʻrgandik:

1. Oykonimlar (qishloq, shahar, shaharcha, mahalla nomlari)
2. Koʻcha nomlari (dromonimlar)

Oykonimlar toponimikaga oid ilmiy adabiyotlarda aholi yashaydigan joylar, xususan, shahar va qishloqlar nomlari deyiladi. Oykonimlar ham oʻz ichida yana bir necha turga boʻlinadi:

- 1) *shahar nomlari*: Qoʻqon, Andijon, Toshkent;

–Rost, oʻn bir kishi osilgan edi... Ibrat qilgan edi... Oʻn bir kishini osganda ibrat boʻlsin, deb butun *Andijon*dagi bolalarni yigʻib kelgan edi... Oʻshanda mening Kenjaboyim qoʻrqib shaytonlab qolgan edi. (“Dukchi eshonning koʻlankasi” 94-bet)

- 2) *qishloq nomlari*: Yaypan, Nursuq, Qudash;

Kampirning yettisi oʻtgandan keyin Olim buva dadamga kishi qoʻyib: “Mayli, usta xafa boʻlmasin, opamning kuni bitgan, qazosi yetgan ekan, xudoning irodasi, lekin bundan keyin “shayton arava” minmasin, shu shayton arava olib kelgandan beri *Yaypandan* fayz ketdi”, – debdi. (“Falokatning sharofati” 17-bet)

- 3) *mahalla nomlari*: Koʻmir bozor, Degrezlik, Gʻishtkoʻprik.

Ammam qizi Mukarram ikkovimizni qoʻlimizga pul berib, rohatijon yegani yaqin *Gʻishtkoʻprik*ka yubordi. (“Hur qiz” 32-bet)

Toponimlarning semantik xususiyati:

- Kasb-hunar nomlaridan shakllangan toponimlar: Degrezlik, Galabaqollik mahallasi.

Maktab *Galabaqollik*da, bu yerga uzogʻi bilan uch-toʻrt yuz qadam kelsa ham, Gʻafforjon hali biron marta ham oʻzi borib kelmagan, avvallari uni goh Savriniso, goh Azim olib borib olib kelarkan, endi bu vazifa mening zimmamga tushdi. (“Xudo” 41-bet)

- Qoʻrgʻon, qalʼa, tepa, ariq soʻzlari bilan shakllangan toponimlar: Oqqoʻrgʻon, Chanoq qalʼa, Oqtepa, Oʻratepa, Qoʻshariq.

Dadam kechki payt qaytib keldi, *Qoʻshariq* degan mahalladan uy topib, eshak-arava olib kelibdi. (“Falokatning boshlanishi” 12-bet)

- -zor affiksi bilan shakllangan toponim: Yulgʻunzor.

- “Qishloq” soʻzi bilan shakllangan toponimlar: Oyimqishloq, Argʻamchiqishloq.

Uning yigitlari ham Avgʻonbogʻ, Yaypan, Qirqketmon, *Argʻamchiqishloq*, Oqtepa, Chilgijiyda, Naymancha va boshqa

qishloqlardan, shaharliklardan dadam bilan bir aravakash-u allakim degan bir sozanda bor ekan. (“Qo‘qon xarobalari orasida” 135-bet)

Ko‘rganimizdek, qissada qo‘llangan toponimlar yozuvchining mahorati va uslubini belgilab beradi. Badiiy asarlarda toponimlarning qo‘llanishi esa ularning uzoq muddat saqlanib qolishini, o‘quvchining joy nomlarining kelib chiqishiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va lug‘atimizdagi toponimlarning saqlanib qolishiga xizmat qiladi.

Toponimlar bugungi kunda ham ma‘naviy, ham madaniy boylik hamda tilimizning qadimiy xususiyatlarini o‘zida saqlab qolgan ko‘hna tarixiy yodgorliklardan biri sanaladi. Bugungi mustaqillik davrida biz yoshlarni ona Vatanga muhabbat, ilm-fanga qiziqish ruhida tarbiyalashda nomlarning, xususan, toponimlarning roli benihoya katta o‘rinni egallaydi. Toponimlarni ilmiy hamda amaliy jihatdan o‘rganish tarbiyaviy va ta‘limiy ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. Ma‘naviyat. 2008.
2. Nafasov I. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati. Toshkent. 2007.
3. Qorayev S. Toponimika. Toshkent. 2006.
4. Abduvaliyeva D. “Alisher Navoiy tarixiy asarlar leksikasi” Toshkent. “Fan”. 2016.
5. Abdulla Qahhor. O‘tmishdan ertaklar. Toshkent. “Ilm-ziyo zakovat” nashriyoti. 2021.

OGAHY LIRIKASIDA TABIAT TASVIRI

Ro‘zinor SHAYDULLAYEVA
TDSHU, Malay-ingliz tili guruhi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d., dots. D.Z. Muxiddinova

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ogahiyning tabiat tasviri bilan bog‘liq bir qancha ruboiylari tasviri haqida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, tabiat, ruboiy, debocha, bahor.

Xorazm adabiy muhiti xalqimiz madaniy merosining ajralmas bir qismini tashkil etadi. Bunday adabiy-ijodiy muhit o‘nlab iste‘dod

sohiblarini tarbiyalab kamolga yetkazgan. Ulardan biri Muhammad Rizo Ogahiy (1809- 1874) bo'lib, u o'z zamonining mashhur shoiri, muarrix (tarixchisi) va tarjimoni, davlat arbobi bo'lgan. Muhammad Rizo Ogahiy ijodi o'zbek adabiyotshunosligida ancha keng o'rganilgan. Asarlari qayta-qayta nashr etilgan. O'zbek mumtoz adabiyotining yetuk vakili Ogahiy lirikasida tabiat tasviri alohida mehr bilan aks etadi. Deyarli uning ko'pchilik g'azallarida tabiat go'zalliklari o'ziga xos ogohiyona – faqat Ogahiy ijodidagina uchraydigan beqiyos tasviriy vositalar bilan uyg'unlashib ketadi. Ogahiy lirikasida g'azal, ruboiy, muxammas, masnaviy, tuyuq, qasida, chiston, qit'a kabi she'riy turlarning yetuk namunalari uchraydi. Shoir she'riyatining salmog'ini uning olam, tabiat, bahor, umuman borliq haqidagi she'rlarisiz tasavvur etish mumkin emas.

Ogahiy lirikasida tabiat go'zalligi tasvirlangan janrlar ko'p uchraydi. Ogahiy devonidagi bahor, Navro'z, ramazon va qurbon hayiti mavzulariga bag'ishlangan she'rlarida ham yetakchi o'ringa chiqadi. Ogahiy lirikasida, xususan, ruboiylari, g'azallari haqida ham aytish mumkin. Uning devonida ruboiy, g'azal muhim o'rin tutadi. Shoirning turli mavzulardagi har bir g'azali o'z go'zalligiga ega. Har bir g'azal shoir ko'zlagan maqsadni o'quvchiga yetkazish xususiyatiga egaki, oradan bir necha yillar o'tsa-da, Ogahiy asarlari she'rxon qalbini zabt etib kelmoqda. Ogahiy lirikasining bosh mavzusi – sevgi. Uning lirik she'rlarida inson qalbinning eng nozik, nafis va eng go'zal tuyg'ularini yuksak badiiyat bilan ifodalangan. Ammo shoir turli mavzularda qalam tebratgani barcha kitobxonlarga ma'lum. Bunga esa Ogahiyning boshqa g'azallarini o'qiganimizda yanada kengroq ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Shoir lirikasining hayotbaxsh kuchi tabiat tasviriga bag'ishlangan she'rlarida yorqin namoyon etiladi. Ogahiyning bahorga bag'ishlangan she'rlari misolida mulohazalarimni asoslashga harakat qilamiz. Ogahiyning tabiat tasviri bilan bog'liq bir qancha ruboiylari (masalan, bahor, qish tasviriga bag'ishlangan) borki, ular tabiat fonida ijtimoiy hayotning mashaqqati, insonning turmush tarziga qanchalik ta'siri kuchli bo'lganligini aks ettiradi. Shoirning "Yetkurdi safo yer yuziga fasli bahor" va "Ayyomi bahor keldi hangomi Nishot" misralari bilan boshlanuvchi ruboiylari hayotning zavqidan, ona tabiat go'zalliklaridan lazzatlanish g'oyalarini olg'a suradi.

***Yetkurdi safo yer yuziga fasli bahor,
Ochildi gulu, lolau nasrin bisyor,
Kelgilki, chamanlar ichra bazm tuzub,
No'sh aylagali tarab mayini, ey yor***

Misralarda bahor nafasi ufurishi bilan o't-o'lanlar, maysalar yashil tusga kira boshlaydi. Dov-daraxtlar kurtak qilishga oshiqadi. Bahor yer yuzidagi barcha olam ahli ko'ngliga iliqlik olib kiradi. Shoir shunday fikrlarning isboti sifatida hamda o'z fikrlarini umumlashtirgan holatini "Yetkurdi safo yer yuziga fasli bahor" misralari bilan boshlanuvchi ruboiyda ifodalaydi.

Shoir yuqoridagi misralarda bahorning ko'p yaxshi xislatlari borligini ifodalar ekan, bahorning xursandchilik, kishiga quvonch ulashuvchi fasl ekanligi, shu sababli shoir insonni shodlik jomidan bahramand bo'lishga chaqiradi. Ko'klamning, bahor faslining jonga huzur baxsh etuvchi fazilatlar ta'rifi, yashnab-gullagan tabiat in'omlaridan bahramandlikka da'vat, shu jarayonda hayotsevarlik g'oyalarining badiiy targ'ibi Ogahiyning boshqa tur she'rlarida, jumladan g'azallarida ham ko'rinarli o'rin tutadi.

Ogahiyning bahor tarovati aks etgan ***"Azmi sayri bog' kun, ey gul'uzor, omad bahor"*** misrasi bilan boshlanuvchi she'ri o'z ohangi, o'xshatish va tamsillari bilan alohida diqqatni tortadi. G'azal forscha yozilgan bo'lib, 1983 – yil "Ogahiy she'riyatidan" nomi bilan nashr etilgan shoir saylanmasida O.Bo'riev tarjimasi bilan berilgan.

Azmi sayri bog' qil, ey gul'uzor, keldi bahor,

Qildi yuz fayzu tarovat oshkor, keldi bahor.

Bog'lara ziynat bag'ishlab, dashtlarga berdi fayz,

To qilur ofoqni jannat shior keldi bahor .

G'azalda tabiat go'zalligi, undagi fasllar almashinuvi bilan bog'liq o'zgarishlar insoniy tuyg'ularga xos ifodalanadi.

Bahor fasli o'z fayz-u tarovatini oshkor qilib tabiatni go'zallikka burkaganligi, bog'-u dashtlarga ziynat bag'ishlaganligi, olamni jannat sifat qiyofaga kiritganligi ifoda etilgan. Bu go'zallikni tuyish uchun esa "sayri bog'" darkordir. Bahor fusunkor, hayotbaxsh, borliqni behisht qiladi-yu, ammo vafosi yo'q fasl. Bu fikrlar umrni behuda o'tkazmaslikka, yoshlikdan samarali, uning quvvatidan unumli foydalanishga chaqiradi.

Ogahiy o'z zamonasidayoq serqirra ijodkor va yuksak iqtidor sohibi sifatida e'tirof qilingan.

Ogahiy ijodini sinchiklab o'rganish uning fasllar, xususan, bahor haqidagi o'z qarashlariga egaligini ko'rsatadi. Shoir tabiat go'zalligi va lirik qahramon ruhiyatida uyg'unlik ko'radi. "Tabiat fasllariga xos har xil voqea-hodisalar ifodasi, erta ko'klamdan qahraton qishgacha bo'lgan alohida-alohida manzaralar va shularga uyg'un ravishda goh ko'tarinki, goho mahzun insoniy kayfiyat tasvirlari bilan ham she'riyatda realistlik

tamoyilning boyishiga Ogahiy munosib hissa qo‘shgan edi” -deb yozadi ogahiyshunos olim I.Haqqulov.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, kishi umrni samarali, mazmunli o‘tkazishi lozim, shu bilan birga hayot go‘zalliklaridan, tabiat husnidan, fasllar tarovatidan bahra olishni ham bilish lozim. Shoir tabiat, olam tasvirlari aks etgan she’rlarida insonlarga tabiat go‘zalliklaridan bahra olish, borliqdagi ne’matlardan zavq olib yashash kerakligi haqida ham so‘z olib borgan. Ogahiy o‘z asarlarida har doim ishq, vafo, sabr, e’tiqod, halollik, go‘zallik kabi pokiza insoniy tuyg‘ularni ulug‘lagan, insonlarni ma’naviy yetuklikka da’vat qilgan. U o‘z dunyoqarashi va davr mohiyatidan kelib chiqib, ijtimoiy – siyosiy fikrlarni ham ma’lum ma’noda o‘z g‘azallarida singdirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Ogahiy. II jild, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent, 1972,
2. Qayumov A. Ogahiy gulistoni. Asarlar. VIII jild, Toshkent: Mumtoz so‘z, 2009.
3. Ogahiy M. Asarlar 4-jildlik.1-jild.Toshkent.G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at,1971.
4. Haqqulov I, Zanjirband sher qoshida. – T.: Yulduzcha, 1989.

OGAHIIY G‘AZALLARIDAGI TALMEH BADIY SAN’ATINING O‘RNI

Munisa SADULLAYEVA

TDSHU, Adabiyotshunoslik yo‘nalishi, 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.d. O.Z. Turdiyeva

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ogahiy ijodi va uning adabiy merosi haqida so‘z boradi. Maqola orqali shoir ijodi o‘rganilgan bo‘lib, xususan shoirning g‘azallarida yor tasvirining ifodasi va unda Talmeh san’atidan mohirona qo‘llanilishi haqida ma’lumotlar keltirilib tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: G‘azal, yor, talmeh, timsol, ifoda, san’at

Ko‘hna Xorazm eli dunyo tamadduniga hissa qo‘shgan buyuk olim va shoirlar-u fuzalolar yurtidir va ular qoldirgan bunday boy meros bugungi yangi Renessans davri bunyodkorlariga poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ilm-fan, san'at va adabiyotning qadim maskanlaridan bo'lgan Xorazmning ulug' shoir-u olimlaridan gap ketganda serqirra iste'dod sohibi Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning muborak nomi, albatta, tilga olinib, she'riyat, tarjima, tarixnavislik jabhasidagi faoliyati faxr bilan e'tirof etiladi. Ma'lumki, badiiy til keng imkoniyatlarga egaligi, adabiy tildan farqli o'laroq, shevalarga xos bo'lgan so'zlar (dialektizmlar), turli kasb-hunar sohalari, uslubiy qatlamlar, tarixiy, eskirgan so'zlarni qo'llay olishi bilan ajralib turadi.

Adabiyotning asosiy quroli – so'zning kuchidan samarali foydalanib, asarlarini bashariyat uchun mangu tuganmas xazina sifatida qoldirgan shoir, tarixnavis, tarjimon hamda davlat va jamoat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy serqirra ijod sohibidir. Rasman islom dini adib yashagan davrda o'rnatilgan bo'lsa-da Xorazm xalqining asrlar davomida shakllanib kelgan zardushtiylik otashparastlik an'analari muqim holda saqlanib qolganligini ko'rish mumkin. "Xorazm" so'zining o'zagiga e'tibor qaratsak, uning "quyosh yeri" degan ma'nosiga duch kelamiz. G'azal mazmuniga ko'ra oshiqona ya'ni oshiqning hijrondagi iztiroblari, kechinma hislarini ifodalagan ishqiy mavzuda yozilgan g'azaldir. Tor ma'noda, yorning hajrida qiynalayotgan oshiq timsolini gavdalantirgan bo'lsa, keng ma'noda tasavvufiy ishq tarannum etilganiga guvoh bo'lamiz. Ogahiy g'azallari o'zining ham mazmuniy, ham shakliy jihatdan yetukligi bilan adabiyot bo'stonida o'zining alohida o'rniga egaligi bilan ajralib turadi.

O'zbek xalqi juda qadim zamonlardan beri Arab, Hind, Eron, Xitoy kabi sharq mamlakatlari xalqlari bilan ma'daniy adabiy aloqa va hamkorlik qilib kelgan. Ko'p asrlik o'tmishiga ega bo'lgan bu hamkorlik tarixida Ogahiy sharaflı o'rinlardan birini egallagan. Ogahiy o'zbek xalqining 19 asrda olib borgan adabiy, madaniy aloqalar rivojiga katta hissa qo'shgan. U zo'r g'ayrat va katta mahorat bilan sharq xalqlarining adabiy va madaniy merosiga mansub bo'lgan qator noyob asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan va o'zbek xalqiga boy ma'naviy madaniyatimizni yanada rivoj topishiga jonbozlik ko'rsatgan.

Bolalik va o'spirinlik yillarini o'z qishlog'ida o'tkazib, boshlang'ich ma'lumotni olgan Ogahiy Xiva madrasalaridan biriga o'qishga yuboradilar. Tabiatan ziyrak va iste'dodli bo'lgan Ogahiy madrasada zo'r ishtiyoq bilan o'qiydi. Quyidagi to'rtlik Ogahiyning tahsil davomida zo'r g'ayrat bilan shug'ullanganida darak beradi:

*Qadam aylabon ilm yo'lida bosh
Xunar kasbida aylar adim talosh
Ne tunlar menga xobi roxat edi,
Ne kunlar zamoni farog'at edi.*

Ogahiy madrasada o'qib yurgan kezlarida uning otasi vafot etadi. Bu qayg'uli hodisa oqibatida Ogahiy boshiga tushgan qiyinchiliklarni u "ro'zg'or anduhi shiddatining og'ir yuki tog' yanglig' boshim ustiga tushdi" jumlasini bilan ma'lum qilgan.

Ogahiy she'riyatidagi lirik qahramonning fazilatlari ayniqsa, muhabbat motivlarini orqali to'liq va ravshan ochiladi. Ehtiros va samimiyat bilan sevgan oshiq o'z yoridan ham shunday samimiyatni kutadi. U muhabbatda baxtli bo'lishga, hayotda o'z taqdirini o'z qo'liga olib o'zi hal qilib yashashga intiladi. Ogahiy she'riyati muhabbat kechinmalarini son-sanoqsiz ko'rinishlarida tasvir etilgan ulug' badiiy xazinadir, inson ruhiy dunyosining, ma'naviy hayotining qomusidir. Ogahiy ijodidagi ko'plab g'azallar asosan ishqiy mavzudagi g'azallardir. Shoir g'azaliyotida chuqur falsafiy qarashlar, dunyoviy va ilohiy ishq, didaktik tushunchalar, ijtimoiy-siyosiy va tabiat mavzularini, insoniy ichki va tashqi axloqiy go'zallikni ifoda etgan holda bir qator lafziy va ma'naviy san'atlarni, shu jumladan, talmeh, tashbeh, tazod, musoviyat-tarafayn, mustazod, g'azal, husni ta'lil kabi adabiy san'atlarni qo'llash salohiyatiga ko'ra, Ogahiy ko'p ijodkorlardan farqli ravishda, daryodan durlar teruvchi emas, balki durlar zahirida daryolar kashf etuvchi alloma sifatida tasavvurimizda paydo bo'ladi. Shoirning aksariyat qismining ijod namunalari bo'lgani kabi Ogahiy she'riyatida ham asosiy va eng keng yoritilgan mavzu ishq ekanligini inobatga olgan holda, uning ijodida yor tasviri talmeh san'ati yordamida yoritilishi va uning xususiyatlari masalalarining tahlilini ko'rib chiqamiz.

Davlati vaslidin el ichra Sulaymonlig' topib,

Xalqan baxti kabi ilkimdan Xotamdir mango

Talmeh arabcha so'z bo'lib, ma'nosi "chaqmoq chaqishi", "bir nazar tashlash" degan ma'noni anglatadi. Badiiy sanat sifatida u tarixiy va afsonaviy voqea, masal, shaxs, mashhur asar va qahramonlar nomiga ishora qilish vositasida fikrni qisqa, ixcham tasvirlashdir. Ushbu baytda ikkita shaxs nomi: Sulaymon va Xotam tilga olingan. Bularning ikkalasi haqida ham nafaqat o'zbeklarda balki turli xalqlarda juda ko'plab afsona, rivoyat, qo'shiq hatto dostonlar bitilgan. Ular bilan bog'liq rivoyatlar "Qur'on" da ham qayd etilgan. Ma'lumki Sulaymon – Dovud payg'ambarning o'g'li edi, u o'n to'qqiz aka-uka orasida eng donishmandi bo'lgan. Shu tufayli u barcha yer yuzidagi odamlarnigina emas, qurt-u qumursqaga, qushlarga hatto "ins-u jinslarga" ham hukmronlik qilgan. "Sulaymon saltanatlik podshosen" misralari ana shu afsonaviy shaxs qudratini mo'jaz shaklda eslash orqali

badiiy tasvir qahramonini tavsiflashga xizmat qilgan. Shuningdek shoir yana bitta gʻazalida ham Sulaymon nomini tilga olgan:¹

*Bir nazar man notavonga qilmas ul sultoni xusn,
Moʻrlar manzur erur garchi Sulaymon oldida*

Bu misrada ham shoir Talmeh sanʼatini vujudga keltirgan. Misrada shoir toʻgʻridan-toʻgʻri yorga murojaat qilmoqda, deyaptiki husnda sultondek yor mandek notavonga bir marta ham nazar solmas, garchi moʻrilar yaʼni chumolilar doim Sulaymonni oldida manzur, tayyor boʻlsalar ham demoqchi boʻlgan. Sharq xalqlari ogʻzaki ijodi va yozma adabiyotida Hotam Toy haqida koʻplab afsona va rivoyatlar, qissa va dostonlar, hatto “Hotamnoma” kitobi yaratilgan. “Hotamnoma” dastlab arab tilida yaratilib, keyin forsha nusxasi Oʻrta Osiyo xalqlari oʻrtasida keng tarqalgan. Sharq xalqlari tillarida Hotam, Hotamtoy nomlari “saxiy”, “qoʻli ochiq” maʼnolarini ifodalaydigan sifatga aylanib ketgan. I.V.Gyote “Gʻar-bu Sharq devoni”da oʻzini Hotam, maʼshuqasini Zulayhoga nisbat berib, qator sheʼrlar yaratgan. Ushbu baytda shoir ikkita shaxs nomini qoʻllab talmeh sanʼatini vujudga keltirgan. Shoirning xar bir asari oʻziga xos, goʻzal hisoblanadi. Shoirning gʻazallarida insonni oʻyga soluvchi, hayratlantiruvchi misralar juda ham koʻp uchraydi. Keyingi baytda esa:

*Jomi Jamga iltifotim boʻlmasa yoʻq aybkim
Koson bazmi visoli sagʻari Jamdur*

Shoirning bu gʻazalida ham talmeh sanʼati namoyon boʻlgan. JAMSHID – qadimiy afsonalarga koʻra, Eronda eng avval hukmdorlik qilgan peshdodiylar sulolasining toʻrtinchi va eng buyuk hukmdori boʻlgan. Shoh, Jamshidni baʼzilar Hazrat Sulaymonning aynan oʻzlari, deb taʼkidlashadi. Jamshid, sharobni ixtiro etganligi boisidan, shoirlar oʻrtasida “Qadahiy” (Jomi Jam) nomi bilan ham mashhurdir. Keyinchalik topilgan qadimiy hind braxmanlari afsonalariga koʻra, bu hikoyaning hind afsonalaridan naql etilgani maʼlum boʻlgan.

*Masix nutqimu u oʻlgan tanamga jon bergan,
Va yo labi aro guftormi ekan yo?*

Hozirda Ogahiy ijodidagi Talmeh sanʼatining oʻrni haqida gap borayotganligi uchun faqat Talmeh sanʼati namoyon boʻlgan baytlargina tahlil qilinmoqda. Shoirning ijod koʻlami juda bepoyon va oʻziga xos. Aslini olib qaraganda esa Shoirning gʻazallarida barcha badiiy sanʼatlar namoyon boʻlgan. Hozirgi berilgan baytda esa shoir Masih yaʼni Iso Masih soʻzini

¹ Ogahiy, “Taviz ul-oshiqin” Leningrad, saltikov Shedrin kutubxonasiqoʻlyozmalar fondi N-18 bet Ogahiy sheʼriyatidan. –Toshkent 1983 Jumonxoʻja N, Adizova I. Oʻzbek adabiyoti tarixi “Noshir” nashr, Toshkent-2019.-B.14

qo‘llagan. Iso, Iso Masih – Qur’onda tilga olingan payg‘ambarlardan biri. Islomda Muhammad sallallohu alayhi vasallamdan oldingi payg‘ambar sifatida alohida e‘zozlanadi. Qur’onda, shuningdek, “al-Masih” (“xudo yarlaqagan”), Ibn Maryam (“Maryamning o‘g‘li”), Abdulloh (“Allohning quli”), Rasululloh (“Allohning elchisi”), Allohning Muqarrabi (yaqini), “Haqni so‘zlovchi”, deb ta’riflanadi. U kishiga Injil nozil qilingan. Qur’onga ko‘ra, Iso Masih – Allohning o‘g‘li emas, Xudo ham emas. – Allohning bandasi va bokira qiz Maryamdan mo‘jiza bilan tug‘ilgan. Alloh unga “Bani Isroil” qavmini hidoyatga boshlash uchun payg‘ambarlik darajasini iroda etgan. Odamlarni o‘z ta’limotiga ergashishlariga da’vat qildi. Bu misrada ham tarixiy shaxs qo‘llanilib Talmeh san’ati namoyon bo‘lgan. Bu maqola orqali shoirning ijodi va adabiy merosi haqida ma’lumotlar beriladi va yor timsoli orqali vujudga kelgan. Talmeh san’ati haqida umumiy ma’lumotlar ochib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ogahiy “Taviz ul- oshiqin” asarlari 1-jild
2. Asarlar 1-jild. Devon. “G‘.G‘ulom” nashr., Toshkent. 1971.
3. Jumaxo‘ja N., Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi. “Noshir” nashr., Toshkent.2019
4. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. “Sharq” nashr. Toshkent. 1998.
5. Ochilov E. Jamoling jilvasi/Ogahiy. “O‘zbekiston” nashr., Toshkent. 2013.
6. G‘anixo‘jayev F. Ogahiy she’riyatidan. “O‘KMK”. Toshkent. 1983.

OGAHIIY E‘TIROFI YURTIMIZDA

*Shahobiddin YO‘LDOSHEV
TDSHU, Filologiya va tillarni o‘qitish
arab tili yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d., dots. D.Z. Muxiddinova*

Annotatsiya. Ushbu maqola mohir tarjimon, shoir va davlat arbobi Muhammad Rizo Ogahiyga yurtimizda bo‘lgan e’tibor va uning e’tirofi batafsil yoritilgan. Maqolada bu buyuk siymoni xotirlash uchun qilingan ishlar va uning samarasi haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, uy-muzey, e’tirof, ekspozitsiyalar

Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li – Ogahiy XIX asr Xorazm adabiy muhitining yirik siymalaridan biri bo'lib, Navoiydan keyin eng “ko'p va xo'b” she'r aytgan shoirlardandir. Ogahiy 1809 yil 17 dekabrda Xiva atrofidagi Qiyot qishlog'ida (Hozirgi Ogahiy nomli xo'jaligi) dunyoga kelgan. Otasi Erniyozbek vafot etgach, yosh qolgan Ogahiyni tog'asi munis o'z tarbiyasiga oldi. Munis atrofiga to'plangan ijodkorlar bo'lg'usi shoir Ogahiy ijodiga katta ta'sir qildi. Ogahiy dastlabki bilimni Munis Xorazmiydan oldi, keyinchalik Xiva madrasalarida tahsil ko'rdi. Oldin maktabda keyin Xiva madrasasida tahsil ko'rgan va arab, fors, turk tillarini puxta egallagan. Ogahiydan boy ijodiy meros qoldi. U madrasada o'qib yurgan paytlaridayoq “Bayozi mutafarriqai forsiy” nomli bayoz tuzdi. Bu bayozga Jomiy, Navoiy, Hofiz, Sheroziy, Bedil, Fuzuliy g'azallarini kiritish bilan bir qatorda ularga ergashib yozgan o'zining o'n besh g'azali va ikki muxammasini qo'shdi. Ogahiy ustози Munis boshlab qo'ygan, ammo, tamomlay olmagan tarixiy “Firdavs ul-iqbol” asarini yozib tugatdi. Bundan tashqari Xiva xonligi tarixiga oid “Riyozi ud-davla”, “Jome ul-voqeoti Sultoniyy”, “Zubdat ut-tavorix”, “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbol” nomli tarixiy asarlar yozdi. Ogahiy jahon madaniyatini nodir durdonalari hisoblangan Sa'diy Sheroziyning “Guliston”, Nizomiyning “Haft paykar”, Hiloliyning “Shoh va gado”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy”, Jomiyning “Yusuf va Zulayho” kabi badiiy, tarixiy, axloqiy, falsafiy, didaktik asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. Ogahiy 1872 yilda parokanda bo'lgan badiiy merosini jamlab “Ta'viz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) nomli devon tuzib qoldirdi. Madaniyatimizning durdonasi bo'lgan bu devon o'zbek mumtoz she'riyatining 22 janrini o'z ichiga qamrab olgan. Tengsiz iste'dod sohibining nasriy ham nazm yo'lida yozilgan asarlari bugungi kungacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan. U qoldirgan merosni asrash va uning nomini abadiylashtirish uchun ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Xorazm viloyati hokimligi Ogahiy tavalludining 210 yilligini nishonlash bilan bog'liq tadbirlar doirasida, birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi bilan birgalikda 2019-yil 1-avgustga qadar Xiva shahridagi Ogahiy nomidagi majmua tarkibiga kirgan inshootlarni, jumladan, shoir maqbarasini ta'mirlash hamda unga tutash hududlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borildi. Ikkinchidan, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bilan birgalikda 2019 – 2021-yillarda Ogahiyning asarlar to'plamini nashr etildi. 2019-yilning dekabr oyida: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda “Ogahiy – shoir, tarixnavis, tarjimon va davlat arbobi” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi va O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi

bilan birgalikda Ogahiy ijodiga bag'ishlangan "Nazm va navo" kechasini o'tkazish choralari ko'rildi¹. O'zbekistonda ko'chalar, maktablar, Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatri, istirohat bog'i va boshqa muassasalarga Ogahiy nomi berilgan. Qiyot qishlog'ida Ogahiy bog'i tashkil etilib, shoirning uy-muzeyi ochilgan; muzey oldida Ogahiyga haykal o'rnatilgan. Bundan 30 yil avval shoirdan yodgorlik – ko'p yillik tut daraxti muhofazaga olinib, uning yonida Ogahiy uy-muzeyi barpo etilgan edi. Shuningdek, yangi ijodiy loyiha asosida ekspozitsiyalar tashkil etilib, yangi tarixiy eksponatlar bilan boyitildi². Ekspozitsiyada Ogahiy yashagan davrga oid va shoir hayoti hamda ijodi bilan bog'liq nodir asarlari, qo'lyozma asarlar nusxalari hamda O'zbekiston xalq rassomi To'ra Quryozov mo'yqalamiga mansub Ogahiy badiiy-tarixiy kitoblari mazmuni asosida yaratilgan tasviriy san'at asarlari bilan boyitildi. 2019-yil dekabr oyida tashkil qilingan uy-muzey hamda yangi bunyod etilgan shoir nomidagi ijod maktabi Ogahiy tavalludining 210 yilligiga munosib tuhfa bo'la oldi, albatta. Uy-muzeyi ya'ni ijod maktabi zamonaviy texnik jihozlar bilan ta'minlangan. Maxsus zalda davra suhbatlari, mahorat darslar, shuningdek, Ogahiy hayoti va ijodi haqidagi videorolik va hujjatli filmlarni tomosha qilish imkoniyati yaratilgan. Xivadagi shoir nomi bilan ataladigan bog' hududida iste'dodli o'quvchilar uchun Ogahiy nomidagi ona tili va adabiyot fanini chuqurlashtirib o'qitishga hamda xorijiy tillarga ixtisoslashgan maktab-internati (ijod maktabi) barpo etildi. Uning oldida Ogahiy haykali qad rostladi. Ijod maktabi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi davlat umumta'lim muassasasi hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g'aznachilik bo'linmasida shaxsiy g'azna hisob raqamiga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga, shtampga, blankalarga ega bo'ldi. 2019-2020 o'quv yilida Ijod maktabining 5, 6, 7 va 8-sinflariga hamda 2020-2021 o'quv yilidan boshlab 5-sinfiga 30 nafardan o'quvchi tanlov asosida qabul qilindi³. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vaziriga Ijod maktabining moddiy-texnik bazasi, imkoniyatlari, pedagog kadrlarning salohiyati va mavjud talab va ehtiyojdan kelib chiqqan holda keyingi yillarda o'quvchilarni qabul qilish kvotalariga o'zgartirishlar kiritish huquqi berildi. Buning asosiy sababi esa o'zbek mumtoz adabiyotining taniqli namoyondasi, iste'dodli shoir, yetuk tarixnavis, mohir tarjimon va davlat arbobi Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy tavalludiga 210 yil to'lganligidir. "O'zbekkino" Milliy agentligi buyurtmasiga binoan "Hujjatli

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-4249861>

² http://iht.uz/download/slides/2kurs/literature/adabiyot/013_13_mavzu_Ogahiy.pdf.

³ http://iht.uz/download/slides/2kurs/literature/adabiyot/013_13_mavzu_Ogahiy.pdf.

va xronikal filmlar kinostudiyasi” DUK tomonidan shoir, tarixchi va tarjimon Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy haqida hujjatli film suratga olinadi. “Ogahiy” filmi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil Adiblar xiyoboniga tashrifi davomida berilgan topshiriqlari yuzasidan suratga olindi¹. Mazkur kinokartina “Xalq yuragi” nomi ostida suratga olinayotgan 24 qismli turkum filmlardan biri. Ssenariy muallifi Go‘zaloy Matyoqubova, postanovkachi rejissyor Murodjon Odilov. Ogahiyning ‘Taviz-ul oshiqin’ asari ilk marotaba 1960-yilda nashr etilgan. Bundan tashqari, olti jildlik Ogahiy asarlari G‘.Karimov va S.Dolimov tomonidan nashrga tayyorlangan va 1971-yilda Toshkentda nashr etilgan. 1999-yil F.G‘anixov jayev Ogahiyning asarini ‘Ishq ahlining tumori’ nomi bilan nashrga tayyorladi va bu asar ham shu yili Toshkentda nashr etildi². Bularning barchasi serqirra iste’dod sohibining e’tirofi uchun yurtimizda amalga oshirilgan ishlar va Ogahiy bunga munosib, albatta.

Xulosa qilib yozadigan bo‘lsak, shoir o‘zi yashab ijod etgan murakkab davrni mahorat bilan badiiy umumlashtirganda, zamon va uning ahliga munosabat bildirganda, baqo berganda, insonparvarlik, xalqparvarlik nuqtai nazaridan yondashgan. Uning merosi juda zalvorli va ma’naviyatimizni boyitish uchun asos bo‘la oladigan darajada yetuk. Ogahiy ijodining mavzu doirasi keng. Ammo u qaysi mavzuga murojaat qilmasin, ishqni chetlab o‘tolmaydi. Ishq uning qalamida mavzuni yoritishda, g‘oyani ilgari surishda asosiy badiiy vosita; she’riyatida ishq – iymon, e’tiqod, vatan, zakovat timsoli kabi lirik qahramonning o‘y-kechinmalari, faoliyati, dunyoqarashini harakatlantiruvchi kuch. Ogahiy devonida zamon va zamondoshlari tasviri ham katta o‘rin egallagan. Shoir o‘zi yashab ijod etgan murakkab davrni mahorat bilan badiiy umumlashtirganda, zamon va uning ahliga munosabat bildirganda, baho berganda, insonparvarlik, xalqparvarlik nuqtai nazaridan yondashgan. Ogahiy dunyoga, insonga tuganmas muhabbat, hayotga cheksiz mehr bilan qaraydi, ijtimoiy jarayonlarga qattiq qiziqadi. Shoir insonni hayot go‘zalliklarini, muhabbat shavq zavqini to‘lib toshib tarannum etadi. Mutafakkir o‘z asarlariga ijtimoiy fikrlarni mahorat bilan singdirib yuboradi. Misol uchun mashhur “Feruza” ashulasidagi quyidagi satrlarni eslaylik:

Ey shoh, karam aylar chog‘i teng tut yomon-u yaxshini,
Kim, mehr nuri teng tushar vayronu obod ustina.
Xoki taning barbod o‘lur, oxir jahonda necha yil,
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurib bod ustina³

¹<https://darakchi.uz/index.php/oz/136768>.

² A. Abdug‘afurov. Muhammad Rizo Ogahiy. -T.: Meros, 1999. B 34.

³ <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/ogahiy-devon.html>.

Ogahiyning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sugʻorilgan gʻoyalari xon va shoir Feruzning siyosiy-maʼrifiy tarbiyasiga taʼsir qiladi. U tarixchi olim sifatida Xiva xonlariga, yirik tarixiy shaxslarga bagʻishlab qasidalar yozgan. Bu satrlar, albatta, fikrimizning isboti boʻla oladi. Shoirning “Qasidai nasihat” degan qasidasi bunga yaqqol misol boʻladi. Uning bu merosini asrab avaylash va kelgusi avlodlar uchun qoldirish har birimizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. A. Abdugʻafurov. Muhammad Rizo Ogahiy. -T.: Meros, 1999.B 34;
- 2 S. Dolimov. Ogahiyning hayoti va ijodi. -T.: 1963;
3. <https://darakchi.uz/index.php/oz/136768>;
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/ogahiy-devon.html>.
5. http://iht.uz/download/slides/2kurs/literature/adabiyot/013_13_mavzu_Ogahiy.pdf.

ЛЕКСИКОГРАФИЯ «ЗАЙЦА» В КИТАЙСКОЙ МИФОЛОГИИ И ЛИТЕРАТУРЕ.

*Малика ЗУЛФИКОРОВА
ТГУВ, Студентка 3-го курса
китайской филологии*

Научный руководитель: PhD, доцент и.о. К.А. Дана

Аннотация: Загадочный заяц, один из зодиакальных символов Китая. В этой статье рассказывается как символ зайца появился в китайской культуре, как в течении нескольких сотен лет неоднократно изменялся. Цель статьи заключается в анализе персонажа зайца, его появлении, значении в литературе, а также его роли в “мифологической” истории Китая. Интересный персонаж, у которого множество имён и значений. Лунный заяц был целителем, жившим на луне, позже ставший вторым символом императора, ампула которого на несколько веков пропало из литературы и было изменёно на трёхлапую жабу. Интересный китайский символ, который до сих пор не изучен самими китайцами.

Ключевые слова: Лунный заяц, Юэ Ту(玉兔), трёхлапая жаба, Чань Э, луна, фразеологические обороты

Наступивший год по китайскому лунному календарю выступает символом чёрного водяного зайца (кролика). Сам заяц ассоциируется как милое, пушистое, пугливое животное. Но как символ зайца появился в китайской мифологии и литературе? Как заяц стал одним из интереснейших и загадочных персонажей китайской культуры?

Лунный заяц- это персонаж участвующий в фольклоре разных народов мира, который живёт на Луне. Такое представление возникло из-за оптической иллюзии, тёмные пятна на поверхности Луны воспринимаются как фигура зайца.

Китайский лунный заяц Юэ Ту(玉兔)выступает главным символом олицетворения Луны. Он является символом долголетия(бессмертия), плодородия, целительства, а так же считается посланником богини Луны (богини плодородия), отвечающий за дарование детей. Лунный заяц имеет множество имён- «Божественный Заяц», «нефритовый заяц» «разноцветный заяц» и «Царь Заяц». По легенде, когда в Китае разразилась эпидемия чумы, Юэ Ту переодевшись в девушку спустился на землю и решил раздать людям чудо-эликсир, но люди его вначале не приняли, потому что девушка была одета в белое, а такую одежду одевают только на похоронные процессии. Он переоделся и его пригласили в один дом как гостя, одному больному он дал выпить эликсир и тот сразу же вылечился. Заяц занят трудным и благородным делом, он не живет в холодном Нефритовом Лунном дворце, он не чиновник и не слуга, он выполняет свою великую миссию целителя и творца чудодейственных снадобий, и лишь изредка, по делам заходит в Лунный дворец к Небесному Владыке.

Предположительно китайский Лунный заяц был скопирован с буддийского зайца (Чит=Чанга), который пришёл прямо из древних индийских сказаний. Отличие буддийского зайца от китайского в том, что у буддийского нет никаких эликсиров, чудодейственных средств, он лишь отражает лунный свет на водяной поверхности.

В своей работе «Лунный заяц» российский археолог В.Завьялов описывает археологические находки самых ранних изображений зайцев представленных на рукояти ножа и бронзовой бляшке из могильников Внутренней Монголии, а также на нефритовом амулете позднечутского периода, IV в. до н. э. Позднее, в эпоху Хань, его изображения встречаются на шелковом стяге в мавандуйском

погребении близ Чанша, относимом к началу 11 в. до н. э., на керамических плитках, каменных рельефах и керамических основаниях для «денежного дерева», датируемых II в. н. э. доказывающее, что с появлением первых верований в китайской мифологии лунному зайцу всегда отводилось особо важное место, в отличие от его японских, корейских и индийских «братьев».

Наиболее ранним упоминанием о Лунном зайце является произведение Цюй Юаня, созданное на основе мифов и легенд-«Вопросы к небу». Более подробное описание встречается уже в произведении «Чутские строфы», написанный в древнем Китае во времена династии Западная Хань: там говорится, что в Лунном дворце живёт белый лунный заяц, который, сидя в тени коричневого дерева гуйхуа, круглый год неустанно толчёт яшмовым пестиком в яшмовой ступке компоненты для приготовления «пилюль бессмертия». Другие поэты времён династии Хань часто называли лунного зайца «нефритовым зайцем» или «золотым зайцем». Упоминание Лунного зайца можно встретить в сказках, восточных поэмах и романах. Одновременно лунного зайца нет нигде. Нет никакой отдельной сказки или целостного мифа о древнем лунном зайце. Есть его изображения на самых древних каменных рельефах – со ступкой и пестиком, есть его изображения на древних погребальных знаменах, так как на императорской одежде лунный заяц числился вторым императорским символом. Заяц с неба преподнёс людям эликсир бессмертия, который несёт немного даосский характер, потому что именно даосы занимались древней китайской алхимией, пытались найти и создать эликсир бессмертия. Состав этого эликсира подробно описывался в древних книгах, благодаря которому было сподвигнуто множество императорских «экспедиций» на лучших «небесных лошадках» в поисках травы бессмертия, плодов бессмертия то на запад, на загадочную гору Куньлунь то на восток, к островам бессмертия Пэнлай.

Исходя из разных текстов о Лунном зайце в поздних мифах появляется Чань Э¹ (трёхлапая жаба), которая стала считаться такой же полноправной хозяйкой Луны. Лингвисты прошлого века обнаружили

¹ Трёхногая Жаба (кит. Яома) — другие названия: Волшебная Жаба, Лунная Жаба. В китайской мифологии считалось, что в Лунную Жабу за свой проступок была превращена Чан Э. Символика Лунной Жабы, также как и Лунного Зайца, в первую очередь, связана с пожеланиями долголетия, а также удачи в денежных делах. Ещё, древние китайцы верили, что лунные затмения происходят из-за того, что Луна проглатывается Трёхногой Жабой.

одно предание которое описывает время происхождения зайца. «Когда Фуси и Ньюва лепили из глины первых людей, то из остатков так же слепили зайца, которого отправили на Луну и благословили на самый благородный труд целителя и хранителя дара бессмертия...Когда наступил хаос, один храбрый охотник И решил победить всех злых духов и мифических героев. За его победу и храбрость богиня Сиванму дарит ему эликсир бессмертия, но его жена – лунная фея Чань Э выпивает эликсир сама и улетает на Луну, где уже жил заяц.» Позже боги за поступок Чань Э превратили её в трёхлапую жабу. Это показывает что Лунный заяц появился раньше, а жаба позже, но в поздних произведениях Лунный заяц исчезает, вместо него в произведениях встречается Чань Э. Первое упоминание о жабе встречается в произведении «Хуайнаньцзы», но там описывается её отрицательная характеристика: «Луна освещает всё, что находится под небом, и поедается жабой...». У танского поэта Ли Шаньиня в стихах «Посылаю вдаль» есть такие строки: «Чань Э толчет лекарство и устали не знает. Яшмовая дева стрелы мечет и не хочет отдохнуть». У другого поэта, Чэнь Тао, в стихотворении «Хайчан глядит на луну» сказано: «Вдове (т. е. Чань Э) должно быть холодно, толчет лекарство и грустит во тьме».

Известный китайский филолог Вэнь Идо выдвинул гипотезу: он предположил, что иероглифы «гэ(ха) ту» (蛤兔), которые, согласно их общепринятому толкованию, значат «лунный заяц», представляют собой древнее чтение слова «хама», имеющего в современном языке значение «лягушка». Затем, на его взгляд, хама превратилась в чань ту, из-за которого произошло расщепление одного названия на два, которые стали обозначать лягушку и зайца, живущих на луне. После гипотезы Вэнь Идо российский историк В.Евсюков в своей книге «Мифология китайского неолита» посвященной анализу мировоззрения протокитайцев эпохи неолита написал, что в современном языке чань ту – поэтическое название луны, где чань – жаба, а ту – заяц. Он предположил, что в результате изменения и реформирования языка, прежние фонетические названия были утрачены и истолкованы неверно.

В китайской поэзии луна воспевается, начиная с древних народных песен из «Шицзин» и юэфу. Луна – символ Инь 阴, женского начала, а с Инь начинается любая жизнь. Вот и великий Ли Бо посвятил самой луне немало чудных строк, в том числе и знаменитое стихотворение «Думы тихой ночью». Многие даосы в своих

произведениях уходившие в мир чувств очень часто в своих рассуждениях стремились подняться на луну к лунному зайцу.

Начиная с древних времён, китайцы считали движение Солнца и Луны гармонией вселенной и в период династии Чжоу в их честь проводили жертвоприношения. В эпоху династии Мин Лунный заяц был переименован на Туэр-э став уже религиозным божеством. В Праздник середины осени на жертвенный столик клали лунные пряники юэбин, символизирующие полнолуние. Также ставили дыни, клали фрукты. А перед столиком вешали особый праздничный рисунок – «бумагу лунного света». Появились первые изображения зайца и глиняные фигурки с телом человека. В это время он стал так же символом плодородия и отвечал за дарование детей. Но в период правления династии Цин произошло чёткое разделение религиозного поклонения. Теперь только женщины и дети могли приносить жертвоприношение «Господину зайцу». В период Цин во время правления императора Цяньлуна количество упоминаний о зайце увеличилось. В Национальной библиотеке Франции хранится альбом с акварелями «Городские пейзажи Пекина при династии Цин», ранее принадлежавший французскому политическому деятелю Анри Леонару Жан Баптисту Бертену. В нем есть картина под названием «Продажа глиняных зайцев». Альбом поступил во Французскую королевскую библиотеку в конце XVIII века. По предположениям, художник изобразил середину эпохи правления императора Цяньлуна. Здесь Туэр-е изображен с длинными ушами и заячьим ртом, он одет в одежду и сидит как человек, что согласуется с описанием Цзи Куня о глиняном зайце в шапке, сидящем как человек. Поэтому историки из Пекинского объединенного университета полагают, что такой облик глиняного зайца стабильно сохранялся со времен поздней династии Мин и ранней династии Цин. Позже некоторые мастера, копируя внешний вид зайца, стали делать его в виде воина в золотом шлеме, высоких сапогах и золотых доспехах. Иногда он изображался сидящим на тигре или на слоне, иногда в характерном костюме воина с флажками за спиной или с бумажным зонтом-балдахинном.

Особое внимание Лунному зайцу проявлялось в Праздник Середины Осени, который отмечается в Китае 15-го числа восьмого лунного месяца и посвящён завершению осенней страды. Один из великих китайских поэтов Су Дунпо, известный также и под псевдонимом Су Ши, написал целый цикл стихов, посвященных любованию приливом волн в праздник середины осени, когда все

китайцы отмечают и праздник. В своих пяти стихотворениях написанном в жанре- цы «Любование приливом волн 15 августа» поэт пишет не только о своих чувствах, но и упоминает Лунного зайца. Лунный заяц стал одним из элементов таких известных китайских поэтов как Ли Бо и Ду Фу.

Конкретного произведения о Лунном зайце нет, не многие решились изучать его. Чаше встречается жаба, чем заяц, но почему? Долгое время европейские учёные считали, что Китай не мог развиваться как самостоятельная цивилизация и одним из предположений считалось что всё пришло из Древнего Египта. Они предполагали, что некоторые вещи, книги случайно оказались в Китае и китайцы начали это «копировать» по-своему. Просто из-за того, что многое из Древней культуры европейцы переняли себе, особенно из культуры Древнего Египта, которая являлась самой древней цивилизацией, они так же решили, что китайцы сделали так же. Поэтому, не понимая китайской мудрости никто не решался начать её изучение. Так же и Лунный заяц, оказался достаточно загадочной фигурой, которого мало кто понимал.

Часто зайца можно встретить лишь в сказках и мифах, но в китайской фразеологии качество зайца также используют для показания трусливости и скорости. Например, 兔子胆 *tùzǐ dǎn* буквально «заячий желчный пузырь», в значении «трусливый как заяц»; ср. рус.: «трусишка заяка серенький»; 穿兔子鞋 *chuān tùzǐ xié* буквально «надеть заячью обувь», в значении «быстро убежать, улизнуть». Наиболее известная поговорка не показывает какие-либо качества зайца, а имеет иную сторону—守株待兔 *shǒu zhū dài tù* “**Дождаться зайца под деревом**” в сравнении с русскими поговорками- “ждать у моря погоды”, “ждать манны небесной”, “ждать, когда счастье само найдёт тебя”. Предыстория этой поговорки такова: несколько тысяч лет назад в царстве Сун жил земледелец, который во время прополки своих земель заметил, как заяц быстро промчался мимо и стукнулся головой об большое дерево. Земледелец побежал и понял, что заяц мёртв, взял его, пошёл на рынок и продал. После подумав: «Зачем мне столько трудиться, если я могу так дожидаться зайца и заработать?» Он начал ждать под деревом, но зайца не было, из-за жары поле высохло, и земледелец остался в конце года без урожая и без зайца. Сейчас это выражение используется в отношении людей, которые придерживаются только своего

ограниченного опыта и не пытаются проявить гибкость и попытаться приспособиться к обстоятельствам.

Лунный заяц, мифическое существо, который сейчас считается символом всей народной китайской медицины. Благодаря его снадобьям китайцы уже несколько тысяч лет спасаются от различных болезней. Начиная с зарождения мифологии заяц появлялся, потом исчезал, был заменён, а позже превратился в божество. Несмотря на это, он всегда оставался одним из значимых символов китайской литературы и искусства, занимал значимое место как среди обычного народа, так и императора.

В силу того, что заяц по сей день не изучен полностью даже самими китайцами, он всё так же привлекает внимание многих филологов, литераторов, историков со всего мира. Для китайцев Лунный заяц выступает как показатель доброты и трудолюбия. Он стал примером благородства, благодаря чему был заимствован в другие культуры Восточных стран.

Фразеологические обороты, в которых используется символ зайца снова доказывают нам, что заяц во многих народах выступает как пугливое и трусливое животное. Но он всё так же остаётся хорошим, добрым, милым существом, который также толчит своё снадобье во благо людей. Заяц стал неким связующим звеном между множествами культур разных народов мира, возможно благодаря которому мы становимся чуть ближе к пониманию древней и богатой культуры Китая.

Список использованной литературы:

1. Юань Кэ «Мифы Древнего Китая», — Москва: Главная редакция восточной литературы, 1987.

2. Статья В.Завялов-Лунный заяц Записки ИИМК РАН. №1. 2006. [^](#)// СПб: «Дмитрий Буланин». 2006. 176 с. ISBN 5-86007-525-1 Носов Е.Н. От редакции. — 7

3. В.В. Евсюков «Мифология китайского неолита.» По материалам росписей на керамике культуры Яншао.// Новосибирск: 1988. 128 с. (История и культура востока Азии.) ISBN 5-02-028983-3

4. Календарные обычаи и обряды народов Восточной Азии: Годовой цикл / [Р. Ш. Джарылгасинова, В. В. Малявин, Ю. В. Ионова и др.; отв. ред. Р. Ш. Джарылгасинова, М. В. Крюков]; АН СССР, Ин-т этнографии им. Н. Н. Миклухо-Маклая. — М.: Наука, 1989. — 359 с.

5. С китайской сказкой круглый год / литературный пересказ И. В. Захаровой; пер. с кит. В. Ю. Захарова. — М.: Лингва-Ф, 2019. — 223 с.

6. Хуан Юнлинь. Народные обычаи, связанные с лунным зайцем, и китайская культура // Вестн. Центр.-кит. пед. ун-та (Сер. Философия). — 1990. — № 6. — С. 64-67).

7. Заяц, толкущий снадобье. Резьба по нефриту. Эпоха Сун. Информация об экспонате №1547625084 в музее Гуаньфу [Электронный ресурс] // Музей Гуаньфу (guanfumuseum.org.cn)). — URL: <http://www.guanfumuseum.org.cn/view.php?cid=273> (дата обращения: 03.02.2021).

8. Ван Сицзе. Дуньбу вэньхуа сяопинь цзи (Сборник миниатюр о культуре животных). Ухань, 1998.

Интернет ресурсы:

1. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9B%D1%83%D0%BD%D0%BD%D1%8B%D0%B9_%D0%B7%D0%B0%D1%8F%D1%86

2. <https://www.russianshanghai.com/articles/china/post4728>

3. <https://dereksiz.org/lunnij-zayac-v-poezii-vostoka.html>

4. <https://cyberleninka.ru/article/n/gospodin-zayats-tuer-e-ot-rituala-k-igrushke>

5. <https://shansbooks.ru/spravochnik-kitaista/tsyuy-yuan-340339-do-n-e-ok-278-do-n-e-/>

6. https://wiki5.ru/wiki/Tu%27er_Ye

7. https://www.ng.ru/ng_exlibris/2009-04-30/4_poetry.html

8. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D1%81%D1%82%D0%BE%D1%80%D0%B8%D1%8F_%D0%9A%D0%B8%D1%82%D0%B0%1%8F

9. <https://magazeta.com/chengyu-shouzhudaitu>

10. <https://www.synologia.ru/a/>

GID HAMROHLIGI VA TARJIMASHUNOSLIK

ALISHER NAVOIY IJODIY MEROSINING O'RGANILISHI VA NAVOIYSHUNOSLIKNING YUZAGA KELISHI

Fardona YAXSHIBOYEVA

TDSHU, Xalqaro jurnalistika yo'nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: D.Sh. Ro'ziqulov

Annotatsiya. Alisher Navoiy asarlarining jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va ijtimoiyligi, Navoiy hayotini o'rganish borasida dunyo miqyosida qilinayotgan ishlar, xususan, mamlakatimizda va jahonda uning ijodiy merosini o'rganish uchun yaratilgan keng imkoniyatlar, navoiyshunoslik borasidagi muammolar haqida ushbu maqolada tanishib chiqishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, navoiyshunoslik, uslub, Xamsa, komil inson, Boburnoma.

Alisher Navoiy nafaqat o'zbek adabiyoti, balki jahon adabiyotining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan buyuk adib hisoblanishi bugun hech kimga sir emas. U shaxs yaratgan asarlari insonni komillikka yetkazish, haqiqiy inson qilib tarbiyalash va insonlar orasidagi munosabatlar haqida yozilganini o'qib bilishimiz mumkin. Alisher Navoiy asarlaridagi uslub, yo'nalishlar keyinchalik adabiyotda ko'plab oqimlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Buyuk sharqshunos olim Armeniy Vamberi Navoiy haqida: "hammaga ma'lum va mashhur buyuk o'zbek shoiri" deya e'tirof etgan. Yana bir buyuk mutafakkir, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur Navoiy haqida "Boburnoma" asarida: "Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas" deya to'xtalib o'tgan.

O'z ijodiy merosida 26 mingdan ortiq lug'at boyligidan foydalangan bu buyuk daho mana besh asrdan oshibdiki, asarlaridagi chuqur falsafiy mushohadakorlik, ma'no-mohiyatning keng ko'lamligi va nazmiy merosidagi fasohat dengizining bepoyonligi bilan jahon ahlini hayratga solib keladi.

Husayn Boyqaroning "Risola"sida ham hazrat Navoiyning turkiy tildagi ijodi, xususan, she'riyati hamda "Xamsa" asariga yuksak baho

berilib, buyuk shoir “so‘z mulkining kishvaristoni, sohibqironi” deb ulug‘lanadi¹.

Bugungi kunga kelib Navoiy shaxsiyatini o‘rganish uning asarlarini ham badiiy ham ilmiy tarzda tahlil qilish olimlarning asarlarini chuqur o‘rganish orqali bugun biz Navoiy shaxsiyatini chuqur anglagan holda o‘rganishimiz mumkin. Shu o‘rinda aytishimiz mumkin Navoiy shaxsiyatini o‘rganish Turkiston o‘lkasida ancha kech boshlangani barchamizni ux tortishimizga sababchi bo‘ladi. O‘tgan asrning 20-30 yillaridan boshlab yurtimizda Alisher Navoiy ijodini chinakam ilmiy mezonlar asosida o‘rganishga kirishildi. Bu sohadagi dastlabki qadam sifatida Abdurauf Fitratning “Navoiyning forsiy shoirlig‘i ham uning forsiy devoni to‘g‘risida” (“Maorif va o‘qitg‘uchi” jurn., 1925) va “Farhod-u Shirin” dostoni to‘g‘risida” (“Alanga” jurn., 1930) maqolalarini ko‘rsatish mumkin. 1919-yildan boshlab Alisher Navoiy tavalludining hijriy-qamariy sana hisobidagi 500 yilligini nishonlash uchun Turkiston Muxtor jumhuriyati hukumati va Turkiston o‘lka musulmon byurosi tomonidan tayyorgarlik ishlari boshlab yuboriladi. 1925-yilning 11-iyulida o‘lka musulmon byurosi huzuridagi o‘zbekshunoslik qo‘mitasi “Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyiga tayyorgarlik ishlarini boshlash haqida” qaror qabul qiladi va shu munosabat bilan ko‘plab ishlar amalga oshiriladi. 1926-yilning 4 -mart kuni Navoiy yubileyi Birinchi Turkologiya qurultoyi doirasida Boku shahrida o‘tkaziladi. Yubileyda V.V.Bartold, A.N.Samoylovich, F.Ko‘pruluzoda, B.Cho‘ponzoda kabi olimlar Navoiyning hayoti va adabiy faoliyati haqida nutq so‘zlaydilar, matbuotda ko‘plab maqolalar e‘lon qilinadi². Sobiq ittifoq hukumatining 1938-yilda Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligini 1941-yilda nishonlash to‘g‘risida qaror qabul qilishi navoiyshunoslik borasidagi ishlarning yanada jonlanishiga sabab bo‘ldi. Sadriddin Ayniy Alisher Navoiy “Xamsa”sining nazm-nasrdan iborat qisqartirilgan nusxasini yaratdi va mazkur ish lotin yozuvida 1939-yilda nashr bo‘ldi. Besh asrlik yosh to‘yi munosabati bilan ulug‘ shoirning “Chor Devon”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mahbub ul-qulub” va yana bir qator asarlari ham chop etildi. Taniqli adib va olim M.Shayxzoda “Genial shoir” nomli asarini yozdi.

¹ Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik (I-kitob). Tamaddun. 2018. – B. 38.

² Boltaboyev H. Alisher Navoiyning ilk yubileyi // Sharq yulduzi. — T., 2016. № 2. — B. 129-137.

V.Abdullayev esa Navoiyning Samarqanddagi hayoti va faoliyati haqidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi¹.

Keyinchalik esa bu bosqich boshqa o‘zbek olimlarining ham ishlarini aytishimiz mumkin. Oybek, Olim Sharafiddinov, Sadriddin Ayniy, Yevgeniy Bertels, Vohid Zohidov, Izzat Sulton, Aziz Qayumov, Porso Shamsiyev, Maqsud Shayxzoda, Vohid Abdullayev, Hamid Sulaymonov, Natan Mallayev, Abduqodir Hayitmetov, Abdurashid Abdug‘afurov, Sodir Erkinov, Alibek Rustamov, Suyima G‘aniyeva, Boturxon Valixo‘jayev, Najmiddin Kornilov, Yoqubjon Is‘hoqov, Rahim Vohidov, Muhammadjon Hakimov, Ergashali Shodiyev, Lutfulla Zohidov va boshqalar navoiyshunoslik taraqqiyotiga alohida hissa qo‘shdilar.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugun Navoiy ijodiga nafaqat turkiy tildagi millat vakillari, balki butun dunyo qiziqayotganiga amin bo‘lamiz. Shu o‘rinda Navoiy asarlari nafaqat bizga adabiyot so‘z san‘atini balki tarix, o‘sha davr jamiyatining va hukmronlarining davlat jamiyat boshqaruvidagi boshqaruv usullarini ham bizga bayon etuvchi shaxs sifatida ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik (1-kitob). Tamaddun. 2018.
2. Boltaboyev H. Alisher Navoiyning ilk yubileyi // Sharq yulduzi. – T., 2016. № 2.
3. <https://www.elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/14367-alisher-navoiy-lirik-merosining-bugungi-kunda-o-rganilishi>.
4. Mallayev N. O‘zbek adabiyotida g‘azal va uning rivojida Navoiyning roli haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 1971. 3-son.

¹<https://www.elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/14367-alisher-navoiy-lirik-merosining-bugungi-kunda-o-rganilishi>

JURNALISTIKADA HUQUQIY MULOQOT

Shohjahon MAJITOV

TDSHU, Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent. M.K. Saliyeva

Annotatsiya: Yangi O‘zbekistonda jurnalistikada huquqiy muloqot va jurnalistlarni himoya qiluvchi xalqaro va milliy qonunchilik tizimlari va tashkilotlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Jurnalist erkinligi, chegara bilmas reportyorlar, huquqiy muloqot, BMT, Jeneva konvensiyasi.

Rivojlanib, demokratlashayotgan bugungi mamlakatda har bir insonning huquq va majburiyatlari mavjud, jumladan oddiy fuqaroga eng avvalo yashash huquqi beriladi. Qaysi davlatda istiqomat qilishidan qat’i nazar, insonlar o‘z huquq va majburiyatlariga ega bo‘ladi. Dunyoda mingdan ortiq kasblar bo‘lsa, barchasining o‘z huquq va majburiyatlari mavjud. Dunyoda xavfli kasblar reytingida 2-o‘rinda turadigan jurnalistika kasbi egalarining hayoti tig‘iz o‘tadi. Jurnalistika sohasida xalqaro maydondagi normativ huquqiy hujjatlar, milliy qonunchiligimizdagi huquqlar va ularni himoya qiluvchi tashkilotlarni ko‘rib chiqsak. Xalqaro hamjamiyatda “Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi”, “Fuqarolik huquqi va siyosiy huquqlar xalqaro pakti”, “Inson huquqlari va asosiy erkinligi to‘g‘risida”gi Yevropa konvensiyasi. Shuni ham aytib o‘tishimiz kerakki, “Chegara bilmas reportyorlar” nodavlat tashkiloti ham bugungi kunda jurnalistlarning huquqi va erkinliklari haqida va jurnalistlarning manfaatlari, ularning buzilgan huquqlarini tiklash va huquqiy jihatdan jurnalistlarni himoyalash bilan bugungi kunda faoliyat olib bormoqda.

Jurnalistika – dunyodagi eng xavfli kasblardan. Bu kasb egalari tahdidlar, senzura, jismoniy hujum va ruhiy bosimlarga doimiy uchrab kelishadi. Ularga qarshi uyushtirilgan jinoyatlarning jazosiz qolishi esa so‘z erkinligi va fuqarolarning axborotdan foydalanishini kafolatlashdagi eng dolzarb masalalaridan biridir.

1977-yilda qabul qilingan Jeneva konvensiyasida kiritilgan qo‘shimcha protokolda harbiy harakatlar chog‘ida jurnalistlarning huquqlarini himoya qilish kafolatlangan. 1987-yil Butunjahon matbuot erkinligi qo‘mitasi tomonidan qabul qilingan “Matbuot erkinligi Xartiyasi” ommaviy axborot vositalarining hukumat tomonidan iqtisodiy va boshqa turdagi kamsitishlariga yo‘l qo‘ymaslik, mustaqil nashrlar bilan davlat nashrlarining vakolatlarining teng bo‘lishi, davlat tomonidan ommaviy

axborot vositalarining axborot olish va uni tayyorlash bilan bog‘liq iqtisodiy masalalarga cheklovlar qo‘ymaslik me‘yorlari belgilangan.

Suiqasdlar ommaviy axborot vositalari senzurasining eng ekstremal shakli bo‘lsa-da, jurnalistlar boshqa son-sanoqsiz tahdidlarga duchor bo‘lishadi: o‘g‘irlash, qiynoqlar va ayniqsa raqamli sohadagi ta‘qiblar. Bu omillar esa ommaviy axborot vositalari xodimlari uchun qo‘rquv muhitini yaratib, barcha fuqarolar uchun axborot, fikr va g‘oyalarning erkin aylanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Ko‘p hollarda jurnalistlarga nisbatan zo‘ravonlik va tahdidlar yetarlicha tekshirilmaydi. Bunday holat jinoyat sodir etgan shaxslarga ruh bag‘ishlasa, jamiyatga, xususan, jurnalistlarning o‘ziga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Aybdorlarning jazosiz qolishi esa inson huquqlarining jiddiy ravishda buzilishi, korrupsiya va jinoyatchilikning yashirilishi hisobiga butun jamiyatga katta zarar yetkazadi. Statistik ma‘lumotlarga qaraydigan bo‘lsak jurnalistlarning o‘ldirilishi 2016-2020-yillarda avvalgi 5 yillik davrga (2011-2015) nisbatan 20 foizga kamaygan. 2021-yilda to‘plangan ma‘lumotlarga ko‘ra, 87 foiz holatda jurnalistlarga nisbatan ishlatilgan qonunbuzarliklar jazosiz qolgan. Bu avvalgi yillarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichdir.

“Chegara bilmas reportyorlar” tashkiloti tomonidan o‘tkazilgan so‘nggi tadqiqotga ko‘ra, 2011-2020-yillarda Lotin Amerikasi va Karib havzasining to‘rtta davlatida o‘ldirilgan 139 jurnalistning 41 foizi o‘limidan avval ham turli tahdidlarga duchor bo‘lgan. Halok bo‘lgan jurnalistlarning aksariyati o‘z mamlakatida o‘ldirilgan. 2016-yildan 2020-yilgacha bo‘lgan davrda halok bo‘lgan 400 nafar jurnalistning 22 nafari (6 foiz) xorijda o‘ldirilgan.

Jurnalistlarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar va hujumlarni aniqlash va fosh etish, jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlik muqarrarligini ta‘minlash – prokurorlar tomonidan qat‘iyatlik bilan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ilk qadamlardan biri hisoblanadi. So‘nggi o‘n yil davomida o‘rta hisobda har to‘rt kunda bir marta jurnalistlar qotillik qurboniga aylanishdi. Bundan tashqari, YUNESKO ma‘lumotlariga ko‘ra, jurnalistlarga nisbatan sodir etilgan qotilliklarining 100 tadan 99 tasi fosh etilmay qolgan. Jurnalistlarga nisbatan sodir etilgan tajovuzlar natijasida davlatlarga jiddiy ziyon yetmoqda: zamonaviy jamiyatning eng muhim jihatlaridan biri bo‘lgan so‘z erkinligi va axborot olish huquqi bundan jabr chekmoqda¹. Dunyo miqyosida shunday voqea va hodisalar yuz berayotgan ekan bizning mamlakatimizda jurnalistlarning huquqlari qanday kafolatlanmoqda va jurnalistlar bugungi kunda burchlarini qanday ado

¹ https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000375138_uzb.

etmoqda? Milliy qonunlarimizda jurnalist huquqlari nafaqat jurnalist huquqlari, balki umuman shaxsning erkin fikrlash huquqi qay tartibda qonunlarimizda belgilab qo'yilgan?

Mamlakatimiz mustaqil bo'lgandan keyin ushbu hujjatlar asosida bir necha xalqaro bitimlar imzolandi. Jumladan, 1995-yil 26-may Belorussiya poytaxti Minsk shahrida "Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risida"gi Mustaqil davlatlar hamdo'stligi konvensiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatning 11-moddasida yuqorida qayd etilgan xalqaro hujjatlar mos keladi:

1. "Har bir inson o'z fikrini erkin ifodalash huquqiga ega. Bu huquq o'z fikrida sobit qolish erkinligi, har qanday axborot va g'oyalarni qonuniy yo'l bilan davlat hokimiyatning aralashuvisiz va davlat chegaralaridan qat'iy nazorat qilish va tarqatish huquqini ham oladi".

2. "Bu erkinlikni qo'llash chog'ida demokratik jamiyatning manfaatlari, davlat va jamiyat xavfsizligi, jamoatchilikning tartibi va huquqlari yoki boshqa shaxslarning erkinligini himoya qilish yuzasidan majburiyatlar va mas'uliyatiga amal qilish rasmiyatchilik, shartlar va cheklovlarga asoslanishi mumkin bo'lsa ham talab etiladi"¹, deb qayd etilgan.

Har bir inson fikr bildirish va so'z erkinligi huquqiga ega; ushbu huquq o'z fikrlarini boshqalarning ta'sirisiz bayon qilish, har qanday chegaralardan qat'i nazar, ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumot va axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi. Ushbu jumlaning keling biz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'yicha tahlil qilib ko'ramiz. 29-modda².

Shuni hisobga olishimiz mumkinki, Respublika hududida har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasida OAV va jurnalistlarni himoya qiluvchi 14ta qonun mavjud bo'lib hozirgi kunda "Axborot" kodeksi loyihasini keng jamoatchilik nazoratiga qo'yilganini ham aytishimiz mumkin. Shu jumladan ushbu kodeksda jurnalist va blogerlik tushunchalariga alohida ta'rif berilgan. Shuni aytib o'tishimiz kerakki shu kunga qadar blogerlik tushunchasiga to'liqligicha ta'rif berilmagan uning ustiga jurnalistika terminiga ham keng ta'rif berilmagan edi. Muhokamaga qo'yilgan Axborot kodeksida bularning barchasi keltirilgan.

¹ "Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risi"dagi Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi Konvensiyasi

[https://nrm.uz/content?doc=371777_mdhning_inson_huquqlari_asosiy_erkinliklari_to'g'risidagi_konvensiya_\(minsk1995_26_may_1998_yil_11_avgustda_kuchga_kirgan\)](https://nrm.uz/content?doc=371777_mdhning_inson_huquqlari_asosiy_erkinliklari_to'g'risidagi_konvensiya_(minsk1995_26_may_1998_yil_11_avgustda_kuchga_kirgan))

² <https://constitution.uz/oz/clause/index#item26>

Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak jurnalistning huquqlari batafsilroq biz O'zbekiston Respublikasi "Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida"gi qonunidan ko'rib chiqish mumkin. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, jurnalist davlat siri va davlat boshqaruv tizimiga ega bo'lgan sirlardan tashqari barcha ma'lumotlarni qabul qilish uzatish va tarqatish huquqiga ega ekanligini ko'rib turibmiz. Jurnalist qachon yengilishi mumkin bu ikki holda amalga oshirilishi mumkin: o'z haq-huquqlarini bilmasdan turib surishtiruv ishlariga aralashish va qonunni mensimagan holda davlatga qarshi ish yuritish biz buni ko'pincha radikal oqimga o'ralashib qolgan ba'zi jurnalistlarda ko'rishimiz mumkin. Agar jurnalist o'z haq-huquqini talab qilmasa yoki o'z huquqini bilmasa u har doim mag'lub bo'ladi va buning badalini ko'p yillargacha to'lashi mumkin.

Birinchi o'rinda mamlakatimiz fuqarolarida huquqiy ong va siyosiy ongni rivojlantirishimiz va uning o'sishi uchun davlatimizda keng ko'lamli ishlarni olib borishimiz kerak. Mamlakatimizda jurnalistlarni qayta tayyorlov kurslarining samaradorligini oshirish va har bir jurnalistlarni tayyorlab beruvchi oliy ta'lim muassasalari va oliy ta'limdan keyingi ta'limda jurnalistlarning huquqlari bo'yicha fan dasturlarini kuchli tarzda ishlab chiqish va ularning huquq fanidan alohida yuridik sohasi bo'yicha ustoz va murabbiylarning dars o'tishini shakllantirish va ularning bilim va malaka oshirish uchun lozim bo'lgan barcha sharoitlarni tayyorlab berish.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, davlat boshqaruv tizimida OAVlarning o'rni beqiyos chunki biz istaymizmi, istamaymizmi, bevosita va bilvosita OAV qurshovida qolamiz. Bugungi globallashayotgan dunyoda xususan bizning mamlakatimizda internet saytlari va "internet tarmog'i xuruji" kabi terminlarning paydo bo'lishi va bugungi yoshlarning bu ta'sirga tushib qolishi, yon-atrofimizda keng uchrab turmoqda. Ba'zi mamlakatlari internet qurshovdan allaqachon chiqib ketishgan, ular hozirgi kunda yana o'sha bosma ommaviy axborot vositalaridan doimiy ravishda foydalanib kelishadi. Har kim yozishi mumkin, lekin har kim ham haqiqiy jurnalist bo'la olmaydi. Bizda jurnalistik huquqlar juda ko'p ularni biz bimalol ishlata olamiz. Faqat joy va mavridini bilsak bas. Ommaviy axborot vositalariga doir qonunchiligimizda axborot olishni cheklash me'yorlari, ko'p jihatdan xalqaro me'yorlarga mos kelishi qayd etilgan. Xalqaro huquq me'yorlariga ko'ra, bu cheklanishlar qonun bilan belgilanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-yilligi munosabati bilan so'zlagan

ma'ruzasi. <http://uza.uz/oz/politics/konstitutsiya-erkin-va-farovon-ayetimiz-mamlakatimizni-yand-08-12-2017>.

2. "Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risida"gi Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi Konvensiyasi. [https://nrm.uz/content?doc=371777_mdhnning_inson_huquqlari_asosiy_erkinliklari_torisidagi_konvensiya_\(minsk1995_26_may_1998_yil_11_avgustda_kuchga_kirgan\)](https://nrm.uz/content?doc=371777_mdhnning_inson_huquqlari_asosiy_erkinliklari_torisidagi_konvensiya_(minsk1995_26_may_1998_yil_11_avgustda_kuchga_kirgan)).

3. Do'stmuhammad X., Toshpo'latova N., Bahriyev K., Saidov F. Jurnalistika huquqi va etikasi. – T.: O'zbekiston. 2019.

DARIY TILIDAGI DINIY FRAZELOGIZMLARNI MUQOBIL VA EKIVALENT IBORALAR VOSITASIDA TARJIMA QILISH

Doniyor RAHIMOV

TDSHU, Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi

dariy-ingliz guruhi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: PhD, X.U. O'ktamova

Annotatsiya. Bu ilmiy tadqiqot natijasida afg'on xalqi so'zlashuv tilidan xabardor bo'lishimiz va ularning nutqida diniy frazeologizmlar qanchalik ko'p ishlatilishini bilib olishimiz mumkin. Shuningdek, o'zbek tilidan farqli ravishda biz uchun erish hisoblangan ba'zi qasam ichish, tergash va shu kabi boshqa diniy frazeologizmlarning ular hayotida keng qo'llanilishini va tarjima jarayonida nimalarga e'tibor qaratishimiz lozim ekanligini o'rganib olishimiz mumkin. Diniy frazeologizmlar tarjima qilish mobaynida qaysi jihatlarda so'zma va qaysi hollarda ma'no jihatdan muqobil variant qo'llash to'g'ri ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: diniy frazeologizmlar, og'zaki nutq, afg'onlar so'zlashuvi, qasam ichish, salomlashish, xayrlashish, duo so'zlari, muqobil.

Dariy tilida so'zlashuvchi aholining nutqida diniy iboralar keng qo'llaniladi, ularning turlari ko'p va rang-barangdir. Bu kabi iboralarni tarjima qilayotgan tarjimon oz bo'lsa-da qiyinchilikka uchrashi mumkin, chunki diniy iboralarni tarjima qilinayotganda ehtiyotkorlikni talab qiladi, bunga sabab aynan o'sha iboraning tarjimasini to'liq ochib bergan holda tarjima qilish kerak, aks holda boshqa ma'nolar kelib chiqishi yoki o'zgarib ketishi yuzaga kelishi mumkin va bu hollarda eng to'g'ri usul bu o'sha so'z yoki iboraning o'zini transliteratsiya usulidan foydalangan holda so'zni ko'chirib o'tkazish va kalkalash usuli orqali tarjima qilish mumkin [1, 153].

Diniy iboralarni to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilib bo‘lmaydi, chunki bu iboralar dinga xos so‘zlardir. Shuningdek, bu kabi iboralarni o‘z diniga moslashtirish va milliylashtirish tavsiya qilinmaydi, chunki bu orqali o‘quvchiga din haqida noto‘g‘ri tushuncha hosil bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ular biror bir dinning o‘zgarmas qismi hisoblanadi va ular noto‘g‘ri tarjima qilinadigan bo‘lsa dinning mohiyatini o‘zgartirib yuborishi, ortiqcha tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi va tarjima qilingan asarni o‘quvchi insonga o‘sha din haqida noto‘g‘ri ma’lumot yetib borishiga olib kelishi mumkin, shu sababli ko‘plab hollarda izoh va sharh yordamida qo‘shimcha ma’lumotlar keltiriladi [2, 85].

Bunday tarjima qilish jarayonlarida asosan uch usuldan foydalaniladi, ya’ni tarjima qilinayotgan frazeologizm tildagi muqobilini variantini berish, teng qiymatli ekvivalent so‘zdan foydalanish yoki frazeologizmni to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilish [3. 106].

Dariy tilida خدا xudo, الله olloh, قرآن qur’on, توبه tavba va خير xayr kabi so‘zlar diniy iboralar tarkibida keng qo‘llaniladi [4, 37]. Bu so‘zlar turli iboralar tarkibida turli bir-biriga o‘xshash ma’nolarda keladi.

Yuqorida aytilganidek, diniy iboralar ularning kundalik hayotidagi oddiy so‘zlashuvda ham faol ishlatiladi. Masalan, ular xayrlashuv vaqtida

خدا حافظ (شما)
 بامان خدا
 (شمارا) بخدا سپردم
 خدا یارتان، الله یارتان
 پناهتان بخدا

kabi iboralardan foydalanishadi. Bularning barchasi xayr, ko‘rishguncha va shu kabi xayrlashuvda foydalanuvchi iboralar hisoblanadi.

Shuningdek, dariy zabon xalqning so‘zlashuvida qasam so‘zlari keng foydalanishini ko‘rishimiz mumkin. Ularning shakli bir-biriga o‘xshash bo‘lsa-da, tarjima jarayonida matning yoki so‘zlashuvning ma’nosidan u qanday ma’noda kelayotganini bilishimiz mumkin va bunda tarjimon gapning borishi to‘g‘ri aniqlab, o‘z mahoratini ishga solga holda mos keluvchi so‘z orqali tarjima qilishi kerak. Masalan:

به خدا
 والله
 والله و بالله
 به خدا قسم است که
 خدا شاهد است که
 خدا و راستی
 به قرآن

به قرآن خدا

shu kabi soʻzlardan keng foydalaniladi. Bu soʻz va iboralar bir-biriga juda oʻxshash boʻlsa-da, bitta soʻz yoki qoʻshimcha orttirilishi orqali boshqa maʼnoga ega boʻladi. Tarjimon bu jarayondan matnning maʼnosidan va boʻlib oʻtayotgan holatdan kelib chiqqan holda tarjima qilishi kerak [5, 189]. Bir misol tarzida واللہ iborasiga nazar tashlasak, bu ibora gaplarda shart-istak mayli shakli kelganda turli maʼnolar kasb etadi. Masalan:

والله اگر کار کنیم

Agar biror ish qilgan boʻlsak, xudo ursin

والله اگر نان خورده باشم

Oʻlay agar ovqatlangan boʻlsam

Bu uch namunada bir xil واللہ iborasi ishlatilgan boʻlsa ham, uch gapda ham turli maʼnolarda kelgan. Tarjimon bu gaplarni tarjimon qilish jarayonida matnning maʼnosi, boʻlayotgan holat va shu gapda qatnashgan boshqa soʻzlarning maʼnosiga eʼtibor bergan holda tarjima qilgan. Agar birinchi gapda ishlatilgan *xudo ursin* iborasi oʻrniga ikkinchi gapdagi *oʻlay agar* iborasi ishlatiladigan boʻlsa, umumiy maʼnoga zarar yetmaydi, ammo oʻquvchiga boʻlayotgan voqeani toʻlaqonli ochib berishda tushunmovchilikka uchrashiga olib kelishi mumkin. Shu sababli tarjimon albatta gapda qatnashayotgan boshqa soʻzlarga ham katta eʼtibor berishi lozim. Bu oʻrinlarda به خدا iborasi ishlatilgan gaplar kelsa ham, xuddi shu tarzda tarjima qilinadi.

Bu ikki واللہ va به خدا iboralari undash maʼnolarida ham kelishi mumkin.

ترا واللہ بیا

Ey xudo urgur, bu yoqqa kel

ترا بخدا گپ بزن

Xudo seni olsin, gapir

Yuqoridagi gaplar singari suhbatdoshni undash chogʻida bu ikki ibora turli maʼnolarda kelishi mumkin va asosan ikkinchi shaxs kishilik olmoshi bilan birga keladi, tarjima jarayonida esa har doim ham olmosh tarjima qilinmaydi [6, 67].

Shuningdek, bu ikki واللہ va به خدا terminlari ... kelishigidagi ikki shaxs kishilik olmoshi bilan mustaqil tarzda ham kelishi mumkin. Ular gapning suhbatdosh tarafga nisbatan ishonmaganlik holatidagi soʻroq gap yoki undov ohangidagi gap tarzida keladi va oʻzbek tiliga *rostdanmi?* tarzida tarjima qilinadi.

s خدا soʻziga yana boshqa soʻzlar qoʻshish orqali turli iboralar yasalganini koʻrishimiz mumkin va ular oʻzbek tilidagi tarjimasida yanada koʻproq maʼnolarni anglatadi [7, 85].

Shart-istak maylidagi gaplarda خدا نکند va خدا کند frazeologizmlari ham foydalaniladi va yuqorida shu maylda kelgan gaplarda farqli ravishda tilak, istak ma'nolarini ifodalashda qo'llaniladi.

خدا کند که باران شود

Zora yomg'ir yog'sa (iltijo qilish)

خدا نکند که احمد ناوقت برسد

Ishqilib, Ahmad vaqtida kelsin-da yoki xudo ko'rsatmasin, Ahmad vaqtida kelmay qolsa

s خدا so'ziga ی harfi orttirilishi va ناخواستہ so'zi qo'shilishi orqali *xudo ko'rsatmasin* iborasi vujudga keladi. Bu ibora dariy tilida ham o'zbek tilida ham kirish so'z sifatida gapda ishtirok etadi va tarjimada grammatik joyini o'zgartirmaydi [8, 68]. Yuqorida yasalgan خدا ناخواستہ iborasiga yana boshqa so'zi qo'shish natijasida yangi ibora hosil bo'lgan va tarjimada biror bir g'amgin va qayg'uli xabarga javob berishda alohida qo'llaniladi va *xudo asrasin* ma'nosida tarzida tarjima qilinadi.

Gap tarkibida از خدا خواستم, بد دعا, بدوا, الهی, kabi duo iboralari o'zbek tiliga *ilohim, xudodan so'rayman, duo qilaman* tarzida xudoga iltijo qilish yoki qarg'ish ma'nolarida tarjima qilinadi.

Bu kabi terminlar nafaqat mustaqil tarzda yoki yozma va og'zaki gaplarda, balki turg'un birikmalar va maqollarda ham keng ishlatiladi. Bu kabi maqollar tarjimada o'zbek tilidagi muqobil varianti, uning ma'nosini to'laqonli ochib beruvchi yoki ma'no jihatdan yaqin va bo'layotgan hodisaga to'g'ri keluvchi o'zbek tili lug'at boyligidan kelib chiqqan holda tarjima qilinadi.

شب در میان خدا مهربان

Kech bo'lib qoldi, ertaga gaplashamiz ma'nosida

حق خدا و حق همسایه

Agar bu gapni to'g'ridan-to'g'ri va so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak, *xudoning haqi va qo'shnining haqi* deb tarjima qilinadi. Ma'no jihatdan esa *qo'shniga hurmat ko'rsatish* deya tarjima qilinadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, diniy iboralar dariy tilida boydir va ko'plab o'z sinonimlariga ega, bu iboralar o'zbek tiliga tarjima jarayonida turli ma'nolarni ifodalaydi va ko'p sinonimlar orqali tarjima qilish mumkin, ammo shunga qaramasdan har bir sinonim bir-birining o'rnini to'laqonli bosa olmaydi va ma'no chegarasiga ega, shu sababli bu kabi tarjima jarayonlarida ehtiyotkor bo'lish lozim, ayniqsa, diniy terminlar ko'proq qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Diniy frazeologizmlar so'zma-so'z boshqa ma'noni anglatishi, bir gap ichida kelganda esa, umuman boshqa ma'noni anglatishi yoki ma'no oshishi va bo'rtishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'afurov I, Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2012.
2. G'afurov I, Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2012.
3. Mamarajabov B. Tarjima tarixi. O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2021.
4. Пейсиков Л С. Лексикология современного персидского языка. Московского университета. – Москва, 1975.
5. Мусаев К. Таржима назарияси асослари. – Т.: Фан, 2005.
6. Umarova S. Dariy tili. – Toshkent, 2019.
7. Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. – Toshkent, 2019.
8. Umarova S. Dariy tili. – Toshkent, 2019.

ODIL YOQUBOV “ULUG‘BEK XAZINASI” ASARINING TURKCHA TARJIMASIDA PORTRET TASVIRIDA TARJIMON MAHORATI

Durdona CHORIYEVA

TDSHU, Turkshunoslik fakulteti 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Z. Salimova

Annotatsiya. Badiiy adabiyotda portret muhim bir qismlardan hisoblanadi. Yozuvchi asar qahramonini tasvirlash orqali uning ma'naviy dunyosi, tashqi ko'rinishi, xarakterini ochib beradi. Bu orqali o'quvchi xayolida o'z qahramonini jonlantira oladi. Mazkur maqolada inson tashqi ko'rinishini tasvirlash va uni tarjimada berish mahorati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Badiiy obraz, portret, tarjimon mahorati, Odil Yoqubov “Ulug‘bek xazinasini”, Ahsen Batur “Ulug‘beyin hazinesi”, tarix haqiqati.

Har bir yozuvchi badiiy asar yozar ekan, albatta unda qahramonlar obrazini yaratadi. Yozuvchi qahramonini salbiy va ijobiy xarakterlarda ko'rinishlarda tasvirlashi orqali uning portreti yuzaga keladi. Portret qahramonni tasvirlashning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Badiiy asarda qahramonning qay darajada tushunarli, ifodali va mukammal qilib tasvirlanganligi yozuvchining mahoratidan darak beradi. Chunki portret asosida aniq shaxsning qiyofasini abadiylashtirish yotadi va o'quvchi xayolida tasavvur hosil qiluvchi dastlabki qadamdir. Ijodkor portret orqali

tasvirlanuvchi shaxsning tashqi ko‘rinishi, qiyofasi, chehrasi, kiyimlari, xulq-atvoriga g‘oyaviy munosabat bildiradi. Yaxshi tasvirlangan portret nafaqat tashqi ko‘rinishni, balki qahramonning ichki dunyosini ham ochib beradi.

O‘quvchi biror bir badiiy asar o‘qir ekan, avvalo uning voqealar rivoji va qahramonlari qanchalik tiniqroq tasvirlansa, shunchalik o‘quvchini o‘ziga tortadi va qiziqishini yanada oshiradi. Yaxshi tasvirlangan portret o‘quvchining yodida oson qoladi, uni zeriktirib qo‘ymaydi, qulaygina hayolida asar qahramonini jonlantira oladi va u haqida ma‘lum bir tushunchaga ega bo‘ladi. Badiiy asarda obrazning hayotiyroq, ta’sirchanroq ifodalanishi, qahramonlarning yorqinroq gavdalanishi asarning jozibadorligini yanada oshiradi.

O‘zbek adabiyotining taniqli namoyondalaridan biri, sevimli adibimiz Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinası” asaridagi qahramonlar tasviri mukammal portretning yaqqol namunalaridan biri hisoblanadi. Bu asarda ulug‘ olim, temuriyzoda Mirzo Ulug‘bekning hayot yo‘li va fojiali taqdiri haqida so‘z boradi. Asar qahramonlari Mirzo Ulug‘bek, Abdulatif, Ali Qushchi, Qalandar Qarnoqiy obrazlari juda ham mahorat bilan chizilgan. Asar tarjimasida ham bu ta’sirchanlikni yaqqol ko‘rish mumkin.

Bu asarda har bir qahramon uchun alohida ta’rif berilgan va o‘quvchini osonlik bilan asarga kirib borishini ta’minlagan. Tarjimon Ahsan Batur ham bu obrazlarni ustalik bilan tarjima qilgan. Bu uning yuksak mahoratidan darak beradi.

Asarning asosiy qahramonlaridan biri Mirzo Ulug‘bekka tarjimada shunday ta’rif beriladi: “Sirtında, genelde sarayda giydiđi altın işlemlı harmanı yerine türkuaz çuha çakman, başında rasathane ve medresede giydiđi sıvri uçlu siyah kadife kalpak, ayağında içi muflonlu çizme bulunan ustad, eşikte durmuş, sevgili talebesini imtihan edercesine süzüyordu. Sivrilip çıkan endamında, bakır gibi kararıp duran çevresinde, kalın kaşlar altından dikilen nıgahında, hem kişiyi kendine rameden Timurlara has sertlik, hem de nedense gizli bir mahzunluk vardı “.¹

Asliyatda esa Mirzo Ulug‘bekka shunday ta’rif beriladi: “Egnida, odatda, saroyda kiyib yuradigan zarbof to‘n o‘rniga ko‘k-yashil movut chakmon, boshida rasadxonada va madrasada kiyadigan uchlik duxoba qalpoq, oyog‘ida ichiga olmaxon mo‘ynasi qoplangan qo‘nji keng issiq etik, ustod ostonada to‘xtab, shogirdiga allaqanday sinovchan tikildi.

Uning sal to‘lisha boshlagan novcha bo‘y-bastida, misday qoramtir uzunchoq yuzida, qalin qoshlari tagidan tikilib qaragan o‘ychan nigohida

¹ Ahsen Batur “Ulug‘beyin hazinesi” Bet .17-18.

ham temuriylarga xos kishini o‘ziga rom etuvchi shiddat, ham qandaydir pinhoniylar majruhlik bor edi”¹. Romandagi barcha o‘ziga xosliklar deyarli to‘liq aks etgan deyish mumkin.

Ma’lumki, tarjimaning o‘ziga xos nozikliklari bor, ya’ni, bizning tilimizda yozilishi har xil, ammo ma’nolari bir xil so‘zlar juda ko‘p uchraydi. Masalan: “O‘quvchi, talaba, shogird” so‘zlari o‘zbek tilida ma’nolari bir xil ammo “shogird” so‘zi ko‘proq tarixiy asarlarda ishlatiladi va asarning badiiyligini, estetikligini oshiradi. Bu so‘z turkcha lug‘atda ham bor, ya’ni “çırak”. Ahsan Batur shogird so‘zining o‘rniga asar tarjimasida “talebe” so‘zidan foydalangan. Bu so‘zning o‘rniga “çırak” so‘zidan foydalanganda matn yanada ochilardi, jozibadorligi oshardi.

Yuqorida keltirilgan o‘zbekcha ta’rifda Mirzo Ulug‘bekning nigohida pinhoniylar majruhlik borligi haqida tasvirlanadi. Lekin tarjimon asarda “majruhlik “(ma’nosi: yarador, nogiron, mayib) so‘zini “mahzunlik” (ma’nosi: g‘am-qayg‘u) so‘zi bilan almashtirgan. Turkchada “majruhlik” “sakatlik” deb tarjima qilinadi. Ahsan Batur ham tarjimasida “sakatlik” deb berganida to‘g‘riroq bo‘lar edi. Muallif ham, Tarjimon ham Mirzo Ulug‘bekning tashqi ko‘rinishini, qolaversa uning o‘sha paytdagi ahvolini ham mahorat bilan tasvirlab bergan.

Asarning mukammal tasvirlangan obrazlaridan yana biri bu- Mirzo Ulug‘bekning volidasi mehriboni, Shohruh Mirzoning onasi Gavharshod begim. Unga tarjimada shunday ta’rif beriladi: “Valide-i mihribanına karşı gönlünde ılık bir duygu meydana gelmesini isterdi. Fakat göz önüne gelen uzun boylu; geniş mavi ipek bluz giyen, başına mavi türban çeken ve elinden tesbihi eksik olmayan bu iri yarı kadın, kap-kara kaşı gözü, kıyır burnu ve güzel cemaline rağmen yüzüne nur damlası düşmemiş, soğuk çehreli bir kişiydi”.²

Asliyatda esa bunday ta’rif berilgan: “U volidai mehriboniga nisbatan ko‘nglida iliq bir tuyg‘u uyg‘otishga harakat qildi. Lekin ko‘z oldiga uzun bo‘yli, ko‘k ipakdan keng ko‘ylak kiyib, boshiga ro‘mol o‘ragan, qo‘lidan tasbehi tushmaydigan kalandimog‘ bir xotin keldi. U qosh ko‘zlari qop — qora, qiyg‘ir burun, xushsurat xotin bo‘lsa ham, farishtasi yo‘q, chehrasi sovuq ayol edi”³. Bu obraz juda chiroyli tasvirlangan. Tarjimada berilgan o‘xshatishlar ham o‘ziga xos. Masalan, muallif qahramonining yuziga nisbatan “farishtasi yo‘q” o‘xshatishini bergan. Tarjimon esa bu o‘xshatishni “yüzüne nur damlası düşmemiş” deb bergan. O‘zbekchada bu “yuziga nur tomchisi tushmagan” deb tarjima qilinadi. Juda chiroyli tarzda

¹ Odil Yoqubov “Ulug‘bekning xazinası”. Bet .13.

² Ahsan Batur “Ulug‘beyin hazinesi”. Bet .43-35.

³ Odil Yoqubov “Ulug‘bekning xazinası”. Bet .29.

ta'rif berilgan. Bu Ahsan Baturning naqadar yaxshi tarjimon, so'z ustasi ekanligidan darak beradi. Obraz ham tiniq tasvirlangan. O'quvchi qiynalmasdan u qanday insonligi, salbiy yoki ijobiy xarakterlardaligi haqida bimalol tasavvurga ega bo'la oladi.

Asarda toj-u taxt uchun o'z otasiga qarshi chiqqan Abdulatif obrazi ham diqqatga sazovor. U shunday ta'riflanadi: "Mirza Uluġbey , kaş altından şehzadeye baktı. Mirza Abdullatif, başında inci kakmalı kunduz derisi başlık, Sırtında pileleri altın işlemeli sırtlan kürkü, belindeki altın kemerinde kını lal ve mücevherlerle süslü kılıçla karşısında duruyordu. Ellerini altın tahtın yüksek koltuklarına dayamış, bir noktaya bakıyordu. Ne garip, dün babasının oturduğu bu taht, şehzadeye bir küç, bir kuvvet mi vermişti, yoksa bütün gücünü alıp götürmüş müydü ki, çehresine bir tereddüt çökmüştü? Babasıninki gibi elmacık kemikleri dışarı fırlamış suratında, yuvasına çekilmiş çekik gözlerinde, soğuk bir hüzün, buz gibi bir mahzunluk belirmişti"¹.

Asliyatda esa bunday tasvirlangan: "Mirzo Ulug'bek yer ostidan shahzodaga ko'z tashladi. Mirzo Abdulatif, boshida dur qadalğan qunduz telpak, egnida avrasi zarbof qashqir po'stin, belidagi kumush kamarida qiniga la'l va javohir qadalğan qilich, qo'llarini oltin taxtning baland suyanchiqlariga tirab, bir nuqtaga tikilib o'tirardi. Voajabo, bobosi o'tirgan bu taxt shahzodaga kuch – quvvat ato qiladimi, boshqami, ishqilib, uning chehrasidagi boyagi taraddud yo'qolgan, xuddi bobosinikiga o'xshagan, yonoqlari turtib chiqqan qoramtir yuzida, ichiga botgan sal qisiq ko'zlarida odamni cho'chitadigan sovuq bir ifoda paydo bo'lgan edi"². Bu yerda Abdulatifning taxtga erishgani, atrofidagi faqat o'zini, boylikni o'ylaydigan shaxslar uni otasiga qarshi qilib qo'ygani va otasiga nisbatan unda sovuq tuyg'ular uyg'otganligi uning tashqi ko'rinishida mohirona tasvirlangan. Tarjimon asar qahramonini muallifniki kabi hech qanday kam-ko'stsiz tasvirlashga harakat qilgan va bunga erishgan.

Bu asar o'zbek adabiyoti uchun juda qadrlı, muhim asarlardan biridir. Davrimizning ulkan adibi Chingiz Aytmatov "Ulug'bek xazinası" haqida shunday yozadi: "Yaxshi kitob haqida yozish maroqli. Bu yuksak va oliyjanob proza namunasi. Badiiy quvvati jihatidan salmoqdor bu tarixiy roman meni larzaga soldi. Bu esa yaxshi asarning birinchi alomati. Bundan ham muhimi shuki, romanni o'qir ekanman, ko'nglimda turkiy xalqlarimiz

¹ Ahsan Batur "Ulug'beyin hazinesi". Bet. 126.

² Odil Yoqubov "Ulug'bekning xazinası". Bet.114-115.

tarixi uchun iftixor tuyg‘usi jo‘sh urdi. Ulug‘bek shunday dahoki, u bizning asrlar osha tariximizga, zaminda tutgan mavqeyimizga guvoh...”¹

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarixiy asar yozish juda qiyin. Bu oson va jo‘ngina kechadigan ijodiy jarayon emas. Tarixiy mavzuda asar yozayotgan muallif, avvalo o‘sha tarixiy shaxsning hayotini va faoliyatini tarixiy hujjatlardan o‘rganishi, haqqoniy, xolis bo‘lishi talab etiladi. Tarixiy asarni tarjima qilish ham tarjimonning qay daraja mahoratli, iste’dodli ekanligini ochib beradi. Ahsan Batur ham asar tarjimasida obrazlarning portretini nihoyatda mohirlik bilan ifodalagan. Ularning detallarga boyligi, batafsilligi hayot haqiqatlarini aniq aks ettirishi o‘ziga xoslik kasb etgan. Garchi asar asliyatidan biroz farq qilsa ham, uning ma’no-mazmuni, maqsadi umuman o‘zgarmagan. Tarjimonning ba’zi obrazlarga bergan ta’riflari uning naqadar so‘zga boyligi, go‘zal tasvirlar yarata olishi, o‘zbek tilini yaxshi bilishidan darak beradi. Uning o‘zbek tilidan o‘giran romanlari o‘zbeklar va turklarni bir-birini tanishiga, adabiy –ma’naviy aloqalarimizning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Odil Yoqubov “Ulug‘bekning xazinası”. “İlm-ziyo zakovat” T: .2019.
2. Ahsen Batur. “Ulug‘beyin hazinesi”. Selenge yayinlari. Istanbul:2003.
3. Karimov H. Hozirgi o‘zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiyasi (70-80-yillar) T:1994.
4. U. Jo‘raqulov, U. Usmonov. Badiiy tahlil asoslari fan dasturi. Toshkent -2019.
5. I.G‘afurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. “Tafakkur bo‘stoni”. Toshkent-2012.

¹Karimov H. Hozirgi o‘zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiyasi (70-80-yillar).

XUDOYBERDI TO‘XTABOYEVNING “SARIQ DEVNI MINIB” ROMANIDAGI IBORALARNING TURKCHA TARJIMADA BERILISHI

*Roziyaxon SHUKURXO‘JAYEVA
TDSHU, Turkshunoslik fakulteti
2-kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi Z. Salimova

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Sariq devni minib” romanida qo‘llanilgan iboralarning turkcha tarjimada berilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘zbek va turk qardosh xalqlarining badiiy asarda ibora qo‘llash uslublari taqqoslanadi.

Kalit so‘zlar: bolalar adabiyoti, ibora, tarjima, xalq.

Badiiy adabiyotda yozuvchi tomonidan yaratilgan har bir asar undagi voqealar rivoji, shuningdek, qahramonlarning nutqi orqali mana shu xalqqa oid bo‘lgan an‘analarni, qadriyatlarni aks ettirish uchun bir vosita o‘laroq xizmat qiladi. Bu qadriyatlar o‘z navbatida mana shu xalq tilida qo‘llanib kelinayotgan iboralarni ham o‘z ichiga oladi. Adib, tarjimon, munaqqid Ibrohim G‘afurov aytganidek, tarjimon qayta bunyod etishni o‘z zimmasiga olib, yelkasiga juda katta mas‘uliyatni ortadi¹. Badiiy asarlarda iboralar hamisha ma’no ta’sirchanligini kuchaytirish uchun foydalanib kelingani sir emas. Adabiyotda tarjima haqida gap ketganda esa, asarning boshqa tilga qay yo‘sinda tarjima qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ma’lum bir xalqqa, uning tiliga xos bo‘lgan iboralar o‘zga bir tilga tarjima qilinganda tarjimon mahorati yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Bolalarning sevimli adibi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” romanida qahramonlar nutqida juda ko‘p iboralar qo‘llanilganini kuzatish mumkin. Asarning qiziqarli va sarguzashtnamo syujeti orqali kitobxon bolalar orasida mashhurlikka erishishida uning ta’sirchanligini oshirgan iboralarning ham ahamiyati kattadir. Hattoki, “Sariq devni minib” romani dunyoning 24 ta tiliga tarjima qilinishi va bu asarni nafaqat o‘zbek, balki dunyo bolalarining ham mutolaa qilishi quvonarli holat, aslida.

Yozuvchi romanda vaziyatga monand iboralardan mohirona foydalan-ganligi e’tiborga molik. Ahsen Batur tarjimasi orqali esa o‘zbek va turk xalqlari tomonidan qo‘llaniladigan iboralarning o‘xshash va farqli tomonlarini tahlil qilish mumkin. Ayniqsa, bosh qahramon Hoshimjonning xarakteridan

¹ “A’lo kayfiyat” jurnali, 2010. № 1.

kelib chiqqan holda qilgan sho‘xliklari, shumtakaliliklari aks etgan sahifalarda iboralar ko‘p uchraydi: “Rost, ertalab oyim tovuqlarga don berib qo‘ygin, deb tayinlab ketgan edi. Butunlay unutgan ekanman. Endi nima qildim-a, ishqilib quloqning tagida shavla qaynamasa bo‘lgani!” (6-bet. X.T.).

Ahsen Batur tarjimasida esa ushbu jumla quyidagicha tasvirlangan: "Eyvah!.. Annem sabahleyin ”tavuklara yem ver” diye tembihlemişti. Nasıl da unuttum. Kulağımı çekeceği kesin. Yandım!” (10-bet. A.B.).

O‘zbek tilidagi “Quloqning tagida shavla qaynatmoq” iborasini Ahsen Batur tarjimada turk tilidagi “Kulağını çekmek” iborasi orqali ifodalagan. Ushbu ikki tildagi iboraning ham ma’nosi xato qilgan bir odamga bu ishning noto‘g‘ri ekanligini bildirish maqsadida berilgan kichik jazo ekanligini hisobga olsak, tarjimon nihoyatda to‘g‘ri iborani qo‘llaganiga guvoh bo‘lamiz. Ya’ni “kulağını çekmek” kattalarning kichiklarga nisbatan foydalanadigan jazo uslubi ma’nosida keladigan iboradir.

Hoshimjonning sho‘xligidan bezor bo‘lgan onasining nutqida ham shu kabi iboralar mavjud:

“– Bir haftadır su verdiğim yok. Yumurtasını alsın başına çalsın! – diye bağırdım.

– Derini yüzmey mi senin! – dedi annem sopayı arkamdan fırlatarak” (10-bet. A.B.).

Roman asliyatida esa ona-bola dialogi quyidagicha:

“– Bir haftadan beri suv berganim yo‘q. Tuxumini bir yo‘la poroshok qilib tug‘aversin! – deb baqirdim.

– Teringga somon tiqmasammi! – dedi oyim tayoqni o‘qtalib” (6-bet. X.T.). O‘zbek tilida “Terisiga somon tiqmoq” iborasi salbiy ma’noda kimningdir adabini berib qo‘yish, qilgan ishiga pushaymon qildirishini bildiradi va “terisini shilmoq” bunga ma’nodosh iboralardan biridir. Ahsen Batur tarjimasidagi “derisini yüzmek” aynan mana shu “terisini shilmoq” iborasiga mos keladi.

Asar davomida quyidagi satrlarga ham duch kelimiz: “Bir oy avval Qashqir qishloqda turadigan buvim biznikiga mehmonga kelib, sehrli qalpoq haqida ertak aytib beruvdi. Qalpoqni kiyib olgan azamat yigit biram ishlar qiladiki, biram qahramonliklar ko‘rsatadiki, agar eshitsangiz, og‘zingiz ochilib qoladi” (12-bet. X.T.).

Yuqoridagi jumlar quyidagi shaklda turk tiliga tarjima qilingan: “”Bir ay önce Kaşkir’de yaşayan ninem bize misafir geldiğinde sihirli kalpakla ilgili bir masal anlatmıştı. Bu kalpağı giyen yiğit öyle işler becerir öyle kahramanlıklar sergilerdi ki, duysanız ağzınız bir karış açık kalırdı” (19-bet. A.B.). “Og‘zi ochilib qolmoq” iborasining turkchada ham aynan “ağzi

(bir kariş) açık kalmak” ko‘rinishdagi versiyasi mavjud. Ya’ni biror narsa yoki holatga duch kelganda hayratlanish ma’nosida bildirgan iboradir.

Ammo, afsuski, Ahsen Batur tarjimasida tarjima qilinmay, tushirib qoldirilgan gaplar ham bor: “Men uning ishlariga ko‘maklashadigan bo‘ldim. Ko‘z yumib-ochguncha avval molxonani, so‘ngra cho‘chqaxonani yog‘ tomsa yalagudek qilib tozalab tashladik. Go‘ng bilan chiqindilarni men katta chelakka solib turdim. Hayitvoy tashqariga bo‘zchining mokisidek qatnab turdi. Bir nafasda hammayoq yog‘ tomsa yalagudek bo‘ldi-qoldi” (27-bet. X.T.). Tarjima qilinmay qoldirilgan yuqoridagi matnda ikki marotaba “yog‘ tomsa yalagudek” iborasi qo‘llanilgan. Agar tarjimon bu matnni ham turk tiliga o‘giranida “bal dök de yala” iborasidan foydalanishi mumkin edi. Chunki “Bal dök de yala” ham “yog‘ tomsa yalagudek” iborasi kabi bir yerning top-toza holga kelganini bildiruvchi ibora edi.

Roman bosh qahramoni bo‘lmish Hoshimjonning xarakterida epchillik hamda har sohaga qo‘l urib ko‘rishdan qo‘rqmaslik jihatlari ko‘zga tashlanadi. Bir so‘z bilan aytganda “tegirmonga tushsa butun chiqadigan” yigit. Uning o‘z tilidan keltirilgan quyidagi gaplari bunga yaqqol misol bo‘la oladi: “She’rim o‘tmadi, bahosi ikki pul bo‘ldi. Lekin men umidsizlikka tushganim yo‘q. Yo‘q, aslo bunday deb o‘ylamang. Umidsizlik menga begona. Oyim sen tirmizak tegirmonga tushsang butun chiqasan, der edi” (45-bet. X.T.). Tarjimadagi berilishida ham u qadar katta farq uchramaydi: “’Şiirim beğenilmedi. Bir metelik bile etmedi. Ama ümitsizliğe kapılmış değilim. Hayır, kesinlikle böyle düşünmeyin. Ümitsizlik kelimesi benim lüğatımda yok. Annem, sen değirmen taşlarının arasına düşsen, sağlam çıkarsın derdi” (61-bet. A.B.). “Tegirmonga tushsa butun chiqadi” iborasining haqiqiy turkcha shakli “değirmen taşının altından diri çıkar” ko‘rinishida bo‘lib, Ahsen Batur esa asar tarjimasida iborani biroz o‘zgartirib qo‘llaydi.

O‘zbek tilida noyob, topilishi mushkul bo‘lgan narsalarga nisbatan “anqoning urug‘i” iborasi ko‘p ishlatiladi. “O‘sha kuni men bormagan magazin qolmadi. Hatto bir oz qimmatga bo‘lsa ham ola qolay deb chayqov bozoriga ham birrov tushib chiqdim. Yo‘q, anqoning urug‘i bo‘lib ketgan ekan bu narsalar, topilmadi” (46-bet. X.T.). Tarjimada “anqoning urug‘i” iborasi “zümrütü anka kuşunun yumurtası” deb berilgan. “O gün akşama kadar uğramadığım dükkân ve mağaza kalmadı. Hatta biraz pahalı olsa bile satın alayım diyerek attar pazarına bile gittim. Hayır, zümrütü anka kuşunun yumurtasıymış gibi bir türlü bulamıyordum aradıklarımı” (61-62-bet. A.B.). “Zümrütü anka kuşu” turk afsonalarida keluvchi noyob qush bo‘lib, Humo

yoki Semurg‘ nomi bilan ham ataladi. Shuning uchun ham tarjimon aynan shu qushning tuxumini “anqoning urug‘i” bilan taqqoslaydi.

Quyida keltirilgan yana bir ibora e‘tiborni tortadi: “Ichkariga kirishim bilan og‘zim ochilib qoldi. Xoh ishonang, xoh ishonmang, ixtiyor o‘zingizda, ammo-lekin men bunaqangi dang‘illama uchastkani haligacha ko‘rgan emasman. Hatto kolxozimizning raisi Nosir akaning uyi ham buning oldida ip esholmaydi” (68-bet. X.T.). Uy tasvirini tarjima qilishda ham ibora o‘rniga oddiy so‘zdan foydalanilgan. “İçeriye girişimle birlikte ağzım bir karış açıldı. İnanırsınız veya inanmazsanız, sizin bileceğiniz bir şey, ama ben ömrümde böylesine süslü, böylesine planlı ve pırıl pırıl bir ev görmedim. Hatta kalhozumuzun genel müdürü Nasir beyin evi bile bunun yanında kümes gibi kalırdı” (91-bet. A.B.). Ahsen Batur “ip esholmaydi” iborasini turk tiliga ibora tarzida emas, balki “tovuqxona” so‘zi orqali tarjima qiladi. Ya’ni bir uy boshqa bir uyning oldida tovuqxonadek (kumes) ko‘rinadi.

Asliyatda yozuvchi Hoshimjon o‘z maqsadlariga erisholmaganidan o‘ksinib sehrli qalpoqchasiga nola qilgan o‘rinda ham vaziyatga mos iboradan foydalanadi. “Men o‘qimasdan agronom bo‘lmoqchi edim, shuning uchun ham barcha azoblarga, mashaqqatlarga tishimni tishimga qo‘yib chidagan edim, maqsadimga erisha olmadim, sharmanda bo‘ldim” (82-bet. X.T.). “Tishini tishiga qo‘ymoq” og‘ir va yomon vaziyatlarga chidash ma’nosini bildirishi ma’lum, albatta. Tarjimon esa bu iboraga ma’nosi aynan mos keluvchi boshqa bir turk iborasini ishlatadi: “Okumadan ziraat mühendisi olmak istiyordum. Bu yüzden bütün zorluklara tüm iskencelere göğüs germiş, fakat amacına ulaşamamış, rezil olmuştum” (109-bet. A.B.). Tarjimon mahorati mana shu yerda namoyon bo‘lgan. “Göğüs germek” iborasi turk tilida qiyinchiliklarga ko‘ksini tutmoq, chidash, ularni oshib o‘tish ma’nosini bildiradi. Bundan ravshanki, tarjimada “tishini tishiga qo‘ymoq” iborasiga mos tushuvchi ibora juda to‘g‘ri qo‘llanilgan. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, “göğüs germek” kelib chiqish jihatidan harbiy qo‘shinda dushmanga qarshi ko‘krak kerib urishmoq ma’nosi orqali vujudga kelgan bo‘lishi mumkin.

Xudoyberdi To‘xtaboyev hattoki peyzajda ham bir iborani qo‘llab o‘tish orqali mazmun ta’sirchanligini kuchaytiradi. “Sarg‘ayib pishadigan o‘riklar, ustida mayizak bo‘lib, tagiga to‘kilib yotadigan olchalar, nordon gilolar deysizmi, shaftoli, uzum, olma deysizmi, har bittasi chala pishgan tarvuzdek keladigan anor-u, ko‘rganda og‘zingiz suv ochib ketadigan oltindek sarg‘ayib pishadigan non behilar deysizmi – yo‘q, bari bir, hammasini aytib ado qilolmayman” (88-bet. X.T.). Turk tiliga ham o‘zbek tilidagi ibora kabi tarjima qilingani kuzatiladi: “Sapsarı kayısılar, el

sürülmediği için dibine dökülen elmalar, ekşi vişneler, ballı armutlar, her biri kafa büyüklüğünde narlar, gördüğünüzde ağzınızın suyunu akıtan altın renkli ayvalar... ne kadar saysam da hepsinin adını tek tek söyleyemem” (120-bet. A.B.). “Og‘zining suvi ochmoq” ishtahaning ochilishi hamda havaslanish ma’nosida qo‘llaniluvchi ibora bo‘lib, turk tilida ham “ağzın suyu akmak” shaklida uchraydi. Qisqa qilib aytganda, biror yemakni yeyishdan avval ishtahasi ochilishi, bir narsa yoxud bir odamga haddan ortiq havaslanganda ifodalanuvchi iboradir.

Hoshimjonning eng yaqin do‘sti bo‘lmish Zokirning xarakteridagi soddalik va bolalarcha qo‘rqoqlik yozuvchi tomonidan yumoristik yo‘l bilan ochib berilgan. Shuningdek, Zokirning fe‘l-atvoriga mos tushuvchi iboradan o‘rinli foydalanilgan. “Qizlar ham aksiga yurib nuqul o‘shanga tegajaklik qilishadi. Maktabdan qaytayotganda to‘rtta-beshtasi bir bo‘lib, oldilariga solishib, quvalab kelishadi. Tutib olib urishmaydi-yu, ammo uramiz deb bechoraning naq yuragini yorishadi” (93-bet.X.T.). Ahsen Batur tarjimasida ham “yuragini yormoq” iborasiga teng keluvchi turkcha ibora qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin: “Aksi gibi kızlar da hep ona sataşrlar. Okuldan dönüšte, dört beşi bir olup Zakir’i önlerine katar kovalarlar. Gerçi tutup bir şey yapmazlar, ama dövecekmiş gibi yapıp zavallının yüreğini ağzına getirirler” (126-bet. A.B.). “Yüreğini ağzına getirmek” iborasi aynan qo‘rqqanida yuragi xuddi og‘zidan chiqib ketadigandek tuyulishini bildirib, o‘zbekchadagi “yuragini yormoq” iborasi bilan aynan bir ma’noni anglatadi.

Romanda yozuvchi Hoshimjonning tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi buvisining tilidan ham juda ko‘p iboralarni keltirib o‘tgan. “Buvijonim kechgacha bir og‘iz ham gapirmadi, qovog‘ini ham ochmadi. Faqat dadam ishdan kelgandan keyin ovqatlanib bo‘lishgach: “– Hoshimjonni tartibga chaqirib qo‘yasanmi yoki ustiga kerosin quyib, o‘t yoqvoraymi? – deb so‘radi” (102-bet. X.T.). “Qovog‘i ochilmadi” iborasi biror nimadan xafa bo‘lganda yoki jahli chiqqanda ishlatiluvchi bordir. Ammo “Turk tilida ma’nosi aynan shu iboraga mos keluvchi ibora uchraydimi?” degan savol tug‘iladi. Bu savolga javobni asarning tarjimasi orqali olishimiz mumkin: “Annem akşama kadar ağzını açıp bir kelime bile söylemedi. Hep suratını astı durdu. Ama babam işten dönüp de yemeğini yedikten sonra: – Haşim’in kulaklarını çekecekmişin, yoksa üstüne benzin döküp yakayım mı? – diye sordu” (137-bet. A.B.). Turk tilida xafa bo‘lmoq, arazlamoq ma’nosini ifodalash uchun “suratını astı” iborasidan foydalaniladi. Ya’ni o‘zbek tilidagi “qovog‘ini ochmadi” iborasiga aynan ma’nodosh ibora sifatida xizmat qiladi.

“Sariq devni minib” romanida Hoshimjon va Zokirning ajabtovur sarguzashtlari davom etar ekan, ularning o‘zaro nutqida juda ko‘p iboralarga

duch kelamiz. “– Qani, uxlaganim, – dedi Zokir esnab, keyin tepasida turgan oyisiga ko‘zi tushib qoldi shekilli, shosha-pisha qo‘shib qo‘ydi: – Og‘zingga qarab gapir, qani uxlaganim. Men bu yerda dars tayyorlab o‘tiribman, bildingmi!..” (103-bet. X.T.). “Og‘ziga qarab gapirmoq” iborasi “o‘ylab, nima deyotganingni tushunib gapir; nojo‘ya, axloqdan tashqari gapni ishlatma” ma’nosida keladi. Tarjimadagi iborada esa faqatgina “og‘iz” so‘zi emas, balki “quloq” so‘zi ham ishlatilgan. “Kim uyumuş! – dedi Zakir esneyerek. Sonra tepesine dikilen annesine gözü takılınca, lafının arkasını getirdi: – Ağzından çıkanı kulağın duysun, kim dedi ben uyudum diye! Ben burada ders çalışıyordum, anladın mı?” (139-bet. A.B.). “Ağzından çıkanı kulağın duysun” iborasi “og‘zingdan chiqqan gapni qulog‘ing eshitsin” ma’nosini anglatib, o‘zbek tilidagi “og‘ziga qarab gapirmoq” iborasiga mos keladi.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” romani har bir inson uchun bolalik davrlariga qaytish imkonini beribgina qolmay, uning Ahsen Batur tarjimasidagi turkcha variantini tahlil qilish o‘zbek va turk qardosh xalqlariga xos bo‘lgan iboralarning o‘xshash va farqli tomonlarini chuqur o‘rganishga imkon beradi. Albatta, bu o‘rinda tarjimondan katta mahorat talab qilinadi. Negaki, yuksak saviyali bir asarni qay yo‘sinda boshqa tilga tarjima qilish, uning mazmun-mohiyatiga putur yetkazmagan holda kitobxonga taqdim etish mas’uliyati hamisha tarjimon zimmasiga yuklatiladi. Asliyat va tarjimani solishtirar ekanmiz, Ahsen Baturning bu masalaga jiddiy yondashganining guvohi bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. To‘xtaboyev X. Sariq devni minib. – T.: Yangi asr avlodi, 2013.
2. Tohtabayev H. “Sarı devin ölümü. Sihirli kalpak”. Roman. Çevirmen: Ahsen Batur. – İstanbul: Minik Serçe Yayınları. 2003.

TARIX VA FALSAFA

SULTON SAYFIDDIN QUTUZNING MO‘G‘ULLARGA QARSHI KURASHI

Abbosxon UBAYDULLAYEV

TDSHU, Sharq mamlakatlari tarixi yo‘nalishi, 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: PhD D.S. Xodjimuratova

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1258-yilda mo‘g‘ullarning Abbosiylar xalifaligi poytaxti Bag‘dodga qilgan yurishi, xalifalikning qulatilishi va 1260-yilda Misr sultoni Sayfiddin Qutuzning mo‘g‘ullar ustidan qozongan yorqin g‘alabasi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: mo‘g‘ullar, Xulaguxon, mamluklar, bahriylar, sulton Oybek, sulton Sayfiddin Qutuz, Beybars, Ayn-Jalut jangi.

Mo‘g‘ullar Markaziy Osiyo mintaqasiga mansub xalq bo‘lib, ularning asl vatani Mo‘g‘uliston-Xitoy tarafdagi yerlardir. XIII asrning boshlariga kelib (1206-1215-yillar) Mo‘g‘ulistonda Chingizxon hukmronligi ostida ulkan davlat tashkil topdi. Bu davrda O‘rta Osiyoda Xorazmshohlar davlati mavjud bo‘lib, o‘zaro urushlar, siyosiy tarqoqlik, beboshlik oqibatida bu qudratli saltanat inqirozga yuz tuta boshlagan edi. Chingizxon (1155-1227) va Muhammad Xorazmshoh (1178-1220) o‘rtasida qisqa muddat davom etgan elchilik munosabatlari fojiali yakun topdi. 1219-1221-yillarda mo‘g‘ullar Xorazmshohlar davlatidagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tushkunlikdan foydalanib O‘rta Osiyoni bosib oldilar. Asrlar davomida moddiy va ma‘naviy madaniyati rivojlanib kelgan O‘rta Osiyodagi ko‘pgina shaharlar – Buxoro, Samarqand, O‘tror, Termiz, Xo‘jand, O‘zgand, Kesh, Gurganj vayron qilindi. Dehqonchilik vohalari xarobazorga aylandi. Hunarmandchilik va me‘morchilikka katta shikast yetkazildi. Ilm-fan va madaniyatga katta zarba berildi.¹

Mo‘g‘ullar avvalo, Movarounnahr, Xuroson va Fors yurtlarini ishg‘ol etdilar. U yerdagi Xorazmshohlar davlatiga barham berib, Kichik Osiyoga ega chiqdilar. Xalifaning esa 80 mingga yaqin qo‘shini bor edi. Bu paytga kelib, islom olami tushkun bir vaziyatda edi. Bir tomondan salib yurishlari, ikkinchi tomondan Markaziy Osiyodagi kuchli islom davlatlarining mo‘g‘ullar tomonidan zabt etilgani xalifani yolg‘izlatib qo‘ygan edi.

¹ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Islom tarixi”, 2-juz. T., “HILOL-NASHR” – 2018, 171-173-betlar.

Mo'g'ullarning islom davlatlarini osonlikcha zabt etishi barchani vahimaga soldi. Bu davrga kelib Misr mo'g'ullar zulmi ostiga tushib qolmagan yagona islom davlati bo'lib qolayotgan edi. Misrda mamluklar¹ sulolasi hukm surardi. Misrdagi hukmron doiralar mo'g'ullarga taslim bo'lmaslik va ularni tor-mor etish yo'llarini qidira boshladilar. Bunday og'ir vaziyatda siyosiy va harbiy maydonga Misr sultoni al-Malik al-Muzaffar Sayfiddin Qutuz chiqdi. Qutuz o'z oldiga mo'g'ullarni tor-mor etish vazifasini qo'ydi.

Sulton Sayfiddin Qutuzning asli kelib chiqishi Xorazmshohlarning anushteginiylar sulolasiga (1077-1231) borib taqalar edi. U o'g'uzlarning begdili qabilasiga mansub edi. Qutuz Erondan kelgan turkiy shahzoda bo'lgan. Taxminan 1221-yilda Xorazmshohlar saltanatida dunyoga kelgan. Xorazmshohlar davlati qulagan davrda mo'g'ullar tomonidan asirga olingan va Damashqda qul qilib sotib yuborilgan. Keyinchalik Misr sultoniga qul sifatida sotilgan va Qohiraga kelib qolgan. Sayfiddin Qutuzning asl ismi Mahmud ibn Mamdud bo'lib, Muhammad Xorazmshohning farzandlaridan biri deb ham hisoblangan. Biroq keyingi tadqiqotlar uning Muhammad Xorazmshohning o'g'li emas, balki sulton Jaloliddin Manguberding jiyani, ya'ni uning singlisiga farzand ekanligi aniqlangan.

Sayfiddin Qutuz Misr sultoni al-Mu'iz Oybek (1250-1257) ning ishonchli amirlaridan biri bo'lgan. Fransiya qiroli Lyudovik IX (1226-1270) rahbarligida tashkil etilgan Yettinchi salib yurishi qatnashchilari 1249-1250-yillarda Misrga hujum qilganida, ularning tor-mor etilishida Sayfiddin Qutuzning hissasi katta bo'lgan. 1253-yilda Oybek uni o'ziga voris qilib tayinlagan va Qutuzga "noib as-sulton Misr" unvoni berilgan. Sayfiddin Qutuz 1254-yil yanvarda Qohira qal'asida sulton Oybekning raqibi hisoblangan mamluklar amiri Forisiddin O'qtoyning qatl etilishini uyushtirgan. Natijada, Beybars boshchiligidagi ko'plab bahriylar² Misrni tark etganlar. Ular 1257-1258-yillarda ikki marta Misrga hujum qilib hokimiyatni qo'lga kiritishga urindilar, ammo Sayfiddin Qutuz ularning isyonlarini bostirdi.

1257-yil mart oyida sulton Oybek o'ldirilgach, Sayfiddin Qutuz Oybekning o'g'li al-Mansur Alining noibi bo'lib qoldi. Al-Mansur Ali 15

¹ Mamluklar (arabcha – mulk qilingan, qul) — Misrda hukmronlik qilgan ayyubiylar sulolasi (1171 — 1250) ning so'nggi hukmdorlari qo'shinini tashkil qilgan, nasl-nasabi turkiy va Kavkaz xalqlari (gruzin, cherkas va boshqalar) dan bo'lgan qul jangchilar. Ular Misr, Suriya va Falastinda 1250-1517-yillar mobaynida hukmronlik qilishgan.

² Bahriylar – mamluk sultonlarining birinchi sulolasi. 1250-1382-yillarda Misrni idora qilganlar.

yoshga to'lgan, yosh va tajribasiz sulton edi. Amalda hokimiyat Sayfiddin Qutuz qo'lida jamlangan edi. Amir Sanjar al-Halabiy va Sanjar al-Gatmiy yosh sultonning otabeklari edi, ular bahriylarning katta qismiga ham rahbar edilar. Sayfiddin Qutuz o'zining asosiy raqibi Sanjar al-Halabiyning o'zini qo'llab-quvvatlashiga erisha oldi va yagona hokimiyatni o'z qo'lga jamlagan holda qo'shinning bosh qo'mondoni (otabek al-asokir) lavozimini egalladi.

1259-yilda mo'g'ullarning Suriyaga bostirib kirgani haqida xabar topgach, Sayfiddin Qutuz o'zining eng xavfli solihlari va mu'iziylar guruhlaridan bo'lgan raqiblari Qohirani tark etishini kutdi. Sulton al-Mansur Alini taxtdan olib tashlab, o'zini "al-Malik al-Muzaffar" ("doimo g'olib podshoh") deb atadi va sultonlik taxtiga o'tirdi (1259-yil 12-noyabr). Ushbu hodisaning qonuniy asosi shundaki, al-Mansur Ali mo'g'ullarga qarshi boshlanadigan urushning yetakchisi bo'lish uchun juda yosh edi. Sayfiddin Qutuz uchun o'zining Xorazmshohlardan kelib chiqqanligini e'lon qilish g'oyaviy jihatdan foydali bo'lgan, chunki u mo'g'ullar tomonidan tor-mor etilgan sulola uchun qasos oluvchi sifatida harakat qilishi mumkin edi. Xulaguxon qo'shinlari Suriyadagi Halab shahrini 1260-yil 25-yanvarda egallab oldi, ammo Damashqda bo'lgan ayyubiylar amiri an-Nosir Yusuf shaharga yordam berishga shoshilmadi. U Qutuz bilan dushmanga qarshi birgalikdagi harakatlar to'g'risida kelisha olmadi. An-Nosir xizmatida bo'lgan Beybars uni tark etdi, kurdarlardan iborat guruhi bilan birgalikda Falastinga chekindi va G'azo yaqinida qarorgoh qurdi. Bu yerdan u Misrga qaytib kelganda "omonlik" (xavfsizlik kafolati) olish to'g'risida sobiq dushmani Qutuz bilan muzokaralarni boshladi.

Ayni paytda, Xulaguxon Qutuzdan taslim bo'lishni talab qildi, unga Misr sultoni mo'g'ul elchilarini qatl etish bilan javob berdi. Misr elchilari mo'g'ullarga qarshi ittifoq tuzish maqsadida Akraga bordi. U yerda hukmronlik qilayotgan salibchi franklar betaraf bo'lishga qaror qilishdi, ammo mamluk qo'shinlariga Quddus qirolligining dengiz bo'yidagi yerlaridan erkin o'tishi uchun ruxsat berishdi. 1260-yil 15-iyulda mamluklar Sayfiddin Qutuz va Rukniddin Beybars qo'mondonligida Qohiradan yo'lga chiqdilar va avgust oyida Akra yaqinida qarorgoh qurdilar, u yerda dam oldilar va oziq-ovqat zaxiralarni to'ldirdilar. 1260-yil 3-sentyabrda Falastinning Izreel vodiysidagi Ayn-Jalut jangida mamluklar mo'g'ul no'yni Kitbuka qo'shinini tor-mor etdilar. Kitbuka o'ldirildi, 10 mingdan ziyod mo'g'ul jangchilari halok bo'ldi. Bu jang dunyo tarixida ilk bor qo'l multiqlaridan foydalangan holda sodir bo'lgan birinchi jang hisoblanadi. Bunday quroldan foydalanish jangda mamluklarning ustunligini ta'minlagan va mo'g'ullarga sarosima solgan. Mo'g'ullar mamluklar

armiyasining chap qanotini yengayotgan paytda, sulton Sayfiddin Qutuz harbiy jasorat ko'rsatib mo'g'ullarga zarba berishda davom etdi. Muarrixlar o'z asarlarida Ayn-Jalut jangi, undagi sulton Qutuzning harbiy hiylalari va jang olib borishdagi mohirona usullari haqida ma'lumot berishgan.

Xulosa. Jangdagi g'alabadan so'ng Suriya mamluklar nazorati ostiga o'tdi, Xulaguxon Misr va Suriyaga yurish qilish fikridan voz kechdi. Sulton Sayfiddin Qutuz Sanjar al-Halabiyni Damashqqa, Rukniddin Beybarsni Halabga noib etib tayinladi. Misrga qaytishda qo'shinlar G'azo yaqinidagi harbiy qarorgohda to'xtadi. Bahriylar (Beybars va Balaban ar-Rashidiy) va mu'izziylarni o'z ichiga olgan bir guruh amirlar fitna uyushtirishdi. 1260-yil 24-oktyabrda ov paytida Beybars Qutuzga yaqinlashdi va ular mo'g'ullar tomonidan asirga olingan va mamluklar tomonidan qaytarib olingan turk qizini o'ziga hadya etishini so'radi. Fitnadan bexabar qolgan sulton Sayfiddin Qutuz bu iltimosga rozilik berdi. Beybars minnatdirlik ramzi sifatida sulton Qutuzning qo'lini o'pdi. Bu fitnachilar uchun ishora edi, mamluklar sulton Qutuzni o'rab olishdi va uni o'ldirishdi. Muarrix Abduzzohirning so'zlariga ko'ra, Beybars o'limga olib kelgan zarbani bergan bo'lsa-da, katta ehtimol bilan buni Mamluk Anas al-Silohdor ismli fitnachi qilgan. Sulton Qutuz qatl etilganidan so'ng, Rukniddin Beybars Mamluklar sultonligi taxtini egalladi va davlatni 1260-yildan 1277-yilga qadar idora qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Islom tarixi", 2-juz. T., "HILOL-NASHR" – 2018, 171-173-betlar.
2. Рыжов К. В. Бахриты // Все монархи мира. Мусульманский Восток. VII-XV вв. – М.: Вече, 2004.
3. Фильштинский И. М. История арабов и Халифата (750-1517). – 3-е, исправленное и дополненное. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2008. – 349.
4. The Cambridge History of Islam. – Cambridge University Press, 1977. – Vol. 2, p. 1. – 544 p.
5. Irwin R. The Middle East in the Middle Ages: the early Mamluk Sultanate 1250-1382. – L.: Croom Helm, 1986. – 180 p.

ISLOM DININING JANUBI-SHARQIY OSIYO MAMLAKATLARIDA TARQALISHI

Azamat FAYZULLAYEV

TDSHU, Sharq mamlakatlari tarixi yo'nalishi 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: PhD Sh.I. Ikromov

Annotatsiya: Ushbu maqolada VII asrda Arabiston yarimorolining Hijoz o'lkasida ilohiy ta'limot sifatida vujudga kelgan islom dinining qay tarzda Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari hududiga kirib kelgani va yoyilgani to'g'risida so'z boradi. O'rta asrlarda musulmon sulola vakillari tomonidan ushbu mintaqada asos solingan davlatlar haqida muxtasar ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Malakka yarimoroli, Sumatra oroli, so'fiylik, tariqat, podshohlik, portugallar va ispanlar bosqini.

Ma'lumki, bugungi Osiyo qit'asining janubi-sharqiy qismi deganda Indoneziya, Malayziya, Vetnam, Myanma, Kambodja, Tailand, Filippin, Laos, Singapur, Sharqiy Timor kabi mamlakatlar tushuniladi. Bu mamlakatlarning aksariyatida aholi ancha zich joylashgan hamda notekis taqsimlangan. Bunga asosiy sabab esa mintaqaning juda ko'p orol hamda yarimorollardan tashkil topganligidir. Xususan, Indoneziya davlatining o'zi 17 mingdan ziyod katta-kichik orollardan iborat bo'lsa, Filippin 7 mingdan ortiq orollarni o'zida birlashtirgan. Mintaqada jami 675 mln. dan ortiq aholi yashaydi. Bu dunyo aholisining 8.5 % qismi demakdir. Aholining diniy mansubligiga keladigan bo'lsak, 240 mln. dan ortiq aholi islom diniga, 143 mln. dan ortig'i buddaviylikka, 116 mln. dan ortig'i xristianlikka, 47 mln. dan ziyod qismi esa mahalliy dinlarga e'tiqod qiladi (31 mln. dan ortiq hech qaysi dinga e'tiqod qilmaydigan qatlam ham mavjud). Raqamlardan ko'rinib turibdiki, bu yerda musulmonlar mintaqa aholisining katta qismini tashkil etmoqda. Shu o'rinda savol tug'iladi. Geografik jihatdan Xitoy va Hindiston kabi yirik mamlakatlarga chegaradosh mintaqada qanday qilib islom dini bunchalik keng yoyilgan? Axir qadimdan Xitoy va Hindiston madaniyati qo'shni mamlakatlarga katta ta'sir o'tkazib kelgan, ammo bu mintaqada ulardan kirib kelgan buddizm dini vakillari nisbatan kam sur'atlarga ega.

Islom dini Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari orasida eng keng tarqalgan din bo'lib, bu mintaqadagi 240 mln. dan ortiq aholi musulmonlar hisoblanadi (bu ko'rsatkich umumiy aholining 42 % ini tashkil etadi) [2, 3]. Musulmonlarning katta qismi Indoneziya, Malayziya, Bruney, Tailandning janubiy qismi hamda Filippinga qarashli Mindanao orolida yashaydi.

Musulmonlarning aksariyati sunniylar, fiqhiy aqidasi ko'ra shofeiylar hisoblanadi. Islom dini Malayziya va Bruneida rasmiy din, Indoneziyada esa oltita rasmiy dinlardan biridir. Janubi-sharqiy Osiyoda islom dini mahalliy urf-odat va qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan va mahalliy aholi uchun bu ijobiy holat hisoblanadi [3, 149-170]. Tasavvufda ham o'ziga xoslik mavjud, so'fiylar bu mintaqada anchagina ko'p. Islom dini Janubi-sharqiy Osiyo aholisi kundalik hayotining bir qismi bo'lib, ularda ilmni diniy va dunyoviy kabi tushunchalarga ajratish mavjud emas [3, 149-170]. Musulmonlar soni bo'yicha mintaqalar Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadan o'zib ketgan [4, 5]. G'arb olimlari bu yerda islomning tarqalishi va o'ziga xos xususiyatlarini hali to'liq o'rganmaganlar. Keling, islomning bu yerda tarqalish tarixiga nazar tashlaymiz.

1963-yilda Indoneziyaning Medan shahrida bir ilmiy anjuman o'tkazilib, islom dinining Indoneziyaga kirib kelishi haqidagi ma'lumotlar o'rganilgan va mazkur anjuman quyidagi qarorlarni chiqargan [1, 287]:

1) Islom dini Indoneziyaga ilk bor hijriy I (milodiy VII) asrda arab yurtlaridan bevosita kirib kelgan;

2) Bu yurtning islom dini kirib kelgan birinchi mintaqasi Shimoliy Sumatra sohillari bo'lgan. Undan keyin bu yerda islom jamiyati barpo etilgan va musulmon Atcha (Achex) podshohligi tashkil topgan;

3) Islom dini bu yerga savdogarlarning faoliyati tufayli kirib kelgan va da'vat tinch yo'l bilan olib borilgan [1, 288].

Janubi-sharqiy Osiyoda IX asr va undan oldingi davrda musulmon savdogarlari tashqi savdoda ustunlik qilgan [5, 124]. Milodiy 674-yilga kelib Sumatraning g'arbiy sohilida chet ellik musulmonlar qarorgohi mavjud edi, boshqa musulmon aholi punktlari 878-yildan so'ng, islom odamlar orasida tobora kuchayib borayotgan paytda paydo bo'la boshladi. Biroq bu ilk musulmon jamoalari islom dinini butun Janubi-sharqiy Osiyo bo'ylab keng yoymaganlar. Shu tufayli XII asrgacha islom dini aholining yirik qismlariga keng tarqalmagan. G'arbiy Osiyo va Uzoq Sharq o'rtasidagi asosiy savdo yo'li bo'ylab harakat qilgan musulmon savdogarlari islom dinining Janubi-sharqiy Osiyoga kirib kelishiga sababchi deb taxmin qilinadi. Keyinchalik din so'fiylik tariqatlari bilan aholi orasida yanada keng tarqaldi, mahalliy hokimlar va podshohlar ham islom dinini qabul qila boshladilar. Birinchi musulmon jamoalari Shimoliy Sumatradagi Atcha (Achex) provinsiyasida paydo bo'lgan. Atchaga dengiz orqali tutash bo'lgan Malakka yarimoroli islomning dastlabki tayanchi bo'lgan va mintaqadagi savdo yo'llari bo'ylab islom targ'ibotining boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qilgan. Islom dinining Malakkaga ilk bor qachon kelgani haqida aniq ma'lumotlar yo'q,

biroq musulmon qabr toshlaridagi birinchi belgilar 1082-yilga to'g'ri keladi. Italyan sayyohi Marko Polo bu yerga 1292-yilda tashrif buyurganida, Perlak shahar-port davlati aholisi musulmonlar bo'lganini ta'kidlagan. O'rta asr Xitoy manbalarida 1282-yilda Samudera (Pasai) qirolligidan imperator huzuriga musulmonlar delegatsiyasi borganligi qayd etilgan. Boshqa manbalar Melayu qirolligida xuddi shu davrda mavjud bo'lgan musulmon jamoalari haqida ma'lumot beradi. Boshqalari esa Futszyan kabi Xitoy provinsiyalaridan xitoylik musulmon savdogarlar Janubi-sharqiy Osiyoga kelganligini qayd etadi. Islomning tarqalishi, asosan, buddistlar hududi orqali sharqdagi savdo yo'llari bo'ylab, yarim asr o'tib esa Malakka orqali sodir bo'ladi. 1402-1414-yillarda Malakka davlati qiroli bo'lgan Paramesvara Devashohning musulmon bo'lishi, Pasai qirolligi hukmdorining musulmon qiziga uylanganidan keyin ismini Muhammad Iskandarshoh deb o'zgartirishi, davlat nomi esa Malakka sultonligi degan nom ostida qayta tashkil topishi islomning ravnaqi ancha oshganligiga dalildir. 1380-yilda so'fiylik tariqatlari vakillari islomni Malakka yarimorolidan Filippinning Mindanao oroliga olib bordi [6, 60]. Mintaqadagi hukmron tabaqalarni islomga da'vat etishning yana bir yo'li musulmon jamoalari o'rtasida hukmron sulolalar bilan nikoh orqali qarindoshlik rishtalarini o'rnatishga urinishlar edi. Yevropalik xristian missionerlari XVII asrda Janubi-sharqiy Osiyo va Gvineya oroliga kirib kelganlarida bu hududlar aholisining aksariyati musulmon edi.

Janubi-sharqiy Osiyoda islomning birinchi yozma manbalari 1851-yilda Sumatra orolidagi savdogardan olingan. Bu manba 916-yilda yaratilgan edi. Vaqt o'tishi bilan aholi kam yashaydigan qirg'oqlarda bir qator musulmon port qishloqlari paydo bo'ldi. Ushbu port qishloqlaridan islom da'vatchilari Sumatra orolining ichki qismiga jo'nab ketishdi. Vaqt o'tishi bilan bu portlar Hindiston, Xitoy va Arabiston yarimorolidagi musulmonlarni o'ziga jalb qila boshladi. Islom Janubi-sharqiy Osiyoda eng mashhur va keng tarqalgan dinga aylandi. Islomning butun Janubi-sharqiy Osiyo va Indoneziya arxipelagiga tarqalishi asta-sekin va tinch jarayon bo'lib, unga savdogarlarning faoliyati juda katta ta'sir etdi.

Xulosa. XV asrning oxiriga kelib, Shimoliy Sumatraning bir qancha hududlari, jumladan, hozirgi Yava hududi musulmon hukmdorlari tomonidan boshqarilgan. Faqat 1641-yilga kelibgina Yava oroli hukmdori ham sulton deb atala boshlandi. Xulosa qilib aytganda, islom dini dastlab Sumatra qirg'og'iga yetib keldi va qirg'oq bo'ylab Malakka bo'g'oziga qadar tarqaldi, undan esa to'g'ridan-to'g'ri Malakka yarimoroliga o'tdi. 1511-yilda portugallar Malakka yarimorolini egallab olishdi [1, 289], biroq

bu davrda boshqa boshqa musulmon davlatlari ham kattalashib, iqtisodiy va siyosiy nufuzini oshira boshladi. Masalan, Atcha (Achex) podsholigi XVII asr boshlarida ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan mintaqada hukmronlik qilgan. Bu musulmon davlatlardagi oilaviy va savdo aloqalari orqali g'ayridin davlatlar hukmdorlari ham sekin-asta islomni qabul qila boshladilar. Islom dini bu yerdagi buddizm va hinduiylik bilan bir qatorda aholining asosiy diniy e'tiqodiga aylandi. Islom dini aholining kundalik turmush tarziga, urf-odatlarini, milliy libos, arxitektura, adabiyot va san'atiga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Islom tarixi, 2-kitob. T.; "Hilol-nashr", 2018.
2. Yusuf, Imtiyaz (2015). "The Middle East and Muslim Southeast Asia: Implications of the Arab Spring". Oxford Islamic Studies.
3. "Southeast Asia and Islam". The Annals of the American Academy of Political and Social Science. 588, Islam: Enduring Myths and Changing Realities (Jul., 2003).
4. "Muslims". Pew Research Center's Religion & Public Life Project. 18 December 2012. Retrieved 13 October 2016.
5. Ricklefs, M. C.; Lockhart, Bruce; Lau, Albert; Reyes, Portia; Aung-Thwin, Maitrii (2010). A New History of Southeast Asia. Macmillan International Higher Education.
6. Azra, Azyumardi (2006). Islam in the Indonesian World: An Account of Institutional Formation. Mizan Pustaka.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING MASHAQQATLI HAYOT YO'LI

Sevinch TILABJONOVA
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo'nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: A.U. Izzatova

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning mashaqqatli hayot yo'li haqida qisqacha fikr yuritilgan. Movarounnahr,

Xuroson va Hind o'lkasidagi faoliyati va boburiylar imperiyasiga asos solishdagi ba'zi fikr va mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'z: Movarounnahr, Samarqand, boburiylar, Afg'oniston, Hindiston, shayboniylar, Eron, xiyonat, isyon.

Temuriyzoda shahzoda Zahiriddin Muhammad Bobur o'z hayot faoliyatida davlat boshqaruvidan tashqari o'tkir qalam sohibi ham hisoblanadi. Uning yozgan asarlari, g'azallari, ruboiylar va boshqa adabiyot sohasida va davlat boshqaruvida ham muhim rol o'ynaydi. Z.M. Boburning hayot yo'li oson kechmagan. Siyosiy xiyonatlari, xorlik davrlari, hukmdor sifatida uning shaxsiyatiga og'ir botadigan qarorlar ham qabul qilganligiga tarix guvohdir. Shunga qaramay 1526-yilda Hind o'lkasida buyuk boburiylar imperiyasida asos sola oldi. Bu imperiya 1858-yilgacha, ya'ni Buyuk Britaniyaning mustamlakasiga aylanmaguncha davom etgan. Hozirgi kunda ham bu imperiya davrida qilingan iqtisodiy-siyosiy, ilm-fan sohadagi o'zgarishlar, qolaversa, madaniyatiga ham katta meros qoldirgan. Z.M. Bobur ham imperiyaga asos solishda o'z boshidan og'ir damlarni o'tkazganini quyida ko'rib chiqamiz.

1494-yilda Sulton Ahmad Mirzo Mo'g'uliston xoni Sulton Mahmud o'zaro ittifoq bo'lib, lashkarlarini Farg'onaga yuborgan bir paytda Umarshayx fojiali halok bo'ladi. Umar Shayx Mirzo vafot etgach, 1494-yil 10-iyun seshanba kuni, hali balog'atga yetmagan 12 yoshli Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo Farg'ona ulusining hukmdori sifatida taxtga o'tiradi. Hali balog'atga ham yetmagan Bobur Mirzo butun boshli bir davlatni boshqarish va uni tinchligini saqlash vazifasi yuklatildi. Uning tengqurlari bolalik davrlarini surib, o'yinlar o'ynab yurgan bir vaqtda, Bobur Mirzo o'zining amaki va tog'alari tomonidan uyushtirilayotgan urushlarni bartaraf qilish va davlat boshqaruvi bilan ovora edi. Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo o'ziga ishonchli beklari bilan Axsidan Andijonga kelganda, Andijonda to'rt yog'och masofada bo'lgan. Quva shahrida o'z amakisi, Movarounnahr hukmdori Sulton Ahmad Mirzo qo'shin bilan Andijon qasdida turganligi haqida xabar keladi. Ikkinchi tomondan Toshkent hukmdori (Bobur Mirzoning tog'asi) Sulton Mahmudjon Kosonni zabt etib, Axsini qamal qiladi. Uchinchi tomondan Qashqar xoni, Abu Bakr dulg'ot o'z qo'shini bilan Farg'ona ulusiga bostirib kelib, O'zganchni qamal qiladi.[1]

Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoga o'zining yaqin insonlari tomonidan qattiq zarba beriladi. Ammo u shu xiyonatlarga qaramasdan kuchli bo'lishda davom etdi. Uning qalbida bobosi tuzgan davlatni yana qaytadan tuzib, birlashtirishni maqsad qilgan edi. Ana shu ezgu maqsad bilan harakat qilgan. Bobur Mirzo boshchiligidagi Andijon qo'shinlari

1495-1496-yillarda Samarqandga ikki marta muvaffaqiyatsiz yurish qiladi. 1497-yil kuzida Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni va yetti oylik qamaldan so'ng Samarqandni egallaydi, Boysung'ur Qunduzga qochadi. Zahiriddin Bobur bobosi Amir Temurning rasmiy poytaxti Samarqandda bor yo'g'i yuz kungina hukmronlik qiladi, xalos. U tez orada Andijonga qaytishga majbur bo'ladi.

Bunga quyidagilar sabab edi:

Birinchidan, Samarqandni uzoq vaqt qamal qilinganligi, oqibatida shaharda oziq-ovqat tanqisligi kuchaygan. Ikkinchidan, Bobur Mirzoning yo'qligidan foydalangan mahalliy hukmdorlar Andijonda qo'zg'olon ko'taradilar va shaharni qo'lga oladilar. Bobur Mirzo Andijondagi o'zboshimcha beklarni tanobini tortib qo'yish maqsadida Samarqanddan chiqib, Andijon sari o'tlanadi. Samarqand yosh shahzoda xotirasida juda chuqur iz qoldiradi. Bu Bobur Mirzoning Movarounnahr poytaxtiga birinchi bor qadam qo'yishi edi. [2]

Bobur Mirzoning qalbida Samarqand o'zgacha taassurotlarni uyg'otdi. Chunki to'liq bo'lmasa-da bobosining davlatni qisman birlashtirganini his qilardi. Bobur Mirzo yosh bo'lishiga qaramasdan u temuriylar saltanatiga mos shahzodalardan edi. Tez orada ya'ni, 1498-yilda Buxoroda turgan temuriylardan bo'lmish, Sulton Ali Samarqandga kirib keladi. Uning ixtiyorida qurolli kuch yo'q bo'lib, u amirlar qo'lida shunchaki bir qo'g'irchoq bo'lgan.

Movarounnahr tuprog'idan temuriylarni surib chiqarishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan, boshqa bir turkiy qabila Dashti Qipchoqdagi chorvador o'zbek nomi bilan ataluvchi qavm va qabila boshlig'i Muhammad Shayboniyxon edi. Temuriyzoda shahzodalar orasidagi o'zaro urushlari Muhammad Shayboniyxonga qo'l keladi va Sulton Alining ishonchiga kirib oladi. Shundan so'ng Sulton Ali Muhammad Shayboniyxonga boshchiligida bu hududlarni egallab olishlariga yordam berdi. Muhammad Shayboniyxon 1500- yilda jangsiz Samarqandni egalladi. U shaharni talaydi, temuriy shahzodalarni qilichdan o'tkazadi. Tinch aholining ahvoli og'irlashadi. Shunday vaziyatda xalq tomonida qo'zg'olon ko'taradi. Qo'zg'olonga Abulmakarim boshchilik qiladi. Shayboniyxon bu davrda Samarqandda 600 kishini qoldirib, o'zi Ko'limalikda dam olayotgan edi. Shunda Samarqand shahri ahli 19 yoshli Bobur Mirzoni Samarqandga chorlab, shahar darvozalarini unga ochib berdilar. Shayboniyning Samarqand shahrida qoldirib ketgan 600 kishidan iborat askarlari qirib tashlandi. Bobur Mirzo hukmdor etib ko'tariladi [3].

Bobur Mirzo xalqning mehrini va ishonchini qozonganiligi, shu manbalarda yaqqol ko'rsatilgan. Yosh bo'lishiga qaramay Bobur juda ham jasur, dovyurak hukmdor edi. Bo'lib o'tgan voqealardan xabardor bo'lgan Muhammad Shayboniyxon g'azablanib, Turkiston atroflaridan katta qo'shin to'plab yana Samarqand sari yurdi. Bu davrda Samarqandda og'ir vaziyat vujudga kelgan edi. Qurg'oqchilik tufayli shahar oziq-ovqat va yem-xashak tanqisligiga uchradi. Natijada, Bobur Mirzo lashkarlarining bir qismini tarqatib yuborishga majbur bo'ladi. U oz sonli qo'shin bilan qolgan edi. Bundan foydalangan Shayboniyxon hujum boshlaydi. Bobur Mirzo Kesh, Toshkentdan kelayotgan yordamchi kuchlarni kutmasdan jangga kiradi. Zarafshon qirg'og'ida bo'lgan jangda Bobur Mirzo yengiladi va Samarqandda yashirinadi.[4] Bobur bor kuchi ila kurashdi ammo kuchlarning teng emasligi unga pand berdi. Ular orasida yana bir necha marotaba urushlar bo'lib o'tadi.

Bobur Mirzo o'zining yaqin deb bilgan insonlaridan tog'asidan yordam so'rab Shayboniyxonga qarshi birgalikda kurash boshlashadi, ammo ularning qo'shinini Muhammad Shayboniyxon yengadi. Shaharda ko'plab qamallar bo'lishi xalqni og'ir ahvolga soladi. Shunda Boburning oldidagi lashkarlari shaharni tashlab qochadi, ana shunday bir vaziyatda Shayboniyxon Boburga sulh taklif qiladi. Keyinchalik ana shu voqeani Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo quyidagicha tasvirlaydi: "Bu mahalda Shayboniyxon sulh so'zini oraga soldi. Agar bir tarafdin umidvorlik bo'lsa edi, yo zaxira bo'lsa, sulh so'ziga kim quloq solar edi. Zarurat bo'ldi sulhgina qilib, kechadan ikki nahr bo'la yovushib edikim Shayxzoda darvozasidan chiqildi. Volidam xonimni olib chiqdim. Yana ikki xotin kishi chiqdi: biri Bichka xalifa edi, yana biri Minglik kogaltosh edi. Mening egachim Xonzoda begim ushbu chiqqanda Shayboniyxonning ilkiga tushdi" [5].

Voqea asli sulhga muvofiq Xonzoda begimni (1478-yilda tug'ilgan opasi edi) Shayboniyxonga xotinlikka berishga rozi bo'lingach, o'z navbatida Shayboniyxon ham Bobur Mirzoga shahar darvozalaridan biri bo'lgan, Shayxzoda darvozasidan, o'z haramini olib chiqib ketishga imkon yaratib bergan. Bu sulh Bobur Mirzo uchun hukmdor sifatida xalqni o'ylagan holda to'g'ri deb bilgan bo'lsa, ammo erkaklik g'ururi uchun juda ham og'ir sulh bo'lgan. U o'z opasini dushmaning qo'liga topshirishni istamagan, lekin u xalqni zulmda qoldirishni istamagan. Bobur xalq uchun o'z jonini ham qurbon qilishga tayyor bo'lgan. U shunday xalq sevar inson bo'lgan.

Mardligi va jasurligi uchun unga "Bobur" "Sheryurak" degan, unvon berilgan. Boburning ko'rgan kechirganlari oson emas, lekin u xalqi va davlati uchun fidoyi hukmdor bo'lgan. Uning yosh boshiga shuncha

sinovlar kelishiga qaramay u kuchli, bo'ldi. Hatto u o'zining qondoshi jigari bo'lmish opasini ham xalq uchun qalbidan qiynalib sug'urib berdi, desak xato bo'lmaydi. Bobur Mirzo 1504-1507-yillar oralig'ida Mo'g'uliston va Movarounnahr yerlarida quvg'inda yuradi va nihoyat oz sonli lashkar bilan Hisor tog'laridan oshib, Qobul shahrini egallaydi. U boshidan juda og'ir kunlarni o'tkazdi. Bobur Mirzoning qizi Gulbadanbegim (1523-1603) o'zining "Humoyunnoma" asarida bunday deb yozgan edi: "To'liq 11 yil davomida Movarounnahr o'lkasida, chig'atoy, temuriy va o'zbek sultonlari bilan shunday janglar va mudofaalar nuqsonlidir. Oxirgi hamrohlari va qarindoshlari bo'lib, jami 250 ga yaqin kishi, piyoda, yelkalarida chopon, oyoqlarida choriq, qo'llarida tayoq bo'lgani holda beyarog', xudoga tavakkal qilib Badaxshon va Qobulga qarab yo'l oldilar" Bobur Mirzo Afg'onistondagi tarqoq qabilalarni birlashtirdi. Qobuldan so'ng G'azna egallandi. Qobul Bobur Mirzo davlatining poytaxti edi. U 1508-yilda rasmiy suratda o'zini Afg'onistonning podshosi deb e'lon qiladi.[6]

Bobur qiyinchiliklar ila ona yurtidan chiqib ketishga majbur bo'ldi. U qalban bobosining davlatni qayta tiklashini maqsad qilgan edi. Ammo vaziyatlar, qiyinchiliklar, xiyonatlar uni boshqa davlatlar sari yurishga majbur qildi. Shayboniyxon va Eron shohi Shoh Ismoil o'rtasida bo'lgan jangda Shoh Ismoil g'alaba qozonadi. Shayboniy taqdiridan voqif bo'lgandan so'ng, Bobur Mirzo qalbida Shoh Ismoil yordamida Movarounnahrni qaytadan egallash umidi paydo bo'ladi. Ana shu niyatida u Shoh Ismoil elchisini Qobulda juda ochiq chehra bilan kutib oldi. Ismoil elchilari Bobur Mirzoga sovg'a tariqasida shialar odatiga ko'ra o'ralgan salla qalpoqni tortiq qiladilar. Bu albatta diplomatiya o'yini edi. Atrofdagilarning nigohi Bobur Mirzoga qadalgan, nahotki Bobur Mirzo o'zi sunniy bo'laturib shialar qalpog'ini kiysa... Shu payt elchilar shoh Ismoil Bobur Mirzoga birgalikda Samarqandga qo'shin tortishni taklif qilganligini aytadilar. Bobur Mirzo Shoh Ismoil taklifini qabul qiladi va diplomatik mahoratini ishga solib: "Inshoolloh Samarqandni egallasak bu qalpoqni kiyamiz", deb og'ir vaziyatdan chiqib ketadi. Chunki agar shu paytda u qalpoqni kiyganida barcha sunniylar Bobur Mirzodan yuz o'girar edilar. [7]

Bobur Mirzoning uzoqni ko'zlab ish qilishi va kuchli diplomat ekanligini ko'rsak bo'ladi. U o'z maqsadini amalga oshirish maqsadida Shoh Ismoildan yordam oldi. Bobur Mirzo 1512-yilda Shoh Ismoil yordamida Samarqandni qo'lga kiritdi. Ammo bu safar Samarqand aholisi Boburni qo'llab-quvvatlamadi. Insonlar xato qilganlari ularni ba'zida ishonchdan chiqishiga olib keladi. Shunda ham u o'z hukmronligini boshqa davlatlarda davom ettirishga qaror qildi. Bobur Mirzo endi

Movarounnahrda butunlay umidini uzib Qobulga qaytdi. U 21 yil mobaynida, ya'ni 1526-yilga qadar Qobulni boshqargan. So'ngra Bobur Mirzo Qobulni ikkinchi o'g'li Kamron Mirzoga qoldirib, o'zi Hindiston sari yurish boshlaydi va buyuk boburiylar sulolasi saltanatiga asos soladi. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek va hind xalqlari tarixida buyuk lashkarboshi va davlat arbobi, ulug' shoir, mutafakkir olim va tarixchi sifatida munosib o'rin olgan. Bobur haqida butun olam qiziqqan.

Masalan, Hind xalqining buyuk farzandi Javoharlal Neru "Hindistonning kashf etilishi", "Jahon tarixiga bir nazar" asarlarida Bobur Mirzo va uning nabirasi Akbarga yuksak baho bergan. U shunday deb yozadi: "Bobur – dilbar shaxs, Uyg'onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo'lgan. U san'atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko'rardi" [8] deydi u o'z asarida. Boburning Hindistonni qo'lga kiritilgach Hindistonda buyuk o'zgarishlar sodir bo'ladi, san'at hayotida, me'morchilik va madaniyatning boshqa sohalarida juda ulkan o'zgarishlar yuz beradi. Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan saltanatni uning avlodlari Hindistonni inglizlar bosib olgunga qadar, 1858-yilgacha, jami bo'lib 332 yil boshqardilar [9]. Zahiriddin Muhammad Bobur mukammal inson desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki u kabi jasur, zehnli, diplomat hukmdorlar ko'p bo'lmagan. Biz unga havas bilan shunday aqlidrok egasi haqida qancha gapirsak ham kamlik qiladi.

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning 1994-yil 4-oktyabrda Andijon viloyatiga safari vaqtida "Xotira daftari"ga yozib qoldirgan so'zlarida: "Bobur Mirzo bobomizning siymosini abadiylashtirishga qo'l urgan insonlarga samimiy minnatdorchilik bildiraman" [10] deydi. Bobimizning siymosi barchamizning qalbimizda, xotiralarimizda abadiy qoladi. Zero o'zi temuriylar sulolasidan bo'la turib o'zining "Buyuk boburiylar" sulolasiga asos solgan yagona temuriyzoda hukmdor desak adashmaymiz. Xulosa qilib aytganda Zahiriddin Muhammad Bobur o'z zamonasining haqiqiy hukmdori, sheri bo'lgan. Uning siyosati boshqa hukmdorlarnikiga o'xshamagan. Shuning uchun ham u tarixda o'chmas iz qoldirgan. Biz shunday shaxslarning avlodlari ekanimizdan g'ururlanishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Turg'un Fayziyev "Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari" 12-bet
2. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O'.Ubaydullayev "Vatan tarixi" 2-kitob 13bet

3. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O'.Ubaydullayev "Vatan tarixi" 2-kitob 14-bet
4. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O'.Ubaydullayev "Vatan tarixi" 2-kitob 15-bet
5. Turg'un Fayziyev "Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari" 8-bet
6. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O'.Ubaydullayev "Vatan tarixi" 2-kitob 16-bet
7. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O'.Ubaydullayev "Vatan tarixi" 2-kitob 18-bet
8. Neru D "Hindistonning ochilishi" 272-273bet
9. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O'.Ubaydullayev "Vatan tarixi" 2-kitob 21-bet.
10. N.Nizomiddinov "Buyuk Boburilar tarixi" 6-bet.

ISLOM DININING HINDISTONGA KIRIB KELISH TARIXI

Ruxsora XUDAYBERGANOVA
TDSHU, Sharq falsafasi va madaniyati yo'nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD, L.A. To'rayev

Annotatsiya: Maqolada Hindistonga islom dini kirib kelishi, rivojlanishi. Hindiston madaniy – ijtimoiy jarayonlariga ta'siri. Qadimgi davrlarda Hindistonda mavjud bo'lgan kastachilik tizimining hind falsafasidagi o'рни. Musulmon hukmdorlar islom diniga o'tkazish uchun qanday strategiyalar olib borganligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Hindiston, islom, din, soliq, so'fiylik, hukmdor, qullik, sistema, hinduiylik.

Bugungi kunda yer yuzi aholisining to'rtidan bir qismi islom diniga e'tiqod qiladi. Jahon dinlaridan biri bo'lgan Islom dini, dunyoning 120 dan ortiq mamlakatlarida keng tarqalgan bo'lib, 30ga yaqin mamlakatning rasmiy davlat dini hisoblanadi. Islom dini o'zi paydo bo'lgan mintaqadan tashqari, boshqa hududlarga ham keng tarqalgan. Islom dinining Hindistonga kirib kelishi bo'yicha ham turli fikrlar mavjud.

Hindiston o'lkasiga islom dini dastlab VIII-asrning 2-yarmidan kirib kela boshladi. Bu asosan savdogarlar orqali savdo – sotiq masalasi bilan

bog'liq jarayon hisoblanadi. O'sha paytlarda arab savdogarlari o'zlariga tegishli mahsulotlarini sotish uchun ham Hindistonga kirib kela boshlagan. 636-yilda birinchi musulmon floti Hindistonning janub hududlariga kirib keldi. Bunda yurtga hujum qilish uchun emas, balki, ilmiy ekspeditsiya hamda savdo qilish uchun kelganlar. Savdo-sotiq masalasida kelgan arablar islom dinini hind diyoriga tarqalishiga undaganlar. Ikkala xalqning iqtisodiy munosabatlari orqali ijtimoiy va diniy aloqalar ham o'rnatila boshlangan.

Islom diniga e'tiqod qiluvchilarni "Turuska" deb atashgan. "Turuska" so'zi sanskrit tilidan olingan bo'lib, musulmon degan ma'noni anglatgan. "Turuska danda" esa musulmonlarga qarshi kurashadigan eng yirik guruh hisoblangan. Hindistonga musulmon hukmdorlarining faol kirib kelishi XI-asrdan boshlandi. Bu paytda asosan shimoliy hududlarga hujum qilinir va bular asosan turkiy va afg'on hukmdorlari edi. Bosib olish jarayonida shuni ko'rishimiz kerakki ko'plab hukmdorlar islom dinini olib kirish uchun radikal yo'lni tanlashgan. Buni quyidagi ma'lumotlar orqali ko'rishimiz mumkin. Hududlar bosib olingandan so'ng musulmon hukmdorlari musulmon bo'lmagan aholiga ikki xil munosabatda bo'ldilar. Xristian, yahudiy va boshqa "ahli kitob bo'lgan dinlarga jiz'ia va biroz oshirilgan miqdorda xiroj solig'ini joriy etishdi, boshqa dinlar, xususan, hinduizm, jaynizm u yerda mavjud boshqa dinlarga islom diniga o'tish yoki qullikka mahkum etilish buyurilgandi.

Manbalarda keltirilishicha Debal hukmdori Muhammad Kozim barcha brahmanlarga islom diniga kirishni buyuradi. Ulardan rad javobini olgach esa, 17 yoshdan katta bo'lgan barcha erkaklarni o'limga, ayol va bolalarni bo'lsa, qullikka mahkum etadi.

Yana ma'lumotlarda Dehli hukmdori Qutbiddin Oybek 1000dan ortiq hinduiylik ibodatxona va xramlarni vayron qilib, o'rniga masjidlar bino qilganligi haqida aytiladi. Dehli saltanatining 3 – vakili Shamsiddin Eltutmishning saroyidagi din ulamolari undan aholiga islom diniga kirishni buyurishini aholi rozi bo'lmagan taqdirda ularni o'ldirishini aytadilar. Lekin harbiy vazirlar bunga qarshi chiqadilar. "Hindiston yaqindagina zabt etildi va musulmonlar bu yerda tuz kabi juda ozdir. Agar hind xalqiga shunday buyruq beradigan bo'lsak, ular birlashishi va musulmonlar bunga qarshi kurasha olmasligi mumkin" deydi vaziri Nizom ul-mulk Junaydi. Bu manbalar orqali turkiy hukmdorlar faqatgina bosqinchilik yo'li bilan islom dinini olib kirgan degan fikr noto'g'ri chunki, Hindistonda ayni damda juda ko'p musulmon olimlari, yirik din vakillari Hindistonda hayot kechirib dinni to'g'ri yetkazishga harakat qilganlar.

Tarixdan ma'lumki, O'rta asrlarda shimoliy Hindiston hududida ko'pgina O'rta osiyolik qori va so'fiylar yashaganlar. Ular o'z sohalarini puxta bilganligi bilan birgalikda mahalliy tillar: hindiy, gujarot, panjob va sikh tillarini juda yaxshi bilganlar. XI asrda Lahor shahrida buxorolik Shayx Ismoil juda mashhur bo'lgan. U nafaqat yirik din arbobi balki, juda go'zal hofizi Qur'on bo'lgan. Uni qiroatini eshitish uchun davlatning barcha yerlaridan odamlar kelgan. Yana ajdodlari farg'onalik bo'lgan Bobo Arjun shoh yirik din vakili bo'lgan.

Yirik olimlar bilan birgalikda hind diyorida juda ko'p so'fiylik jamoalari mavjud bo'lgan. Bular: chishtinlar, suhravardiylar, naqshbandiylar, ismoiliylar. Bularning yirik namoyondalari etib: Xo'ja Abu Abdolom Chishti, Xo'ja Muiddin Sistaniy, Bahtiyor Qoqi, Farididdin va boshqalar.

Farididdin juda yaxshi so'fiylik namoyondasi sifatida Hindistonda taniydilar. U o'z hayoti davomida so'fiylik yo'nalishini o'rgatmadi, balki ko'rsatdi. Uning har bir xatti-harakati, suhbat va kamtarligi xuddi mana asl so'fiylik degandek bo'lardi. U shaxsni hurmat qilib hukmdor Shamsiddin Eltutmish 4 qishloq hadya qilgan lekin u rad etib qabul qilmagan. So'fiylikda har bir inson xudo bilan individual muloqotga ega. U zamon va makon tanlamaydi, ijtimoiy tabaqa talab etmaydi. Qayerda, qay payt va qanday holatda bo'lishdan qat'iy nazar murojaat qilish mumkin deydi.

Ko'rishimiz mumkinki, Hindiston juda ko'p vaqt musulmonlar qo'l ostida bo'lgan. Islom dini garchi asosiy din sifatida o'rin egallamagan bo'lsa-da, hind falsafasi, madaniyatida sezilarli iz qoldirgan. Ba'zi bir musulmon elementlari hind madaniyatiga o'tgan bo'lsa, ba'zi hind urf-odatlar musulmon jamiyatida ham kuzatilgan. Hindistonning sharqiy xususan Gujarot, Panjob shtatida ayol-qizlar yuzini ko'rsatish ta'qiqlanadi, yuzlariga doimo harir ro'mol tashlab yuradilar.

Manbalarda keltirilishicha, ba'zi bir musulmon sarkardalar vafot etganida uning xotinlari o'z xohishi bilan o'zlarini olovga otganlar. Barcha hindlar ham islom diniga zo'rlik bilan kirmagan. Chunki Hindistonda mavjud bo'lgan kastachilik tizimidan norozi bo'lganlar, brahmanlar zulmidan charchaganlar islom diniga o'z xohishlari bilan o'tganlar. Islom dinida tabaqalanish mavjud emasligi, og'ir urf-odatlar yo'qligini, ayollar huquqlari yuksakligi hind jamiyatiga kerak bo'lgan shartlar edi. Akbar va Jahongirshoh davrida bir qancha hinduizm bayramlari nishonlangan. Xususan, boshqa din vakillariga iliq munosabatda bo'lib, ulardan jizi'a solig'ini bekor qiladilar.

Xulosa qilib aytganda musulmonlarning Hindistonga kirib kelishi juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ularning ko‘p hududlarni tez sur‘atlarda bosib olinishiga qaramay aynan islomiy bo‘lgan elementlar kam uchraydi. Bu musulmonlarning mafkurasi kuchsiz bo‘lgan yoki yetarlicha madaniyat olib kirib, targ‘ib etmaganligidan emas. Balki, hind xalqi asrlar davomida yashagan kastachilik tizimidan voz kecha olmaganligi, dinga o‘ta qattiq berilganligi va dinlar, dunyoqarash va tafakkurning rang-barangligi uchun deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Колл. авторов. Боги, брахманы, люди Москва: Наука. 1969 г.
2. История Индии в средние века / Отв. ред. Л. Б. Алаев, К. А. Антонова, К. З. Ашрафян. — М.: Наука, 1968 г.

ASHTARXONIYLAR DAVRI DIPLOMATIK MUNOSABATLARI TARIXI MANBASHUNOSLIGI

Umidjon BAQOYEV

BuxDU Tarix va yuridik fakulteti 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: PhD D. Jamolova

Annotatsiya. Ushbu maqolada ashtarxoniylar sulolasi davri diplomatik munosabatlari tarixiga doir mahalliy manbalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: diplomatiya, elchi, siyosiy maktub, savdo, tarixiy asarlar.

O‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin tutgan Buxoro xonligini idora qilgan Ashtarxoniylar sulolasi tashqi aloqalarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratgan. Ular tashqi siyosatda Rossiya, Hindiston va Turkiya, Eron, Qoshg‘ar kabi davlatlar bilan savdo hamda diplomatik munosabatlar o‘rnatishgan va davlatlar o‘rtasida doimiy elchilik almashinuvi bo‘lib turgan.

Ashtarxoniylar sulolasi tashqi aloqalariga oid ma‘lumotlar mahalliy tarixchilardan Muhammad Yusuf Munshiy¹, Mahmud ibn Vali², Mir

¹ Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели А.А.Семенова. –Ташкент: 1956. – 303 с.

² Махмуд Ибн Вали. Бахр ал-асраф фи манокиб ал ахйар. (Море тайн относительно доблестей благородных) (география) / Введение, перевод, примеч. и указатели Б.Ахмедова. – Ташкент: Фан, 1977. – 167 с.

Muhammad Amin Buxoriy¹, Abdurahmon Davlat Tole'², Muhammad Amin Buxoriy³, Muhammad Vafo Karminagi'y⁴, Muhammad Tolib Siddiqiy⁵, Mir Muhammad Salim⁶ asarlarida uchraydi.

Ashtarxoniylar davri tarixini yoritib beruvchi manbalardan biri Muhammad Yusuf Munshiyning “Tazkirayi Muqimxoniy⁷” (Tarixi Muqimxoniy) asari hisoblanadi. Muhammad Yusuf Munshiy⁸ tomonidan 1702-1707-yillarda Balxda hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasi vakili Muhammad Muqimxonga bag‘ishlab yozilgan “Tarixi Muqimxoniy” asarida Ashtarxoniy hukmdorlarning bir qator davlatlar bilan siyosiy aloqalar to‘g‘risida qiziqarli ma’lumot bo‘lib, Ashtarxoniylarning

¹ Муҳаммад Амин-и Бухари. Убайдулла-наме / Пер. с таджикского с примечаниями проф. А.А. Семенова. –Ташкент: 1957. – 326 с.

² Абдурахман-и Тали. История Абулфейз-хана / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатель А.А. Семенова. Ташкент. 1959. – 175 с.

³ Муҳаммад Амин Бухорий Мухит ат-таворих / Таржима, кириш ва изоҳлар муаллифи Д.Ю.Юсупова ва У.Ҳамроев Тошкент: “Fan” нашриёти, 2020.- 284 б.

⁴ Муҳаммад вафои Карминағӣ. Тўхфат-ул-хоний. / Муқаддима, таҳияи матн, нусхабадал, таълиқот ва феҳристҳои Жамшед Жўразода ва Нурулло Ғиёсов. – Хужанд: Ношир, 2017. – 419 с.

⁵ Муҳаммад Толиб. Матлаб ут-толибин. / Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари: Ғ. Каримий, Э.Миркомиллов. Тошкент: “Movarounnahr”, 2016. – 384 б.

⁶ Ҳожи Мир Муҳаммад Салим. Силсилат ус-салотин. Қўлёзма Бодлиян кутубхонаси, Ouseley 269. – 339- б.

⁷ Ushbu nom asarning kirish qismida keltirilgan, lekin asar Tarixi Muqimxoniy (“Muqimxon tarixi”), Tazkirayi Sayid Muqimxoniy (“Sayid Muqimxonning tazkirasi”), Muqimnoma (“Muqimxon haqida”), Tarixchayi Abulmuzaffar Sayid Muhammad Bahodirxon (“Abulmuzaffar Sayid Muhammad Bahodirxonning qisqacha tarixi”, nomlari bilan ham atalgan. Asar 1697-1704 yillar orasida yozilgan. *Bu haqida qarang:* Юсупова Д. Муҳаммад Юсуф Мунший ва унинг “Тазкирайи Муқимхоний” асари. Ўзбекистон тарихи хрестоматияси 3-жилди. –Тошкент.: «Fan va texnologiya», 2014. – Б. 43-44.

⁸ Muallif Muhammad Yusuf Munshiy ibn xoja Baqo XVII-XVIII asr boshlarida yashagan yirik tarixchi olim. Hayoti va ilmiy faoliyatiga oid ma’lumotlar kam. Asarida keltirilgan ayrim faktlarga qaraganda, u asli balxlik bo‘lgan va Subhonqulixon (1651-1681 yillari Balx, 1681-1702 yillari Buxoro xoni) hamda Muhammad Muqimxon (1697-1707-yillari Balx xoni) saroyida munshiy bo‘lib xizmat qilgan va Muqimxon tomonidan Hindistonga jo‘natilgan elchilikda ishtirok etgan. Muhammad Yusuf Munshiy o‘z zamonining ziyolilaridan bo‘lib, Markaziy Osiyoning o‘sha davrdagi siyosiy hayoti va tarixi bilan qiziqqan. *Bu haqida qarang:* Юсупова Д. Муҳаммад Юсуф Мунший ва унинг “Тазкирайи Муқимхоний” асари. Ўзбекистон тарихи хрестоматияси 3-жилди. –Тошкент.: “Fan va texnologiya”, 2014. – Б. 43-44.

Hindiston, Turkiya, Qoshg‘ar kabi davlatlar bilan elchilik munosabatlari olib borganligi to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar mavjud.

Asarning muqaddimasida keltirilishicha, muallif uni Balx hokimi Muhammad Muqimxonning xohishi bo‘yicha yozgan¹ va asarni uning ismi bilan atagan. Muallif asarning xotimasida keltirgan ma’lumotiga qaraganda, uni o‘z hikoyasining birinchi jildi deb hisoblagan, undan keyin ikkinchi jild (mudjaladi soniy)ni yozishni mo‘ljallagan, lekin noma’lum sabablarga ko‘ra, yozilmay qolgan.

“Tazkirayi Muqimxoniy” Shayboniylar (906/1501-1007/1599) va Joniylar (Ashtarxoniylar) (1007/1599-1200/1785) sulolasidan bo‘lgan Markaziy Osiyo hukmdorlarining tarixi bo‘yicha mashhur asar sanaladi. Unda, ayniqsa, Balx va qisman Buxoro xonligining XVII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va qisman madaniy tarixi bayon etiladi².

Tarixi Muqimxoniy muqaddima, uch bob (maqola) ular esa, o‘z navbatida mayda bo‘lim (zikr)larga bo‘linadi va xotimadan iborat.

Tarixi Muqimxoniyning original va muhim qismi uning II-III boblaridir. Ikkinchi bobda Balx va qisman Buxoro xonligining XVIII asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayoti, shuningdek, Buxoro va Balx xonliklarining Hindiston, Eron, Turkiya va Koshg‘ar bilan bo‘lgan siyosiy munosabatlari, uchinchi bobda esa 1702-1704 yillar voqealari, xususan Buxoro bilan Balx o‘rtasidagi jang-jadallar sharhi o‘rin olgan³.

Tarixi Muqimxoniyning qo‘lyozma nusxalari ko‘p va ular Toshkentda hamda bir qancha xorijiy mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanmoqda. Asardan ayrim parchalar fransuz va rus tillariga o‘girilib chop qilingan; asar eski o‘zbek tiliga to‘la tarjima bo‘lgan (1861); A.A. Semenov Toshkentdagi yettita nusxani qiyoslab, rus tiliga tarjima qildi va u 1956 yilda chop etildi⁴. 2022-yilda asar Ahmet O‘zturhan va Ahmet Korkmaz tomonidan turk tiliga

¹ ЎзФА ШИ кўлёзмаси, инв.№ 3784, варақ 3а.// Юсупова Д. Муҳаммад Юсуф Мунший ва унинг “Тазкирайи Муқимхоний” асари. Ўзбекистон тарихи хрестоматияси 3-жилди. –Тошкент.: “Fan va texnologiya”, 2014. — Б. 43-44.

² Юсупова Д. Муҳаммад Юсуф Мунший ва унинг “Тазкирайи Муқимхоний” асари. Ўзбекистон тарихи хрестоматияси 3-жилди. –Тошкент.: “Fan va texnologiya”, 2014. — Б. 43-44.

³ Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари (қадимги замон ва ўрта асрлар). – Тошкент: Ўқитувчи, 2001 – Б. 226.

⁴ Муҳаммад Юсуф Мунши. Муқим-ханская история / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели А.А.Семенова. –Ташкент: 1956. – С. 303.

tarjima qilindi¹. Jumladan asarda, Boburiylar hukmdori Avrangzeb (1658-1707) va Usmoniylar hukmdori Sulton Ahmad II ning (1691-1695) Ashtarxoniylar hukmdori Subxonqulixon nomiga maktubi nusxalari keltirilgan.

Muhammad Amin Buxoriy²ning “Muhit at-tavorix” (Tarixlar majmuasi) asari ashtarxoniylar tashqi aloqalarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur asar XVIII asrining boshlarida yozilgan. Asarda Buxoro xonligi tarixiga oid qimmatli ma’lumotlar mavjud. “Muhit at-tavorix”da bayon etilgan voqealar 1700-yil bilan yakunlangan. Asar ashtarxoniylar sulolasi vakillari Abdulazizxon (1645-1680) va uning ukasi Subhonqulixon (1680-1702) davrida yozilgan. Muhit at-tavorix asarida Buxoro xonligi iqtisodiy va siyosiy ahvoliga oid qiziqarli ma’lumotlar ham mavjud. Muhammad Amin Buxoriy o‘zining “Muhit-at tavorix” asarida Rum va Qoshg‘ar tomonidan xon huzuriga elchi kelganligi aytib o‘tilgan. Asarda qayd etilishicha, Rumning elchisi Subxonqulixonga Muhammad Hungarning salomini topshiradi. Elchilar bir yil davomida Dor as-salom Buxoroda istiqomat qiladilar. Undan so‘ng, Subxonqulixon Mo‘minboy Yobuni elchi qilib Rum elchisiga hamroh qilib jo‘natadilar. Ushbu asarda Buxoro va Xorazm siyosiy munosabatlariga oid ma’lumotlar mavjud. Buxoro xoni Subxonqulixon davrida Xiva xoni Ernakxon (1686-1688) huzuriga Sher chuhra oqosini Urganchga elchi qilib yuborgan³. Asar Buxoro xoni Subhonqulixonning amaldorlaridan biri Ibrohim qushbegining farmoyishi bilan yozilgan. 1970-yilda ushbu asar bo‘yicha O‘z FA Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi Usmon Hamroyev, o‘sha paytda t.f.n. Bo‘riboy Ahmedov rahbarligida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaydi⁴.

¹ Muhammed Yusuf Münşî Tezkire-i mukîm hânî. Şibanîler ve Astrahanlılar döneminde Maveraünnehir’in kültürel ve toplumsal tarihinin seyri. Farsça aslından çevirenler: Ahmet Özturhan ve Ahmet Korkmaz. — İstanbul 2022. — B. 149.

² Muhammad Amin ibn Mirzo Muhammad Zamon Buxoriy So‘fyoniy. XVII asrning birinchi yarmi va XVIII asrning boshida yashgan tarixnavislardan biri hisoblanadi. Akademik Dilorom Yusupova tadqiqotlariga qaraganda u asli buxorolik bo‘lib, So‘fyon mahallasidan bo‘lgan. *Bu haqida qarang:* Мухаммад Амин Бухорий Мухит ат-таворих / Таржима, кириш ва изоҳлар муаллифи Д.Ю.Юсупова ва У.Хамроев Тошкент: “Fan” нашриёти, 2020.- Б. 6.

³ Мухаммад Амин Бухорий Мухит ат-таворих / Таржима, кириш ва изоҳлар муаллифи Д.Ю.Юсупова ва У.Хамроев Тошкент: “Fan” нашриёти, 2020.- Б. 27.

⁴ Хамраев У. Мухаммад Амин и его сочинение “Мухит ат-таворих”. Автореф. дисс. на соиск. уч.ст.канд.ист.наук.

2020-yilda mazkur asar D.Yu. Yusupova va U.Hamroyevlar tomonidan Toshkentda izohlar bilan birgalikda o'zbek tilida nashr etildi¹.

Muhammad Tolib²ning "Matlab ut-Tolibin" (Toliblar matlabi) asari XVI-XVII asrlarda Buxoro xonligida o'z nufuziga ega bo'lgan Jo'yboriy xo'jalari faoliyatiga bag'ishlangan asarlardan biri hisoblanadi. Asarda Jo'yboriy xojalarining faoliyati, muridlari va xizmatkorlari, bunyod ettirgan imoratlari, mol-u mulklari va Buxoro xonlari va ularning boshqa davlatlar bilan tashqi aloqalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan³. Makur asar muallif tomonidan 1673-yilda yozib tugallangan⁴. Asar qisqacha muqaddima va sakkiz bobdan iborat. Asarning Xoja Sa'd haqidagi bobida unga turli hududlarda hukmdor va hokimlardan mingga yaqin maktublar kelgani ta'kidlanadi. Ba'zi maktublar asarda to'liq keltirilgan. Elchilar orqali maktublar va sovg'a-salomlar almashilgan. Asarda asosan Boburiy hukmdorlar bilan siyosiy aloqalar to'g'risida ma'lumot keltirilgan. Manbada qayd qilinishicha, birgina Tojiddin Hasanga kelgan maktublar soni o'n mingtadan oshib ketgan⁵. Muhammad Tolib asarning dastlabki to'rt bobini yozishda o'zidan oldingi mualliflar asarlaridan foydalangan. "Matlab ut-tolibin" asari nafaqat tasavvufiy, balki qimmatli tarixiy manbalardan biri hisoblanadi. 2012-yilda "Matlab ut-tolibin" asarining ilmiy-tanqidiy nashri chop qilingan bo'lsa, 2016-yilda Buxoro davlat universiteti professori Halim To'rayev mas'ul muharrirligida G'ulom Karimiy va Erkin Mirkomilovlar tomonidan Toshkentda o'zbek tiligiga o'girilib, nashr qilingan⁶.

¹ Муҳаммад Амин Бухорий Мухит ат-таворих / Таржима, кириш ва изоҳлар муаллифи Д.Ю.Юсупова ва У.Хамроев Тошкент: "Fan" нашриёти, 2020. — 284 б.

² Abulabbos Muhammad ibn Tojiddin Hasanxoja al-Husayniy as-Siddiqiy Buxorodagi mashhur Jo'ybor shaxlari xonadonida hijriy 1017-yilda (1608-1609) tavallud topgan. U Mullo Kamoliddin, Hoji Avaz va Oxund Mullo Boqi kabi ustozlardan tahsil olgan. U ayniqda tarix ilmini chuqur egallagan. *Bu haqida qarang*: Муҳаммад Толиб. Матлаб ут-толибин. / Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари: Ғ. Каримий, Э.Миркомиллов. Тошкент: "Movarounnahr", 2016. — 384 б.

³ Муҳаммад Толиб. Матлаб ут-толибин. / Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари: Ғ. Каримий, Э.Миркомиллов. Тошкент: "Movarounnahr", 2016. — Б. 3.

⁴ Муҳаммад Толиб. Матлаб ут-толибин. / Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари: Ғ. Каримий, Э.Миркомиллов. Тошкент: "Movarounnahr", 2016. — Б. 8.

⁵ *Bu haqida qarang*: Муҳаммад Толиб. Матлаб ут-толибин. / Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари: Ғ. Каримий, Э.Миркомиллов. Тошкент: "Movarounnahr", 2016. — Б. 13.

⁶ Ushbu asarni sovg'a qilgan O'z FA Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi va asar tarjimonlaridan biri Erkin Mirkomilovga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

Hoji Mir Muhammad Salim¹ning “Silsilat us-salotin” (Podshohlar silsilasi) asari ashtarxoniylar davrini yoritib beruvchi manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur asarning yagona topib oʻrganilgan nusxasi Angliyaning Bodleyan kutubxonasida saqlanadi². Mazkur asar 1731-yilda yozilgan boʻlib, muqaddima va toʻrt qismdan iborat. Muqaddimada asarning yozilish tarixi va Hoji Mir Muhammad Salimning 1711-yildan keyingi hayoti toʻgʻrisida soʻz boradi. Birinchi qismda paygʻambarlar, qadimgi turk va moʻgʻullar, Amir Temur va Temuriylar, shuningdek sohibqironning Hindistonda hukmronlik qilgan avlodlari toʻgʻrisida qisqacha bayon qilingan. Asarning ikkinchi qismida Moʻgʻulistonning Tugʻluq Temurxon (1348-1363)dan toʻ Suyurgʻatmishxongacha (1370-1388) boʻlgan davr tarixini oʻz ichiga oladi. “Silsilat-us-salotin”ning original qismi III-IV qismlar boʻlib, Oʻrta Osiyo xususan Oʻzbekistonning XVI-XVIII asrning birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon qilingan. Asarda ashtarxoniylar hukmdorlar Imomqulixon, Abdulazizxon, Subxonqulixonlarning Hindiston, Eron, Turkiya kabi davlat hukmdorlari bilan yozishmalari nusxalari keltirilgan. “Silsilat-us-salotin” asari boʻyicha Tarixchi olim Azamat Ziyo nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilgan³.

Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror, Abdurahmon Davlat Tolening “Tarixi Abulfayzxon”, Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma”, Muhammad Vafo Karminagiyning “Tuhfat ul-xoniy” kabi asarlar ashtarxoniylar davri siyosiy aloqalarini oʻrganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda ushbu mahalliy manbalar ashtarxoniylar davri tashqi aloqalarda faol ishtirok etganidan dalolat beradi. Ashtarxoniylar sulolasi Buxoro xonligini idora qilib, diplomatik munosabatlarda faol ishtirok etgan.

¹ Hoji Mir Muhammad ashtarxoniylar sulolasiga mansub boʻlib, 1711-yilda Ubaydullaxon vafot etgach, Haj qilish bahonasi bilan Arabistonga boradi va bir necha yil Isfahonda yashab, Turkiyaga joʻnaydi. Turkiya sultoni Ahmad III (1703-1730) huzuriga boradi va u yerda toʻrt yilcha yashaydi. 1716-yilda Makkaga borib haj amallarini bajaradi va dengiz orqali Hindistonga keladi. U Boburiy Nosiruddin Muhammadshoh (1719-1748) topshirigʻi bilan “Silsilat us-salotin” asarini 1731-yilda yozadi. *Bu haqida qarang:* Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари (қадимги замон ва ўрта асрлар). –Тошкент: Ўқитувчи, 2001 – Б. 226.

² Ҳожи Мир Мухаммад Салим. Силсилат ус-салотин. Қўлэзма Бодлиян кутубхонаси, Ouseley 269. – 339. б.

³ Зияев А.Х. “Силсилат ас-салатин” как исторический источник/ Дисс.на соиск. Уч степ. канд. ист.наук. – Ташкент. 1990.-205 с

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мухаммад Юсуф Мунши. Мукум-ханская история / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели А.А.Семенова. – Ташкент: 1956.
2. Махмуд Ибн Вали. Бахр ал-асрар фи манокиб ал ахйар. (Море тайн относительно доблестей благородных) (география) / Введение, перевод, примеч. и указатели Б.Ахмедова. – Ташкент: Фан, 1977.
3. Мухаммад Амин-и Бухари. Убайдулла-наме / Пер. с таджикского с примечаниями проф. А.А. Семенова. –Ташкент: 1957.
4. Абдуррахман-и Тали. История Абулфейз-хана / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатель А.А. Семенова. Ташкент. 1959.
5. Мухаммад Амин Бухорий Мухит ат-таворих / Таржима, кириш ва изоҳлар муаллифи Д.Ю.Юсупова ва У.Хамроев Тошкент: “Fan” нашриёти, 2020.
6. Мухаммад вафои Карминағй. Тўхфат-ул-хоний. / Мукаддима, таҳияи матн, нусхабадал, таълиқот ва феҳристҳои Жамшед Жўразода ва Нурулло Ғиёсов. – Хужанд: Ношир, 2017.
7. Ҳожи Мир Мухаммад Салим. Силсилат ус-салотин. Қўлёзма Бодлиян кутубхонаси, Ouseley 269.
8. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари (қадимги замон ва ўрта асрлар). –Тошкент: Ўқитувчи, 2001.
9. Muhammed Yusuf Münşi Tezkire-i mukîm hânî. Şibanîler ve Astrahanlılar döneminde Maverâünnehir’in kültürel ve toplumsal tarihinin seyri. Farsça aslından çevirenler: Ahmet Özturhan ve Ahmet Korkmaz. – İstanbul 2022.

“SAYYOH RUBOIYLAR” YOHUD UMAR XAYYOM SHOIR BO‘LMAGANMI?

Abdubilol ABDURAXMONOV

TDSHU, Sharq mamlakatlari tarixi yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: PhD D.S. Xodjimuratova

Annotatsiya: Mazkur maqolada Umar Xayyom ruboiylari atrofida keyingi davrda paydo bo‘lgan ixtiloflar, ruboiylar miqdorining turli nashrlarda farq qilishi va to‘xtovsiz o‘sib borishi keltirilgan. Shuningdek,

ruboiylarning boshqa shoirlar ijodida ham uchrashi muhokama qilinib, Umar Xayyomning she'r yozgan-yozmaganligi haqida xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: sayyoh ruboiylar, Fitsjerald, Jukovski, taxallus, imzo, Fitrat.

Ruboiy va Umar Xayyom deyarli egizak tushunchalar. Sharq mumtoz adabiyotining ruboiy janri haqida gap ketganda so'zsiz Umar Xayyom yodga olinadi. Go'yo butun ruboiyot Xayyomdan iboratdek. Hayot, o'lim, tabiat, taqdir, kelajak, borliq va deyarli butun dunyo uning durdona asarlarida qorishib ketgandek, turli tuproqlar bir qilinib, undan noyob san'at asari yaratilgandek. Har bir misrasida teran va falsafiy g'oyalar mujassam.

Xayyom hayotiga sayohat qiladigan bo'lsak, ko'plab ajoyibotlarga duch kelamiz. Buyuk matematik, faylasuf, munajjim, hakim va mutafakkir shoir 1048-yilda Nishopur shahrida tug'ilgan. To'liq ismi G'iyosiddin Abulfath Umar ibn Ibrohim Xayyom bo'lib, otasi chodir tikuvchi kosib bo'lgan. Taxallusi ham shundan: Xayyom – chodir tikuvchi usta, chodir-chi ma'nosini beradi. Dastlab Balxda o'sha davrning taniqli ulamolaridan Muhammad Mansurdan tahsil olgan, so'ngra Saljuqiylar davlatidagi to's-to'polon tufayli Samarqandga yo'l oladi. Bu yerda qozikalon Abu Toxir homiyligida bo'ladi. O'zining iste'dodi va quvayi hofizasi tufayli tez orada olim-u, fuzalolar e'tiboriga tushadi. Zamonasining yetuk allomasi Abdurauf Fitrat shunday ma'lumot keltiradi: "Isfahonda ekanida bir kitobni yetti daf'a o'qug'an. Nishopurga qaytg'anda shuni yoddan yozg'an. Asl nusxasi bilan yoddan yozilg'anini hech farqi bo'lmag'an"[1:146].

Saljuqiy hukmdor Jaloliddin Malikshoh buyrug'i bilan 1074-yildan Isfahonda yirik rasadxona qurilishiga boshchilik qiladi. Shu yerda "Yevklidning mushkul farazlari kitobiga sharh" nomli kitobini 1077-yilda yakunlaydi. Bu asari orqali Xayyom dunyoda ilk bora sonlarning manfiy musbat qoldig'ini topishning yo'llarini ko'rsatib beradi. Rasadxonada faoliyat yuritgan olimlar Xayyom boshchiligida 1074-1079-yillarda yangi va nisbatan aniq taqvim yaratadilar. Olim Vladimir Derjavin Xayyom tuzgan taqvim haqida shunday deydi: "Saljuqiylarning dono vaziri Nizomulmulk Xayyomga Nishopur hokimligini taqdim etadi. Biroq Xayyom unga javoban: "Odamlarni idora qilishni istamayman. Kishilarga buyruq berish va man etish mening ishim emas. Men ilm bilan mashg'ul bo'lmoqchiman, odamlarga foyda keltiradigan ish qilmoqchiman". Uning ko'p yillik kuzatishlari natijasida isloh qilingan va o'ta aniqlikka asoslangan yangi taqvim yaratildi. Bu Grigoriy XIII kalendaridan 500 yil oldin edi" [2:13].

Sharqshunos olim I.S.Broginskiy o'zining "Fors-tojik she'riyati" asarida shunday qayd etadi: "Umar Xayyom ... binom qonuning (ikki hadli

qonun) kashshofi ediki, asrlar o'tib ingliz olimi Nyuton uni qaytadan kashf etdi" [2:12].

Xayyom o'zini munajjim, matematik sifatida biladi. E'tiborining asosini shu sohalarga qaratgan. Yevropada ham shunday, Xayyomni avvalo olim deb bilishadi. Biroq u o'zining ilmiy asrlari bilan emas, balki to'rtliklari bilan tarixda qoldi. Keltiriladigan ma'lumotlarga ko'ra, Xayyom ilmiy asarlarini yozayotgan vaqtda kitob chetlariga o'zining hayot haqidagi qarashlarini yozib yurgan. Alohida vaqt ajratib she'r yozish bilan shug'ullanmagan.

Biroq aynan Umar Xayyom tufayli ruboiy jahon so'z san'atining mashhur janrlaridan biriga aylandi. Mashhur sharqshunos M.I. Zandining lutf etishicha, o'zining olamshumul shuhrati uchun bu janrni yer yuzidagi barcha mintaqalarning ilm-u adab ahli hamma forsiy shoirlardan ko'ra ko'proq biladigan Umar Xayyomdan minnatdor bo'lishi kerak [3:11].

Xayyom ruboiylarining yer yuzi bo'ylab tarqalishiga to'xtaladigan bo'lsak, ma'lumki, allomaning Yevropada paydo bo'lishi ingliz shoiri va tarjimoni Eduard Fitsjerald nomi bilan bog'liq. To'g'ri undan avval ham Umar Xayyom ruboiylari Yevropa tillariga tarjima qilingan, biroq Fitsjerald tarjimalaridek e'tiborga tushmagan. Fitsjerald Xayyomning 75 ruboiysini tarjima qiladi va nashr ettiradi. Lekin kitob yillab do'konlarda turib qoladi va keyinchalik Fitsjerald uni atigi bir sentga sotadi. Vaqt o'tib kitob shu darajada mashhurlikka erishadiki, XX asr boshida uning bir nusxasi 8 ming dollarga baholangan [3:11]. 1912-yilda halokatga uchragan "Titanik" kemasi bortidagi Xayyom ruboiylari to'plami ham mazkur nashrning bir nusxasi bo'lishi mumkinligi aytiladi [4:215].

Fridrix Rozen shunday yozgan edi: "Yevropada Umarga qiziqish va shuhratmandlik hech qaysi osiyolik shoirlarga nasib bo'lgan emas" [2:15]. Vaqtida Xayyom katta shov-shuv va muhokamaga sabab bo'lgan. Muhokamalarga sabab Xayyom ruboiylarining nashrdan nashrga ko'payib borayotgani edi. Dastlab Jukovski adabiyotga "sayyoh ruboiylar" atamasini olib kiradi. U o'zining 1897-yilda nashr qilgan "Umar Xayyom va sayyoh ruboiylar" nomli asarida shoirni "urib" chiqadi. Jukovski Xayyomga nisbat berilgan ruboiylar orasidan boshqa shoirlar devonida uchrab turadigan ko'pgina ruboiylarni topib ko'rsatadi va ruboiylarni tanqidiy o'rganib chiqish masalasini qo'yadi. Shundan so'ng ilmiy tahlillar va tekshirishlar avj oldi. A.Kristenson, K.Nikolson, J.Broune, E.Shender ruboiylarning qo'lyozmalarini qidirishda davom ettirib, turli manbalarda "sayyor" ruboiylarni ko'rgach, Umar Xayyom shoirligini shubha ostiga ola boshlaydi. Braune shunday yozadi: "Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, Umar

Xayyom ko‘p ruboiy yozmagan, bunga u imkon ham, vaqt ham topishi gumon. Unga nisbat berilgan she‘rlarning qandaydir bir qismini yoza olgan bo‘lishi mumkin”. Shender esa 1934-yilda “Xayyom aslida shoir bo‘lmagan, uni fors adabiyoti tarixidan o‘chirish kerak”, deya iddao qilib chiqadi [2:22]. Shuningdek, O‘zbekistonda Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf avliyo otalik Mubashshir Taroziyga tayanib Xayyomning tiriklik paytida she‘r aytmagani, vafotidan keyin ham ruboiylar haqida gap bo‘lmagani, bular keyinchalik avj olganini ta’kidlab o‘tadi [5].

Quyida ruboiylar miqdorining nashrdan nashrga oshib borishini ko‘rishimiz mumkin: 1875-yilda Fitsjeraldning tarjimasida ruboiylar soni 75 ta edi. XX asr o‘rtalarida Britaniya muzeyidan topilgan qo‘lyozma asosida Artur Arberri 252 ta ruboiyni nashr ettirdi. Eronlik adabiyotshunoslar Qosim G‘oniy va Muahammadali Farog‘iy 300 ta ruboiyni o‘z ichiga olgan kitobni 1943-yilda Tehronda nashr ettirdi. 1960-yilda Toshkentda 269 ruboiydan iborat “Umar Xayyom. Ruboiylar” kitobi chop etildi. 1975-yilda ozarbayjonlik tarjimon M.Saidzode tomonidan 360 ta ruboiy tarjima qilinib nashr etildi. 1978-yilda U.Derjavinning 419 ruboiydan iborat tarjimasi, 1983-yilda Toshkentdagi “Donish” nashriyoti 540 ruboiyni o‘z ichiga olgan, 1985-yilda Toshkentda SH.Shomuhamedov va N.Strijkovlar tarjimasi asosi asosida 446 ruboiyni qamrab olgan kitob chop etildi [2:17-25]. Umar Xayyom ruboiylarining Bag‘dod qo‘lyozmasida 158 ruboiy mavjud bo‘lsa, Parij qo‘lyozmasida 175 va 213 ruboiy keltiriladi. Hozirgi Kembrij nusxasida 801 ruboiy keltirilgan [3:3-20].

Shunday qilib, nashrdan nashrga ruboiylar miqdori turlicha aytiladi. Bu esa shartli ravishda Umar Xayyomga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Qo‘shimchasiga ba’zi ruboiylar turli shoirlar ijodida takrorlanadi, ya’ni Xayyomga nisbat berilgan to‘rtlik boshqa shoirda ham mavjud. Masalan, A.Kristenson Bodleyn qo‘lyozmasidan ikkita ruboiyni keltirib, bular ham shoir Xayyomda, ham shoir Abu Tolibda borligini keltiradi. Biroq bu fikr nisbiy, sababi Abu Tolib Xayyomdan keyingi davrda (1625-yilda vafot etgan) yashab o‘tgan. Yana 16 ta ruboiy Xayyom va Hofiz ijodida uchraydi. Lekin Hofiz ham Xayyomdan keyin yashagan (1320-1389-yillar). Shuningdek, Xayyom va Rumiya tegishli deb keltiriladigan 4 ta ruboiy bor. Ammo ularning hech qaysisi 1500-yilgacha bo‘lgan Rumiya qo‘lyozmalarida uchramaydi [2:22]. Shuni ta’kidlash joizki, Rumiya ham Umar Xayyomdan keyingi davrda yashagan (1207-1273). A. Kristenson shu qiyoslardan kelib chiqib quyidagicha xulosaga keladi: “Sayyoh ruboiylar” degan tushuncha soxtadir va bu Xayyomning ulug‘ shoir ekanligiga soya solmasligi kerak” [2:22].

Xulosa. Maqolada keltirilgan “Sayyoh ruboiylar”ning muallifini aniqlashdagi qiyinchilik shundaki, ularda shoir taxallusining qo‘yilmasligidir. A. Kritenson Xayyom faqatgina 12 dona ruboiyda o‘z taxallusini keltirganligini aytadi. Bu esa boshqa ko‘plab ruboiylarning Xayyomga nisbat berilishiga olib kelgan.

Tabiiy savol tug‘iladi, haqiqatda Umar Xayyom nechta ruboiy yozgan? Fitrat o‘zining “Fors shoiri Umar Xayyom” kitobida ularning miqdori 250-300 ta deb keltirsa [1:152], N. Komilov o‘zining tadqiqotlari natijasida ruboiylar sonini 300 ta deb xulosa qiladi [4:212]. Yuqoridagi fikrlarga qo‘shilgan holda xulosa qilish mumkinki, Xayyomga tegishli ruboiylarning maksimal miqdori 300 ta bo‘lib, uni shoir bo‘lmagan deyish mutlaqo noto‘g‘ri. “Sayyoh ruboiylar” atamasi esa qo‘lyozmalarning nusxa ko‘chirilishi, ruboiylarga “imzo” qo‘yilmasligi, dastlabki qo‘lyozmalarning topilmaganligi natijasida paydo bo‘lgan. Biroq bu Umar Xayyom shuhratiga soya sololmaydi. Chunki Xayyom ruboiylari uchraydigan boshqa shoirlardan avval yashab o‘tgan va ulardan ilhomlanib yozishi, tabiiyki, mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurauf F. Fors shoiri Umar Xayyom. – T., 1929
2. Eshonova M.B. Umar Xayyom va Sharq-G‘arb adabiy aloqalar. Dis. – T., 2000.
3. Ochilov E. Tiriklik tilsim / X. Umar. – T., 2012.
4. Komilov N. Tafakkur karvonlari. – T., 1999.
5. <https://islom.uz/maqola/4280&hl=ru-UZ>

DEDUKSIYA NAZARIYASI HAQIDA MULOHAZALAR

Qorako‘z TO‘LANBOYEVA

TDSHU, Falsafa (Sharq falsafasi va madaniyati) yo‘nalishi

2 kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Jasur Sulaymonov

Annotatsiya: Ushbu maqolada deduksiya nazariyasining kelib chiqish tarixi va sabab omillari, hamda falsafada uning talqin obyekti haqida so‘z yuritiladi. Inson hayotida deduksiya xarakteri ifodalab beriladi.

Kalit soʻzlar: falsafa, deduksiya, sillogizm, ong va tafakkur, bilish falsafasi, kuzatish, reallik, dastlabki bilim, ratsional bilim, Rene Dekart, xulosa, gnoseologiya metodlari, borliq.

Insoniyat mavjud boʻlgandan buyon, olam va uni bilishga intiladi. Bu esa tafakkur rivojini talab etuvchi jarayon. Chunki ong va tafakkur mavjud reallikni bilishda muhim omildir. Bizning tafakkurlarimiz chalkash xayolotlar boʻlib tuyulsa-da, ammo uning oʻz tartib va tuzilmasi mavjud. Bu tartib va tuzilmani atroflicha tushuntirib berish uchun Falsafaga murojaat etamiz. Aynan falsafa insoniyatning azaliy savollariga javob bera oladi.

Falsafa donishmandlikni sevish degan maʼnoni anglatishini bugungi kunga kelib koʻpchiligimiz yaxshi bilamiz. Mening fikrimcha falsafa xuddi “koʻzoynakka” oʻxshaydi. Koʻzi yaxshi koʻrmaydigan inson koʻzoynaksiz (yaqinni ham, shunga muqobil uzoqni ham) aslidagidek koʻra olmagan kabi olamni ham falsafasiz anglab yetolmaydi. Nafaqat olam, balki oʻzligini kashf etishda mavhumlikka duch keladi. Tasavvur qilib koʻring, uzoqqa qarayapsiz, yoki yaqinga. Lekin natija yomon, voqelik bor, afsuski aniqlik yoʻq! Shu paytda holatingizga qarab “koʻzoynak” taqasiz. Bu mutlaqo boshqa koʻrinish, shunday emasmi? Yaʼni avvalgidan koʻra yaxshiroq va aniq! Falsafa ayni shuning oʻzi. Koʻzi odatiy yaxshi koʻradigan insonlar bu donishmandlardir. Ular “koʻzoynak”dan koʻnikma olib boʻlgan va butun hayotlari davomida shuni uqtirib kelishmoqda. Bizga koʻrinib turgan bu voqelik aslida qanday ekanligini bilishni istamaysizmi? Keling, qadrdon “koʻzoynak”ni taqishning ayni payti...

Falsafada ikki tarmogʻi borki,ular bir -biriga uzviy bogʻliq. Biz deduksiya haqida gapirishimiz uchun aynan shu ikki tarmogʻini bilishimiz shart. Bu gnoseologiya va ontologiyadir. Falsafadagi asosiy masala har doim olamni bilish haqidagi tasavvurlar boʻlgan. Olamni–ontologiya, bilish nazariyalarini esa gnoseologiya oʻrganadi. Inson nimani bilishni istaydi? Albatta oʻzini oʻrab turgan olamni, oʻziga bogʻliq boʻlgan voqeliklarni.Shu jihat bilan ontologiya va gnoseologiya biri birini taqozo etadi.Ular orqali savollarga javob topiladi.

Biz insoniyatning tafakkur shakllari rivojiga nazar solsak, insoniyatning paydo boʻlishi va atrofni anglay boshlagan davrlarga borib taqalamiz. Umuman olganda falsafiy tafakkur odamzodning maʼlum davr mobaynida kechirgan hayot tarziga bogʻliqdir. Olam va u qanday paydo boʻlgan kabi tushunchalar ontologiya va gnoseologiyani shakllantirdi va rivojlantirdi. Sharq falsafiy gʻoyalari asosida vujudga kelgan gʻarb falsafasi, xususan, yunonlarda bu omil keyingi davr tafakkur ravnaqiga sezilarli

darajada ta'sir ko'rsatdi. Ular ilgari surgan g'oyalar yangi davr silsilasi uchun yaxlit holatdagi tafakkur olami edi.

Deduksiya atamasi gnoseologiyaning bilish metodlaridan biri. U haqda rimlik mashhur mantiqshunos Beotsi (480-524) ta'kidlab o'tgan bo'lsa ham, dastlab Aristotel sillogizm shaklda o'zining "Birinchii analitika" asarida fikr yuritib tahlil qilgan. Sillogizm yunoncha "hisobga olaman", "xulosa chiqaraman" degan ma'noni bildiradi, u deduktiv xulosa chiqarishning bir turi. Unda ikki qat'iy mulohazadan uchinchi mulohaza keltirib chiqariladi.

O'rta asr arab falsafasida ko'zga ko'ringan Ibn Rushd, al-Kindiy, Imom G'azzoliy, Roziy kabi faylasuflari deduksiyaga alohida e'tibor qaratgan. Ibn Sino, Forobiyalar esa Aristotelning deduktiv mantiq'iga yangilik kiritdilar va mantiqning sillogizm shakli bilan cheklanmay, shartli hamda ayiruvchi singari shakllarini ishlab chiqishdi. Keyinchalik esa R. Dekart va G. Leybnistlar deduksiyani yana-da rivojlantirib, yaxlit bir ta'limot sifatida yuksaltirdilar.

XVII asr boshlariga kelib, kapitalizm yuksalib, fan va texnika rivojlana boshladi. Bu o'zgarishlar falsafada ham sezilarli burilish yasadi. Falsafiy tafakkurda yangilanish edi. Bilish nazariyasi butun ilm-fan tarmoqlarini rivojlanishida muhim birlikdir. Bilim va bilish chegarasini farqlash, aqliy tafakkur asosini belgilaydi.

Deduksiyaning ta'limot sifatida yaxlit bir maydonga chiqishi bevosita Rene Dekart nomi bilan bog'liq. U deduksiyaning falsafiy talqinini ochib berdi. Rene Dekart (1596-1650) fransuz faylasufi, ratsionalizm asoschisidir. U kollejda tahsil olayotgan paytlaridan boshlab falsafiy g'oyalarini ilgari suradi. Bilim olish, bilishning asosli yo'llari haqida qiziqardi. Lekin uni mavjud holati hech qoniqtirmas edi. Ya'ni, kitob orqali o'rganishning ahamiyatiga shubha qila boshladi. Chunki u davrlardagi kitoblar ishonchli asosga ega emas edi. Shu boisdan u kitoblarni bilan cheklanmay, sayohatga otlandi. Unga chinakam reallik kerak edi. 23 yoshida Germaniyaga qishki kvartalda bo'lganida, o'z uslubining asosiy g'oyalarini shakllantira boshladi. Dekartning fikriga ko'ra, hamma bilimlar shubhadan boshlanishi zarur. Ilmiy shubha orqali haqiqatga, haqiqiy bilimga erishish mumkin.

Dekart uchun hissiy dalillar qabul qilinishi haqiqatga olib bormaydi. Chunki nazariy g'oyalar tug'madir, ularni asosini tajribada topib bo'lmaydi deb hisoblaydi. Xudo g'oyasini mukammal sifat bilan ifodalaydi. So'ngra raqamlar va raqamlar g'oyalari, ba'zi umumiy tushunchalar, aksiomalar tug'ma asosga ega deb bilgan. Raqamlar borasidagi tafakkurlari qaysidir ma'noda Pifagor g'oyalariga yaqin.

Dekart yana shuni ta'kidlaydiki, fanga uni yagona bir yaxlit reja asosida qurish uchun imkon beradigan, tabiatni yaqindan anglash uchun qat'iy va oqilona usul kerak bo'ladi. Bilish jarayoni ishonchli faktga tayanishi juda muhim. Falsafa eng ishonchli fan sifatida harakat qilishi kerak.

Deduktsiyadagi ko'zda tutilgan shubhalanish bu aniq mantiqqa ega bo'ladi. Mavjudlik xususiyatini inkor etmaydi. Dekartning shunday gapi bor: "Agar biz shubhalanishi mumkin bo'lgan hamma narsani yolg'on deb e'lon qilsak, Xudo, osmon, tana yo'q deya taxmin qilish oson, lekin biz o'ylaydiganlar mavjud emas deb aytish mumkin emas...Men o'ylayman shuning uchun mavjudman..."

Bizga ma'lumki, gnoseologiyada bilishning ikki asosiy yo'nalish paydo bo'ldi: empirizm va ratsionalizm. Empirizm hissiy bilimlarga asoslangan holda kuzatish yo'li orqali olinadigan bilimdir. Amaliyotga ega bo'lgan dastlabki bilim. Ratsionalizm esa aql vositasida erishiladigan bilimlardir. Qaysidir ma'noda hissiy bilimlar ham bilish uchun natija berishi mumkin, lekin olingan natija aniq va haqiqatga ega bo'lishi kerak. Empirizm taxminiy xulosalar berishi ko'proq, chunki hissiyotlar aniqlik xususiyatiga ega emaslar, qachonki ular aqlan rivojlantirilgan bo'lsalargina haqiqiy bilimga aylanish ehtimoli bor. Deduktsiya aqliy tafakkur asosida kuzatish yo'li bilan mavjud vaziyatga o'z xulosasini beradi. Avvaldan ma'lum bo'lgan bilimlar orqali yangi bir bilimga erishiladi. Deduktsiya sizdan mantiqiy fikrlashni talab etadi. Deduktsiyada dastlab intellektual sezgilar paydo bo'ladi. Bu ongimizdagi tug'ilgan oddiy bilimlardir. Ularga aqliy jihatdan ishlov berilsa, mantiqiylikka e'tibor berilsa, chinakam xulosaga erishish mumkin. Deduktsiyaning asosiy xususiyati shundaki, unda tafakkurning umumiydan xususiyga ko'chishi mavjud. Aqlga tayanib, fikr yuritiladi.

Dekart ta'kidlaydiki, bilimning ibtidosi bu aqldir, lekin unga avvalo barcha narsalarni o'rgatish kerak. Shuning uchun ham kuzatishni deduktsiyada to'laqonli ravishda inkor etilmaydi. Ba'zida bilimlarni haqiqatga aylantirish uchun kuzatish ham zarur omil. Bunday vaziyatda, albatta, aqlga asoslanadi, hissiyotlarni-da aql boshqaradi.

Har qanday vaziyatdagi jumboqning yechimi aslida o'sha jumboqning o'zida bo'ladi, faqatgina uni mantiqan mulohaza yuritish kerak. Bu esa deduktsiya demakdir. Bunga qanday erishiladi? Juda yaxshi savol, keling ozroq namunalar keltiraman. Tasavvur qiling, stol ustida ikkita bir xil palto turibdi. Hatto ularning rangi ham bir xil. Siz ulardan qaysi biri ayollarniki va qaysi biri erkaklarniki ajratishingiz kerak. Buning uchun nima qilish kerak? Eng birinchi navbatda avvalgi bor bilimlaringizga tayanib, o'ylay boshlaysiz. Busiz to'g'ri xulosani ololmaysiz. Deduktsiyaning boshlang'ich

nuqtasi ham dastlabki bilimlarning mavjud ekanligidir. Xo'sh, deduksiyadan foydalanib buni aniqlaymiz. Deduksiyada diqqatli bo'lish muhim rol o'ynaydi. Diqqat e'tiborni paltoga qaratar ekansiz, uning ajralib turuvchi bitta xususiyati bor. Bu uning tugmalari. Chunki tugmalar ayollarnikida chap tomonda, erkaklarnikida esa o'ng tomonda bo'ladi. Mana sizga deduktiv xulosa: dastlabki bilimlaringiz orqali yangi yechim oldingiz. Bu hayotimizda uchrab turadigan hodisalardan biri. Deduksiya orqali biz hayotimizda sinchkov va e'tiborli bo'lishni ham o'rganamiz. Qiyin vaziyatlarda to'g'ri yechimga kela olamiz.

Har qanday masalaga yechim topishda avvalidan boshlab tanishib chiqiladi. Nega shunday bo'lganiga shubha bilan qarash mantiqiy o'ylashga yordam beradi. Deduksiyaning asosida ilmiy shubha mavjud bo'ladi. Artur Konal Doylning "Sherlok Holmes" nomli mashhur asari qahramoni ham aynan deduksiya yordamida butun jumboqlarga javob topadi. Bu to'qima obraz va voqealar bo'lishi mumkin, lekin hayotiy haqiqatga ega.

Hozirgi kunda ilmiy bashorat haqida va unga nisbatan mulohazalar talaygina. Ular ilmiy jihatdan o'rganilganligi uchun haqiqatga ega va o'z tasdig'ini topadi. Ilmiy bashoratlarni keltirib chiqarish aniq dalillarga tayanadi. Bularning hammasida deduksiyaning xizmati bor. To'g'ri xulosa chiqarish, aniq yechimga ega bo'lish deduksiya mahsuli hisoblanadi. Unda taxmin yo'q, faqat aniqlik mavjud. Chunki haqiqiy dalillarga ko'ra xulosa chiqariladi. Biz o'z hayotimiz mobaynida o'zimiz bilmagan holatda deduksiyadan foydalangan holatlarimiz ham ba'zida uchrab turadi. En muhimi aqliy yo'l bilan orttirgan bilimlaringizga ishoning. Zero deduksiya buni sizga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi; Toshkent – 2000-2005
2. Shermuhammedova N.A. "Gnoseologiya–bilish nazariyasi". Toshkent-2008
3. Po'latova D.A., Ro'zmetova G.M. G'arb falsafasi tarixi. Toshkent–2018
4. Shermuhammedova M.A. Falsafa. Toshkent–2006
5. Nazarov Q. Bilish falsafasi. Toshkent –2005
6. Axmedova M.A. Faslafo. Toshkent, 2006 yil.

O'RNAKLI BIR HAYOT YO'LI (MUHAMMAD RIZO OGAHIY)

Mirjonbek OSTONOV
TDSHU, Turizm yo'nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD M. Vohidova

Annotatsiya. Ushbu maqolada atoqli shoir, tarjimon, tarixnavis hamda davlat va jamoat arbobi Muhammad Rizo Ogahiyning hayot faoliyati va uning navqironlik paytidagi davrlari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Xiva, Xudoyorxon, Munis, Muhammad Rahimxon Soniy, Olloqulixon.

Hozirgi kunda Muhammad Rizo Ogahiy hayotiga qiziquvchilar va uni o'rganuvchilar bir qanchadir. Men ham uning hayot faoliyatiga qiziqib o'rganuvchilardan biri hisoblanaman.

Xiva – Amudaryoning chap sohilida, daryodan 40km uzoqlikda joylashgan shahar. Xiva o'zining tarixiy o'tmishi, me'moriy tuzilishi, obidalarining yaxlit saqlanganligi bilan birga yana ko'plab buyuk zotlarning yetkazib berganligi uchun ham hurmatga sazovor shaharlardan hisoblanadi. Shunday ulug' zotlardan biri- o'zbek mumtoz adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan atoqli shoir, tarjimon, tarixnavis olim hamda davlat va jamoat arbobi Muhammad Rizo Ernazarbek o'g'li Ogahiydir.

Muhammad Rizo otadan erta yetim qolib, amakisi – o'z zamonasining yetuk shoiri va katta mansab egasi xonning bosh mirobi Munis Xorazmiyning qo'lida tarbiya topadi.

Keyinchalik o'zining tog'asi va ustoz bo'lgan Munis Xorazmiy bilan maslahatlashib "Ogahiy" taxallusini oladi. Shoirning taxallusi ham o'zi aytgandek "ogohlik" bilan xush mahzundir.

Ogahiy o'zbek elining qiyot urug'idan bo'lib, uning hayotida Shermuhammad Munis katta rol o'ynagan. Vaqtlar o'tib Muhammad Rizo qarindoshi Munis Xorazmiyning ta'sirida ilmi va idrokli bo'lib yetishgan. Unga nafaqat tengdoshlari balki bo'lajak xon Olloqulixon ham hurmat-izzat ko'rsatadi. U maktabni tugatgandan so'ng, madrasaga, zamonaviy til bilan aytganda Oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirib, ilm olishni davom ettirganini yozadi. Ogahiy odatdagi 7-8, 10-11 yoki 12-13 baytlik g'azallar yozish tartibini buzib, mazmun talabi bilan 20 baytlik va 23 baytlik g'azallar yozdi.

Munis Xorazmiy vabo kasalligidan vafot etgach an'anaga ko'ra mansab Munisning merosxo'ri yo'qligi sababli uning jiyani Ogahiy "miroblik" lavozimiga tayinlangan.

Ustozning vafoti uni qanchalik g'amga cho'mdirsa shunchalik uning yelkasiga mas'uliyat yukladi. Sababi u sulola uchun javobgar shaxsga aylangan edi. Vaholanki bu paytda Muhammad Rizo endigina 20 yoshni qoralagan bir yigit edi.

Ogahiy nafaqat mirob balki harbiy sohada ham yurti uchun xizmatini ayamagan edi. Har bir narsaning sababi bo'lgani kabi Ogahiy ham otdan yiqilib og'ir jarohat olganligi tufayli o'zining kelgusi hayotini ijod yo'liga bag'ishladi.

“Sipohi garlig‘ yarog‘in tuzmak tashvishig‘a duchor. Va sipohdorlig‘ mansabining sipohdorlig‘ mansabining shuxli zanjirig‘a giriftor bo‘ldim”.

Muhammadrizo Ogahiyning tarjimon ekani haqidagi ilk ma'lumot vengriyalik olim Arminiy Vamberi (1832-1913) tadqiqotida keltirilgan. Arminiy Vamberi Xorazmda she'riyatga bo'lgan katta qiziqish to'g'risida gapira turib, shunday yozadi: “Xivada men ikki aka-uka bilan tanishdim. Biri Munis bo'lib, u ajoyib she'rlar yozgan; men ularning ayrimlarini keyinchalik nashr qildirmoqchiman. Ikkinchisi Mirob. U ulkan sabr bilan Mirxondning katta tarixiy asarini o'g'li uchun, garchi o'g'lining o'zi ham fors tilidan xabardor bo'lsa-da, o'zbek-turkiy lahjasiga o'g'irmoqda. Bu ish 20 yil davom etgan, lekin u buni biron kimsa oldida e'tirof etishdan uyalardi, zero diniy ilmlardan boshqasi bilan shug'ullanish yuzakichilik hisoblanadi”. Ushbu iqtibosda keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, Ogahiy Mirxondning “Ravzat al-safo” asarini ko'p yillar davomida tarjima qilgan va boshqa tarjimonlarga ham bosh-qosh bo'lgan. Ogahiy fors tilidan o'n sakkizta va usmoniy turkchasidan bitta asar tarjima qilgan [1].

Ogahiy davlat arbobi miroblik kasbida rasman faoliyat yuritganiga qaramay, Qo'ng'iro't xonlari uni o'tkir qalam sohibi, tarjimon, shoir va muarrix sifatida qadrlashgan. Adibning salmoqli ijodini tarjimonlik faoliyati tashkil qilganiga qaramasdan, uning ushbu qirrasini hali to'laligicha yoritilmagan. Bu esa o'z navbatida, O'rta Osiyo turkiy tiliga “eng ko'p va eng xo'b” tarjima qilgan mutarjimning faoliyati chuqur tadqiqotlarga tortilishi lozimligini ko'rsatadi. Fors va arab tilidagi asarlari tarjimalariga berilgan buyurtmalar mavzusini davom ettirib, ba'zi qo'shimchalar qilib o'tishni o'rinli deb bildik. Hamma gap shundaki, ayrim tarjimalar hukmdorlar ko'rsatmasi asosida emas, ba'zi amaldorlar tashabbusiga ko'ra amalga oshirilgan. Mazkur holat elita o'rtasida kamida tarixni, xususan, islom mamlakatlari tarixini bilishga ehtiyoj mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Tarjima qilish tendensiyasi yoki modasi (tabiiyki, o'quvchilar ehtiyojiga asoslangan) deyarli barcha hukmdorlar saroylarida ma'lum va mashhur bo'lgan. Misol uchun tarjimalar xon saroyi ayonlari (adabiy) majlislarida

o‘qilgan. Tarixiy va boshqa turdagi manbalardagi ma’lumotlarga ko‘ra, Qo‘ng‘irotlar sulolasi namoyondalari muttasil diniy va adabiy majlislar uyushtirib turganlar. Ularda zamondosh yoki o‘tmishda yashab o‘tgan, yo boshqa xalqlarga tegishli mualliflarning, masalan, tarixiy asarlari o‘qilgan va muhokama qilingan. Taxminiy ma’lumotlarga ko‘ra Qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmronligi davrida 120 asar tarjima qilingan bo‘lib, buning natijasida Xorazm bir qator manbalarni turkiy tilga tarjima qilish bo‘yicha yetakchilik qilgan. O‘tgan tarixni bunday “turkiylashtirish” madaniy jihatdan olib qaraganda, muhim ahamiyatga ega. Ayni madaniy hodisa yangi sulola davrida mafkuraning shakllanishi jarayon murakkabliklarini ettirib, uni sulolalarning barchaga ma’lum tarixi bilan bog‘lashga urinish hamda uni xonlikdagi kitobxonlarga yaqinlashtirish istagidan kelib chiqqan. Ogahiyning tarjimonlik mahoratiga Najmiddin Komilov ta’rif bergandek, asliyatdagi mukammallik va ravshanlikni, tarjimada sodda, aniq va tushunarli bera olgan. Bayt bar bayt tarjima jarayonida ham, muallifning tilini turkiylashtirgan. Uning tarjima maktabi Xorazm tarjimonlariga mash’ala edi. 15 ta asarining 38 ta qo‘lyozmasi mavjud bo‘lib, ulardan 7 tasi yagona nusxada saqlanadi.

Har bir yosh avlod Muhammad Rizo Ogahiy hayotini o‘rganar ekan uning bu yo‘li bir qancha qiyinchiliklarga uchraganini ko‘rishimiz mumkin, zero 20 yoshida tog‘asining vafoti va shu yo‘sinda o‘zining kasbi miroblikni ham, shoirlikni ham, tarixnavislikni ham birday olib borgani bunga yorqin misol bo‘la oladi. Bu albatta o‘sha davrda kuchli iroda va o‘ziga bo‘lgan ishonchni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Огаҳийнинг таржимонлик фаолияти ҳақидаги адабиётлар рўйхатини қаранг: ОАТ. – Б. 34.

2. Ogahiy hayoti va ijodi – yoshlar tarbiyasi uchun namuna.
<https://ogahiy.tsuos.uz/adib-hayoti-va-ijodi/>

ФЕНОМЕНЫ «ХАРИЗМАТИЧНАЯ ЛИЧНОСТЬ» И «ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС» В КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФСКОЙ ГЕРМЕНЕВТИКИ

А. АБДУРАХИМОВ

ТГУВ, направление Восточная философия и культура
студент 1 курса

Научный руководитель: д.ф.н. Э.М. Иззетова

Аннотация: В статье исследована природа харизматичной личности, исторического процесса. Дан анализ основным качествам харизматичной личности. Раскрыт статистический и объективный характер общественных законов. Обоснован тезис, что сам факт выдвижения той или иной личности на авансцену истории носит случайный характер. Исследованы базовые категории: необходимость, случайность, свобода действия, свобода воли.

Ключевые слова: харизматичная личность, исторический процесс, свобода воли, историческое бытие, объективная закономерность, необходимость, случайность

Исторический процесс весьма сложен и представляет собой взаимодействие многих объективных и субъективных факторов. Под объективными факторами исторического процесса понимают природноклиматические и экономические условия. Под субъективным фактором исторического процесса понимают деятельность людей, которая совершается в соответствии с какими-то намерениями, идеями, эмоциями и т.п. В отличие от природы, где эволюция происходит независимо от деятельности людей, история не может развиваться помимо человека. Историю творят люди, а не какие-то неведомые силы. Их субъективные мотивы и замыслы составляют неотъемлемый компонент исторических процессов. Однако, несмотря на то, что законы общества действуют через людей и благодаря людям, они объективны. Общественные законы носят статистический характер, это законы тенденции, складывающиеся в результате действий отдельных личностей, векторы которых могут быть весьма различными. Известно, что на развитие событий в истории индивидуальные и неповторимые обстоятельства оказывают больше влияния, чем в природе. Подобно рода обстоятельства носят случайный характер. Они не имеют однозначной необходимой обусловленности.

Историческая закономерность выступает лишь как «равнодействующая» массы случайностей.

Своей деятельностью человек смягчает или усиливает действие закона, тормозит или ускоряет его, но не может отменить. К. Ясперс в этой связи писал: «...мы стремимся понять историю как некое целое, что бы тем самым понять и себя. История является для нас воспоминанием, о котором мы не только знаем, но в котором корни нашей жизни. История – основа, однажды заложенная, связь с которой мы сохраняем, если хотим не бесследно исчезнуть, а внести свой вклад в бытие человека. Историческое воззрение создает ту сферу, в которой пробуждается наше понимание природы человека»¹. Немецкий философ подчеркивает неразрывную связь человеческого и исторического бытия, которые взаимно обуславливают и определяют друг друга.

Может ли отдельный человек повлиять на ход исторических событий? Если исходить из представления о том, что история фатальна, что в ней действуют жесткие законы, на которые невозможно повлиять, то, очевидно, ответ будет отрицательным: отдельная личность не может оставить свой индивидуальный след в истории. Однако более верной представляется позиция, согласно которой история – не однолинейный процесс. Исторический процесс имеет веерный характер, каждая историческая ситуация оставляет несколько вариантов дальнейшего развития событий. От действий отдельных личностей, которые случайно или закономерно оказались на гребне исторической волны, зависит, какая из возможностей реализуется в данный момент. Люди – не марионетки, а активные участники истории. Конечно, человек действует в заданных обстоятельствах, его личность сформирована в определенных условиях и т.п. Но, будучи таким, каков он есть, человек тем не менее свободен, он может предпочесть тот или иной вариант действий и тем самым способствовать развитию ситуации в определенном направлении. В истории нет фатальности, и личность может активно проявить себя. А. Тойнби считает, что личность равновелика истории, поскольку без личности история не существует². Вместе с тем следует добавить, что в каждой исторической ситуации действуют множество людей, и все они имеют собственные намерения, замыслы, движимы страстями и т.п. Общий вектор исторического развития складывается из действий миллионов. Но анонимность исторического процесса не отменяет его личностного характера.

¹ Ясперс К. Смысл и назначение истории. – М., 1994. – С. 124.

² Тойнби А.Дж. Постижении истории. – М., 1991.

Историю делает множество людей. Однако отдельные группы или личности в силу своего положения, власти или случайных обстоятельств могут повлиять на ход исторического процесса серьезнее, чем другие. Люди, оказавшиеся на пике исторических событий, – лидеры, военачальники, религиозные деятели – принимают решения, отдают приказы, подписывают договоры, и эти акты их личной воли оказывают существенное влияние на ход событий, причем как положительное, так и отрицательное. А если иметь в виду историю человеческого духа, то личностный фактор становится еще более очевидным: духовную историю делают именно отдельные личности, а не большие массы людей.

Сам факт выдвижения той или иной личности на авансцену истории – случайность. Чтобы оказаться соразмерной обстоятельствам, личность должна обладать определенными свойствами. Конкретная историческая ситуация требует проявления конкретных психологических и личностных качеств. В современной социальной психологии описывается общее свойство, присущее всем великим историческим персонажам, – харизма (греч. *charisma* – милость, божественный дар). Харизма – это исключительная одаренность, основанная на выдающихся качествах личности харизматического лидера – мудрости, героизме и т.п.

Харизма определяется различным образом: дар свыше; исключительные качества личности, вызывающие уважение со стороны окружающих, позволяющие подчинять своей воле; искусство очаровывать окружающих и увлекать их за собой и т.д. «Эта притягательность заставляет умолкнуть все сомнения нравственного порядка, опрокидывает всякое законное противодействие лидеру и превращает узурпатора в героя»¹. Харизматическая личность обладает определенными специфическими чертами.

Основное качество харизматической личности – вера. Такой тип личности верит во все, что говорит или делает, для него борьба за власть совпадает с борьбой за интересы народа, революции, партии и т.п. Именно поэтому Г. Гегель говорил, что великие личности не принадлежат сами себе, они выступают лицом, волей и духом народа.

Второе качество харизматической личности – преобладание смелости над интеллектом. Как считает С. Московичи, людей, способных проанализировать ситуацию и предложить решение, в политике достаточно много. Они представляют собой советников, экспертов и

¹ Московичи С. Век толп.- М., 1989. – С. 48.

исполнителей. Но теория ничего не значит без воли к действию и умения увлечь людей.

Третье свойство харизматической личности – авторитет. Человек, обладающий им, заставляет повиноваться и, следовательно, добивается того, к чему стремится. С. Московичи различает авторитет должности и авторитет личности¹. Принадлежа к данной семье или к конкретному классу, человек приобретает частицу авторитета, придаваемого традицией, даже если он не обладает никакой личностной значимостью и никакими собственными талантами, его авторитет связан с местом в социальной иерархии – это авторитет должности. Напротив, авторитет личности независим от внешних признаков власти или социального положения, он исходит от личности, которая очаровывает, притягивает, внушает. В стабильных и жестко иерархизированных обществах преобладает должностной авторитет, в современных обществах с большими возможностями горизонтальной и вертикальной мобильности единственным авторитетом становится авторитет личности.

Следует заметить, что насколько харизматическая личность владеет массой, настолько она зависима от нее. Если нет массы, нет вождя. Кроме того, ни одна личность, будь она трижды харизматической, не сможет повлиять на ход истории в одиночку, ее воля должна реализоваться в совместных действиях больших групп людей. Таким образом, личность и массы – два противоположных полюса исторического процесса, определяющие его ход и содержание.

Наличие закономерностей в историческом процессе предполагает свободное действие человека. Из действий отдельных людей складываются исторические события. Если бы люди не имели замыслов, намерений, воли, то никакой истории не было бы. Но, как писал А. Смит, «преследуя свои собственные интересы, человек часто более действенным образом служит интересам общества, чем тогда, когда сознательно стремится делать это». Причем общий результат может оказаться совершенно неожиданным. Свобода и необходимость в истории оказываются тесно связанными. Необходимость исторического процесса осуществляется благодаря свободной деятельности отдельных людей, преследующих собственные частные интересы.

Свобода воли человека не является абсолютной. Поведение людей зависит от их личных субъективных взглядов, наклонностей, целей. Каждый человек знает, что его свобода всегда относительна.

¹ Московичи С. Век толп.- М., 1989.

Существуют объективные обстоятельства, с которыми приходится соразмерять свои собственные намерения. Любой человек в процессе жизнедеятельности вносит какие-то изменения в окружающую действительность, влияет на сознание и поступки людей. Чем выше социальная позиция человека, тем больше он может повлиять на общество.

Краткий вывод. Способность личности изменять социальную реальность возрастает, если она обладает творческим даром. Однако осуществить на практике можно лишь то, что допускает объективные законы бытия. Известно, что на общество как часть природы и продукт ее развития распространяются объективные законы материального мира. Человек с помощью разума способен открывать эти законы и изобретать способы их использования для получения нужных ему результатов. Но нарушить и отменить законы природы невозможно. Таким образом, люди в соответствии со своей волей могут изменять социальную реальность, но лишь в пределах, которые обусловлены объективными законами как природы, так и общества.

Список использованной литературы:

1. Ясперс К. Смысл и назначение истории. – М., 1994. – С. 124.
2. Тойнби А.Дж. Постижении истории. – М., 1991.
3. Московичи С. Век толп.- М., 1989. – С. 48.
4. Московичи С. Век толп.- М., 1989.

OGAHİY G‘AZALLARIDA MAVZU KO‘LAMINING HAR XILLIGI

Mushtariy MUSTOFAYEVA

TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va tarixi fakulteti 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi I.B. Xudaynazarov

Annotatsiya: Bizga ma’lumki, Xorazm diyorining yetuk shoiri Muhammad Rizo Ogahiy mohir tarjimon, tarixnavis bo‘lgan. Ogahiy yozgan g‘azallar kuy va qo‘shiqqa aylangan. Ushbu maqolamizda g‘azallarining mavzu ko‘lami hamda har xilligiga to‘xtalib o‘tilgan. G‘azallardagi rang – baranglikka ilmiy asosda yondashilgan .

Kalit soʻzlar: Ogahiy lirikasi, sheʼr, koʻngil, vatan tasviri, Alisher Navoiy, tarixnavis, til va tarbiya, ashula va sheʼr.

Xorazm diyoringning serqirra isteʼdod sohibi, oʻzining boy lirikasi bilan ajralib turadigan adib Muhammad Rizo Ogahiydir. Xiva madrasalarida tahsil koʻrgan, arab, fors, turk tillarini puxta egallagan. Xorazmning mashhur shoir va olimlari, adabiyot muxlislarining suhbatlarida boʻlgan. Ayniqsa, Sharq klassiklari asarlari, Navoiy ijodini ham qunt bilan oʻrgangan. Shuningdek, Ogahiy lirik shoir sifatida ham mashhur.

Tong ermas, Ogahiy, ahli jahon sheʼringga mayl etsa,

Nedinkim har soʻzing nazm ichra bir gavharga oʻxshaydur

- deb yozgan Muhammad Rizo Erniyozbek oʻgʻli Ogahiy chindan ham nafaqat oʻzbek, balki sharq mumtoz soʻz sanʼati balki jahon adabiyoti xazinasidan munosib oʻrin olishga arzirli koʻplab barkamol badiiyat durdonalarini yaratgan zabardast shoirlardan hisoblanadi. Ogahiy gʻazallarining koʻpchiligi qoʻshiqqa aylanib, hofizlar repertuaridan mustahkam oʻrin olganligi jihatidan ular madaniyat va sanʼat ahlining ham mumtoz ashulalar matniga boʻlgan ehtiyojini muayyan darajada qondirdi. Zehni oʻtkir, tirishqoq boʻlgan Ogahiy oʻz davrining barcha asosiy tillarini oʻzlashtirdi, fors va arab tillarini chuqur oʻrgandi. Asarlaridagi teran bilim, katta hayotiy tajriba, keng dunyoqarash mahsuli boʻlgan hikmat darajasidagi sheʼr va baytlari uning mutafakkir shoir ekanligiga yorqin dalildir. Ogahiydek tarixnavis, tarjimon, olloh bergan buyuk isteʼdod sohibi Xorazm diyoringning faxridir. Zero, sheʼr va ijod yaratganning siylovi, taqdir kulib boqqan inson Muhammad Rizo Ogahiydur. Shoirning oʻz taʼbiri bilan aytganda:¹

Haddan afzunroq beribdur Tangri isteʼdod anga

Ogahiy ham tangrining inʼomiga loyiq boʻldi. Kelajak avlod uchun oʻzidan boy maʼnaviy meros qoldira oldi. Bu taʼriflarda aslida shoirlik bir sehrli noyob isteʼdod ekanini, shoirning esa shu neʼmat sohibi ekanligini anglatadi. Oʻz zamonasining mashhur shoiri boʻlgan, Munis xonadonida ham tez- tez olimlar, shoirlar, hofizlar, adabiyot va sanʼat shinavandalari bilan toʻplanib, ilmiy – adabiy suhbatlar, qoʻshiq va musiqa, gʻazalxonlik kechalari boʻlib turgan². Ular bu davralarning doimiy ishtirokchisi boʻlgan Ogahiy oʻz davrining ziyoli va ijodkor kishisi oʻlaroq shakllanishida muhim rol oʻynadi. Ogahiy gʻazallarida mavzu koʻlamining har xilligiga toʻxtaladigan boʻlsak, bir qarasak tabiat tasviri, bir qarasak pand-nasihat, inson qadrini ulugʻlash, insonga muhabbat kabi gʻoyalarni singdirmoqchi boʻladi. Darhaqiqat, shoir koʻp, lekin mutafakkir adib sanoqli oʻtgan.

¹ “Jamoling jilvasi”. Toshkent. “Oʻzbekiston”. 2016

² Ogahiy. Asarlar. I jild T. 1971.

Chunonchi, o‘zbek adabiyotida Navoiydan keyin Ogahiy ijodida ko‘plab hikmatli so‘zlarga, bayt — u misralari xalq maqollaridek jaranglaydigan asarlariga duch kelamiz. Ana shunday g‘azallaridan biri “Jamoling jilvasi” to‘plamdan o‘rin olgan g‘azalni e‘tiboringizga havola qilmoqchi bo‘ldik.¹

*Ilm andoq ganji nofe’dur bani odamg‘akim
Kimda ul bo‘lsa, iki olam bo‘lur obod anga
Komiga yetkan kishi, tong yuq, jahonda topmasang-
Kim bu olam, Ogahiy, bir ko‘hna hasratxonadur
So‘zdur inson ko‘nglida bir gavhari qiymatbaho
Oni xor etma debon har hushi yo‘q hayvong‘a so‘z.
Ko‘kka chiqsang ham quyoshtek tushkasan yer ostig‘a
Izzu Johi dahrin kibru havo qilmoq g‘alat.*

Har bir baytda olam – olam ma’no yotibdi. Ogahiy g‘azalining har bir baytida pand – nasihat, so‘zni xor etmaslik, uni zoye ketkizmaslik, so‘zning qudratini anglagan holda uni bir qimmatbaho gavharga qiyoslashi shoir ijodining yuqori cho‘qqisidir. Ogahiy g‘azallarini aynan bitta ma’no qamrab olmagan aksincha, turfa xil mavzularga qo‘l urilgan va bu ishni a’lo darajada uddalagan. Bejizga, g‘azallarini, har bir bayt-u misralarini maqoldek jaranglaydi deb ta’kidlamagan. Shuningdek, Ogahiy g‘azallarini ishq mavzusi, yorga oshiqliksiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu mavzular shoir ijodining eng yuqori cho‘qqilaridan biri hisoblanadi. Ogahiy ijodining mavzu doirasi keng. Shoir ko‘ngil ko‘zgusi sifatida til va so‘zni e’tirof etadi. So‘zlashda befoyda so‘zlarni ishlatmaslik, hech qanday ma’no bo‘lmagan so‘zlar uchun sarf qilmaslikni ta’kidlaydi. Zero, Navoiy ta’biri bilan aytganda: Til – shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir, Agar nutq noma’qul bo‘lsa – tilning ofatidir. Bu so‘zlar ma’nisi har bir Ogahiyshunoslar uchun, bilimdon kitobxonlar uchun hamda adabiyot ixlosmandlari uchun yetib borishi lozimdir. Ogahiy ham o‘z qarashida tilni nutqning quroliga aylantirish zarurligiga urg‘u bergan.

*Til so‘zi behudalik sarfi o‘ldi umrlar
Emdi afzun ila zikri nek shavqini har dam ango
Til shunday hilqatki, uni zikr bilan mashg‘ul qilmoq ,*

Sukut bilan sug‘ormoq, taqvo bilan mustahkamlamoq lozimdir. Til shunday qurolki, uni ta’siri juda katta bo‘ladi. Agar uni nutqning quroliga aylantirsa sermazmun hamda ta’sirchan bo‘ladi. Biz avval boshdanoq, o‘rganib kelayotganimiz Ogahiy g‘azallarida mavzu ko‘lamining har xilligi edi. Uning g‘azallarini tahlil qilish jarayonida til va tarbiyaga, ishq va

¹ www.Xorazmiy.uz sayti.

sevgiga , inson qadrini ulug‘lashga bo‘lgan jarayonlarga ko‘zimiz tushdi. G‘azallaridagi rang – baranglik albatta diqqatni tortadigan darajada sermahsul. Har bir baytdan olinadigan ma’no purhikmatdir.¹

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Ogahiy g‘azallarida til va tarbiyaga, so‘z qadri shoir ijodining pog‘onasida turishi, inson qadri , sevgi va sadoqat kabi mavzulari iste’dodining yuksak pallasida ekanligiga guvoh bo‘ldik. Keyingi izlanishlarim, Ogahiy merosini ilmiy hamda amaliy nuqtai nazardan o‘rganishga qaratiladi. Chunki Ogahiy merosi juda salmoqli hamda ko‘plab mavzularni o‘zida qamrab olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ogahiy. Asarlar. I jild T. 1971.
2. “Jamoling jilvasi”. Toshkent. “O‘zbekiston”. 2016
3. www.Xorazmiy.uz sayti.
4. [https:// . uz.wikipedia.org/wiki / Agahiy](https://uz.wikipedia.org/wiki/Agahiy)

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING ILMIY-ADABIY ME’ROSIDAN BA’ZI LAVHALAR

Zuxriddin AMONOV

TDSHU, Markaziy Osiyo xalqlari va etnologiyasi yo‘nalishi

3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: I.B. Xudoynazarov

Buyuklar ichra buyukdir, ul shohi nur jahon Bobur,
Ulug‘lar ichra ulug‘dir, el shoiri zamon Bobur.
Suyuklar ichra suyukdir, olam ichra hamon Bobur,
Tiriklar ichra tirikdir sharafing, Andijon Bobur.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining buyuk siymosi Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar keltirildi. Bu ma’lumotlar asosan Boburning ijodiy asarlarini o‘rganish orqali yuzaga keldi. Shoh va shoir deb ta’rif berilgan Mirzo Bobur o‘z davrining yetuk olimlardan biri edi. Faqatgina she’riyat bobida emas, siyosat va diplomatiya sohasida ham o‘ziga xos yetakchi rahbar bo‘la oldi.

¹ [https:// . uz.wikipedia.org/wiki / Agahiy](https://uz.wikipedia.org/wiki/Agahiy)

Bugungi kunda ko'plab asarlarni o'rganar ekanmiz, uning nasriy va nazmda yozilgan asarlari e'tiborimizni tortdi. Shuningdek, "Boburnoma"ning mumtoz matnlari asosida ko'plab tilga va ba'diy adabiyotga oid qimmatli ma'lumotlar aniqlangani bilan muhim ahamiyatga egadir.

Kalit so'zlar: Mubayyin, Xo'ja Ahror, Boburnoma, Dashtin Qipchoq, Mufassal, Xatti Boburiy, Alisheriy to'qum, Shayboniyxon, Kashmir, Beverij, aruz, Mirzo Haydar, eshon, ma'mura, Turkiston.

O'zbek klassik adabiyotining XV asr oxiri, XVI asr boshlarida yashab ijod etgan atoqli namoyondalaridan Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining qarma-qarshiligi, murakkab va qisqa hayotida anchagina asarlar yaratgan bo'lsa-da, ularning hammasi ham bizgacha yetib kelmagan. Boburning hozirgacha ilmiy xazinasiga kelib qo'shilgan asarlari uncha to'liq bo'lmagan devoni, islom dini asoslarini bayon etuvchi "Mubayyin" nomli she'riy risolasi, "Volidiya" atalgan tasavvufga oid bir kitobining nazm bilan tarjimasi, Bobur ixtiro qilgan va "Xatti Boburiy" nomi bilan mashhur bo'lgan alfavit jadvali hamda "Boburnoma" asaridan iborat.

Mirzo Bobur qilgan ijod merosining eng muhimi va eng yirigi O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan o'sha davr o'zbek klassik adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi bo'lgan "Boburnoma" asaridir. Asarning asli nomi "Boburiya" bo'lsada, uni "Voqeanoma", "Tuzuki Boburiy", "Voqeoti Boburiy" deb ataladigan nomlari ham mavjud. Bu asarning to'liq matni 1857-yilda turkolog H.U. Ilimenskiy tomonidan Qozonda tipografiya yo'li bilan o'zining to'rt betlik nashr prinsiplarini ko'rsatgan ruscha so'z boshi bilan bosilgan. Asarni nashrga tayyorlash va dunyoga chiqarishga olimning ustalik bilan faoliyat ko'rsatganini qayd etish lozim.

Bobur yoshlik yillari asosan Temuriylar imperiyasining yemirilgan, shahzodalar o'rtasida taxt uchun kurash boshlangan davrga to'g'ri keldi. "Tarixi Rashidiy" asarida keyinchalik Mirzo Haydarning (Boburning xolavachchasi) yozishicha, 79 yoshli "Hazrati Eshon"- Xo'ja Ubaydulloh Ahrorga Umarshayx Mirzo xonadonida o'g'il farzand dunyoga kelganini xabar qilinib, unga ism qo'yib berishlari so'ralganda, "Zahiriddin Muhammad" ismini yozib noma jo'natgan. Valiyning aytishicha, o'g'il chaqaloqni tug'ilishi uning tushida ham ayon bo'lgan. Bobosi Toshkent beki Yunusxon unga "Bobur" arabchada "kichkina yo'lbars" deb nom beradi. Bir yildan so'ng Andijonga kelgan Xo'ja Ahror Valiy unga to'liq Zahiriddin

Muhammad Bobur deb nom qo'ydilar¹. Mirzo Bobur tabiatan juda epchil, jismoniy jihatdan juda kuchli, zehnli va mohir davlat arbobi sifatida yoshligidan og'ir sharoitlarga moslashib katta bo'ldi. Tangri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shifoati bilan va chahoryori basofolarning himmati seshanba kuni ramazon oyining beshida tarix sakkiz yuz to'qson to'qqizda Farg'ona viloyatida o'n ikki yoshda podshoh bo'ldum. Farg'ona viloyati beshinchi iqlimdindur. Ma'muraning kanorasida voqe bo'luptur. Sharqi Qoshg'ar, g'arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi tog'lar, shimolida agarchi burun shaharlar bor ekandur, misli: Olmaliq va Olmotu va Yangi kim, kutublarda Tarozkent bitirlar, mo'g'ul va o'zbek jihatdinbu tarixda buzuluptur, aslo ma'mura qolmabdur².

Uning orzusi poytaxti Samarqand bo'lgan Sohibqiron saltanatini tiklash edi. Shu maqsad yo'lida yigirma yilga yaqin kurashdi, lekin temuriylar orasidagi chuqur ziddiyatlar ularni birlashtira olmadi, shu sababli ham saltanat Muhammad Shayboniyxon boshliq Dashti Qipchoq o'zbeklar qo'liga o'tib ketdi. Shunday bo'lsada Bobur to'xtab qolmadi, bir necha yurishlar natijasida Dehli sultonligini egalladi va Shimoliy Hindistonda Boburiylar saltanatiga asos soldi. Bobur hayoti jang-u jadallarda kechgan bo'lsada ilm-fan va qurilish sohasiga juda katta e'tibor qaratgan.

Bilamizki, Bobur va Navoiy bir-birlarini ko'rmagan bo'lsalarda, o'z davrida zamondosh adib va davlat arboblari bo'lishgan. "Boburnoma"ning boshqa bir qisqartirilgan inglizcha tarjima matnida F.G.Talbot 1879-yilda bir parchada Bobur tomonidan Navoiyga berilgan ta'rifni keltirgan: Alisherbek ko'plab foydali ishlarning muallifi va homiyi erdi. Alisherbekni qulog'i og'riganda, boshiga ro'mol bog'lagani uchun bunday maqomda qiyiq bog'lashni "Alisheriy istig'nosi" deb atadilar. Binoiy Hirotdan Samarqandga ravona bo'lish oldidan eshagiga antiqa to'qim buyurganida, buning nomini "Alisheriy to'qum" deb g'alati qildilar³. Bobur ba'zi asarlarini Navoiydan ilhomlangan holda yozgan. Hazrati Boburning "Boburnoma" asari 1905-yilda ingliz sharqshunosi A. Beverij tomonidan asarning Hayraboddan topilgan bir qo'lyozmasining faksimilesini qo'lyozmaning ayni o'zini sinkografiya yo'li bilan nashr etdi. London nusxasining afzalligi shundaki, A. Beverij xonim nusxaning ayni o'zini berib juda yaxshi ish qilgan shu bilan birga asar oxirida mukammal kishi ismlari, geografiya va qabila, urug' nomlari ko'rsatkichi berilgan va ingliz tilida o'n betlik so'z boshi ham bor. Mana shu ikki nusxaga asoslanib, 1848-

¹ Zaxiriddin Muhitdinov. Bobur Mirzo. – Andijon. 2005, 4-5 b.

² Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. -T.:1960. 2-b.

³ G'aybulloh as-Salom, Nematulloh Otajon. Jahongashta "Boburnoma". – T.: 1996. 21 b.

1949 yillarda “Boburnoma”ning ikki qismida iborat to‘liq matni bosib tarqatilgan edi. Shundan so‘ng asarning to‘liq matni 1960-yilda qayta nashrga chiqarilgan.

Yuqorida aytganimizdek, o‘zbek mumtoz adabiyotida Boburning o‘rni boshqacha. O‘rta asr sharqida eng dastlabki tarixchi ayol, Bobur hazratlarining qizi Gulbadanbegim haqli ravishda qayd qilganidek, Sohibqiron zamonidan tortib, Bobur zamonigacha o‘tgan sultonlarning hech biri Bobur singari notinch bo‘lgan emas¹. Boburning ana shu behisob urushlar, muzokaralar toj-u taxt ustida bo‘lgan urushlar orasida badiiy va ma’naviy qimmatli beqiyos bo‘lgan devon tartib berishi, filologik ilmlarning eng mushkuli she’rshunoslik bilan shug‘ullanib, aruz tizimi to‘g‘risida “Mufasssal” degan asar yozgani, Xo‘ja Ahrorga azbaroyi ixlosligidan uning nasr bitilgan “Volidiya” asarini nazmga solib tarjima qilgani, islomning besh arkoniga bag‘ishlab, she’riy yo‘lda ma’rifiy asarlar bitgani, 20 yoshidayoq “Xatti Boburiy” ni ixtiro qilib, bu xat bilan Qur’on Karimni ko‘chirgani, xususan butun musulmon dunyosida ilk bor realistik uslubda avtobiografik memuar asar barpo etgani hayratlanarlidir. Aniqlanishicha, Boburning barcha asarlari leksikasidagi forsha so‘zlar salmog‘i 16,08% tashkil etadi. “Boburnoma” da forsha so‘zlarga asosan 2 xil turkiycha suffiks qo‘shilgan. Bu hodisa tillarni aloqada ekanini yana bir bor ko‘rsatib beradi: Bular, -ilk (-liq, -luq) va -siz.

Bobur o‘zbek tilidagi nutq tovushlari bilan yozuv uslubidagi nomutanosiblikni sezib, mavjud alifboni isloh qilishga kirishadi va 1503-1504 yillarini ko‘zda tutib, “Ushbu mahallarda Boburiy xatni ixtiro qildim”, -deb yozadi. Bobur yozuvida hech bir harf nuqta bilan yozilmagani, soddaligi va qulayligi bilan iste’moldagi alifboga nisbatdan ancha afzalliklarga ega edi. “Boburnoma”da ayrim tovushlar qo‘llanishi va hatto ularda uchraydigan ba’zi jarayonlarni izohlash bilan ham tovushlar tadqiqotchisi ekanligini namoyish etadi. Bu ayni paytda bizga o‘sha so‘zning, hatto ba’zi urug‘larning tarixini belgilash uchun ham qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, u “min” va “sin” ning almashinib qo‘llanishini “Kashmir” nomini izohlash jarayonida juda chiroyli ifodalaydi: “... *bu tog‘ elini kasderlar ... Hindiston eli “min” ni “sin” deb talaffuz qilur. Chun bu tog‘da mu’tabar shahar Kashmir ... Bu jihatdan bo‘la olurkim, Kashmir deyesh bo‘lg‘aylar*”².

¹ G‘ofurova Shahnoza. “Boburnoma” asaridagi tilga oid ilmiy-badiiy topilmalar. — T.: Ilmiy maqola. 3-b.

² Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. — T. Sharq, 1960. 342-b.

Yuqorida ham aytib o‘tdikki, Mirzo Bobur Muhammad Shayboniyxon boshchilik Dashti Qipchoq o‘zbeklariga ham qarshi kurashdi, ammo shahzodalar o‘rtasidagi tarqoqlik sabab, 136 yil hukm surgan Temuriylar saltanati barham topdi. Shayboniyxon o‘limidan so‘ng Bobur yana saltanatni tiklash orzusida Movarounnahrda talpindi. Nihoyat Bobur podshoh hijriy 917-yil (milodiy 1511-yil 31-mart – 29-aprel) Zobuliston lashkari bilan merosiy viloyatlar tomon yo‘l oldi va Badaxshon hududiga yetgach, Sulton Vays Mirzoni o‘ziga qo‘shib, dastlab yurish bayrog‘ini Hori Shodmon tarafga qarab ko‘tardi. Ushbu viloyat beklari Hamza Sulton va Maxdi Sulton voris kelayotganini eshitgach, jangga hozirlik ko‘ra boshladilar. Jangda Bobur g‘alaba qozonib, Hori Shodmon, Xatlon, Qunduz, Bag‘lon viloyatlari Bobur qo‘liga o‘tdi. So‘ng bu g‘alabalarni eshitgan Samarqand hokimi shayboniy urug‘idan Muhammad Temur Sulton va Buxoro hokimi Ubaydullo sulton Turkistonga chiqib ketdilar. Mirzo Bobur poytaxt va Buxoroni jangsiz egalladi va uning uchinchi marta Samarqandni egallashi edi. Lekin tez orada ba‘zi beklar ya‘ni, Najmbek Soniy, Zaynulobiddin Bek, Bodinjon Bek, Xoja Kamoliddin Maxmud Sog‘arjiylar xiyonat yo‘liga kirib Bobur Mirzoga qarshi yurish qildilar, shundan so‘ng Bobur Sulton Ahmadbek va Shoxruhbeklar ko‘magi bilan yurishga otlandilar. Poytaxt va Buxoroni paytdan foydalangan Ubaydullo Sulton va Muhammad Temur Sultonlar egallab oldilar. Hijriy 918-yil (milodiy 1512-yil 19-mart – 17-aprel) da shiddatli janglardan so‘ng Bobur yengildi va Kobulga chekinishga majbur bo‘ldi. Shu tariqa Bobur qayta Movarounnahrda yurish qilmadi, chunki uning tarafdorlari deyarli qolmagan edi, bori ham Ubaydulla Sulton tomonidan qatl etildi¹. Shundan so‘ng Bobur butun umr vatan sog‘inchida yashadi va yaratgan ko‘plab ruboiy, g‘azallarda, shuningdek yozgan asarlarida Movarounnahr, Xuroson, ayniqsa, Farg‘ona o‘lkasini madh etdi. Shu sababli ham uning ushbu ruboiysida vatandan ayriliqda butun umr azoblangani madh etilgan:

*Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.*

Bobur ijodini o‘rganish 1958-yilda yo‘lga qo‘yildi. Sharof Rashidov Bobur ijodini o‘rganish uchun alohida e‘tibor etgan. Uning asarlari nashr etilib, Hamid Sulaymonov Bobur miniatyuralarini nusxasini xorijdan olib kelib nashr qilgan. Sharqshunos Sabohat Azimjonova Bobur hayoti va tarixi

¹ G‘iyosiddin ibn Xumomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. — T. O‘zbekiston, 2013. 1211-1215 b.

to'g'risida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan va fundamental monografiya nashr qilgan. Bobur haqida o'zbek xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar" asarini yozgan. Andijonlik tabiatshunos olim Zokirjon Mashrabov rahbarlik qilgan Xalqaro Bobur jamg'armasi (1993.23.12) Bobur ijodini o'rganishda katta ishlarni amalga oshirdi. Bobur va Boburiylar haqida ma'lumotlar to'planishi asosida 10dan ortiq ilmiy, hujjatli, badiiy asarlar (Mashrabov, S.Shokarimov: "Asrlarni bo'ylagan Bobur"; S.Jalilov: "Boburning Farg'ona davlati", "Bobur Andijon"; Qamchibek Kenja: "Hind sorig'a"; Xayriddin Sultonov: "Boburning tushlari", "Boburiynoma"; Rustambek Shamsuddinov: "Boburiylar izidan", "Boburiylar sulolasi"; T.Nizom: "Uch so'z"), 10 ga yaqin hujjatli videofilmlar (F.Rasulov: "Bobur izidan", "Muqaddas qadamjolar"; T.Ro'ziyev: "Bobur salomi", "Bobur nomidagi Xalqaro ekspeditsiya"; T.Hamidov: "Iftixor") yaratildi.

Xulosa. Ma'lumki, adolatli shoh va buyuk shoir Bobur o'zining ma'lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir hamda ijtimoiy masalalar yechimiga o'z hissasini qo'shgan olim sifatida xalqimiz ma'naviy madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdi. Bir paytning o'zida ham hukmdor, ham buyuk davlat va jamoat arbobi, yirik sarkarda, o'z zamonasining ko'zga ko'ringan shoirlaridan biri, yirik bir davlat asoschisi sifatida tarix zarvaraqlarida abadiy qolish bilan bir qatorda kelajak avlodga o'lmas asarlarini meros qoldirdi. Har birimiz shunday buyuk ajdodimiz borligidan har qancha faxrlansak Monstyuart Elfinston aytganidek: *"Uning uslubi oddiy va mardona, jonli va obrazli. U o'z zamondoshlari qiyofalari, urf-odatlarini va intilishlarini, qiliqlarini oynadek ravshan tasvirlaydi. Shu jihatdan uning "Boburnoma"si Osiyoda yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasidir"*.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Sharq, 1960;
2. G'iyosiddin ibn Xumomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. – T.: O'zbekiston, 2013;
3. G'aybulloh Salom, Nematulloh Otajon. Jahongashta "Boburnoma". – T.:1996;
4. Zaxiriddin Muhitdinov. Bobur Mirzo. – Andijon. 2005;
5. H. Quadratullayev. Boburning adabiy-estetik qarashlari. -T.: Fan, 1983;

IMOM TERMIZIYNING “AL-JOME’ AL-KABIYR” ASARI ORQALI HADIS ILMIGA QO‘SHGAN HISSASI

Yulduz G‘ANIYEVA

TDSHU, Falsafa (Sharq Falsafasi va madaniyati)

yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: O.P. Xamutaliyev

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk muhaddis olim, Abu Iso Muhammad at-Termiziyning “al-Jome’ al-Kabir” asari orqali hadis va hadisshunoslik ilmiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Bu asarning qadr-qimmatini, unga bo‘lgan e‘tibor, shuningdek, ajdodlar merosining, yuksak ma‘naviyatni shakllantirish va rivojlantirishdagi o‘rni xususida fikr yuritiladi. Maqolada kitobning tarkibiy qismlari, hadislar soni, asar haqida olimlar bergan fikrlari to‘g‘risida ham ma‘lumot berib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Hadis, Qur‘oni Karim, Al-Jome’ al-Kabir, Imom Termiziy, Sharq Javohirlari.

O‘zbekiston zaminida butun dunyoga o‘zining bitmas-tuganmas salohiyati-yu, o‘tkir zehni ila ilm ziyosini ulashgan ko‘plab ilm darg‘alari yetishib chiqqan. O‘rta Osiyoning yirik megapolis shaharlari hisoblanmish Samarqand, Buxoro, Xorazm hududlaridan yetuk qomusiy allomalar yetishib chiqdi. Shu jumladan, Termiz ham dunyoga mashhur allomalarni o‘z bag‘rida tarbiyaladi. Ushbu allomalar jahon sivilizatsiyasida betimsol o‘ringa egadirlar.

Shu boisdan ham 2017-yil 14-fevralda Sh.M. Mirziyoyev tomonidan Imom Termiziy Xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish to‘g‘risida prezident qarori e‘lon qilindi. Mazkur Markaz vazifalari; Islom dinining, Qur‘oni Karim va Hadis ilmining asl mohiyatini, Termiziy hamda, Termiziy allomalar, yurtimizdan yetishib chiqqan mutafakkir zotlar merosini har tomonlama chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish, yuksak insoniy g‘oyalar va muqaddas qadriyatlarimizni o‘zida ifoda etgan manbalarni tizimli asosda tadqiq etish kabilardan iborat.¹

Turli mafkuraviy xurujlar avj olayotgan bugungi kunda ajdodlarimizning ma‘naviy merosini chuqur o‘rganish ulardagi ezgu g‘oya va ta‘limotlarni keng xalq ommasiga yetkazish va shu asosda yoshlarda sog‘lom dunyoqarashni kuchaytirish, ularni azaliy qadriyatlarga sodiqlik

¹ <https://lex.uz/>

ruhida tarbiyalash kerakligi uchun ham ajdodlar merosi biz uchun muhim ahamiyatga ega.

Allomalarimizning merosini o'rganish o'tgan asrlarda ya'ni, sobiq sho'rolar davrida batamom to'xtatildi. Ularning ulug' nomlarini xalq xotirasidan o'chirishga urinishdi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng ularning qutlug' nomlari tiklandi, ularning hayoti, faoliyatini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratildi va vaqt o'tgani sayin bu e'tibor kuchaytirilmoqda. Chunki, ona zaminimizda butun dunyoga mashhur bo'lgan muhaddislar, din ulamolari yashab o'tgani, ulardan bizga meros bo'lib qolgan benazir ilmiy boyliklarni yurtimiz aholisiga, o'sib kelayotgan yosh avlod vakillariga va dunyo xalqlari orasida keng targ'ib qilish lozimligi oldimizda turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

So'z Termiziylar xususida ketar ekan, Termiz shahri azaldan bag'rida dunyo tan olgan daholarni tarbiyalaganini yana bir bor ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Shunday daholardan biri Hadis ilmi orqali dunyoga tanilgan, yirik muhaddis olim Imom Termiziy hazratlaridir.

Imom Termiziy milodiy 824-yilda Termizdan unchalik uzoq bo'lmagan Bug' qishlog'ida tavallud topganlar. To'liq ismlari Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn az-Zaxxoq Abu Iso as-Sulamiy az-Zariyr al-Bug'iy at-Termiziydir. Termiziy nomi bilan mashhur bo'lishiga ham asosiy sabab yoshligidan boshlab butun hayoti va faoliyati Termiz shahri bilan chambarchas bog'liqligi bo'lgan.¹

Termiziy qalamiga mansub aksariyat asarlar bizgacha yetib kelgan. "Ash- Shamoil an-Nabaviya", "Al-Ilal fil-hadis", "Risola fil-xilof val-jadal", "At-Tarix", "Kitob az-zuhd", "Kitobul-asmo val-kuna" kabi asarlar shular jumlasiga kiradi. At-Termiziyning asarlari orasida eng mashhuri, shubhasiz, "Al-Jome' as-sahih" bo'lib, u turli nomlar bilan ataladi. Masalan, "Sahih at-Termiziy", "Sunan at-Termiziy", "Al-Jome'" va "Al-Jome' al-Kabiy".² Bular orasida boshqa nomlarga nisbatan kamroq ishlatiladigani "al-Jome' al-Kabiy" (katta to'plam) hisoblanadi. Ushbu nom qadimgi va zamonaviy tadqiqiy asarlarda deyarli qayd etilmagan va ba'zi tadqiqotchilargina bu masalaga jiddiy yondashgan holda bu nomni aniqlashgan. Ushbu kitobning muhim tadqiqiy nashrida 3956 ta rivoyat keltirilgan va aynan shu nom bilan atalgan.³

Mazkur asarning yuqorida keltirilgan nomi bugungi kunda ko'pchilikka ma'lum emas. Shu sababli ham, tadqiqotlar va izlanishlar, ilmiy

¹ "Ikki ulug' Donishmand". Toshkent. 2016, B-16

² Buyuk Allomalarimiz. Toshkent. 2002, B-19-20

³ Imom Abu Iso Termiziy. "Kitob ul-Ilal". Toshkent. 2018. B-21-23

maqolalarda kitobning bu nomini qo'llash orqali uni keng ommaga tanishtirish mumkin.

1992-yilda chop etilgan Sharqshunos olimlar Shamsuddinxon Boboxonov va Abdusodiq Irisovlarning qalamlariga mansub "Hadis ilmining peshvolari" nomli risolasida keltirilishicha, Imom at-Termiziyning "Kutubi sitta" (Olti kitob) mualliflari orasida tutgan o'rnini belgilash borasida ko'pchilik ulamolar o'z fikr va mulohazalarini bildirganlar. Jumladan, Turk olimlaridan professor Tal'at Ko'jyigitning ko'rsatishicha, Termiziyning an-Naso'iy va Abu Dovud tarafidan zaif deb hisoblangan ba'zi roviylardan ham hadis keltirgani sababli, darajasi bu ikki allomadan ham yuqoriga ko'tariladi.¹

Mana shu o'rinda ham, Termiziyning diniy ilm borasida, Hadis ilmi borasida naqadar yuksak o'rinni egallaganini bilishimiz mumkin. Hadis ilmi yuzasidan asarlar yozgan, ularni to'plashga harakat qilgan olimlar ham talaygina. Imom Termiziy esa bu borada ulardan ancha odimlab ketgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

G'ulomxon G'afurovning "Sharq Javohirlari" deb nomlangan badialarida yozilishicha, Imom Buxoriy va Muslimning "Al-Jome' as-Sahih" kitoblari birinchi va ikkinchi o'rinda tursa, Imom Termiziyning "Al-Jome' al-Kabir" kitobi ulardan so'ng uchinchi o'rinda turadi. Bu fikrni mashhur "Kashf az-Zunun" asari muallifi Xo'ja Xalifa ham tasdiqlaydi.

Imom Abu Ismoil Abdulloh ibn Muhammad al-Ansoriy at-Termiziyning kitobini al-Buxoriy va Muslimning kitoblaridan ham yuqori qo'yadi. Zero, uning aytishicha, al-Buxoriy va Muslimning kitoblaridan faqat olimlarga foydalanadilar, at-Termiziyning kitobi esa, har bir oddiy inson uchun foydalidir.²

Ushbu jarayonda Imom Termiziyning dunyo olimlari tomonidan qiziqish va ishtiyoq bilan o'rganilganining va tadqiq etilganing guvohi bo'lamiz.

Abu Iso Termiziyning shoh asari bo'lmish "al-Jome' al-Kabir" olim mashaqqatli mehnati mahsuli sifatida katta ahamiyatga ega. Avvalo shuni aytish kerakki, muallif o'z asarini alohida-alohida boblarga bo'ladi, imkoni boricha har bir hadis roviylarini keltiradi. Har bir Hadisdan keyin uning ishonchli yoki ishonchsizlik darajasini aniqlab alohida ko'rsatadi. Shular bilan bir qatorda asarda pand-nasihat, axloq-odob, go'zal xulq-u fazilatlar xususida ham juda ko'p hadisi-shariflar keltirilganki, bu darajadagi hadislar hech bir muallif asarida uchramaydi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Tarkibiy jihatdan

¹ G'ulomxon G'afurov "Sharq Javohirlari" Toshkent 2000. B-22-23

² G'ulomxon G'afurov "Sharq Javohirlari" Toshkent 2000. B-22-23

asar quyidagi boblarga bo‘linadi. Undan tahorat, salot (namoz), zakot, ro‘za, haj, janoza, nikoh, savdo-sotiq, qozilik ahkomlari, tovon to‘lash, me‘yor, sayd, qurbonlik, iymon, siyratlar, jihod, kiyim-kechak, taomlar, ichimliklar(al-ashriba), xayr-ehson va saxovat, tabobat, farzlar, jannat va jahannam, vasiyatnomalar, xuruji fitnalar, odob va axloq, qiroat, tafsir, duolar, manoqiblar (fazilatlar), shahodatlar, illatlar haqidagi boblar keltirilgan.¹

Termiziy asarlarining boblarga bo‘lingan holatda tasnif etilishi bu bir katta ilm hisoblanadi. Boblarning asarda sarlavha ko‘rinishida bo‘linganligini, shundan so‘ng o‘sha sarlavhaga tegishli mavzudagi hadislar ketma-ketlikda joylashtirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu jihat ham o‘z navbatida asarni o‘qiyotgan kishining tushunishini osonlashtiradi deyishimiz mumkin va o‘z davri uchun bu ish muallifning ne chog‘li salohiyat egasi ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, asarda fiqh masalalariga ham katta e‘tibor qaratiladi. Ma‘lumki bu davrda boshqa ilmlar qatorida fiqh ilmi ham keng rivojlangan. Nafaqat din mavzusida yozilgan asarlarda balki, boshqa turli sohalarga doir asarlarda ham fiqh masalasiga katta e‘tibor qaratishgan.

Hadis ilmiga doir asarlarda ahkom masalalarini o‘rganish hijriy ikkinchi asrda Imom Molik ibn Anas davridan boshlanadi. Imom Buxoriy esa o‘zining “as-Sahih” asarida fiqhiy masalalarga alohida e‘tibor berib uni batamom yuqori cho‘qqiga ko‘taradi. Undan so‘ngra, uning shogirdi bo‘lgan Termiziy bu sohaga qo‘l uradi. Bu paytga kelib, fiqh ilmiga oid ko‘plab asarlar yaratilib, bu ilm anchayin rivojlangan bo‘lishiga qaramasdan, Termiziy shoh asari bo‘lmish “al-Jome’ al-Kabiyr” da o‘ziga xos uslub qo‘llaydi. Muallif fiqhiy masalalar va ahkomlarni o‘z boblari mazmuni jumlasiga kiritadi. Fiqh olimlarining fikr-mulohazalarini keltirib, turli-tuman mazhablardan ogoh qildi, ba’zi hollarda esa ulardan eng maqbuli va afzallarini ajratib ko‘rsatdi. O‘z asarlarida ahl al-ilm nazdida qabul bo‘lgan hadislarga tayangan holda fikr yuritdi. Fiqhiy masalalarda Imom at-Termiziy uslublarini umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

- tarojumlarga e‘timod qilish;
- bob mazmunida ulamo va roviylar fikrini hadislarda ifoda etish;
- g‘oyalar o‘rtasida afzallarini alohida ko‘rsatish;
- boblarni ulardan kelib chiqadigan ahkomlarga asosan turlarga bo‘lish.

Shuningdek, yuqorida aytib o‘tilganidek, asar nafaqat qator mazhabiy ta‘limotlar, ayni vaqtda ulamolar o‘rtasidagi ixtilofiy masalalarni har

¹ Ubaydulla Uvatov “Ikki Ulug‘ Donishmand” Toshkent. 2016. B-18-19

tomonlama o'rganishda ham alohida ahamiyatga molik edi. Shu bois bu asar haqida "Ixtilofli masalalar haqida bizgacha yetib kelgan eng qadimiy manba" deb alohida ta'kidlanadi. Imom at-Termiziy asarining o'sha mazhab sohiblari va peshvolari yashagan davrda vaqt jihatidan yaqinligi asarga ishonchli manba sifatida qarashni taqozo etadi. Chunonchi, asardagi naqlar imkon boricha kamroq xatoga yo'l qo'yilib, keyin yozilgan asarlarga nisbatan unga afzallik berdi. Termiziy, fiqhiy masalalarda faqihlarning qavmlarini- fikr qarashlarini ko'p bor zikr qiladi, dalillarga ishorat etadi. Asosan, hadis ilmlarining haqiqiy g'oyasi va maqsadi istidlol, ya'ni dalil keltirish hamda bekam u-ko'st ittibo etish-ergashish va amal qilish uchun asos bo'ladigan hadislarni aniqlab tayin etishdir¹.

"AL-Jome' al-Kabir" asariga ko'plab olimlar va din ulamolari o'z sharhlarini bitishadi. Bu jihat ham kitobning qimmatini oshiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Jumladan, bugungi kunda asar qo'lyozmalari dunyoning bir qancha shaharlarida, shuningdek, o'zimizda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik qo'lyozmalar institutida ham saqlanmoqda. Bu kitob muhim manba sifatida bir necha bor nashr qilingan. Bunga dalil sifatida Mitohda, Bayrutda, Qohira nashrlarini keltirishimiz mumkin. Termiziyning bu asariga ko'plab sharhlar bitilgan bo'lib, ular orasida eng mashhurlari Ashbilyning "Oridat al-Ahfaziy ala kitob at-Termiziy", Abdurahmaon al-Muborakfuriy qalamiga mansub "Tuhfat ul-Ahfaziy bisharhi at-Termiziy", Bakr as-Suyutiyning "Qut al-mug'taziy ala jomi' at-Termiziy sharhlarini keltirishi mumkin."²

Ko'rinib turibdiki, Termiziy asariga dunyoning qaysi burchagida bo'lmasin qiziqish katta. Uni o'rganishga bo'lgan talab va ehtiyoj yuqori.

Imom Termiziyning shunday buyuk darajaga erishishida ustozlarining ham xizmatlari beqiyos albatta. U kishi ustozlarining merosini davom ettirdi. Bejizga ul zotning buyuk ustози va zamondoshi Imom Buxoriy "Sen mendan bahra topganingdan ko'ra men sendan ko'ra ko'proq bahra topdim" deya Termiziyga baho bermagan.

Abu Iso Termiziy asarida hadislarni bir necha turlarga bo'lib tasnif etishini guvohi bo'lamiz.

Garchi Hadisga nisbatan sahihdan quyi darajada turuvchi "Hasan" lafzini birinchi bor Ali ibn Madiniy, keyin Imom Buxoriylar ham ishlatishgan bo'lishsa-da, uni ma'lum shartlarga ega istiloh darajasiga ko'targan va asarida ishlatgan shaxs Imom Termiziydir. Uning asari esa

¹ Ubaydulla Uvatov. "Ikki Ulug' Donishmand". Toshkent. 2016. B-34-37

² Ubaydulla Uvatov. "Ikki Ulug' Donishmand". Toshkent. 2016

“Hasan Hadis” borasida darslik o‘rnidagi manba hisoblanadi. Shu jihatdan “al-Jome’ al-Kabiy” rivoyatlari sahih, hasan va zaifga bo‘lingan eng avvalgi kitobdir.¹

Termiziyning o‘zining “al-Jome’ al-Kabiy” asarida “Hasan hadis” borasida fikrlar berib o‘tgani, o‘z tajribalari va amaliyoti orqali boyitgani uchun ham bu ishni islom, hadis atamashunosligi doirasida qo‘shgan hissasi deyish mumkin.

Hofiz Abul-Fazl al-Maqdisiy, Termiziyning kitobini o‘ta tanqidiy nazar bilan tadqiq etganidan keyin, bunday deydi: “Abu Iso(Termiziy)ning kitobida to‘rt qism hadislar o‘rin egallagan;

1. Sahih ekanligi qat’iyan qabul qilingan hadislar qismi; bu qismdan Buxoriy va Muslinga muvofiqat qilingan hadislar o‘rin olgan;

2. Uchlik shartiga asoslangan hadislar qismi; (uchlik- Abu Duvud, An-Naso’iy va Ibn Moja nazarda tutilgan) Bu qismdagi hadislar toliq ya’ni ikkinchi darajalidir;

3. Ziddiyat qismi, bu qismdagi hadislarning illatlari ochilgan va bu borada qattiq talabchanlik namoyon qilingan;

4. Bu to‘rtinchi qism hadislar borasida (Termiziy) “Ushbu kitobimda faqatgina faqihlar(olimlar) amal qilgan hadislarni taxrij qildim” deydi. Bu shartning hududi keng. Shu asosga tayanib, Termiziy bir olim kishi hujjat sifatida qabul qilgan yoki kerak bo‘lganda amal qilgan hadisni uning sanadi xoh sahih bo‘lsin, xoh bo‘lmasin, lekin o‘zi haqida kerakli izohni berib, ko‘ngillarni xotirjam qiladi.²

Maqdisiyning tanqidiy nazar asosida qilgan tahlilidan so‘ng yana bir bor shu narsaga amin bo‘lamizki, Termiziy asosan, uning rostligi hech bir qarshiliksiz qabul qilingan hadislarni keltiradi va u keltirgan bu hadislar olimlar tomonidan qo‘llanilgan. Termiziy muhaddislar tomonidan biror manbada sahih yoki nosahih hadisni keltirar ekan, ularni hech qachon izohsiz qoldirmaydi. O‘z navbatida bu ish ham Termiziyning hadisini o‘qiyotgan kishida tushunmovchilik va chalkashlik tug‘dirmaydi va qimmatini yana bir karra oshirishga xizmat qiladi.

Nafaqat Imom Termiziy hayoti va asarlari, shu jumladan, Jahon xalqlari tanigan “boqiy madaniyat sarchashmalari” hisoblangan buyuk daholarimiz haqida ma’lumot beruvchi, G‘ulomxon G‘afurovning “ Sharq Javohirlari” kitobidan o‘rin egallagan quyidagi fikrlar ham “al-Jome’ al-Kabiy” ning islom olamida tutgan yuksak mavqe’idan dalolat beradi.

¹ Imom Abu Iso Termiziy. “Kitob ul-Ilal”. Toshkent. 2018. B-19

² Imom Termiziy. “Sunani Termiziy”. Toshkent. 1999

Ulamolar rivoyat qiladilarkim, kimning uyida Imom at-Termiziyning “Jome’” “kitoblari tursa uning uyida payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) gapirib turgan bilan barobardir. Chunki, Imom at-Termiziy payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) so‘zlarining eng sahihlarini-durlarini terib kitob qilganlar. Shu boisdan ham Termiziy kitoblarini o‘qigan, tushungan, unga amal qilgan odam payg‘ambarimiz sunnatini tushungan, unga amal qilgan bo‘ladi.¹

Demak, “al-Jome’ al-Kabiyr” ni o‘qish va o‘rganish orqali o‘zimiz uchun faqatgina foyda va manfaatlar olishimiz mumkin. Bunday foydali bilimlarni o‘rganish orqali inson o‘zining din borasidagi va turli bahsli mavzular yuzasidagi fikrlarini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Imom Termiziy mazkur asari orqali hadis ilmiga beqiyos hissa qo‘shdi. Bizning vazifamiz esa asarni ommalashtirish va keng ommaga yana ham izchil targ‘ib etish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, o‘z tarixi, o‘tmishi, ajdodlarini bilgan va ularning ma’naviy merosini anglagan millatning kelajagi ham shunga mutanosib ravishda buyuk bo‘ladi. Buyuk kelajak barpo etish va dunyo miqyosida o‘z o‘rnimizga ega bo‘lish maqsadida, mustaqillikdan so‘ng ajdodlarimizning nomlarini, ularning o‘rganilmay qolgan merosini izchil o‘rganish va tadqiq etish ishlari boshlandi. 2014-yil may oyida Samarqandda o‘tkazilgan “O‘rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning nutqi davomida ajdodlarimizning merosi butun dunyo mulki ekanligini ta’kidlagan bo‘lsa, shu yilning 28-noyabrida al-Hakim Termiziy ziyoratgohiga tashriflari chog‘ida termiziylarning ilmiy merosini tadqiq etish va sodda va ommabop uslubda keng xalq ommasiga yetkazish bo‘yicha o‘z ko‘rsatmalarini berib o‘tganligi masalaning muhim va dolzarbligini yana bir bor namoyon etdi. Bundan tashqari termiziylarning ilmiy merosini tadqiq etish asarlarini tarjima qilish bo‘yicha amaliy grant loyihalar e’lon qilindi va bu sohada bugungi kunda soha mutaxassislar qizg‘in ish olib borishmoqda. Mana shu kabi ilmiy meroslar yoshlarning kelajakda qilishlari mumkin bo‘lgan kashfiyotlarida dastur-ul amal bo‘lib xizmat qilsa ajab emas. Imom Termiziy va boshqa allomalar qoldirgan ilmiy boyliklardan oqilona foydalangan holatda, o‘z navbatida biz ham ularga munosib avlod bo‘lishga harakat qilmog‘imiz lozim. Eng muhimi bu ilmiy meroslarning nechog‘lik ahamiyatga ega ekanligini bilishimizda.

¹ G‘ulomxon Gafurov. “Sharq Javohirlari”. Toshkent. 2000. B-23.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Imom Abu Iso Termiziy. "Kitob ul-Ilal". Toshkent 2018.
2. Buyuk Allomalarimiz. Toshkent 2002.
3. G'ulomxon G'afurov. "Sharq Javohirlari". Toshkent. 2000.
4. Ubaydulla Uvatov. "Ikki ulug' Donishmand". Toshkent. 2016.
5. Imom Termiziy. "Sunani Termiziy". Toshkent. 1999.
6. <https://lex.uz/>

HURUFIYLIK TA'LIMOTI VA UNING FALSAFIY KATEGORIYALARDA AKS ETISHI

Ahrorjon OQILOV

*TDSHU, Sharq falsafasi va madaniyati yo'nalishi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD, L.A. To'rayev*

**Har ne yerda, osmonda, odamda bor,
Haq so'zin fahm etmagan odamda bor**

Nasimiy

Annotatsiya. Mazkur maqola Kavkaz mintaqasi va Kaspiy dengizi atrofida keng tarqalgan Sharqning mashhur tariqati bo'lmish hurufiylik ta'limotining falsafiy nuqtayi nazari hamda hurufiylik ta'limotning adabiy, diniy, falsafiy qarashlardagi ta'sirini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Hurufiylik, Shihobiddin Fazlulloh Naimiy, antropotsentrizm, "Vahdat ul-vujud" Mansur Halloj, "Sarzamin-e restaxiz", antropomorfizm.

Islom ta'limoti ichida tasavvuf alohida o'rin tutadi. Bu yo'nalish keyinchalik musulmon aholi hayotida ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy jabhalarda keng o'rin tutdi. XIV asrda paydo bo'lgan hurufiylik ta'limotining asosida ham tasavvuf asosiy o'rinni egallaydi. Uning asoschisi Shihobiddin Fazlulloh o'z asarlarida ijtimoiy muhitdagi tariqatlarga muqobil variant sifatida ruhiy tarbiyadan foydalanadi.

Hurufiylik oqimi XIV asrning so'nggi choragida hozirgi Eron davlatining shimoli-g'arbiy qismida joylashgan Tabriz shahrida paydo bo'lgan. Ta'limotga asos solingan joyga hurufiylar "Sarzamin-e restaxiz" ya'ni "Uyg'onish zamini" degan nom berilgan. Hurufiylik arabchadan tarjima qilganda harflar degan ma'noni ifoda qiladi. Ta'limot asoschisi Shihobiddin Fazlulloh hisoblanadi. U bir vaqtning o'zida mashhur shoir

bo‘lib Naimiy taxallusida she‘rlar bitgan. XIV asrda ham Muhyiddin Ibn Arabiyning “Vahdat ul-vujud” ta‘limoti islom diyorlarida keng yoyilgan edi. Shihobiddin Fazlulloh ham o‘z ta‘limotini yaratishda ibn Arabiydan ta‘sirlandi. Hurufiylik ijtimoiy muhitda hukm surayotgan bo‘hronlar va urushlardan aziyat chekayotgan xalqni xotirjam qilish uchun dastak vazifasini bajardi.

Hurufiylik ta‘limoti quyidagi asoslarga tayanadi:

- Harflar va raqamlar o‘zida ramzlarni jamlagan;
- Qur‘oni Karim suralarini abjadiy hisoblar bilan tafsir qilish mumkin;
- Alloh makondan mutlaqo holi.

Hurufiylik botiniy tariqat hisoblanadi. Unda doimiy yetakchisi bo‘lmasa-da, g‘oyaviy birlik bilan mustahkamlangan. Hurufiylik ta‘limotiga ko‘ra Alloh taolo Qur‘oni Karimni arab tilida nozil qilgani bejiz emas. Hurufiyalar Qur‘oni Karimda keltirilgan “*hurufi muqottaot*” ya‘ni ma‘noda uzilgan harflarni mutashobih ya‘ni turli ma‘nolarni qabul qiluvchi oyatlar sifatida qabul etishmagan, balki bular ham mahkam ya‘ni ma‘nosi aniq oyatlar sirasiga kiradi degan da‘voni qilishgan. Fazlulloh o‘zining “Jovidonnomma” asarida bu harflarga xos ma‘nolarni berib ta‘vil qildi. Fazlulloh ma‘nodan ajralgan harflarni talqin qilgani uchun uning ismiga “*sohibi ta‘vil*” nomi qo‘shib aytiladigan bo‘ldi. Bu harflarning soni 14 ta bo‘lib, aynan mana shu harflar orqali inson yuzidagi a‘zolar tasvirini hosil qilish mumkin degan xulosaga kelishgan. Bunday g‘oya islom mintaqalarida keng tarqalgan xattotlik san‘atini o‘ziga asos qilib olgan.

Hurufiylik ta‘limoti vakillari Fazlullohni juda yuksak maqom sohibi deb hisoblaganlar. Uning qalamiga mansub “Jovidonnomma” asari Qur‘oni Karimning tafsiri sifatida o‘rganildi. Asarni olti qismga bo‘lib tadqiq etish mumkin. Bular:

Birinchi qismda: Naimiyning diniy qarashlari va fikrlari, ba‘zi ilohiyot masalalari muhokama qilinadi,

Ikkinchi qismda koinot, osmon, yer, oy, quyosh va alomatlarining yaratilishi haqida ma‘lumotlar berilgan;

Uchinchi qismda: Odam Ato va Momo Havvoning va boshqa mavjudotlarning yaratilishi;

To‘rtinchi qismda: qiyomat va qayta tirilish bayonn etiladi;

Beshinchi qismda: payg‘ambarlarning yuborilishi, Iso alayhissalom va shar‘iy talqinlar keltiriladi;

Oltinchi bob, Alloh taoloning sifatlari va sirlarini kashf qilish bilan yakunlanadi.

Hurufiylik ta'limoti harflar va raqamlarga ramziy ma'nolar berish orqali Pifagor tomonidan ilgari surilgan dunyoning asosini raqamlar tashkil qiladi degan fikrga o'xshashlik kasb etadi. Bu fikr o'zining hujjati sifatida Qur'on oyatlariga murojaat qiladi. Qur'oni Karimning "Yosin" surasi 82-oyatida keltirilgan: «Biron narsani iroda qilgan vaqtda Uning ishi faqatgina bo'l demoqlikdir. Bas, u bo'lur». Hurufiyalar mana shu oyat butun koinot ك va ن misolida jamlanganiga dalolat qiladi degan ma'noni berishdi.

Hurufiyalarning e'tiqodida olam arab tilidagi ك va ن harflarida jamlanadi. Shu bilan birga har bir maxluqot o'z mohiyatiga ko'ra harflar natijasidir. Bu harflardan hosil bo'lgan so'z (كُنْ) arabchada "bo'l" degan ma'noni anglatadi. Hurufiyalar nuqtai nazari borliqni harflar orqali anglashga qaratildi. Qur'on Karimda keltirilgan oyat va suralarni jamlab emas balki, harflarga ajratgan holda har bir harfga diqqatini qaratgan kishi bu harflarda Allohning vasliga yetishish imkoni borligini ta'kidlaydi. Allohning nutqi ham Uning boshqa sifatleri kabi abadiy va azaliydir. Shu sababdan Kalomning ma'rifatiga yetgan inson Allohning ma'rifatiga yetishib unda Allohdan o'zga hech narsa qolmaydi. Bu esa mutasavviflar istilohi bilan aytganda "jam ul-jam" holati hisoblanadi. Buning tarixiy ko'rinishi Husayn Mansurda yuz bergan holatga qiyos qilingan vaziyatlarni takrorladi. Nasimiy misolida mansur Halloj obrazi namoyon bo'ladi. Zohiriy nuqtai nazar bunda xulul aqidasining ya'ni Alloh inson bilan birlashib ketishini namoyon qildi.

Hurufiylik jamiyatdagi mavjud tahlikali vaziyatlarda insonlarga osoyishtalikni bu orqali taqdim qilishi o'sha vaqtdagi antropomorfizm g'oyalarining inson darajasining yuqoriligini isbot qilish uchun qo'llanilgan bir ko'rinishi deb qarash ham mumkin. Bu ish asosan nazmiy yo'l bilan amalga oshirildi. Naimiy va uning shogirdlarining asosiy mashhurlik omili ularning taniqli shoirligida edi. Ta'limot ko'proq turkiyzabon o'lkalar Kaspibo'yi shaharlari, Bolqon va Kichik Osiyo mintaqalariga o'zining she'riy baytlarda qo'llanilgan nazokatli poeziyasi orqali xalq ichiga singib bordi. Misralar asosiga insonning yuqori maqomda ekanligi u o'zining ma'rifati orqali farishtalik maqomidan yuqoriga ko'tarilish g'oyasi ilgari surildi. Matnlar asosan didaktik usul bilan tarqatilib u og'izdan og'izga o'tish yo'li bilan yoyildi.

Biroq bu qarashlar o'sha davr muhitidan kelib chiqib qabul qilinmadi. Hukumat qonunchiligi va ulamolarining umumiy qarashlari hurufiylik ta'limotining zohiriy aqidasiga zid keldi. Xususan, islom ulamolari Alloh taoloning zoti va sifatleri to'g'risida bahs qilish nojoiz ekanligini ta'kidlashgan. Faqatgina bunday bahslar jamiyatda buzuvchi aqidalar paydo bo'lgan holatdagina amalga oshirilishi mumkin. Hurufiylik ta'limotidagi

xulul aqidasi islom fiqhiga ko‘ra ma’qullanmaydi. Buning oqibati ko‘p hurufiylarning jamiyatdagi mavqeyiga ham putur yetkazdi. Hurufiy ta’limoti a’zolari o‘zlarini “*Ihvon as-safo*” kabi yashirin tutishga intilgan. Ularning ta’limot vakili ekanligini aniqlash ularning she’rlari va yozgan asarlarida namoyon bo‘ladi.

XXI asrda hurufiylikni tadqiq qilgan olim Fatih Usluening qaydlariga ko‘ra hurufiylik islomning shar’iy hukmlariga bo‘ysunishni har qachon qo‘llab quvvatlagan. Ta’limot asoschisi Shihobiddin yaratgan asarning mohiyati aynan islomning bosh manbasi Qur’oni Karim va undan keyingi manba hadisi sharifni qat’iy tutish hamda fiqh asoslariga rioya qilishga chaqirganligini ta’kidlaydi. Hurufiylik ta’limoti ahli sunna val jamoa e’tiqodining imomlariga ergashadi, ahli baytga hurmat bilan qaraydi. Hurufiylarning asarlarida shofe’iylik manbalaridan ham foydalanganlik holati uchraydi. Bunday umumlashma hurufiylik islom asoslariga zid agressiv ta’limot emas, balki unga rioya qilib ijtimoiy holatlarga o‘ziga xos yondashuvni taqdim etgan yo‘nalish sifatida targ‘ib qilingan.

Xulosa qilib aytganda, hurufiylik birinchidan, tasavvuf va falsafaning kategoriyasi sifatida jamiyatga o‘zining diniy va axloqiy ta’sirlarini o‘tkazishi orqali unga ergashuvchilar ijtimoiy muhitda ishonchli va halol kishilarni tarbiyaladi.

Ikkinchidan, ta’limot vakillari ijtimoiy ongni adabiy janr orqali o‘stirishga, xalq orasida noodatiy fikrlarni shakllantirishga harakat qildi.

Uchinchidan, hurufiylik o‘zida eklektik g‘oya va fikrlarni umumlashtirib yaxlit tizim holiga keltirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolar tarjimasini. T.: 1991
2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 5-juz. T.: 2008
3. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. Ziyouz.com
4. Fatih Usluer. Hurufilik. Istanbul. 2009
5. Nizomiy diniy falsafiy ta’limotida Haqni va shaxsni anglash. “Ilm va tahsil” nashriyoti. Baku-2022
6. O‘zbekiston-islom sivilizatsiyasi markazi. Ma’naviy, ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal. 2019-yil 1-son
7. Falsafa va hayot xalqaro jurnal. 2021 № 3 (14)
8. Vahdat ul-vujud ta’limoti va bu ta’limot namoyondalarining Alisher Navoiy ijodiga ta’siri. Cyberleninka.ru

9. Nəsiminin yaradıcılığında hürufi görüşlər. [www. millikitabxana.az](http://www.millikitabxana.az)
10. Alisher Navoiy. Holoti Pahlavoni Muhammad. Ziyouz.com
11. Отражение суфийско-хуруфитского мировоззрения в творчестве насими. Н. Мамедов-тагисой. Филология и человек. 2019. № 4
12. Sacide Gökmen. Hurûfîlik ve misâlî'nin bir gazelinin hurûfîlik bağlamında şerhi. JOSR April-2017 Volume:9 Issue:1 (17)

DAOSIZMDA INSON, TABIAT VA JAMIYATNING UYG'UNLIGI FALSAFIY TAHLIL

Zaynabxon MIRZOYEVA

*TDSHU, Sharq falsafasi va madaniyati yo'nalishi
4-kurs bakalavr*

Ilmiy raxbar: f.f.d., prof. E.M. Izzetova

Annotatsiya: Maqolada xitoy falsafiy maktablaridan biri bo'lmish Daosizm maktabida inson, tabiat va jamiyatning uyg'unligi falsafiy taxlil qilinadi. O'sha davrdagi raqobatchisi bo'lgan konfutsiylik maktabidan asosiy farqlari, tabiat qonuni daoni Daosizmdagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Daosizm (道教), Lao Tszi 老子, dao, "Dao de tszin", Konfutsiylik, borliq, inson, jamiyat, In va Yang, kosmonogiya, Chuan Tszi, Chi yoki qi.

Shundan iboratki Daosizm (道教) miloddan avvalgi birinchi mingyillikning o'rtalarida Xitoyda paydo bo'lgan falsafiy ta'limot sanaladi. Dastlab din bilan hech qanday aloqasi bo'lmagan, konfutsiylik dini bilan bir paytda vujudga kelgan. Daosizm ta'limoti tarafdorlari urushlarni qoralagan, ular oldingi davrga ya'ni "Oltin asr"ga qaytish tarafdorlari bo'lishgan. "Daosizm vujudga kelganda ko'proq nazariyadan ko'ra amaliyotga bog'liq edi. Bular shamanizm, folbinlik, tabiblik bilan aloqador bo'lgan. Shamanlar davolash uslublarida inson tanasidagi jarayonlari ilohiy kuchlar, ruhlar bilan bog'liq deb o'ylagan va davolash uslublarida sehrdan foydalangan"¹. Keyinchalik daosizmdaham nazariyalar paydo bo'la boshladi. Daosizmning boshqa dinlardan farqli tomoni ijtimoiy, siyosiy, axloqiy masalalar muhim sanalmagan. Daosizmda inson omili birinchi o'rinda turadi. Daosizm vakillari ilk bor borliq, tabiat va koinot haqidagi tushunchalarni ishlab chiqa

¹ Lao Tzu. Tao Te Ching. – Shambhala, 2007. 127-p

boshladilar. Ular inson va uni o‘rab yurgan olam haqida izlanishlar olib bordilar va risolalar yozdilar. Bu asarlar hozirgacha saqlanmagan bo‘lsa-da daosizmning asosiy manbasi “Dao de tszin” kitobi sanaladi uning muallifi Lao Tszi 老子. Lao Tszi VII asrda tug‘ilgan, Konfutsiyning zamondoshi hisoblanadi. “Dao De Ching” yoki “Yo‘l va uning kuchi” miloddan avvalgi III va IV asrlarga oid she‘rlar va so‘zlar to‘plamidir. Bu daosizm fikr va harakatlarni boshqaradi. Muallif an‘anaviy ravishda faylasuf Lao Tszi ekanligiga ishonilgan bo‘lsa-da, Lao Tszining umuman mavjud bo‘lganligi haqida juda kam dalil mavjud. Aksincha, Dao De Ching- bu ko‘plab mualliflarning oldingi so‘zlari to‘plami. Bu kitob madaniy va siyosiy sabablarga ko‘ra faylasuf Lao Tszi bilan kelib chiqqan. Lao Tszi ba‘zan dao yoki xudoning timsoli sifatida tushuniladi va unga afsonaviy maqom beriladi”¹. Lao Tszi ta’limotiga ko‘ra tabiat, jamiyat va butun borliqning asosi ulug‘ dao 道 hisoblanadi (dao, tao- *haqiqat, yo‘l, tartib*) deganidir. Lao Tszi g‘oyasiga ko‘ra insonlar hech narsaga tegmasliklari kerak. Uning fikricha taraqqiyot pasdan yuqoriga emas, doira bo‘lib harakatlanadi va u ibtidoiy jamoa tuzumining tarafdori bo‘lgan. Chunki o‘sha davrda inson xohishlari kam bo‘lgan va hayot tartiblari oddiy bo‘lgan.

Lao Tszi tabiatga qaytishni targ‘ib qilar ekan, insonlar uning qonunlari va tamoyillariga amal qilib yashashlari kerakligini uqtiradi. Lao Tszi ta’limotida tinchlik bor, u tinchlikni o‘rnatish va kurashning to‘xtatilishi tarafdori bo‘lgan. Shuning uchun ham daosizm inson va tabiat o‘rtasidagi munosabat asosiy o‘rinni egallaydi. Daosizm vakillarining inson va tabiat bir deb hisoblagan tamoyillari natijasida dao vujudga keladi. Lao Tszi hamma narsada dao bor ya’ni ularning manbai daodir degan fikrlarni ham ilgari surgan. “Lao Szi ta’limotida barcha narsalar o‘zgarib turadi, lekin muayyan bosqichga erishgach, o‘zining aksiga qaytadi, kishilar xatti-harakat, intilish, kurashlardan voz kechishlari, ortiqcha sarf-xarajat, hashamatga yo‘l qo‘ymasliklari, yashash tarzini esa oddiylik, soflik belgilashi lozim”². Daosizm- qadimgi Xitoydan kelgan din va falsafa bo‘lib, xalq va milliy e’tiqodga ta’sir ko‘rsatgan. Daosizm odamlar va hayvonlar dao yoki koinot bilan muvozanatda yashashlari kerak, deb hisoblaydi. Daosizm vakillari ruhiy boqiylikka ishonadilar, bu erda tananing ruhi o‘limdan keyin koinotga qo‘shiladi. Daosizm holat bu harakatsizlik, tabiiy yo‘ldan boradigan to‘liq tinchlik, to‘liq hissiy xotirjamlikni nazarda tutadigan doimiy holati. Lao Tszining izdoshi Chuan Tszini dao shunday narsaki uni bilgan kishi barcha narsani tushunadi degan.

¹ Anthony C.K. I Ching, The Oracle of the Cosmic Way. — Ichingbooks, 2002. 232-p

² O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. 437 bet.

Daoni umumbashariy qonun deb e'lon qilgan Lao Tszi dao o'z vazifalarini mutlaqo tabiiy ravishda bajaradi va uning ishtirokisiz paydo bo'lgan biron bir obyekt yoki hodisa yo'q, deb hisoblaydi, u hech qanday mavjudotni o'sishga majburlamaydi, uning hayotiga aralashmaydi, hamma narsaga ruxsat beradi. Tabiiy ravishda rivojlanish, dao doimo qarama-qarshi tomonga harakat qiladi, o'z rolini muloyimlik bilan bajaradi, u abadiydir, mustaqil ravishda mavjud va tinimsiz harakat qiladi, hamma joyda paydo bo'ladi. Dao mavjud bo'lgan hamma narsadan foyda ko'rsa ham, u hech kim bilan jangga kirmaydi, hech kimni qo'lga olishga intilmaydi. Daoni aniqlash qiyin, lekin ba'zida koinotning yo'li sifatida tushuniladi. Daosizm barcha tirik mavjudotlar koinot va undagi energiya bilan uyg'unlikda yashashi kerakligini o'rgatadi. Chi yoki qi – bu koinotdagi hamma narsada mavjud bo'lgan va boshqaradigan energiya. Dao De Ching va boshqa daosizm vakillarining kitoblari xulq-atvor va bu energiya bilan uyg'unlikda yashashning ruhiy usullari bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Biroq, daosizmga e'tiqod qiluvchilar bu energiyaga xudo sifatida ishonmaydilar. Aksincha, Daoizm e'tiqodining bir qismi sifatida xudolar mavjud bo'lib, ular ko'pincha hozir Xitoy mintaqasida topilgan turli madaniyatlardan kiritilgan. Bu xudolar barcha tirik mavjudotlar kabi Daoning bir qismidir. Daosizm ibodatxonalar, monastirlar va o'z jamoalari uchun qurbonliklar qiladigan, meditatsiya qiladigan va boshqa marosimlarni bajaradigan ruhoniylar mavjud.

“Daosizmning asosiy g'oyalaridan biri bu kuchlarni muvozanatlash yoki in va yangga ishonishdir. Bu g'oyalar yorug'lik va qorong'ilik, issiqlik va sovuqlik, harakat va harakatsizlik kabi uyg'un juftliklarni ifodalaydi, ular birgalikda universal bir butunlikka intiladi. In va Yang koinotdagi hamma narsa bir-biriga bog'langanligini va hech narsa o'z-o'zidan mantiqiy emasligini ko'rsatadi”¹. In yan belgisi ikki xil energiyani va ularning o'zaro ta'sirini anglatadi, chunki hayot energiyalari almashinuvi bo'lgani kabi in va yan o'rtasida doimiy harakat va energiya almashinuvi bo'ladi. In-yan falsafasiga ko'ra hamma mavjud narsalarda, hamma narsa mavjud. “Qora inni, oq esa yangni anglatadi. Ikki qarama-qarshilik bir butunlikni tashkil qiladi, bir-birini to'ldiradi va bir-biriga qarab harakat qiladi. Hamma narsa erkak va ayolning mavjudligi, qorong'u va yorug'likning namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi va ayollik, albatta, erkaklik elementlarini o'z ichiga oladi va aksincha shu bilan birga, uzluksiz harakatni davom etayotganligini ifodalaydi. In va yang ramziyligi Xitoy milliy turmush tarzi va madaniyatining barcha sohalarini qamrab oladi. In va yang falsafasini narsalarning

¹ Joshua J.Mark. Ancient China Accessed 15 may 2020.

mavjud tartibining bayoni deb hisoblash mumkin”¹. Daosizmda tabiat yaxlit bir butun sifatida namoyon bo‘ladi, uning ruhi dao ko‘rinmas, ammo insonni o‘rab turgan asosiy voqelik asosida, barcha tabiat hodisalari asosiy manba asosida yotadi. Daosizm hayotning dastlab bulutsiz ekanligini va azob-uqubatlar shunchaki baxtsiz hodisa deb da’vo qilmaydi. Har qanday hayot hodisasining asosi o‘shish va tanazzul, quvonch va qayg‘u, daromad va yo‘qotish muvozanatidir. Bu hayotdagi oq va qora chiziqlardan qat’i nazar, baxtli yashashga imkon beradigan mavjud bo‘lgan hamma narsaning ikki tomonlamaligini tushunishdir. Daosizm vakillarining ta’kidlashicha, inson hayotida faoliyat va tafakkur dam olish davrlari almashinishi kerak, aks holda uning faoliyati samarasiz bo‘ladi.

Dao haqidagi ta’limotlar konfutsiylik dinida ham bo‘lgan, chunki dao haqidagi ta’limotlar ancha avval paydo bo‘lgan Konfutsiy daoni jamiyatda ma’lum bir tartiblarni yaratuvchi samoviy qonunlar majmui, ya’ni tartib, intizom va axloqiy normalarning yig‘indisidir deb hisoblagan. Daosizm vakillari uchun esa dao bu ibtido va intihoning o‘zagidir. Butun borliq bu daodir. “So‘zlar bilan ifoda qilish mumkin bo‘lgan dao, doimiy dao emasdir, ism bilan aytish mumkin bo‘lgan narsa, doimiy ism emasdir. Bixillik mana topishmoqning muammoli tag zamini”². Daosizmdagi daoni shu sifatlari bilan islom dinida olloh bilan taqqoslash mumkin. Chunki Daoni ular barcha narsaning yaratuvchisi va barcha narsalar unga qaytadi, nimaniki ko‘rib, his qilib, eshitib, anglab bo‘lsa u dao emas deb hisoblashgan. Daoni targ‘ib qilish mumkin, lekin uni topib bo‘lmaydi. Dao hamma narsaning ildizi va asosidir. U qadim zamonlardan, ya’ni osmon va yer mavjud bo‘lganidan beri mavjud va uni yaratgan. Daosizm ta’limotida dunyo hech qanday sabablarsiz doimo o‘zgaradi va rivojlanadi, dunyo ichki sabablar natijasida vujudga kelgan. Daosizmning maqsadi inson va tabiatning qo‘shilib ketishi negaki inson tabiatning bir bo‘lagi sanaladi. Daosizmning qadimgi qonunlari tabiatni sevishga va uni doimo himoya qilishga chaqiradi. Daosizmga ko‘ra dao har bir shaxs o‘zini idrok etishga, o‘lmaslikka intiladigan yo‘lidir. Dunyoni o‘zgartirishni biz o‘zimizni o‘zgartirishdan boshlashimiz kerak deyilgan. Dao De Ching asarining muallifi Lao Tsi “Kimki dunyoni egallashni va manipulyatsiya qilishni istasa, u muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Chunki dunyo muqaddas idishdir, uni boshqarib bo‘lmaydi. Agar kimdir uni manipulyatsiya qilmoqchi bo‘lsa, uni

¹ Вэнь Цзянь, Горобец А.А. Даосизм в современном Китае. – Благовещенск: Амурский государственный университет, 2002 – С. 145.

² Древнекитайская философия. В 2-х томах. — М.: Мысль, 1972. Т.1. – С.115.

yo‘q qiladi. Kim o‘zlashtirmoqchi bo‘lsa, uni yo‘qotadi”¹. Daosizm dinining asosiy mohiyati uchta bo‘lib birinchisi dao va u bilan aloqador tabiat falsafasi va kosmogoniya masalasi. Ikkinchisi hayot va o‘limning nisbiyligi ya’ni inson vafotidan keyin abadiy hayotga erishishi. Uchinchisi Uvey tamoyilidir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak daosizm falsafiy maktabi boshqa xitoy falsafiy maktablari singari materialistik maktab sanaladi. Ular borliqni asosiga moddiyat, materiya ya’ni besh unsur qo‘yishgan. Daosizm falsafiy maktabi o‘zining asosiga inson, tabiat va jamiyatni va ular bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni, tabiat qonuni bo‘lmish daoni ochib berdi va daoni boshqa falsafiy maktablardan farqini ko‘rsatgan. Daosizm birinchi mingyillikda konfutsiylik va buddizm dini bilan raqobatlasha olgan ta’limot hisoblanadi. Biroq keyingi asrlarda daosizm o‘zining ilk vujudga kelgan paytidagi asl ko‘rinishini yo‘qotganligi sababli unga ishonuvchilar qatlami kamayib ketdi. Umuman olganda Daosizm insonni va tabiatni bosh omil qilganligi tufayli shu kunga qadar ozchilik bo‘lsa-da bu ta’limotga amal qilib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lao Tzu. Tao Te Ching. – Shambhala, 2007.
2. Anthony C.K. I Ching, The Oracle of the Cosmic Way. – Ichingbooks, 2002.
3. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
4. Joshua J.Mark. Ancient China Accessed 15 may 2020.
5. Вэнь Цзянь, Горобец А.А. Даосизм в современном Китае. – Благовещенск: Амурский государственный университет, 2002.
6. Древнекитайская философия. В 2-х томах. – М.: Мысль, 1972.
7. Lao Tszi. Tao Te Ching, 1868. 道德經

¹ Lao Tszi. Tao Te Ching, 1868. 道德經

YUVAL NOVA HARARINING “SAPIENS INSONIYATNING QISQACHA TARIXI” ASARINING QISQACHA BAYONI VA TAHLILI

Fazliddin BO‘RIYEV

*TDSHU, Sharq falsafasi va madaniyati yo‘nalishi
4-kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi, Jasur Sulaymonov

Annotatsiya. Mazkur maqola Yuval Nova Hararining “Sapiens Insoniyatning qisqacha tarixi” asarining qisqacha bayoni va tahliliga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar. Inqilob, Homo, Sapiens, kognitiv, mutatsiya, monogramm, pologramm, Sharqiy Afrika, Yaqin Sharq, Yevropa, Osiyo, Avstraliya, agrar, industrial, genotsid, genetika, embralogiya, instinkt

Avvalo so‘z boshi o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki ushbu asar mutlaqo ilmiy nuqtai nazar asosida yozilganligi bois qarashlarida diniy aqidalar ustun bo‘lgan kishilarda salbiy taassurot qoldirishi mumkin. Asarda insoniyatning butun tarixi bo‘yicha ma’lumot olishni istovchi inson uchun qo‘llanma sifatida xizmat qilishi mumkin, unda bizning turimiz, ya’ni Homo urug‘ining qadimda ildizni yog‘och tayoq bilan kovlab olishidan tortib bugungi kunda dunyodagi hukmron maxluqot darajasiga erishishimizgacha bo‘lgan barcha jarayonlar va omillar ko‘rib chiqiladi.

Homo sapiensning o‘ziga xos afzalliklari bor edi, bu ularga er yuzidagi boshqa odamlardan oldinlab ketishiga va ularni shiddat bilan oziq zanjiridan siqib chiqarishiga imkon berdi. Eng muhimi bu inson miyasidagi farqlar bo‘lgan: o‘rtacha kattalikdagi sutemizuvchilarning miyasi hajmi 600 kub santimetr bu ko‘rsatkich Sapienslarda 1600 kub santimetrni tashkil qilgan va Sapiens o‘z miyasidan yaxshiroq foydalana boshlagan. Bunday o‘zgarish taxminan 70 000 yil oldin Kognitiv inqilob bilan boshlangan. Bu aqliy rivojlanish nisbatan birdaniga ko‘tarilib, fikrlash darajasining o‘zgarishiga va o‘zini qurshab turgan atrof-muhitga bo‘lgan munosabatiga jiddiy ta’sir o‘tkaza boshlagan davr edi. Homo sapiens yangi kashf etilgan yaxshi miyalari bilan odamlarning boshqa turlaridan ustun turishi mumkin edi. Jamiyatlarni shakllantirish, yaxshi ov vositalarini ishlab chiqish va oddiy savdo tarmoqlarini qurish hayot va omon qolish haqida hamma narsani osonlashtirdi.

Homo Sapiensga boshqa odam turlaridan nima ustunlik berdiki boshqa turlar butkul tanazzulga yuz tutdi lekin Sapiens sayyoraning xo‘jayiniga aylana oldi. Bu masalada til va umuman so‘zlash qobiliyatining o‘zgachaligi

haqida fikr yuritiladi, Muloqot qilish qobiliyati oshgani sayin aholi soni ham oshib bordi. Til bizning turimizni boshqalardan ajratib turdi, chunki u bizga ma'lumotni erkinroq tarqatish imkoniyatini berdi. Bu erta odamlarga yirtqichlar va oziq-ovqat haqida bir-birlari bilan bo'lishishga yordam berdi. Odamlar jamiyat sifatida va moslashuvchan hamkorlik qilishi mumkinligi sababli, g'oyalar tarqaldi, bu esa yanada ko'proq taraqqiyotga imkon berdi, lekin shunchaki tildan ko'ra ko'proq boshqa afzalliklarimiz bor bo'lishi kerak meningcha. Zoolog olimlarning uzoq kuzatuvlari natijasida boshqa turdagi hayvonlar ham o'ziga xos tarzda muloqot qilish va axborot almashinuvini amalga oshirishadi. Masalan, maymunlarning ham tili bor. "Ehtiyot bo'l yo'lbars" yoki "burgut" ma'nolarini anglatuvchi o'ziga xos qichqiriqlardan ular keng foydalanishadi. Hatto maymunlar ham yolg'on gapirishlari mumkin. Maymun boshqasi banan topsa, "ehtiyot yo'lbars" deb qichqiradi va banan oldida turgan maymun qochib ketganda, bananni yeydi. Shundan kelib chiqib faqatgina til yoki so'zlashuv rivojlanishga ta'sir qilgan deyish xatolikdir.

Shimpanzelarning ijtimoiy tuzilmalari – 150 boshgacha bo'lgan maymunlarni birlashtira olgan. Bunday o'lchamdagi tuzilmalar odamlarning barcha turlari va odamlardan oldin yashab o'tgan primatlar tomonidan yaratilgan. Ammo faqat Homo Sapiensning kognitiv inqilobidan so'ng, ma'lum tanlangan g'oya atrofida birlashishlari imkoniyati paydo bo'ldi. Endilikda odamlar jamoasi 150 kishidan ancha ko'proqni tashkil etuvchi katta bir tuzilma edi. Katta guruhlarda ishlaydigan yakka o'zi zaif bo'lgan Homo Sapiens neandertallarni va boshqa qadimiy turlarini mag'lub qildi. Jismoniy birdamlik va mif atrofida birlashish orqali jarayonga ko'proq shaxslarni jalb qilish natijasida ular yanada murakkab va samarali ov operatsiyalarini amalga oshira oldilar va shu bilan ozuqaviy zanjirda eng yuqori o'rinni egallashdi. Katta ijtimoiy guruhlar umumiy e'tiqodlar atrofida shakllanadi. Ijtimoiy guruhlar esa e'tiqodlarni qattiq himoya qiladi, chunki guruh ishlashi uchun e'tiqodlar aksioma sifatida hamma tomonidan ma'qullanishi va shubha ostiga olinmasligi kerak edi.

Kognitiv inqilobdan keyin qishloq xo'jaligi inqilobi sodir bo'ldi. Bu aholi zichligi va turlarning ko'pligini sezilarli darajada oshirishga imkon berdi, lekin individual nuqtai nazardan, bu odamlarni ma'lum darajada zaiflashuviga olib keldi, kuchli mushaklar o'z o'rnini miya hujayralariga bo'shatib berdi, endi ular oldingidek sog'lom emas edilar, yakka tarzda monogram oilalarda yashab, ishlaydilar va bir xil xavf-xatarlarga ko'proq duchor bo'lishadi. Qishloq xo'jaligi odamlarda vaqt va kuchni yanada samaraliroq uyg'unlashtirish imkonini vujudga keltirgan edi. Bu ba'zi

odamlarga to'quv yoki temirchilik kabi boshqa ishlarni boshlash imkonini beradi. Bu shaxslar keyinchalik dehqonlar bilan savdo qilardilar yoki tovar ayirboshlab, o'z mollarini oziq-ovqatga almashtirdilar.

Yozuv va pulga ega bo'lish insonlar taraqqiyotini yanada tezlashtirganligini kuzatish mumkin. Savdogar va fermer bilan bitimingizni yozib olish qobiliyati bilan, agar u sizga qo'y go'shti va'da bergan bo'lsa, u o'z so'zini bajarishiga ishonch hosil qilishingiz, mumkin.

Tez orada davlatlar va imperiyalarning tashkil topishi va ular tomonidan jamiyat hayoti qonunlar yordamida boshqarilishi hayotning barcha sohalarini xavfsizroq qilish va tartibga solishga yordam berdi. Yozuv tizimining mavjudligi sivilizatsiyalar bilan iqtisodiy tizimlarning va hukumatlarning gurkirab o'sishini ta'minlab berdi, jamiyat gullab-yashnay boshladi va keyingi qadam ilm-fan edi.

Taraqqiyotning bu bosqichida ular samarali oziq-ovqat, savdo va yozish usullariga ega bo'lganligi sababli, ko'proq o'ylay boshladilar. Bu ko'p odamlar o'z turmush tarzini yaxshilash yo'llarini ko'rib chiqayotgan ilmiy inqilobga olib keldi. Tajriba va izlanishlar odatiy holga aylandi va astronomiya, fizika va tibbiyotdagi ulkan sakrashlar hayotni sezilarli darajada yaxshiladi.

Yuqorida Sapiens turiga mansub bo'lgan inson qavmi rivojining ma'lum bir davrlari haqida so'z yuritgan bo'ldik. Xo'sh ular o'z taraqqiyoti davomida qanday nomalarga tayanishdi yoki shunchaki hayotiy instinktlar jamlanmasigami? Umuman ularning mavjudligi sayyorada yashovchi boshqa jonzotlarga ularning hayot tarziga qay darajada ta'sir o'tkazdi, tabiatgachi? Ular o'zlarigacha mavjud bo'lgan qonunlarga moslashishdami yoki o'z qonunlarini yaratib o'zlaridan keyin ularni hammaga tatbiq etishdimi? Nima uchun Homo oilasiga mansub boshqa turlar yo'q bo'lib ketdi Sapiens esa yo'q, nahot o'zining uzoq qarindoshlariga nisbatan genotsid o'tkazgan yoki ularning shunchaki qulay sharoitdan mahrum qilib taqdir hukmiga qoldirganmikin? Oziq zanjirida hukmron bo'lish uchun qanday qabihliklarni amalga oshirgan ekan? Uzoq o'tmishda yovuz edimi yoki hozir yanada yovuzlashganmi? Oila deb atalmish tuzilma har doim ham uning uchun ahamiyatli edimi? Dunyoni anglashga bo'lgan intilish oldin kuchliroq bo'lganmi yoki aksincha? Bu kabi savollarni Sapiens sivilizatsiyasiga nisbatan juda ko'plab berish mumkin.

Avvalo Sapiens boshqa tur maxluqotlardan o'zining yuksak onglilik darajasi bilan ajralib turgan lekin, afsuski, ko'pincha faqatgina onglilik boshqa hech qanday ijobiy xislatlar ko'zga tashlanmasligi mumkin bo'lgan hollarni kuzatish mumkin. Zaif va tizimga kam foyda keltiruvchi bo'g'indan

har doim ham voz kechish to'g'rimikin? Agar shunday bo'lsa yuksak axloq haqidagi va'zlarning bari quruq safsatami?

Sapiens faqat o'z turdoshlariga nisbatan vahshiy bo'lmagan balki, sayyoradagi juda ko'plab yirik mavjudotlar Sapiensning bevosita ta'siri natijasida yo'qlikka mahkum bo'lgan. O'zlari uchun qulay bo'lgan kishilarning guruhini qanday qonunlar bilan idora etishgan va boshqaruvda tenglik tushunchasi bo'lganmi ibtidoiy jamiyatlarda erkaklar ustunmidi yoki ayollar umuman olganda ilk jamiyatlarda oilaning ahamiyati bo'lganmi axir, ideal zurriyotga ega bo'lish uchun ayollar qabilaning eng yaxshilari bilan juftlashishga harakat qilishgan-ku?

Boshqa Homolarning yo'qolishiga rostdan ham Sapiens aybimikin rostdan ham ularni qirib tugatdimikin xuddi XIX asrda Afrika qabilalari yoppasiga yo'q qilingani kabi yoki nasli uyg'unlashuv sodir bo'lganmi?

Tajovuzkorlik azaldan genlarimizda bormi? Ikkinchi jahon urushi sayyora aholisining 4.5-5 % o'limiga sabab bo'ldi, Germaniyadan topilgan ommaviy qabristondagi jasadlarning qoldiqlari o'rganilganda esa 40 % da qotillik alomatlari kuzatilgan xo'sh ajdodlar yovuzmi yoki avlodlar?

Qachonlardir uzoq o'tmishda balki qiziquvchanlik ortidan balki qulay makon izlab yar sayyorasining turli burchaklariga sayohatlar uyushtirilib o'sha makonlar o'zlashtirildi endilikda esa koinotga nisbatan qiziqish Sapiensni yana yangi sayohatlarga chorlamoqda.

So'nggi savol Sapiens yana qancha vaqt hukmronlik qila oladi ekan uning o'rniga davo qilguvchilar topiladimi? Agar shunday bo'lsa ular kurashning qanday vositalaridan foydalanishadi xuddi o'tmishda bo'lgan kabi ommaviy qirg'inmi yoki boshqa mo'tadilroq vositalardanmi, ular ham shiddat bilan sayyorani egallay oladimi yoki Sapiensdan farqli anchayin murosakor bo'lishadimi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Смирнов В. М. Физиология сенсорных систем и высшая нервная деятельность: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / В.М.Смирнов, С.М.Будылина. – 2-е изд., стереотип. – М.: Издательский центр «Академия», 2004. с.21

2. Adrian Ashman, Robert Conway. *An Introduction to Cognitive Education: Theory and Applications*. 32-34 p.

3. Wilson D. E. & Reeder D. M. (eds). *Mammal Species of the World*. – 3rd ed. – Johns Hopkins University Press, 2005. – Vol. 1. – P. 743.

4. "World Population Prospects: The 2010 Revision" United Nations Department of Economic and Social Affairs

ПОНЯТИЕ «ЛИЦО» В КИТАЙСКОЙ КУЛЬТУРЕ

Фариза СУЛАЙМОНОВА

ТГУВ, Факультета Китаеведения

студентка 2-курса

Научный руководитель: Ф.М. Хасанова

Аннотация: За современным, модернизированным Китаем стоит совсем иной тип мышления, чем тот, к которому привыкли европейцы. Из всех китайских особенностей, понятие о «культе лица», о сохранении репутации иностранцам, пожалуй, осознать сложнее всего. Приобретение, сохранение и потеря лица имеет огромное значение в социуме Поднебесной. Важным фактором понимания коммуникативного поведения китайцев является знакомство с таким глубинным феноменом структур культурной психологии и базовой составляющей концептосферы китайского языка как «концепт лица».

Ключевые слова: концепт, китайская культура, лицо.

Классическая особенность китайского миропонимания – умение мыслить длительными временными отрезками, создавать стратегию взаимодействия с окружающим миром, состоящую из множества этапов. Жители Поднебесной были уверены в возможности одержать победу над соперником не только вооруженным путем, но и силой морально-этического и духовного превосходства, поэтому причине им часто приходилось отступать и даже принимать поражение.

Успешный образ взаимодействия с современным Китаем трудно составить себе без анализа представлений о мире, которые складывались в этой стране в послевоенные десятилетия, нанизываясь на скелет традиционного суждения из Поднебесной на другие страны. Данный взгляд, уходя корнями в глубины многовековой истории страны, остается неисчерпаемым ресурсом стойкости китайской цивилизации перед лицом внешних испытаний и задает своего рода константу международной политики страны. Развиваясь вместе с нынешним миром и приобретая новые содержательные стороны словесного знака, она остается неизменной в главном – устойчивом китаецентризме, самодостаточности и независимости.

Термины «понятие» и «концепт» представлены однопорядковыми, сравнимыми, но не равнозначными. Если понятие – это совокупность познанных существенных признаков объекта, то концепт – умственное национально-специфическое образование,

планом содержания которого является вся совокупность познаний о данном объекте. Концепты являются наиболее сложными и обыденными понятиями, являющимися значительными компонентами соответствующей концептосферы языка и этнокультуры.

Несмотря на то, что положение «концепт» давно введено в научный оборот и признается одним из ключевых соображений когнитивной науки, вопрос об его натуре и содержании остается спорным. В настоящее время по-прежнему нет единственного определения исходного термина. Каждый исследователь понимает его самостоятельно и вносит в данный термин свое содержание.

Кубрякова Е. описывает концепт как некий «квант» знания, «оперативную содержательную единицу памяти, ментального лексикона, концептуальной системы и языка мозга, всей картины мира, отраженной в человеческой психике». По ее словам, концепты – это посредники между словами и экстралингвистической действительностью, и самые важные из них кодируются именно в языке. Есть некоторые общечеловеческие концепты, однако в зависимости от собственно лингвистических, прагматических и культурологических факторов они всячески группируются и по-разному вербализуются в различных языках.

На протяжении по крайней мере 2 тысяч лет в китайском обществе общее благо ставилось выше частного. Даже сейчас жители нынешнего КНР ощущают себя частью единого коллективного сознания, а как мы знаем в каждом обществе необходимо соблюдать определённые правила.

В культурной практике Китая больше четырех тысячелетий подавлялись идеи индивидуализма, и всячески подчеркивалось важность семьи и группы людей. Прилагались большие усилия к тому, чтобы гомогенизировать людей, принудить их думать и действовать одинаково. Индивидуализм являлся аморальным и не китайским явлением. В рамках данной системы значительным феноменом было почтение к группе, а не к себе. Отношение личного достоинства размывалось до такой степени, что оно фактически не существовало. Никто не мог принимать решения от своего имени, относящиеся только себя. Невозможно было принимать решения, исходя от себя.

Китайское общество работало скорее на основе личных отношений, чем на основе объективных обычаев и законов. Существовавшие законы служили интересам власти, защищали ее, а не народ. Они также не обеспечивали людям правоведения дел на основе

законных прав и практической целесообразности. Каждому человеку и каждой группе доводилось учреждать и усиливать широкую сеть личных связей, дабы заполучить то, что им было необходимо. Средства к существованию, а зачастую и сама жизнь зависели от присутствия предоставленного варианта «социального доверия». Все, что могло «запятнать лицо», проявляло негативное влияние на способность использовать это «социальное доверие».

Тем самым значимость и состояние индивида в социуме становились абсолютно зависимыми от других индивидов. Внимание о личном лице становилась единственной областью, над которой человек имел власть.

Чувство стыда является ключевым в формировании личности у жителей Поднебесной. Эмоции, появляющиеся в результате использования аналогичных методов, составляют долю комплекса отношений, связанных с концептом «лицо». Подобная социальная система вела к повышенному вниманию к «лицу» индивида. С понятием «лица» близко связано идея о лояльности индивида касательно к членам своей группы. Родные и друзья должны прилагать все усилия к тому, чтобы осуществить обязательства по отношению друг к другу. Нелояльный индивид – это индивид «без лица». На «лицо» индивида оказывает воздействие также следование им норм группы. При помощи системы установок и отношений, связанных с концептом «лицо», случается интеграция индивида в группу.

Сотрудничество внутри группы противопоставляется индивидуализму. Любая демонстрация пренебрежения «лицом», которое принуждало людей испытывать дискомфорт либо неблагоприятно выглядеть в глазах других и отражалось не только на них, но и на их семьях и группах, считалось оскорблением, которое требовало быстрых извинений, а в более серьезных ситуациях, и обусловленного возмездия или мести.

Концепт (概念) есть в лексическом фонде в системе стабильных сравнений, запечатлевших образы-эталон, свойственные для исходного языкового коллектива. Концепт нужно рассматривать будто часть структуры национального сознания, единой для всех представителей данного социума. Он складывается в процессе создания той или иной системы аналогов, выбранных и отрефлексированных культурной и философской мыслью, отраженных в текстах культуры – фольклоре, литературе и т.

«Потерять лицо 丢面子» равнозначно нарушению правил и становлению аутсайдером среди своих. Эта «потеря» может обернуться утратой статуса, поддержки, уважения и каких-либо связей. Многие малопонятные поступки китайцев можно оправдать стремлением сберечь своё лицо. И нужно отнестись к этому с пониманием.

«Лицо 面子» – это репутация, которая нарабатывается годами и даёт больше возможностей, чем профессиональные навыки. И в отличие от навыков, лишиться лица возможно в одно мгновение¹.

В культуре отражено умственное и эмоционально-ценностное обращение человека к миру как объекту сознания – образу мира, имеющегося в сознании человека. Языковая картина мира – это прежде всего различные способы мировидения, закрепленные в языке. Баланс между реальным миром, его восприятием и отражением в языке необходима и условна.

Тех немногочисленных китайцев, которые были не столь чувствительны к пренебрежению или оскорблениям, как остальные, считали людьми с «толстокожими лицами» (脸皮厚). Озабоченность китайцев своим «лицом» сегодня так же сильна, как и в древности, если не сильнее. В случае отказа от конфликта с другим, сохраняя его «лицо», индивид получает основания считать себя имеющим «лицо», не поступив недостойно. В результате забота о своем «лице» перерастает в стремление избежать конфликта в межличностных отношениях. Данное стремление вместе с поддержанием социальной гармонии в традиционной китайской характеристике выступают как значимые самостоятельные ценности.

Общество в целом все еще зависит от «социального доверия» и «лица» как основных составляющих любых взаимоотношений. В обществе, в котором доверие и лояльность являются основными принципами всех взаимоотношений, потеря лица может сделать индивида «неприкасаемым». По мнению американского исследователя Де Менте, «под концептом «лицо» часто подразумеваются социальные связи».

¹ 面子- 1) престиж, доброе имя, репутация, достоинство, честь, значимость, крутизна ; 2) внешность, видимость, показная сторона; внешний, наружный, показной; верхняя сторона, верх. <https://bkrs.info/>

В дополнение к «сохранению лица» самого индивида и других, в китайской культуре также очень важным является «предоставление лица» другим индивидам, от которых ожидается постоянная благосклонность и сотрудничество. В терминах нашего понимания это означает, что с подобными людьми необходимо обходиться с особым почтением и почетом.

Китаец изо всех сил старается не «потерять лицо», представ перед другими людьми в неприглядном виде. Если он не может или не хочет отвечать на неприятный вопрос, он способен рассмеяться, чтобы скрыть смущение. Это означает, что собеседник произнес нечто непонятное, либо китаец не имеет точного ответа на вопрос. Аналогично носитель некитайской ментальности «теряет лицо», демонстрируя, что он рассержен или расстроен.

Фраза «это Вам не подходит» чаще всего является вежливой формой ответа «это невозможно» или «это очень трудно», причем китаец не объяснит Вам причины отказа. Однако после того, как китаец с кем-нибудь посоветуется, он будет рад возобновить разговор самостоятельно. Страх потерять «лицо» является весьма распространенным феноменом среди китайцев. Китайские исследователи выделяют следующие варианты поведения, связанные с «лицом»: 1 – инициативная «продажа» лица (индивид, используя власть или имущество, которым он распоряжается, оказывает благодеяния друзьям и родственникам), 2 – «накапливание запасов» «лица» (индивид оказывает услуги вышестоящим, надеясь через некоторое время получить ответное благодеяние), 3 – «обмен» «лицом» (оказание взаимных услуг с использованием служебного положения).

Исходя из вышеизложенного, можем следующие выводы: в современном китайском языке концепт «лицо» фразеологизируется в идиомах четырех категорий: 1 – «сохранение своего лица», 2 – «усиление чужого лица», 3 – «неудачная попытка сохранить свое лицо», 4 – «потеря лица другими людьми». Современные китайцы в высшей степени испытывают потребность в «лице» и придают этому понятию большое значение. «Лицо» для них важнее, чем что бы то ни было. Таким образом, концепт «лицо», оставаясь традиционным культурно-психологическим феноменом, является не только одной из глубинных структур культурной психологии, но и базовым концептом концептосферы китайского языка.

Список использованной литературы:

1. Маслова В. А. М 31 Лингвокультурология. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – 208с.

2. Хасанова Ф.М. Lexical and grammatical peculiarities of the language baihua within the classical chinese language – wenyan. // PHILOLOGY. International scientific journal № 6 (30), 2020. ISSN 2414-4452. Б 14-20

3. Khasanova Feruza. 乌兹别克斯坦的汉语国际教育现状及困境。
甘肃教科文通讯。2022年第2期。第20页

4. Ф.М.Хасанова, А.Адолат. “Бир минтақа – бир йўл” дастури доирасида ўзбек тили тадқиқи. Ҳаммуаллифликда. //“Шарқ машъали”. Тошкент 2/2018. 77 б.

5. Ф.М.Хасанова. Лексико-семантический анализ лексики произведений Лао Шэ. // Universum: филология и искусствоведение: научный журнал. – № 11(78). – Москва. Изд. «МЦНО», 2020. ISSN:2311-2859 DOI: 10.32743/UniPhil.2020.78.11 – Б 31-34

Интернет сайты:

1. <https://blog.shensyao.com/что-значит-потеря-лицо-и-почему-это-так-важно>

2. <https://www.synologia.ru/a>

3. <https://strana-oz.ru/2014/1/lico-kitayca>

4. <https://laowai.ru/kult-lica-v-kitae/>

XALQARO MUNOSABATLAR VA IQTISODIYOT

O‘ZBEKISTON VA YAPONIYA ALOQALARINING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Kamola YUSUPOVA

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: s.f.d., prof. M.M. Muhammadsiddiqov

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqil O‘zbekiston Respublikasi hamda Yaponiya o‘rtasidagi aloqalarning siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy jihatlari aks etgan asosiy yo‘nalishlari o‘rganilgan. Ikki davlat o‘rtasidagi do‘stlik, o‘zaro hamkorlik aloqalarining rivojlanish jarayonlari va istiqbollari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, strategik sheriklik, “Yapon mo‘jizasi”, raqamli universitet, forumlar, madaniy-iqtisodiy hamkorlik assotsiatsiyasi.

Yaponiya biz uchun muhim va yaqin sherik bo‘lib, kunchiqar mamlakat bilan munosabatlar O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatlarimiz o‘zaro hurmat va ishonch tamoyillariga asoslangan uzoq muddatli do‘stlik va samarali hamkorlik munosabatlari bilan mustahkam bog‘langan. Ikki tomonlama hamkorlik barcha sohalarida izchil rivojlanmoqda.

Yaponiya O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng birinchilardan bo‘lib mamlakat mustaqilligini tan olgan va diplomatik aloqa o‘rnatgan davlatlardan biridir. O‘zbek va yapon xalqlarining o‘xshash jihatlari ko‘p. Milliy va axloqiy qadriyatlar, birdamlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat kabi fazilatlar har ikki xalq uchun xos. Bu holat ikki mamlakatning do‘stligi va o‘zaro hamkorlik munosabatlarida ham yaqqol aks etgan. Bugunga kelib ikki hamkor davlat o‘rtasidagi aloqalar bir nechta turli yo‘nalishlarda rivojlanmoqda. Bulardan siyosiy, savdo-investitsiyaviy, va madaniy yo‘nalishlarni alohida keltirib o‘tish lozim.

Kunchiqar mamlakat bo‘lmish Yaponiya davlati bilan diplomatik aloqalar 1992-yil 26-yanvarda Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida xatlar almashinuvi vositasida o‘rnatildi [5]. 1994-yil may, 2002-yil iyul va 2011-yil fevralda Yaponiyada hamda 2006-yil avgustda O‘zbekistonda bo‘lib o‘tgan davlat rahbarlari o‘rtasidagi oliy darajadagi uchrashuvlar ikki mamlakat o‘rtasidagi manfaatli va do‘stona aloqalarga yangicha ma’no-mazmun bag‘ishladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2002-yilda Yaponiyaga tashrifi doirasida Bosh vazir Junitiro Koidzumi bilan uchrashuvida o'zaro do'stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi Qo'shma bayonot imzolandi. Ushbu bayonot tomonlarning hozirgi zamon xalqaro munosabatlardagi ko'plab muammolar bo'yicha qarashlari va munosabatlari o'xshashligi, shuningdek, ularning ikki mamlakat ko'p qirrali hamkorligini yanada kengaytirishga intilishlarini tasdiqlovchi rasmiy hujjat bo'lib qoldi.

2015-yil oktyabrda Yaponiya Bosh vaziri Sindzo Abening O'zbekistonga tashrifi doirasida O'zbekiston va Yaponiya umumiy qiymati 8,5 mlrd. dollardan ko'proqni tashkil qiladigan qo'shma loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi.

Mamlakatning amaldagi rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil dekabr oyidagi Yaponiyaga ilk tashrifi ham iliq kutib olindi va ikki davlat o'rtasida 50 ga yaqin shartnomalar imzolandi [1].

Ikki davlat o'rtasida iqtisodiy va savdo investitsiyaviy aloqalar ham yaxshi rivojlanmoqda. Pandemiyaning global iqtisodiyotga salbiy ta'siriga qaramay, Tokio jahonda investitsion gigant sifatida yetakchi o'rinni egallab turibdi. Birgina 2020-yilning aprel oyida Yaponiyaning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari 146,5 milliard dollarga yetgan bo'lsa, mart oyida esa bu ko'rsatkich 132 milliard dollarni tashkil etdi. Yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha Yaponiya dunyoda uchinchi (4,9 trillion AQSH dollari), savdo hajmi bo'yicha esa to'rtinchi o'rinni egallab, yillik import hajmi 700 milliard dollardan oshadi.

Bugungi kunda Yaponiyaning mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilgan moliyaviy resurslarining umumiy qiymati 1,9 mlrd. AQSH dollariga yaqinlashdi. Bundan tashqari, O'zbekistonga 160 mln. AQSH dollari miqdorida beg'araz va insonparvarlik yordami ko'rsatilib, u, asosan, maorif va sog'liqni saqlash sohasiga sarflandi. Yapon sarmoyasi mamlakat iqtisodiyotining yoqilg'i-energetika, transport va kommunikatsiya, yengil sanoat tarmoqlarini, kadrlar tayyorlash va boshqa sohalarni yuksaltirish, xususan, respublikaning telekommunikatsiya tizimini rivojlantirish, Toshkentdagi temir yo'l vagonlarini ta'mirlash zavodi, Samarqand, Buxoro, Urganch shaharlari aeroportlarini modernizatsiya qilishga sarflandi [2].

Yaponiya O'zbekistonni geografik joylashuvi va iqtisodiy salohiyati jihatidan Markaziy Osiyo mintaqasidagi muhim hamkor sifatida ko'radi. Yaponiyaning mintaqaga ajratgan umumiy yordamining qariyb 57 foizi O'zbekistonga to'g'ri kelgani buning yaqqol dalilidir.

Ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy aloqalar ham rivojlangan. Madaniyatlararo muloqotni muvaffaqiyatli rivojlantirishda 1999-yil ta'sis etilgan "O'zbekiston-Yaponiya" do'stlik jamiyatining salmoqli o'rni bor. Jamiyat kunchiqar mamlakatning "Yaponiya-O'zbekiston" do'stlik assotsiatsiyasi va "Fukushima-O'zbekiston" madaniy-iqtisodiy hamkorlik assotsiatsiyasi bilan yaqin aloqalar o'rnatgan [3].

Mamlakatlarimiz o'rtasida ta'lim sohasidagi hamkorlik ham izchil va samarali rivojlanmoqda. Har ikki mamlakat oliy ta'lim dargohlari va ilmiy tadqiqot muassasalari vakillari o'rtasida o'tkazilayotgan uchrashuv, konferensiya va seminarlar, forum va ta'lim ko'rgazmalari ilmiy aloqalarni rivojlanib borayotganidan darak beradi.

1999-yildan buyon O'zbekistonda "Yaponiya hukumatining beg'araz yordami" (JDS) dasturi bo'yicha "Kadrlarni tayyorlash uchun stipendiyalar taqdim etish" loyihasi amalga oshirilmoqda. Mazkur dastur doirasida har yili 18 nafar O'zbekistonning davlat xizmatida faoliyat yuritadigan yosh xodimlariga Yaponiyadagi oliy ta'lim dargohlarida magistratura yoki doktoranturada ta'lim olish uchun grantlar taqdim etilmoqda. Hozirgi kunga qadar 400 ga yaqin o'zbekistonlik Yaponiyada ilmiy darajaga ega bo'ldi.

Nagoya universiteti tashabbusi bilan muntazam o'tkazib kelinayotgan Yaponiya – O'zbekiston universitetlari rektorlari an'anaviy konferensiyasi ilmiy hayotimizda katta ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgacha ushbu formatning uchta forumi bo'lib o'tdi. Forumning oxirgisi 2019-yil iyul oyida Toshkentda bo'lib o'tdi. Hozirgi vaqtda Yaponiyada navbatdagi Forumni o'tkazishning konseptual, tashkiliy va texnik jihatlarini muhokama qilinmoqda [4].

Hamkorlik doirasida 2020-yil dekabrda Toshkentda Yaponiya raqamli universiteti tashkil etildi. Hozirda O'zbekistonda Sukuba universiteti va Yamanashi Gakuin ta'lim korporatsiyasi bilan qo'shma universitet ochish bo'yicha muzokaralar olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, umumiy chegaralarga ega bo'lmagan, ammo tarixan savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi hamda Yaponiya davlati o'rtasida mustaqillikdan so'ng yana ham mustahkam munosabatlar o'rnatildi. Ikki davlat o'rtasida o'zaro do'stlik, strategik sheriklik hamda hamkorlikka oid bir qancha bitimlar imzolandi. Har ikki xalqqa xos bo'lgan umumiy qadriyatlar, o'zaro hurmat, bu aloqalarning rivojlanishi uchun xizmat qilmoqda. Munosabatlarning siyosiy, savdo-investitsiyaviy hamda madaniy qirralari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, davlat rahbarlari o'rtasida bir necha marta rasmiy uchrashuvlar bo'lib o'tdi va iliq

munosabatlar o‘rnatildi. Yaponiya boshqa Rossiya, AQSH davlatlari bilan bo‘lgani kabi o‘rnatilgan aloqalar yoki ko‘rsatilgan yordamlar evaziga siyosiy, iqtisodiy talablar qo‘ymaydi, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaydi va uzoq muddatli investitsiyalar, beg‘araz yordam ko‘rsatishi bilan rivojlanayotgan O‘zbekiston uchun yaxshi hamkordir.

Ikkinchidan, Yaponiya davlati Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston bilan bo‘lgan savdo aloqalaridan manfaatdor. To‘rt tomoni suv bilan o‘ralgan mamlakat uchun O‘zbekistondan yetkazib boriladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, qazilma boyliklari, ayniqsa, og‘ir metallurgiya sanoati uchun juda muhim hisoblanadi.

Uchinchidan, Ikki davlat o‘rtasidagi madaniy aloqalar ham yildan-yilga rivojlanmoqda. O‘zbek yoshlari orasida “Yapon mo‘jizasi” ni o‘rganish, uning tili, madaniyati bilan tanishishga bo‘lgan qiziqish ortmoqda. Yaponiyalik talabalarda ham o‘zbek tilini va madaniyatini o‘rganishga intilish kuchayib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Madimarov A., Aripova M. O‘zbekiston va Yaponiya: o‘zaro manfaatlarga asoslangan hamkorlik / <https://isrs.uz/oz/maqolalar/uzbekistan-i-aponia-sotrudnicestvo-osnovannoe-na-vzaimovyygodnyh-interesah>
2. Karimov I.A. O‘zbekiston erishgan yutuq va marralar – biz tanlagan islohotlar yo‘lining tasdig‘idir. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2015. – 184 b
3. www.islomkarimov.uz

KO‘RFAZ MINTAQASIDA ENERGETIKA XAVFSIZLIK MUAMMOLARI

Kamola ESANOVA

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: PhD, dotsent M. Xo‘jaev

Annotatsiya: Energetika – jamiyat taraqqiyotning kaliti va manbai hisoblanadi. Bugungi kunda energetika sohasi taraqqiy etmasa, biron-bir soha yoki tarmoq rivoj topmaydi. Energetika nafaqat ishlab chiqarish sohasida balki, insonning ko‘pgina kundalik ehtiyojlarini qondirilishi ham

energetikaga borib taqaladi. Ushbu maqolada Ko'rfaz mintaqasida energetik xavfsizlik muammolarining asosiy yo'nalishlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: OPEK, FKADHK, neft quroli, neft embargosi, Arabiston oltiligi davlatlari, mintaqaviy energetik xavfsizlik, neft geosiyosati, siyosiy bosim.

Zamonaviy dunyoda energetika jahon iqtisodiyotining dinamik rivojida eng asosiy vosita bo'lishi bilan birga, umumiy xalqaro munosabatlar tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi birlamchi omillardan biri sifatida yuzaga chiqdi. Bundan tashqari, dunyo miqyosida energetik bog'liqlik va energiya birlamchi manbalari iste'moli hajmining oshib borayotganligi mintaqada xavfsizlikka nisbatan yangi tahdidlar ko'lamining kengayishi xavfini tug'diradi. Shuning uchun "Arabiston oltiligi" davlatlari oldida mintaqaviy energetik xavfsizlikni ta'minlash masalasi har qachongidan-da dolzarbdir.

Bugungi kunda ba'zi davlatlar tashqi siyosiy strategiyalarida energetik resurslar xavfsizligi, energetika infrastrukturasi rivojlantirish va umumiy energetika tizimini shakllantirishini asosiy geosiyosiy omillar sifatida e'tirof etiladi. Xususan, Fors ko'rfazi mintaqasi xavfsizligida energetik xavfsizlikka nisbatan yangicha yondashuvlarning yuzaga kelishi natijasida mintaqada davlatlari siyosatida an'anaviy ustuvorlikka ega bo'lgan neft-gaz siyosatiga nisbatan munosabat yanada markazlashtirilmoqda. (Muhammadsiddiqov, 2020, p. 109).

Shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy davrda hech bir davlat mustaqil o'z energetik ehtiyojlari va imkoniyatlarini yuzaga chiqara olmaydi. Ayniqsa, jahon siyosatida energiya taqchilligi va xavfsizligi masalalari global muammo sifatida ko'rilayotgan bir davrda mintaqalar va davlatlarning bir-biriga energetik bog'liqlik darajasi yanada ortdi (Гардарики, 2003, с. 56). Shu bois hozirgi vaqtda energetika siyosati jahonning yirik davlatlari tashqi siyosiy faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday fenomen bir qancha omillar bilan tushuntirilishi mumkin. Jumladan, jahon energetika bozori subyektlarining o'z energetik xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan ehtiyoji, energetika sohasidagi samarali biznes manfaatlari, neft-gaz xom-ashyosini qazib olish, qayta ishlash, transportirovka qilish va boshqalar.

Fors ko'rfazi mintaqasi geosiyosiy, geoiqtisodiy va geostrategik nuqtai nazaridan juda qulay yerda joylashgan. Mazkur hududga – Eron Islom Respublikasi, Iroq va olti arab davlatlari: Saudiya Arabistoni Podshohligi, Bahrayn, Qatar, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari va Ummon davlatlari kiradi. Fors ko'rfazi davlatlari ikki okean va uch qit'a oralig'ida joylashgan

bo‘lib, zamonaviy jahon aloqalarida Afrika va Osiyo o‘rtasida bir ko‘prik vazifasini bajaradi. Ular jahon bozorida tobora ehtiyoj kuchayib borayotgan energetika va turli tabiiy resurslarga boy davlatlar hisoblanadi. Bu yerda 64,9 foiz neft zaxiralari va 30 foiz tabiiy gaz o‘zlashtiriladi (Александров, 2000, c 5). Mazkur mintaqada uglevodorod manbalari, ayniqsa gaz miqdori yetarli darajada o‘rganilmagan. Deyarli har yili sanoat borasida yangidan-yangi o‘zlashtirishlar yuz beradi. Fors ko‘rfazi neftining arzonligi jahonning yirik davlatlarini tez orada boyib ketishiga zamin yaratdi. Neft xom-ashyosi bu yerdan Yevropa Ittifoqi davlatlariga, Yaponiya hamda AQSH ga yuboriladi. Mazkur hududdan o‘ta muhim savdo tarmoqlari o‘tadi. Bunday vaziyat mintaqaning geosiyosiy mavqeyining global ahamiyatini belgilaydi. Ko‘pgina rivojlangan davlatlar iqtisodiy Fors ko‘rfazidan yetkazib berilayotgan energetik zaxiralari bog‘liq bo‘lgani bois mintaqada yuz berayotgan iqtisodiy, siyosiy vaziyat doimo jahon hamjamiyati tomonidan tilga olinadi. Zero, mintaqada yuz berayotgan vaziyat, ularning tashqi siyosiy qarashlaridagi o‘zgarishlar jahon bozoriga salmoqli ta’sir ko‘rsatadi (Mahmudova, S. 2021).

Klassik geosiyosiy nazariyalarda Fors ko‘rfazi Rimlandning bir qismi sifatida e’tirof etilgan bo‘lsa, keyingi davrlarda mazkur mintaqqa Heartland yoki markazning markaziga aylangan degan qarashlar yuzaga keldi. Shu bilan birga mintaqqa va uning asosiy yo‘lagi O‘rmuz bo‘g‘ozi borasida turli xil geosiyosiy konsepsiyalar shakllantirildi. Geosiyosat nazariyotchilaridan N.Spaykmenning ta’kidlashicha, davlatlarning yoqilg‘i ehtiyojlarini ta’minlashlarida O‘rmuz bo‘g‘ozi omilining yetakchiligi butun bir Fors ko‘rfazi mintaqasini geostrategik muhim hudud sifatida qabul qilinishga sabab bo‘lmoqda (Dikshit, 2004, p.196).

Neft geosiyosati shakllanish evolyutsiyasida 1960-yillardagi G‘arb neft kompaniyalari o‘rtasidagi raqobat mintaqqa davlatlarining neft narxlarini mustaqil belgilashlari va erkin energetik siyosati olib borishga undadi. Bunday harakatlar natijasida 1960-yilda neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti(OPEK) tashkil qilindi. Jahon geosiyosatining yana bir yangi subyekti yuzaga keltirildi. Mazkur jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan keyingi to‘lqin 1973-yilgi neft inqirozining yuz berishidir. Jahon geosiyosatida “Neft quroli”dan foydalanish amaliyoti kuzatildi. Neftdan rasmiy siyosiy bosim sifatida foydalanildi. Arab dunyosi mamlakatlari yakdilligining dunyo miqyosidagi siyosiy va iqtisodiy ahamiyati shunda namoyon bo‘ladiki, u jahon neft bozoridagi vaziyatga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishga qodirdir. Birinchi marta bu 1973-1974 yillarda “energetik tanglik”davrida namoyish etildi. Oktyabr urushi (1973-yilgi Arab-Isroil urushi) chog‘ida

G'arb mamlakatlari Isroilni qo'llab-quvvatlaganiga javoban OPEK mamlakatlari jahon bozoriga neft yetkazib berishni to'xtatib qo'ydilar. Mazkur neft embargosi OPEK a'zo davlatlari (BAA, Iroq, Quvayt va S.Arabistoni) va Eron qarori bilan e'lon qilingan edi. Unga ko'ra mazkur davlatlar AQSh va Niderlandiyaga neft yetkazib berishni to'xtatish va neft narxini oshirish va har oyda ishlab chiqarish hajmini kamaytirish nazarda tutilgan. 1990-yilgi birinchi Fors ko'rfazi urushi va 2003-yilgi ikkinchi Fors ko'rfazi urushi mintaqadagi neft geosiyosatining navbatdagi shakllanish bosqichlari bo'ldi. Fors ko'rfazi neft geosiyosatining zamonaviy manzarasi Eron yadroviy dasturi bilan bog'liq holda O'rmuz bo'g'ozi atrofida kechayotgan siyosiy tanglik va "faol demokratlashtirish"ga qaratilgan "arab bahori" inqilobiy jarayonlari va geosiyosiy raqobatda namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda kuzatilayotgan Yaqin Sharq mintaqasidagi siyosiy inqirozlar neft va gaz ishlab chiqarish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi va mintaqaning kelgusidagi energetik ta'minoti borasidagi shubhalarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Mintaqadagi bir qancha eksportyor davlatlar xalqaro energetika bozoridagi barqarorlikni ta'minlash choralarini qidirish bilan bir vaqtda asosiy ishlab chiqaruvchi davlatlarda siyosiy inqirozlarning keng yoyilib ketishidan xavotirga tushishgan. Bundan tashqari, Eron bilan bog'liq O'rmuz geosiyosiy chizig'i Fors ko'rfazi neft geosiyosatining muhim atributidir. Yuqoridagi omillar va Fors ko'rfazi xavfsizlik tizimi shakllanish evolyutsiyasidan kelib chiqilgan neft geosiyosati strategik xomashyoni qayerdan va qancha miqdorda, qaysi manfaaddor subyektlar bilan kelishilgan holda qazib olish, neftni qanday yo'nalishlar orqali eksport qilish va bu jarayonda qanday siyosiy yo'l tutish, energetika sohasida kimlar bilan hamkorlik qilish kabi masalalarni qamrab oladi. Shu jihatdan Fors ko'rfazidagi neft geosiyosati o'zida bir qator mintaqaviy va xalqaro omillarni namoyon qiladi. Bundan tashqari, mintaqa davlatlarida kechayotgan faol demokratlashtirish siyosati, siyosiy inqiloblar jarayoni neft geosiyosatining an'anaviy rivojlanish xususiyatlariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Yangicha shakllanayotgan tashqi siyosiy strategiyalar va munosabatlar energetika sohasiga ham ta'sir ko'rsatadi va neft geosiyosati tarkibiy tuzilmasining qayta shakllanishini taqozo etadi. Xalqaro energetik munosabatlar tizimida neft omili yetakchilik qilar ekan, Fors ko'rfazi arab davlatlarida kechayotgan geosiyosiy jarayonlar to'liqini ("rangli inqiloblar" va "arab bahori") va Eronga nisbatan amalga oshirilayotgan xalqaro bosim o'z navbatida neft geosiyosatining o'zgarishiga olib keluvchi omillar hisoblanadi (Týpaев Абpop,1-4).

FKADHK davlatlarining ko'pchilik qismi OPEK a'zolari hisoblanadi. Bu esa mintaqa davlatlarining bugungi kunning dolzarb masalalarini hal etishda, iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash masalalarida muhim o'rin tutishini ta'minlaydi. Bevosita neft-gaz masalalari dolzarb ahamiyat kasb etar ekan, mintaqadagi Quvayt, Qatar va BAA davlatlarini ham alohida e'tirof etish lozim. Xususan, Birlashgan Arab Amirliklar neft zaxiralari bo'yicha jahonda Saudiya Arabistoni va Iroqdan keyingi uchinchi o'rinda turadi. Uning neft zaxiralari hajmi 97,8 mlrd.barrel bo'lib, jahon neft zaxiralarining deyarli 10 foizni tashkil qilmoqda. Bundan tashqari gaz zaxiralari 6,6 trln. kub. m.ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich Amirlikning jahon gaz zaxiralarining 4 foizga ega ekanligini ko'rsatadi. Qatarining ham energetik salohiyati yuqori bo'lib, gaz zaxiralari borasida dunyoda Rossiya va Erondan keyingi uchinchi o'rinda turadi. Mamlakatda jahondagi eng yirik gaz manzilgohlaridan biri "North Field" joylashgan. Mintaqadagi eng katta neft zaxiraga ega bo'lgan davlatlardan biri Quvayt hisoblanadi. Uning jahon neft zaxiralaridagi ulushi 14 foizni tashkil qiladi. Bunday imkoniyatlar samarasi o'laroq Ko'rfazdagi arab davlatlarining iqtisodiy o'sish sur'ati oshib bormoqda. Jumladan, faqatgina 2002-2006 yillarda Fors ko'rfazi arab davlatlari neft eksportidan 1.5 trln. AQSH dollari foyda ko'rishgan bo'lib, bu o'tgan oxirgi besh yillikka nisbatan ikki marta ko'p ko'rsatkich hisoblanadi. "Goldman Sachs" ekspertlari guruhining bashoratiga ko'ra neft eksportidan tushadigan daromad 2030 yilga borib 5.1 trln. AQSH dollarini tashkil etadi. Birgina 2010-yilning birinchi kvartalida BAA neft eksportidan 17 mlrd. AQSH dollar, Saudiya Arabistoni esa 51 mlrd. AQSH dollari foyda ko'rgan. Energetik bog'liqlikning o'sishi alohida bir davlatning o'z milliy energetik xavfsizligini mustaqil ta'minlash imkoniyati cheklanganligini anglatadi. Shu bois Kengash davlatlarining geoenergetik manfaatlari bevosita Eron va Iroq kabi davlatlarning mintaqada tutgan o'rniga ham bog'liq. Chunki Eron Islom Respublikasining mintaqadagi siyosiy – mafkuraviy o'rni va yuqori energetik salohiyati mintaqa davlatlari tashqi siyosatiga ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Demak, Fors ko'rfazi mintaqasi energetik xavfsizligiga nisbatan zamonaviy tahdidlar ko'lamini tadqiq etganda ikki asosiy jihatga e'tibor berish lozim. Birinchi masala mintaqaviy energetik xavfsizlikka nisbatan ichki tahdidlar hisoblansa, ikkinchidan, yirik davlatlarning geosiyosiy manfaatlari to'qnashuvi omilini o'rganish muhimdir. Fors ko'rfazi mintaqasi energetik xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki omillari:

- bugungi kunda FKADHK davlatlarining siyosiy va iqtisodiy xavfsizligiga eng katta tahdid Eronning yadroviy dasturi borasidagi siyosatidir. Jahon hamjamiyatining Eronga nisbatan keskin siyosiy va

iqtisodiy bosimlari Kengash davlatlarining jiddiy xavotiriga sabab bo‘lmoqda;- Iroqdagi vaziyatning to‘liq izga solinmaganligi Kengash davlatlarining istiqbolli iqtisodiy loyihalari amaliyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ma’lumki, Iroqda jahon neft zaxiralarining 11 foiz joylashgan. Bu ko‘rsatkich mintaqaviy energetik loyihalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi;

- tobora diniy nizolarning avj olayotganligi, sunniy va shia mazhabi o‘rtasidagi doimiy raqobat muhiti, natijada mintaqaga nisbatan butun bir terrorizm o‘chog‘i sifatida qaralishi, islom dini va madaniyatiga nisbatan radikal qarashlarning kuchayishi neft va gaz sohasiga xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi va istiqbolli bozorlarni egallashga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda;

- mintaq davlatlari xavotiriga sabab bo‘layotgan navbatdagi omil bu – an’anaviy resurs – neft va gaz zaxiralarining cheklanganligidir. Shu jihatdan Kengash davlatlari va qolaversa butun mintaq davlatlarining tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, eksport hajmini kamaytirish borasidagi yondashuvlaridagi ixtilof eng dolzarb masala hisoblanadi.

Arabiston oltiligi davlatlarining iqtisodiy va siyosiy barqarorligi asosan neft-gaz omiliga bog‘liq bo‘lib kelgan. Fors ko‘rfazi mintaqasi xavfsizligiga, xususan energetik xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Insoniyatning jahondagi tabiiy zaxiralarning tugab borayotganligini anglashi va xususiy ehtiyojlarni qondirish manfaati natijasida Fors ko‘rfaziga nisbatan tahdidlar yanada kuchaydi. Alohida ta’kidlash joizki, ushbu mintaq davlatlari tabiiy resurslarga qanchalik boy bo‘lishmasin, doimo dunyoning qudratli davlatlari uchun nishon bo‘lib kelganlar va hozirgi davrda ham nizolar, ichki kelishmovchiliklar hamda ziddiyatlar avj olgan siyosiy beqaror mintaq hisoblanadi. Qudratli davlatlarning mintaqadagi siyosati bevosita neft va gaz resurslarini qo‘lga kiritish bilan bog‘liq ekanligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Bu borada birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning quyidagi mulohazalari muhim ahamiyatga ega: “...kimda-kim neft va gaz zaxiralariga hukmronlik qilsa, dunyoga hukmron bo‘lishi mumkin degan qarashlar kuchayib bormoqda. Va aksincha – kimdaki shunday resurslar bo‘lmasa, neft-gaz, umuman, uglevodorod xom ashyosiga ega boshqa davlatlarga nisbatan turli harakatlar ham sodir bo‘lyapti. Chunki qudratli davlatlar yaxshi biladiki, mana shunday boylik kimning qo‘lida bo‘lsa, u boshqalarni o‘z ta’siriga olishning kaliti, vositasi bo‘lib xizmat qiladi”.

Jahon miqyosida energetik iste’mol darajasining oshib borayotganligi, xususan, Osiyo segmenti ulushining ortishi mintaqada keskin siyosiy

raqobat muhitini yanada keskinlashtirishi mumkin. Energoresurslar iste'moli dunyo miqyosida 2030-yilgacha 60 foiz ga oshishi bashorat qilinmoqda. Bu jarayon ham bevosita Eron bilan bog'liq. Bugungi kunda Xitoy, Hindiston, Pokiston, Yaponiya kabi davlatlarning energetik ehtiyojlari kundan kunga ortib bormoqda. Bu davlatlar mintaqadagi energetik raqobatda ishtirok etishdan va manfaatli tashqi energetik siyosatdan manfaaddordir. Jumladan, Eron gazining Xitoygacha tortilishi, Eron-Pokiston-Hindiston quvuri borasidagi munozaralar Kengash davlatlari tashqi energetik siyosatida alohida e'tirofga sabab bo'lmoqda. Chunki, Eron FKADHK davlatlarining asosiy energetik raqobatchisiga aylanishi mumkin.

Xulosa. Fors ko'rfazi xavfsizligi, FKADHK davlatlari energetik xavfsizligi masalalari Kengash davlatlari tashqi siyosatida asosiy ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Jahon miqyosida neft va gazga bo'lgan talabning oshishi va ko'pchilik davlatlarning taraqqiyoti ushbu resurslarga bog'liq ekanligi jahon siyosatida va umuman zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida FKADHK davlatlari roli oshib borayotganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, 1970-yillarning boshida Misr prezidenti Anvar Saadatning neft va siyosatning bir xil ma'no kasb etishini ta'kidlaganligi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Neftdan siyosiy bosim sifatida foydalanish va energetik resurslarning siyosiylashtirilishi tendensiyalari bugungi kunda ham kuzatilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dikshit R.D. Political Geograhgy. The Spatiality of Politics. New Delhi: McGraw-Hill Publication Company Limited. 2004. – P.196.
2. Madaminova D. (2020). Hozirgi davrda fors ko'rfazi mintaqasining geosiyosiy ahamiyati. INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION, 1(1), 19-22.
3. Muhammadsidiqov M.M. Xalqaro mintaqashunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: "Barkamol fayz media", 2017. – 292 b.
4. Mahmudova, S. (2021). Fors Ko'rfazi mintaqasida xavfsizlik masalalarining geosiyosiy ahamiyati. *Scientific progress*, 1(6), 20-25.
5. Александров, И.А. Монархии Персидского залива: этап модернизации. – М.: Дело и Сервис, 2000. – С.5.
6. Гладкий, Ю.Н, Чистобаев А. И. Регионоведение. – М.: Гардарики, 2003.
7. Тўраев А. Форс кўрфазида нефть геосиёсати 1-4. <https://hp.jdpu.uz/index.php/history/article/download/4240/2829>

HINDISTON TASHQI SIYOSATIDA AFG‘ONISTON MUAMMOSI

Sadoqat HABIBULLAYEVA

TDSHU, Siyosatshunoslik yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: o‘qituvchi, H. Azimov

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi dolzarb bo‘lgan siyosiy vaziyat, ya’ni Afg‘onistondagi holat, shu jumladan Janubiy va Markaziy Osiyo mintaqasidagi jarayonlar, bu borada Hindiston xalqaro munosabatlarida Afg‘oniston muammosi to‘g‘risida bayon qilingan. Maqolada muallif ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar qay darajada ekanligi, Hindistonning Markaziy Osiyoda ayniqsa, Afg‘onistondagi geosiyosiy manfaatlari va o‘rni, mintaqadagi Afg‘oniston muammosi va uning kelib chiqish sabablarini, rivojlanishi va muammoni bartaraf etish yo‘llari, bu borada Janubiy Osiyo mintaqasidagi Hindistonning yondashuvi, ikkala davlat o‘rtasidagi geosiyosiy aloqalar va Hindiston Afg‘onistondagi vaziyatni bartaraf etishdagi qarashlari hamda ijobiy harakatlari haqida atroflicha mushohada qilgan.

Kalit so‘zlar: Hindiston, Janubiy Osiyo, Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Pokiston, “Hindiston-Markaziy Osiyo” muloqoti, geosiyosat, mintaq, strategik, pozitsiya, tashqi siyosat, Tolibon.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasidagi Afg‘oniston va undagi ro‘y berayotgan jarayonlar e’tiborga egadir. Bu borada Janubiy Osiyo mintaqasidagi Hindistonning geosiyosiy yondashuvi ahamiyatlidir. Janubiy Osiyo mintaqasida Hindiston tashqi siyosatda Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan yaxshi qo‘shnichilik aloqada bo‘lib kelgan. Hindiston uchun Markaziy Osiyo mintaqasida Afg‘oniston ahamiyatga egadir. Bevosita Hindiston Afg‘oniston bilan chegaraga ega bo‘lmasa-da, lekin yaxshi qo‘shnichilik aloqada bo‘lib kelgan. Hindiston o‘zining geosiyosiy manfaatlarini namoyon etishda bevosita Afg‘onistonning roli ham bor. Bunda Afg‘oniston turli xil mezonlarga tayangan holda namoyon bo‘ladi. Avvalo, shu narsa e’tiborga molikki, tarixga nazar tashlanadigan bo‘lsa, Hindiston va Afg‘oniston qadimdan yagona sivilizatsiya shakllangan makonda qo‘shni davlat bo‘lishgan. Afg‘onistonning o‘ziga xosligi shundaki, mamlakat Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi o‘z hududidan o‘tuvchi chegaralarni yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro tushunish va ishonch chegarasiga hamda ko‘p qirrali taraqqiyot hududiga egaligidir. Hindiston ham bu borada yetakchi davlat. Afg‘oniston ikkala mintaqani bog‘lovchi

ko'prik hisoblanadi. Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'ziga xos chegara Afg'onistonning markaziy viloyatlari orqali o'tadi, shu bilan birga mamlakatning shimoliy va shimoli-g'arbiy viloyatlari geografik jihatdan Markaziy Osiyoga, janubiy va sharqiy viloyatlari esa Janubiy Osiyoga yaqinroq. Afg'oniston orqali ushbu mintaqalarni bir biri bilan bog'lash Hindiston uchun katta siyosiy va shu bilan bir qatorda iqtisodiy foyda ham keltiradi. Bu esa Hindistonning geosiyosiy manfaatlari uchun mintaqaviy darajadagi roli va ta'sirini belgilab beradi.

Keyingi asosiy mezonlardan biri, Janubiy Osiyo mintaqasida azaldan Hindiston va Pokiston tashqi munosabatlarda boshqa davlatlar bilan aloqalarga taqqoslaganda, ikkala davlat bir-biri bilan raqobatdosh davlatlar sifatida qaraladi. Ya'ni, bu borada ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida Afg'oniston bilan Hindiston aloqalarida qaraladigan bo'lsa, bu borada Hindiston uchun asosiy raqobatdosh davlat bu- Pokiston. Hindiston esa mintaqadagi geosiyosiy raqobatdosh bo'lgan Pokistonni Afg'onistonga ta'sirini kamaytirishga intildi. Buning sababi shundan iboratki, Dehli rahbariyati Islomobod tomonidan Afg'oniston hududidagi jangari guruhlarining jangari guruhlarining Kashmir tomon yo'naltirish xavfi mavjud, deb hisoblaydi. Professor Joshi Nirmala Hindistonning bu boradagi manfaatlari xususida quyidagicha yozadi: "Hindistonning Afg'onistondagi manfaati diniy ekstremizm va terrorizm markazi sifatida qabul qilmaslikdan iborat. Biroq rasmiy jihatdan Hindiston "Tolibon" harakatini Pokiston bilan yaqin aloqaga kirishishi, ularning fundamentalistik kelishuvi hamda Jammu va Kashmir harbiy amaliyotlarida afg'on yollanma askarlarining keng jalb qilinishidan tashvishlanadi"¹.

Dehli siyosiy tadqiqotlar guruhi direktori Radha Kumarning qayd etishicha, ko'pchilik afg'onlar Pokistonning afg'on siyosatidagi har qanday harakatlarga qarshi chiqishmoqda va bu jarayonda Hindistonning xavfsizligi Afg'oniston suvereniteti bilan chambarchas bog'liq, deb hisoblashmoqda. Mana shu vaziyatdan kelib chiqqan holda, bugungi kunda Dehli hukumati Afg'oniston siyosatida rasmiy ravishda Kobul bilan hamkorlik qilishga e'tiborini qaratib kelmoqda. Jumladan, Janubiy Osiyoda aholi soni 1,95 milliard kishini tashkil qilishi, iqtisodiy rivojlanishning yuqori sur'atlari kuzatilayotganligi va dunyoning bu qismida Hindiston va Pokiston kabi yetakchi mintaqaviy kuchlarning mavjudligi mintaqani

¹Nirmala J. Indian perspectives on regional approach to Afghanistan // Buyuk ipak yo'lining o'tmishi va hozirgi kuni: rivojlanishning ijtimoiy-madaniy, tarixiy, siyosiy, va iqtisodiy yo'nalishlari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, 25-mart 2013 y. – T.: ToshDSHI, 2013.- P.265

Markaziy Osiyo uchun jozibador hamkorga aylantiradi. Bundan tashqari Hindiston Afgʻonistonga har tomonlama iqtisodiy, moddiy taraflama aloqalarda koʻmak berib kelmoqda. Xususan, Hindiston Afgʻonistonga yordam berish boʻyicha jahonda beshinchi oʻrinda, Janubiy Osiyo davlatlari orasida esa birinchi oʻrinni egallaydi. Yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek, Hindiston Afgʻonistonni ijtimoiy-iqtisodiy qayta ishlash, jumladan savdo-sotiq, qurilish, taʼlim, sogʻliqni saqlash, energetika va boshqa sohalarda faol roʻl oʻynamoqda. Ushbu sohalarni amalga oshirishda Hindiston diplomatik yoʻl va, albatta, temir yoʻl bazalarini yoʻlga qoʻyish orqali ikki tomonlama aloqani oʻrnatgan.

Shuningdek, shu maqsadda Hindiston Afgʻonistonning 31 ta viloyatida 116 ta yirik loyihalarni maqsad qilgan boʻlib, Shohtut toʻgʻoni, Kobul va Chorikor shaharlarini ichimlik suvi bilan taʼminlash va ularni Bomiyon viloyatidagi bandi Amirga bogʻlash yoʻllarini tashkil etish loyihalari shular jumlasidan¹.

Dehlining rasmiy Kobul bilan ikki tomonlama aloqalari, ayniqsa, 2014-yildan keyin yanada rivojlanadi. Jumladan, 2015-yil 25-dekabrda Hindiston Bosh vaziri Narendra Modi Hindiston tomonidan, 90 million dollarga qurilgan afgʻon parlamenti binosini ochib berdi¹. Shuningdek, 2016-yil 4-iyunda Narendra Modi Hirotda qurilgan Salma toʻgʻonini Afgʻoniston Prezidenti Ashraf Gʻani bilan birgalikda ochib bergan boʻlsa, 2016-yil 25-dekabrda Afgʻonistonga yuqori darajadagi delegatsiya bilan qayta tashrif buyurib, afgʻon havo kuchlariga 4 ta maxsus MI-25 hujumkor vertolyotlarini taqdim etgan². Bundan tashqari, 2017-yildan boshlab Kobul-Dehli, Kobul-Mumbay, Kobul-Kalkutta va Kobul-Amritsar havo yoʻnalishlarida aviaparvozlar amalga oshirilmoqda. Afgʻoniston prezidenti Ashraf Gʻanining 2018-yil sentyabrdagi Hindistonga tashrifi davomida ham turli sohalardagi hamkorlikni amalga oshirishga doir “Yangi taraqqiyot sherikligi” bitimini (New Development Partnership) kuchaytirishga kelishib olindi.

Bugungi kunda har ikkala mintaqani barqaror rivojlanish istiqbollari va xalqaro munosabatlardagi oʻrni aynan Afgʻonistondagi vaziyat bilan bogʻliq. Agar Afgʻonistondagi vaziyat ijobiy hal qilinsa, tinchlik oʻrnatilsa Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy manfaatlar yanada mustahkamlanadi. Barqaror, kutilmaydigan harakatlarni amalga oshirmaydigan va jadal rivojlanayotgan Afgʻoniston Markaziy va Janubiy

¹ Afgʻonistonda tinchlik va barqarorlik oʻrnatish jarayonlarida Oʻzbekiston geosiyosati: monografiya / Boʻronov S.; – T.: “EFFECT-D”. 2021.-204 b.

² India-Afgʻanistan Relations // Embassy of India in Kabul: Bilateral Bries, September 2019. <https://eoi.gov.in> > KabulPdf India-Afganistan Relations.

Osiyo oʻrtasidagi muhim koʻprik, shuningdek zamonaviy sharoitlarda tarixiy Ipak Yoʻlini tiklashda muhim rol oʻynashi mumkin. Shu bilan birga, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlarining Afgʻoniston mojarosini hal qilishdagi imkoniyatlarini real baholash, ushbu mamlakatda tinchlik oʻrnatish va keng qamrovli mintaqalararo hamkorlikni yoʻlga qoʻyish muhimdir. Markaziy va Janubiy Osiyo oʻrtasidagi aloqalarni rivojlantirishni cheklaydigan bir qator jiddiy muammolarning mavjudligi bu ikki mintaqani integratsiya qilish va Afgʻonistonda murosali tinchlikni oʻrnatish maqsadida nostandart yechimlarni ishlab chiqish uchun mashaqqatli yoʻlni bosib oʻtish zarurligini koʻrsatib turibdi.

Taʼkidlash joizki, 2019-yil 12-13 yanvar sanalarida Samarqandda oʻtkazilgan “Hindiston-Markaziy Osiyo muloqoti”ning dastlabki Tashqi ishlar vazirlari uchrashuvida Afgʻoniston Tashqi ishlar vazirining ham ishtirok etishini Xitoy va Pokistonning mintaqadagi taʼsiriga qarshi Dehlining toʻgʻridan-toʻgʻri strategik yurishi, deb hisoblash mumkin. Forumlar saroyida oʻtkazilgan uchrashuvda Oʻzbekiston Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov va Hindiston Tashqi ishlar vaziri Sushma Svaraj raislik qildilar. Muloqotning alohida yalpi sessiyasida Afgʻoniston Islom Respublikasi tashqi ishlar vaziri Salohiddin Rabboniy boshchiligidagi delegatsiya ishtirok etdi. “Hindiston – Markaziy Osiyo” muloqotining tashqi ishlar vazirlari Afgʻonistonning nufuzli delegatsiyasi ishtirokini maʼqulladilar hamda mamlakatni mintaq va jahon iqtisodiy aloqalari tizimiga jalb etishga xizmat qiladigan qoʻshma infratuzilma, tranzit-transport, energetika va boshqa loyihalarni amalga oshirish orqali Afgʻonistonning iqtisodiy tiklanishiga yordam berishga tayyor ekanliklarini taʼkidladilar. 2019-yilning ikkinchi yarmida Toshkentda oʻtkazilishi rejalashtirilgan Afgʻoniston boʻyicha sakkizinchi mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik konferensiyasini oʻtkazishga tayyorgarlik doirasida hamkorlik qilishga tomonlar hozir ekanliklari tasdiqlandi. Shuningdek, ishtirokchilar BMT tomonidan qabul qilingan “Maʼrifat va diniy bagʻrikenglik” rezolyutsiyasini inobatga olgan holda madaniyat, ilm-fan, taʼlim va sport sohasida hamkorlikda yoshlarga oid loyihalarni amalga oshirishga eʼtibor qaratdilar.

Taʼkidlash kerakki, mazkur formatning “Connecting Central Asia” formatidan asosiy farqi, unda Afgʻoniston tashqi ishlar vazirining ishtirokidir. Boshqacha aytganda, Hindiston Markaziy Osiyo bilan yaqin hamkorlikni amalga oshirishda faqat Afgʻoniston orqali oʻtadigan transport yoʻlaklari istiqbolli hisoblanadi. Jumladan, hozirda Hindiston Xitoyning “OBOR” loyihasiga muqobil hisoblangan Xalqaro Shimol-Janub transport koridorini yaratishni qoʻllab quvvatlamogʻda. Bu borada Hindistonning

Markaziy Osiyoga Afgʻoniston orqali bogʻlanishida istiqbolli yagona yoʻlak Eronning Chobahor porti hisoblanadi. Dehli Afgʻoniston siyosatida yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda, hozirda Kobul bilan hamkorlik qilishga asosiy eʼtiborini qaratib kelmoqda. Hindistonning Afgʻoniston geosiyosatiga yuqorida keltirilgan tahlillar shundan dalolat bermoqdaki, Dehli istiqbolda “Tolibon” harakatining har qanday shaklda hokimiyatga kelishidan manfaatdor emasligi, shu nuqtayi nazardan antitolib kuchlari bilan avvalo, rasmiy Kobul bilan hamkorlikni qatʼiy davom ettirishini taxmin qilish mumkin. Umuman olganda, Afgʻoniston geosiyosiy tendensiyalarida Yevropa Ittifoqi, Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar va Turkiya singari kuch markazlari ham sezilarli rol oʻynaydi. Lekin ushbu kuch markazlarining Afgʻonistondagi taʼsiri bilvosita xususiyatga ega boʻlib, biz yuqorida tahlil etgan xalqaro va mintaqaviy kuchlarning geosiyosiy taʼsiriga qaraganda ikkinchi darajali hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo mintaqalaridagi oʻzaro aloqalar, ayniqsa bu borada Hindiston va Afgʻoniston aloqalari xarakterli jihat- Hindistonning Afgʻonistondagi geosiyosiy manfaatlari va bu borada ikkala tomonning yondashuvi, bu masalada nafaqat ikki davlatning, balki boshqa aloqadagi davlatlarning ham oʻrni katta boʻldi. Davlatlar oʻrtasidagi uchrashuvlarda Afgʻoniston har tomonlama tahlil qilindi va Hindiston ham oʻz geosiyosiy manfaatlarini ifoda etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Nirmala J. Indian perspectives on regional approach to Afghanistan // Buyuk ipak yoʻlining oʻtmishi va hozirgi kuni: rivojlanishning ijtimoiy-madaniy, tarixiy, siyosiy, va iqtisodiy yoʻnalishlari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari toʻplami, 25-mart 2013 y. – T.: TDSHI, 2013. – P.265
2. Afgʻonistonda tinchlik va barqarorlik oʻrnatish jarayonlarida Oʻzbekiston geosiyosati: monografiya / Boʻronov S.; – T.: “EFFECT-D”. 2021. – 204 b.
3. India-Afgʻanistan Relations // Embassy of India in Kabul: Bilateral Bries, September 2019. <https://eoi.gov.in> > KabulPDF India-Afganistan Relations.
4. Dixit G. The New Geopolitical Realities in Afghanistan: India’s Constractive Role as US Partner // The United Service Institution of India, January 2018 march 2018. <https://usoifindia.org/publication/usi-journal/the-new-geopolitical-realities-in-afghanistan-indias-constructive-role-as-us-partner/>

5. Joint Statement: Vision and principles for India-U.S. Comprehensive Global Strategic Partnership // Official website Prime Minister Narendra Modi, February 25, 2020. [http:// www.narendramodi.in/joint-statement-vision and -principles- for-india-u-s-comprehensive-global-strategic – partnership-548572](http://www.narendramodi.in/joint-statement-vision-and-principles-for-india-u-s-comprehensive-global-strategic-partnership-548572)

6. Sawhney A. Chabahar Port: Unlocking Afghanistan's Potential // Center for Strategic and International Studies / <http://www.csis.org/chabahar-port-unlocking-afghanistans-potential>

MUHAMMAD RIZO OGHIY IJODIDA SIYOSIY TA'LIMOT VA QARASHLAR XUSUSIDA

Zarina NORBOYEVA

TDSHU, Siyosatshunoslik yo'nalishi 2- kurs talabasi

Ilmiy rahbar: A. Mamadjonov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning hayot yo'li, siyosiy faoliyati va ijodi haqida ma'lumot keltirildi. Muhammad Rizo Ogahiy vatanimiz o'tmishini o'sha davr tarixini, siyosatini haqqoniy aks ettirgan nodir asarlari, tarjimalari bugungi kun uchun muhim qo'lyozma ekanligi bayon etildi.

Kalit so'zlar: Devon, miroblik, tarix, tarixiy asarlar, "Ta'viz ul-oshiqin", "Zubdat-ut-tavorix", "Qasidai nasihat", "Ustina" radifli g'azal, "Qish" radifli g'azali "Ogohnoma" qasidasi.

Bizning tarixi buyuk diyorumiz O'zbekiston qadimdan ilm-fan rivojlanishining o'choqlaridan biri, buyuk allomalar yetishib chiqqan davlatdir. Bobolarimiz ilm-fan uchun qoldirgan merosi nafaqat Osiyoda balki Yevropada ham bugungi kunga qadar ham ma'lum sohalarda dasturi amal sifatida foydalaniladi. Bu borada Akademik Yahyo G'ulomov quyidagi fikrlarni bildirgan "Dunyoning boshqa xalqlari kabi, o'zbek xalqi ham o'zining asrlar davomida yaratilgan boy, o'ziga xos madaniyatiga ega. Bu yerdan fan, adabiyot va san'atning qator ulug' arboblari yetishib chiqqanlar. Shuni aytib o'tish kerakki, keyingi yillarda hech qanday asossiz Lutfiy, Atoyi, Sakkokiy, Bobur, Mashrab, Turdi Farog'iy, Munis, Ogahiy,

Feruzlarning ijodi o'rganilmayotir, biz faqat Navoiy, Muqumiy, Furqat, Zavqiy, Avaz kabi shoirlar ijodini o'rganish bilan cheklanib qolganmiz"¹.

Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan tarixiy shaxslar, allomalar merosini o'rganish ularning asarlarini yanada xolis o'rganish bo'yicha bir necha tashabbuslar ilgari surildi. Shular qatorida Navoiyshunoslik, Boburshunoslik Ogahiyshunoslik fani vujudga keldi. 1958 yilda Xivaga Toshkentdan Subutoy Dolimov (1907-1991) kelgan, u zo'rg'a Ogahiy va Munisning qabrini topgan. 1959 yilda Xorazimga Y.G'ulomov, Ibrohim Mo'minov, Qori Niyoziy, Zulfiya, Uyg'un, Ayyomiy, Subutoy Dolimov, Egam Rahim, Quvomiddin Munirov va boshqalar kelgan. Vaqtlar o'tib Xorazimda Ogahiy bog'i qurilib uning qabri obod etildi, uning 150, 180, 190 yillik yubileyi bo'lib o'tkazildi, yaqin kunlarda shoirning 200 yillik yubileyini davlatimiz keng miqyosida nishonlaydi². Muhammad Rizo Ogahiy 1809-yili 17-dekabrda Xiva yaqinidagi Qiyotqishlog'ida Erniyozbek mirob oilasida tavallud topdi. Shu yerda boshlang'ich ma'lumotni oladi. Yoshligida otasi vafot etib, adabiyotimizning yana bir yorqin siymosi bo'lmish amakisi Munisning tarbiyasida bo'ldi. U maktab, keyinchalik madrasa tahsili davomida arab va fors tillarini, tarix ilmini puxta o'rgandi. 1829-yilda Munis vafot etgach, hukmdor Olloqulixon uning o'rniga Ogahiyning mirob (suv ishlari boshqaruvchi) etib tayinlaydi. Suv tanqis bo'lgan Xorazimda miroblik nihoyatda mas'uliyatli vazifa bo'lib, uni ishonchli va halol odam boshqarishi lozim edi. Shu davrdan Ogahiyning davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyati boshlanadi. U davlat ishlari bilan mashg'ul bo'lar ekan, badiiy ijod hamda ilmiy faoliyatini to'xtatmadi. Ogahiy devonidan turli: ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-didaktik, tabiat tasviri va boshqa mavzudagi she'rlar joy olgan³. Ogahiy o'z hayoti davomida Xiva xonlari Muhammad Rahimxon I (1806-1825), Olloqulixon (1825-1843), Rahimqulixon (1843-1845), Muhammad Aminxon (1845-1855), Abdullaxon (1855-1855), Qutlug'murodxon (1855-1855), Sayid Muhammadxon (1855-1864), Muhammad Rahimxon II (1864-1874) davrlarida yashab ijod qilgan. 1845-yildan Ogahiy hayotidagi og'ir va musibatli davr boshlanadi. Shu yili miroblik ishlari bilan safarda yurganda, tasodif tufayli oyog'i qattiq shikastlanadi va hali yigit yoshidayoq to'shakka bog'lanib qoladi. Shu dard azobini tortayotgan shoir umr yo'ldoshidan ham ajraladi. 1857-yilda miroblikdan iste'fo berishga majbur bo'ladi, lekin bu musibatlar oldida u chekinmadi. Kuchli iroda, hayotni sevishi Ogahiyning ijodga,

¹ <https://n.ziyouz.com/kutubxona/barcha-kitoblar?start=18>

² <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/519>

³ O'zbekiston adabiyoti ensiklopediyasi tuzuvchi Shoxjaxon Dehqon.9-sinf adabiyot darsligi

izlanishga undadi. Ogahiyning o'zbek tilida yozilgan "Ta'viz ul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") devoni mavjud bo'lib, unda shoir yashagan muhitning amaldorlaridan qattiq shikoyat qilib yozgan she'rlarini ko'proq uchratamiz.

Ogahiy she'rlari orasida hukmdorlarga aytilgan qasidalar ham bor. Bu devondan g'azallar, mustazod, muxammas, musaddaslar o'rin olgan. Devonda 18 ming misra she'r va 83 muxammas jam qilingan bo'lib, uning kirish qismida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Ogahiy quyidagi tarixiy kitoblarning muallifi bo'lgan: Olloqulixonga bag'ishlangan "Riyoz ud-davla" (1844-y.), Rahimqulixon davriga bag'ishlangan "Zubdat ut-tavorix" (1846-y.), Muhammad Aminxon davriga bag'ishlangan "Jome'-ul voqeoti Sultoni" (1856-yil), Sayid Muhammadxon davriga bag'ishlangan "Gulshani davlat" (1865 yil), Muhammad Rahimxon Feruz davriga bag'ishlangan "Shohidi iqbol" ("Iqbol shohidi") asarlarida Xiva xonligining 1813-yildan to 1874-yilgacha bo'lgan tarixi davriy izchilikda, boy tarixiy manbalar asosida yoritib berilgan edi.¹

Uning hayot va ijod yo'liga nazar solsak Xiva taxtiga ketma-ket kelib ketgan sakkiz xon hukmronligi davrida yashab, harbiy yurishlar, tarixiy voqealar guvohi bo'lgani va ularni o'z asarlarida aks ettirgani bilan e'tiborlidir. "Qasidai nasihat" asarida esa Ogahiyning siyosat va davlatga munosabati, hukmdor fazilatlari va burch vazifalari borasidagi mulohazalari bayon etilgan pandnomadir. Odatda, qasidalarda biron-bir voqea yoki shaxs ulug'lanadi, har tomonlama vasf qilinib, benuqson, ideal qiyofada tasvirlanadi. Ogahiyning qasidasi esa odatdagi maqtovlar tizmasidan iborat bo'lib qolmadi. U mazkur asarni yozishda o'z oldiga aniq maqsad qo'ygan edi. Shunga ko'ra adib qasida vositasida ko'pni ko'rgan donishmand, umr mazmunini anglagan faylasuf sifatida yosh xonga nasihatlar qiladi, davlatni boshqarish san'atidan saboq beradi. Asar Feruzga bag'ishlangan.² G'ayratli, saxovatli, hayoli, sof niyatli, madaniyatli, hamiyatli bo'lishi zarur. Hukmdor shu fazilatlarga ega bo'lsa hokimiyati kamol topadi. Shu fazilatlarga ega bo'lsa mamlakati farovon bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi. yo'llarini ham ko'rsatib o'tgan. Shoirning fikricha, shoh shariat ahkomlariga qattiq amal qilmog'i darkor. Aysh ishratdan, fitna va g'iybatdan, g'aflatdan, yalqovlikdan, zulm razolatdan, chaqimchilikdan, molparastlikdan uzoq bo'lishi kerak. Xiva xoni Feruz Ogahiyning davlatni boshqarish to'g'risidagi maslahatlariga quloq tutgan, uning hikmatli baytlarini marmar toshlarga yozdirib arzxonalariga qo'ydirgan, ko'p ezgu ishlarni amalga oshirgan. Bu davrda Xorazm xalqi mahalliy boylar va rus bosqinchilari

¹ Munirov Q , Munis , Ogahiy, va Bayoniylarning tarixiy asarlari.-T:Fan,1960

² Ogahiy.II jild.G'afur G'ulom nomidagi adabiyoti va san'ati nashriyoti.Toshkent.1972

zulmi ostida qolgandi. Lekin shunga qaramay xonlikda madaniy-ma'rifiy ishlar rivoj topdi. Bunda Ogahiyning ma'rifiy hissasi katta bo'ldi. Ogahiyning Feruzga bergan siyosiy saboqlari bugun ham o'z qiymatini yo'qotgan emas. Mutafakkir shoir jamiyatning insonparvarlik imkoniyatlarini oshirishning barcha yo'llaridan foydalanishga harakat qildi, hukmdorlarni adolatga, rahm-shafqatga da'vat etdi. Ogahiy davlatni boshqarishning "Qasidai nasihat" adabiyotimiz tarixidagi siyosiy didaktik lirikaning yorqin namunasi bo'lib qoldi. Ogahiy Sayid Muhammadxon iltimosiga binoan 1857 yilda qasida yozdi.

Bas, endi raiyatga qil imdod, Topay desang ikki jahonda murod.

Ilohe, bu qasr ichra qilyun makon, Bu manzilni fahm etmagil jovidon.

Vafosiz durur dahr iqboli bil, Baqosiz durur mulk ila moli bil

Ko'ngil qo'ymagil mulk bunyodig'a, Yet, albatga, mazlumlar dodig'a!¹

Qasida ko'hna Arkda xonning arxonasidagi marmar ustunga o'yib yozildi. Shoir o'z qasidasida insonparvarlik g'oyalarini olg'a surdi, adolatparvar, ma'rifatparvar davlat rahbarlarini orzu qildi va xonni shunga da'vat etdi. Ogahiy Xiva xonligining 1813 yildan 1873 yilgacha bo'lgan tarixini izchillik bilan boy manbalar asosida yozib qoldirgan. Ogahiyning tarixiy asarlariga akademik V. V. Bartold yuqori baho bergan: "Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy va tarixiy asarlar..."² voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan daliliy manbalarning ko'pligi jihatidan bizgacha yetib kelgan Qo'qon va Buxoro xonliklari tarixi bo'yicha bo'lgan hamma asarlarni o'zidan ancha orqada qoldiradi". Ogahiyning tarixiy asarlari daliliy manbalarning boyligi va ishonchli bo'lishi bilan ajralib turadi. Ogahiyning tarixiy asarlari qo'shni qardosh xalqlarning tarixini o'rganishda birinchi manba hisoblanadi. Ogahiy o'z nasihatlarida saltanatni boshqarishning yo'l yo'riqlarini ko'rsatadi, mamlakat va xalqni adolat bilan idora etish yo'llarini belgilab beradi. Bu qasida masnaviy janrida yozilgan bo'lib, shoirning siyosiy-ma'rifiy qarashlarini yorqin ifoda qiladi. "Ustina" radifli g'azali o'zbek mumtoz adabiyotining eng mashhur asarlaridan biri. Unda yorning cheksiz lirik qahramonning ishqdagi o'rtanishi va shohga nasihati keltiriladi. "Ustina" radifli g'azalning 7-, 8- baytlarida oshiqona kechinmalar izhoridan chekiniladi va falsafiy umumlashma ruhidagi baytlar bitiladi.³ Ular birinchi baytdan kam bo'lmagan shohbayt darajasida vujudga kelgan:

¹ <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/ogahiy-1809-1874/>

² Ma'naviyat yulduzlari (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent. 1999)

³ O'zbekiston adabiyoti ensiklopediyasi tuzuvchi Shoxjaxon Dehqon. 9-sinf adabiyot darsligi

Ey shah, karam aylar chog‘i teng tut yamon-u yaxshini
Kim, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina.
Xoki taning barbod o‘lur oxir jahonda necha yil
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina.

Bu o‘rindagi shohga murojaat Ogahiyning davr hukmdoriga qarata qo‘llangan. Ogahiyning yuqoridagi satrlarda tasvirlangan ma‘shuqadan chekkan sitamlari, muayyan darajada, davrdan tortgan sitamlari timsoli ham edi. Demak, tushunish mumkinki, shoir izhori dard vositasida ko‘nglini bo‘shatib olgach, shohni adolatga chorlab, unga purhikmat pand aytadi. Marhamat va muruvvat ko‘rsatganingda, yomon-u yaxshiga teng munosabatda bo‘lgan, degan fikrni chiroyli she‘riy asoslash uchun oftob o‘z nurini vayrona va obod yerlarga teng sochishini misol qilib keltiradi. Quyoshdek yuksak martabada o‘tirgan amaldorni Sulaymonshohdek taxtini shamol ustiga qo‘ndirib, bu olamdan yeldek sayr etib o‘tsa ham oxir-oqibatda tanasi tuproqqa aylanishi va yelga sovurilishidan ogohlantiradi.

“Zubdat-ut-tavorix” asarining birinchi qismida Rahimqulixonning tug‘ilishi, ilm o‘rganish va harbiy mahorat egallash yo‘lidagi sa‘y-harakatlari, shuningdek, bo‘lg‘usi xonning Xazorasp hokimi sifatida olib borgan faoliyati badiiy shaklda mufassal bayon qilinadi. Asarning ikkinchi qismida Rahimqulixonning saltanat taxtiga o‘tirgan kunidan to vafotiga qadar sodir bo‘lgan voqealar o‘z aksini topgan. Unda Xiva hukmdori Rahimqulixon ezgu fazilatlar sohibi sifatida ulug‘lanadi, uning ko‘plab ilmlarni egallagani, fuqarolarga shafqatli bo‘lganligi va umuman, Xiva xonlarining ma‘rifatli bo‘lganligi, adabiyot va san‘at, ilm-u hunar rivojiga alohida e‘tibor bergani ta‘kidlanadi.¹

Ogahiy tarixiy hodisalarni, xalq boshidagi og‘ir musibatlarni haqqoniy tasvirlaydi. Masalan, qoraqalpoq xalqining qo‘zg‘olonini yakunlar ekan shunday deydi: “davroni inqilob nishon ichida ko‘p voqea bo‘lmushdurkum, oz dushman ittifoqidan ofati sahim va kichik g‘anim ijmoidin mehnati azim paydo bo‘lub, nabard arsasida farzindik xiromlik bilan ot surib, ulug‘ shohlarni piyodalig‘ martabasiga tshurib motlig‘ sarhadiga yetkiribdurlar”. Ogahiy xalq qo‘zg‘olonlarining mohiyatini ulug‘ muarrix sifatida kitobxon ko‘zi oldida yaqqol gavdalantirib beradi:

Agar jam o‘lsa uchqun bir makong‘a,
Bo‘lur albatta otashgoh paydo.
Va gar xar soridan yig‘nolsa qatra,

¹ Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Zubdatu-t-tavorix/ Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi, izoh va ko‘rsatkichlar muallifi N. Jabborov-T. 2009

Bo‘lur tadrij ila to‘fon xuvaydo.¹

Ogahiy xalq qo‘zg‘olonlarining uchqunidan otashgoh, qatrasidan to‘fon paydo bo‘lishini yaxshi anglay olgan edi. “Qish” radifli g‘azali diqqatga molikdir. Bunda qish fasli tasviri orqali kambag‘al, bechora, kulbasiz va yupun oddiy mehnatkash xalqning ahvoliga achinadi, beva-bechoralarga nisbatan himmatsiz, e‘tiborsiz va shafqatsiz bo‘lgan boylar va davlatmandlardan nafratlanadi.² Ogahiy Xorazmshohlar davlatchiligi, ularning yuksalish va inqirozga uchrash tarixini ham o‘rgangan, ayrim siyosiy masalalarni tadqiq qilgan va asarlar yaratgan. Ogahiyning siyosiy ideali ma‘rifatli, odil hukmdordir. U o‘zining “Ogohnoma” qasidasida bo‘lg‘usi hukmdor qanday xislatlarga ega bolishi kerakligini bayon qiladi. Bular: himmat, shijoat, adolat, siyosat, mardlik. g‘ayrat, saxovat, hayo, va‘daga vafo qilmoqlik, yaxshi niyat, muruvvat, shariat hukmiga rivoj bermoq, kufr dardiga iloj topmoq, lutf-u karam bilan lashkar ko‘nglini olmoq. Ogahiy fikricha, ana shu omillarga amal qilingandagina davlatda tartib va intizom o‘rnatiladi. Davlatni inqirozga olib keluvchi sabablar: ogohlikni unutish, sustlik, shariatni unutish, xalqning arzini tinglamaslik, jaholat, fisq-fasod va bid‘atga yol bermoq, jabr-u zulmga moyil bo‘lmoq xasislik, baxillik, lashkarni tushkun ahvolda qoldirish, aysh-ishratga berilish, davlat va mamlakat ahvolidan bexabarlik, azizlarni xor va bee‘tibor etish, bezori, battol odamlarga muruvvat ko‘rsatish, xiyonatkor xasadguylarga yaqin bolish va shu kabi nuqsonlar. Bu qusurlar davlat va hukmdor uchun ota zararli hamda xatarlidir, deydi Ogahiy va ogohlikka da‘vat etadi. Ogahiy o‘z ijodida adolat g‘oyasiga ham katta ahamiyat beradi. U xonga murojaat qilib aytadiki, oftob o‘z nurini vayrona va obod makonlarga teng sochgani singari, hukmdor xam rahm-shafqat, himmat-saxovat ko‘rsatganida barcha insonlarga barobar munosabatda bo‘lishi kerak. Shundagina jamiyatda adolat ta‘minlanishi mumkin. Ogahiyning fikricha, hukmdor davlatni boshqarishda donishmand, davlatchilik tajribalarini yaxshi biladigan, xayrixoh-ezgulik istovchi kishilarga tayanmog‘i lozim. Pasthimmat, nodon, davlatchilik ilmidan bexabar kishilar hukmdorga madadkor bo‘la olmaydi. Bunday odamlar el molini o‘z nafslarini qondirish ishlariga sarflaydilar. Shoh bu ogohlarni unutmasa xalq tinch, mamlakat osoyishta buladi³. Ogahiy ijodidagi bu

¹ Ogahiy.Asarlar.VI jild.G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti.Toshkent 1978-yil

² O‘zbekiston adabiyoti ensiklopediyasi tuzuvchi Shoxjaxon Dehqon.9-sinf adabiyot darsligi

³ Qodirjon Odiljonovich Mhkamov Sharq mutafakkirlarining sotsiologik ta‘limoti(o‘quv qo‘llanma)Namangan-2020

g'oyalar hozirgi milliy davlatchiligimizni tiklash va shakllantirish ishiga ko'maklashadi.

Xulosa. Muhammad Rizo Ogahiy ijodini tarixiy siyosiy tahlil qilar ekanmiz uning siyosiy qarashlarida ikkita tendensiya mavjudligini, bir tomondan, davlatni boshqarish masalasida ma'rifatparvarlik, insonparvarlik, demokratik qarashlar ilgari surgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, masalani bir tomonlama hal qilib, topish qiyin bo'lgan ideal ma'rifatparvar shaxs rolini bahodanligini guvohi bo'lamiz. Ogahiyning hayot yo'li 8 nafar xon hukmronligi davrida o'tdi. Ogahiy esa 8 nafar xonlik tarixini guvohi bo'ldi bu haqida esa o'z asarlarida ma'lumotlar yozib qoldirdi. Uning asarlaridan bevosita XIX asr O'rta Osiyo xonliklari davridagi voqealar, xonlarning siyosati, xalq qo'zg'olonlari, xonlarga bergan pand nasihatlariga bevosita guvoh bo'lamiz. Ogahiyning ogohlikka da'vat borasidagi bitiklari hozir-javobligi bilan e'tiborimizni tortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy
<http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/519>
2. Munirov Q. Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlari. – T.: Fan, 1960.
3. Ogahiy. Asarlar: II jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyoti va san'ati nashriyoti, 1972.
4. <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/ogahiy-1809-1874/>
5. Ma'naviyat yulduzlari. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
6. O'zbekiston adabiyoti ensiklopediyasi: tuzuvchi Shoxjaxon Dehqon. 9-sinf adabiyot darsligi
7. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Zubdatu-t-tavorix / Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi, izoh va ko'rsatkichlar muallifi N. Jabborov. – T.: 2009.
8. Ogahiy. Asarlar: VI jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyoti va san'ati nashriyoti, 1972.
9. Mahkamov Q.O. Sharq mutafakkirlarining sotsiologik ta'limoti. O'quv qo'llanma. – Namangan, 2020.
10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 108 b.
13. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: "Sharq", 1998. – 32 b.

TURIZMNING MAMLAKAT IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Go'zal PARDAYEVA

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Xorijiy til va adabiyoti fakulteti, 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: p.f.n., dotsent U.U.Jumanazarov

Annotatsiya: Maqolada turizmning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri va uni baholashning dolzarb muammolari ko'rib chiqilgan, turizmning mamlakat iqtisodiyotiga bevosita va bilvosita ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: turizm, milliy iqtisodiyot, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, turizmning ta'siri, bevosita ta'sir, bilvosita ta'sir.

Turizm iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U allaqachon inson hayotining ajralmas qismiga aylanib bo'lgan. Butunjahon turizm tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilda dunyo bo'ylab xalqaro turistik tashriflar soni 1 milliard 460 millionni tashkil etgan bo'lsa, xalqaro turizmdan olingan daromadlar 1 trillion 481 milliard AQSH dollaridan oshib ketdi. Ushbu sohada band bo'lganlar 330 million kishiga yetdi. 2009 va 2019 yillar oralig'ida xalqaro turizmdan keladigan daromad 54 foizga o'sdi. Bu esa, jahon yalpi milliy mahsulotidagi o'sishdan (44 foiz) ko'p demakdir [6].

Ko'plab davlatlar, ular qatorida O'zbekiston ham turizm sohasini milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida tan olgan, chunki turizm YAIMning o'sishiga, valyuta tushumlari va investitsiyalar hajmining ortishiga, sanoat, savdo va ijtimoiy infratuzilma rivojlanishiga yordam beradi. Bugungi dunyoda turizm iqtisodiyotning sohasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri bo'yicha ko'plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Masalan, A.M.Gudratli turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini ijobiy baholab, turizm sohasi milliy daromadni ko'paytirish; yangi ish o'rinlarini yaratish; turistik xizmatlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha tarmoqlarni rivojlantirish; turistik markazlarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish; xalq hunarmandchiligi va madaniyat markazlari faoliyatini faollashtirish; aholi turmush darajasi oshishini ta'minlash; valyuta tushumlarini ko'paytirishga yordam berishini ta'kidlaydi [1]. A.V. Strelnikov esa, ushbu tarmoqda bitta yangi ish o'rnini

yaratish sanoat tarmog'iga nisbatan 20 barobar arzonroqqa tushishini aniqlagan [2].

Yu.V. Bogdanovning fikricha, 30 ta turist bevosita bitta yoki bilvosita ikkita yangi ish o'rnini yaratadi [3]. Tadqiqotchi Z.M. Muxammedovanning ta'kidlashicha, O'zbekistonda turizmdan keladigan daromadlarni yalpi ichki mahsulotdagi ulushi loaqal 5 foizga yetkazilsa, bu tarmoqda band bo'lgan aholi soni 2433 kishini tashkil etadi. Aholi jon boshiga YAIM hajmi esa 392,1 ming so'mga oshadi [4]. P. Vukadinovich turizmning nafaqat ijobiy, balki salbiy ijtimoiy-iqtisodiy samaralari ham borligini ta'kidlab, turizmning quyidagi salbiy ta'sirlarini ajratib ko'rsatadi: turizmga iqtisodiy bog'liqlik; mahalliy aholi uchun kundalik tovar va xizmatlarning qimmatlashishi; turizm bozorida transmilliy kompaniyalarning ustunligi; ishga oid sikllarning sezuvchanligi va ishga oid munosabatlarning o'zgarishi; milliy an'analar va qadriyatlarga putur yetishi va boshqalar [5]. Ushbu tadqiqotda turizm sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri miqdoriy asoslash maqsadida Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) hamda Butunjahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari va Jahon banki hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) statistik hisobotlari ma'lumotlaridan foydalanildi.

2019 yil yakuniga ko'ra turizm sohasi yoqilg'i va kimyo sanoatidan so'ng dunyoning uchinchi eng yirik eksport tarmog'iga aylandi. Ushbu sohadagi eksport hajmi 1,7 trillion AQSH dollariga yetdi. Turizmga to'g'ri keladigan kunlik eksport hajmi 5 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi [6].

Butunjahon sayohat va turizm kengashi ma'lumotlariga ko'ra turizmning jahon YAIMdagi ulushi 10,3 foizni, yillik o'sish sur'ati 3,5 foizni tashkil etdi. Ushbu sohadagi o'sish sur'ati ketma-ket to'qqiz yildan buyon jahon YAIM o'sish sur'atidan yuqori bo'lmoqda [7]. Turizm yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha ham dunyo iqtisodiyotining muhim lokomotivi bo'lib turibdi. Dunyo bo'yicha oxirgi besh yilda yaratilgan yangi ish o'rinlarining to'rtidan bir qismi ham aynan turizm sohasiga tegishli. Bu yangi texnologiyalarning jalb qilinishi bilan personalning qisqarishiga olib kelmaydigan iqtisodiyotning kam sonli tarmoqlaridan biridir. Bizning fikrimizcha, turizm sohasi COVID-19dan keyingi davrda ham yangi ish o'rinlarini yaratish orqali hamda tashrif buyuruvchilarning turistik manzillarga qaytishi hisobiga jahon iqtisodiyotini tiklashda hal qiluvchi soha bo'lib maydonga chiqadi. Butunjahon turizm va sayohatlar kengashi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 2019 yilda turizmning YAIMdagi ulushi 3,4 foizni, yillik o'sish sur'ati esa 12,3 foizni tashkil etdi. Turizm

sohasida band bo'lganlar soni 601,7 ming kishiga teng bo'lib, ular umumiy bandlarning 4,6 foizni tashkil etdi. Turizm xizmatlari eksportining mamlakat umumiy eksportidagi ulushi 21,1 foizga teng bo'ldi. Butunjahon turizm va sayohatlar kengashi metodologiyasiga ko'ra, turizm mamlakat iqtisodiyotiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, milliy iqtisodiyot tarkibidagi to'laqonli tarmoq sifatida ham gavdalanadi. Turistik safarlar turistlar tomonidan muayyan tovar va xizmatlarga talabni taqozo qiladi hamda ushbu tovar va xizmatlarning ko'proq ishlab chiqarilishiga olib keladi. Natijada, mamlakat YAIM hajmi ortadi. Shuningdek, turizm soha rivojlanish bo'yicha unga yaqin bo'lgan tarmoqlardan ham ko'proq qo'shilgan qiymatni yaratadi.

Mamlakat xalqaro turizm bozori jarayonlarida ishtiroki orqali valyuta kirib kelishini ta'minlaydi hamda to'lov balansi holatining yaxshilanishiga olib keladi. Daromadlarning xalqaro turizm tomonidan generatsiyasi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga kiritiladigan investitsiyalarga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, multiplikativ samara orqali iqtisodiy o'sish va rivojlanishga olib keladi. Shunday qilib, ishlab chiqarishni rivojlantirishdan tashqari, mamlakat infratuzilmasi va transport, aloqa liniyalari, savdo aloqalari va boshqalarni takomillashtiradi, bu esa oxir-oqibat iqtisodiy tizimni qayta tuzilishiga olib keladi. Bundan tashqari, turizm turistik manzillarda turistlarning turli tovar va xizmatlarga talabi sababli turizm bozoriga bilvosita xizmat ko'rsatuvchi sohalardagi ishlab chiqarishni to'g'ridan-to'g'ri rag'batlantiradi hamda yangi tarmoq va faoliyat shakllarini yaratish orqali mamlakatning iqtisodiy tarkibini diversifikatsiyalaydi. Turizm sohasida va uni bilvosita qo'llab-quvvatlovchi sohalarda yangi ish o'rinlari vujudga keladi va ular mamlakatdagi ishsizlik darajasini kamaytiradi. Turizm bozor aloqalarini rivojlantiradi va turizmga aloqador turli mahalliy korxonalar o'rtasida, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa sohalarida faoliyat yuritayotgan firmalar o'rtasida hamkorlikni o'rnatadi. Ko'pincha bunday hamkorlik iqtisodiy klasterlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Turistik faoliyatdan olinadigan soliqlar turli darajadagi byudjetlarga tushadi va bu turizmning iqtisodiyotga ko'p darajali ta'siridan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, turizm mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini yanada oshirish maqsadida turizm salohiyatidan foydalanishning kompleks, o'zaro bog'langan mexanizmlarini shakllantirish talab etiladi. Yuqorida fikrlarni inobatga olgan holda quyidagi takliflarni berishni lozim topdik:

1. Davlat turizm sohasini iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab olgan holda uning rivojlanishi va barqaror amal qilishi uchun yanada qulay sharoitlar yaratishi lozim.

2. O‘zbekistonning turizm uchun jozibador mamlakat sifatida qiyofasini shakllantirishga hamda xalqaro darajada milliy tur mahsulotlarni targ‘ib qilishga yanada kuchliroq e‘tibor qaratilishi kerak.

3. COVID-19 pandemiyasi sharoitida milliy turistik korxonalar har tomonlama qo‘llab-quvvatlashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гудратли А. М. Влияние туризма на национальную экономику //Современная наука: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2020. – С. 50-53.

2. Стрельников А. В. Организационно-экономический механизм обеспечения конкурентоспособности образовательных услуг вузов, занимающихся подготовкой кадров для сервиса и туризма //М.: ГБОУ ВПО «Тверской государственный университет. – 2012. – С. 3.

3. Богданов Ю.В. Богданов Ю. В. Развитие индустрии туризма как фактор социально-экономического роста региона: дис. – СПб.: [Балт. междунар. ин-т туризма], 2004. – С. 4.

4. Мухаммедова З.М. Туризмни инновацион ривожлантиришда инвестицион ресурслар иқтисодий самарадорлигини ошириш. PhD илмий даражасини олиш учун диссертацияси. Самарқанд 2020. – 13 б.

5. Vukadinović P., Damnjanović A., Jovanović Z. Position of tourism in global economy and its impact on GDP, employment and investments //Vojno delo. – 2017. – Т. 69. – №. 4. – С. 263-278. 6. International Tourism Highlights 2020 Edition. 7. Global Economic Impact & Trends 2020.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В ГЕРМАНИИ

Дильруза ИБРАГИМОВА

ТГУВ, направления Туризм, студент 2 курса

Научный руководитель: PhD, доцент З.А. Кадирова

Аннотация: В данной статье исследована сфера туризма Федеральной Республики Германии, ее потенциал роста экономики страны и роль в международном сообществе.

Ключевые слова: Международный туризм, UNWTO, национальная экономика, иностранные туристы, выездной туризм, туристское сальдо.

Во время празднования ЮНВТО представила свой первый отчет о Всемирном дне туризма, первый в ежегодной серии обновлений и анализа работы Организации, направляющей развитие сектора. Вступительный отчет называется «Переосмысление туризма: от кризиса к трансформации», что отражает своевременную актуальность темы 2022 года, а также беспрецедентный кризис, поразивший сектор в 2020 году.¹

Один крупных стран мира, которая привлекает большую массу туристов это является – Германия. Туризм в Германии отличается своим разнообразием. Эта страна имеет европейскую архитектуру с несравненной природой и обилием развлечений. Туризм в Германии можно считать национальным приоритетом, примером тому является тысячелетняя культура, менталитет и история. Смешанная культура с отличающимся менталитетом способствовали построению уникальной страны. Насколько всем известно, фундаментом построения всех великих держав является вековая история, и Германия благодаря ей имеет огромный туристический потенциал на сегодняшний день.

Германия является одной из ведущих стран в мире по уровню развития международного туризма. В классификации А. Ю. Александровой по состоянию на 1990 г. ФРГ наряду с США составляла ведущую группу (высший уровень развития международного туризма), опережая Великобританию, Францию, Испанию, Италию и Швейцарию, которые были отнесены ко второй группе (высокий уровень развития)².

Всемирного экономического форума (ВЭФ) Германия последние десятилетие стабильно входит в тройку лидеров по развитию туризма. В 2019 г. Германия заняла третье место после Испании, опередив Францию. В 2019 г. Германия заняла третье место вслед за Испанией (индекс 5,4) и Францией (с одинаковым с Францией индексом 5,4). По результатам 2019 г. Германия вошла в пятерку лидеров по таким позициям, как здравоохранение и гигиена (2-е место), инфраструктура,

¹ UNWTO « World tourism day 2022»

²Александрова Ю.А. Метод классификации. Классификация стран мирового уровня, развития международного туризма. – М.: 2020. – 250 с.

включая наземный и водный транспорт (3-е место), а также культурные ресурсы и деловой туризм (3-е место)¹.

Рост макроэкономических показателей Германии объясняются развитой туристской и транспортной инфраструктурой, богатством и разнообразием культурно-исторических достопримечательностей, а также сильными позициями в сегменте международных ярмарок и выставок (второе место в мире после США). Кроме того, здесь последовательно реализуются принципы устойчивого развития на основе сбережения ресурсов и окружающей среды. Таким образом, Германия имеет хорошие перспективы для позитивного развития туристического бизнеса и укрепления своих позиций в международном туризме.

Значение туризма для национальной экономики определяется его влиянием на доходы и занятость населения. Положительные эффекты туризма для тех или иных отраслей экономики и социальной сферы в посещаемых туристами регионах создаются за счёт денежных средств, которые туристы тратят на потребление товаров и услуг. По данным исследования Федерального министерства экономики и энергетики Германии (Bundesministerium für Wirtschaft und Energie), всего в 2019 году зарубежные туристические поездки совершили 1,5 млрд человек. Индустрия туризма особенно сильно пострадала от пандемии короны — во всем мире и в Германии. Федеральное правительство также ввело временное снижение налогов на еду в ресторанах и пабах, чтобы смягчить экономические последствия пандемии коронавируса. Согласно Закону о налоговой помощи в связи с коронавирусом, снижение налога на добавленную стоимость с 19 до 7 процентов применялся в течение одного года до конца июня 2021 года. Напитки освобождался от снижения налога. В период с 1 июля 2020 года по 31 декабря 2020 года ставка НДС на продукты питания в сфере общественного питания составлял 5 процентов.²

Когда ограничения на поездки, связанные с пандемией, затруднили выезд за границу в 2020 и 2021 годах, многие немцы решили провести отпуск в Германии. В теплое время года немецкие пляжи были забиты отдыхающими, а многие кемпинги и отели были забронированы на несколько недель. Кроме того, многие

¹Всемирный Экономический Форум. «Индекс конкурентоспособности путешествий и туризма» 2019 г.

²BMWK- Tourismus. Статья «Влияние пандемии в экономику туризма Германии» г. 2022


компании, работающие в сфере туризма, начали рекламировать свои услуги в Интернете.

“Пандемия коронавируса вынудила и убедила, в частности, небольшие компании перейти на цифровизацию”, – сообщил DW представитель Федеральной ассоциации туристической индустрии Германии (BTW).⁴

31 марта 2020 года министры ЕС, отвечающие за туризм, также обсудили перспективы поездок на отдых в Европу с учетом сохраняющегося риска заражения. Руководящие принципы восстановления свободы передвижения и отмены контроля на внутренних границах, постепенного восстановления транспортных услуг и связи, а также постепенного возобновления работы, представленные Европейской комиссией 13 мая 2020 года в ее туристическом и транспортном пакете, обеспечивают ориентировочную основу для государства-члены туристических услуг и санитарных протоколов в сфере гостеприимства. Также включены рекомендации по привлекательным ваучерам на добровольной основе для отмененных турпакетов и транспортных услуг.²

Как генеральный секретарь Всемирной организации туризма Объединенных нации Зураб Пололикашвили подчеркивает, что туристический сектор дает нам возможность зарабатывать на жизнь. Зарабатывать не только зарплату, но и достоинство и равенство. Работа в сфере туризма также расширяет возможности людей и дает возможность участвовать в жизни своего общества¹. Также он подтвердил, что в Германии въездной туризм растёт более быстрыми темпами, чем во многих других европейских странах, что свидетельствует о высокой международной конкурентоспособности немецкого рынка.

¹Федеральное статистическое управление (Destatis). «Услуги по размещению и питанию, туризм» г.2022



Благоприятный климат в Германии, благоприятным соотношением «цена-качество» за счёт пакетных туров, рассчитанных на массовый туризм, а также за счёт исторически сложившегося разрыва в уровне жизни между странами «Севера» и «Юга». Данный регион как классическая страна выездного туризма традиционно имеет отрицательное туристское сальдо, и, по-видимому, это положение будет сохраняться, пока будет сохраняться разрыв в уровне жизни и, соответственно, уровне цен между принимающими и отправляющими странами.

Видно по статистике в 2022 году многие туристы прибывшие в Германию больше всего предпочитали остаться в отелях, гостиницах, гостевых домах, что составляет собой 54 %. Втором месте с 23 % мы можем видеть по диаграмму прибывание в течении каких-либо праздниках, фестивали и других коротко срочных проживание в территории Германии. Потом уже переходим к кемпинги 15 % и другие мероприятия связанные со сферой туризма.

В апреле 2022 года календарный и с учетом сезонных колебаний оборот в сфере услуг размещения и питания увеличился на реальные (с учетом цен) 2,6 % и номинальные (без учета цен) 3,6 % по сравнению с мартом 2022 года. Реальный оборот в сфере услуг размещения и питания больше более чем вдвое (+138,4 %) по сравнению с апрелем 2021 года, когда в гостинично- ресторанном бизнесе были введены жесткие ограничения. Однако на основе предварительных результатов Федеральное статистическое управление (Destatis) также сообщает, что оборот в апреле 2022 г ода в реальном выражении был на 24,0 %

ниже уровня февраля 2020 года, за месяц до вспышки пандемии Covid-19 в Германия.

В июле 2022 года в гостиницах Германии было зарегистрировано 56,3 млн ночевок посетителей из Германии и из-за рубежа. Основываясь на предварительных данных, Федеральное статистическое управление (Destatis) сообщает, что это увеличение на 17,5 % по сравнению с июлем 2021 года. Однако уровень июля 2019 года, соответствующего месяца до пандемии Covid-19, не был достигнут. В июле 2019 года в учреждениях было зарегистрировано 58,8 миллиона ночевок, что стало самым высоким числом ночевок за один месяц с момента начала временного ряда в 1992 году. По сравнению с этим рекордно высоким показателем количество ночевок в июле 2022 года снизилось на 4,2 %.

В заключение, можно сказать что, туризм с момента создания ФРГ сыграл большую роль в развитие экономике, общественной жизни, инфраструктуру, культуры данной страны. Были некоторые падение в экономике особенно во время пандемии, что сильно затормозил экономику. Но данное время туризм устойчиво развивается и в результате немецкая туристическая отрасль по ряду показателей уже вернулась к докризисному уровню 2019 года, а по некоторым даже превзошла его.

Список использованной литературы:

1. Александрова Ю.А. Метод классификации. Классификация стран мирового уровня, развития международного туризма. – М.: 2020. – 250 с.
- 2.- Tourismus. Влияние пандемии в экономику туризма Германии// <https://www.bmwk.de/Redaktion/DE/Dossier/tourismus.html>
3. World tourism day 2022. UNWTO 2022 // <https://www.unwto.org/world-tourism-day-2022>.
4. // <https://de.statista.com/statistik/daten/studie/181136/umfrage/ranking-des-travel-tourism-competitiveness-index-nach-laendern>
5. https://www.destatis.de/EN/Themes/EconomicSectorsEnterprises/Accommodation-Food-Services-Activities-Tourism/_node.html

PEDAGOGIKA VA METODIKA

GENDER TENGLIGI

Sugʻdiyona MIRZAYEVA

*Namangan davlat universiteti, pedagogika psixologiya fakulteti
ijtimoiy ish oila va bolalar bilan ishlash yoʻnalishi 2-kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: Z. Ahrarov

Annotatsiya: Maqolada Oʻzbekiston Respublikasida ayollar huquqlarini himoya qilish va uni jamiyat hayotida tutgan rolini oshirish masalasida fikr yuritilgan. Bundan tashqari ayollarga nisbatan diskriminatsiya, tahqirlash, zoʻrlash kabi muammolar asosiy oʻringa qoʻyilgan va gender tenglik yoritiladi.

Kalit soʻzlar: diskriminatsiya, gender, xavfsizlik, ombudsman, konvensiya.

Ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, barqaror taraqqiyot jarayonini tezlashtirish nihoyatda muhim tamoyildir. Ayollar va qizlarga qarshi barcha turdagi kamsitishlarni yoʻq qilish nafaqat inson huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan muhim, balki boshqa sohalar rivojlanishiga taʼsir etuvchi kuchli omillardan biridir.

Dunyo rivojining hozirgi davrida inson taraqqiyoti, uning huquq va erkinliklari, ijtimoiy adolat va inson xavfsizligini taʼminlash borasidagi jarayonlar uchun ayollar va erkaklarning jamiyat hayotining barcha jabhalaridagi tengligini amalda taʼminlash masalalari ustuvor vazifalarning biriga aylanmoqda. Shu maqsadda nafaqat respublikamizda balki butun dunyoda ushbu masala aktual boʻlib qolmoqda.

Erkaklar va ayollar oʻrtasida teng huquq va teng imkoniyatlarni taʼminlash masalalari quyidagi asosiy xalqaro hujjatlarda oʻz aksini topgan, bular: Atrof muhit va rivojlanish boʻyicha Rio-de-Janeyro Deklaratsiyasi (Rio Deklaratsiyasi, 1992 y.), Aholishunoslik va rivojlanish boʻyicha Qohira konferensiyasi (1994), Xotin-qizlar ahvoli boʻyicha Pekin konferensiyasi (1995) va Inson manzilgohlari boʻyicha Istanbul konferensiyasi (1996). Bular – Umumjahon inson huquqlari Deklaratsiyasi, “Xotin-qizlarga nisbatan zoʻravonlikning barcha shakllariga barham berish toʻgʻrisida” Konvensiya, Mingyillik rivojlanish maqsadlari va boshqalar.

BMTga aʼzo-davlatlar uchun ayollar va erkaklar tengligini taʼminlashga doir milliy majburiyatlarni toʻliq bajarish Ming yillik

rivojlanish maqsadlariga erishish va BMT tamoyillarini qo'llab-quvvatlashga munosib hissa qo'shish demakdir.

Ayollar va erkaklar huquqlari tengligi mamlakatimizning Asosiy qonuni -O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan, uning 18-moddasida qayd etilganidek, "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar" Jamiyatda ayollar va erkaklar tengligi tamoyilini ilgari surish demokratik boshqaruvning asosiy va ajralmas qismi ekanligini anglab yetish kuchaymoqda. Dunyoda yuz berayotgan jarayonlar iqtisodiy rivojlanish siyosati gender jihatdan neytral bo'lishi mumkin emasligini tasdiqlamoqda, gender tengligi va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida bevosita aloqa mavjud. Jinslar ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga olish, ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratish ayollar va erkaklar ahvolini yaxshilashga, oilani mustahkamlashga, bolalarning jismonan va ma'nan kamol topishiga ko'maklashadi va oxir-oqibat millatning iqtisodiy taraqqiyot sari salohiyati va imkoniyatlarini kuchaytiradi. O'z navbatida, iqtisodiy rivojlanish ham uzoq muddatli istiqbolda gender tengligi darajasini oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekistonda davlatning ham ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-intellektual hayotida tub o'zgarishlar sodir bo'layotgan bir vaqtda gender tenglik ya'ni ayollar va erkaklarning teng huquqliligini tashkil etish ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi, "gender" atamasining ma'nosi nima?

"Gender" atamasi 1968-yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan bo'lib, "jins" ma'nosini bildiradi.

Gender tenglikni ta'minlash maqsadida Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019-yil 29-avgustda ma'qullangan hamda 2019-yil 2-sentyabrda prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan imzolangan "Xotin qizlar va erkaklar teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to'g'risida"gi qonuni qabul qilinishi ham bejizga emas.

Xotin-qizlarning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish va farovonligini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida ta'lim olish, kasb-hunar o'rganish va oz qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi imkoniyatini ko'rib chiqar ekanmiz, respublikada ta'lim olish huquqi barcha fuqarolar uchun jinsidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlanganligiga (41 modda) guvoh bolamiz. Ayollar va erkaklarning ta'lim olishga doir teng huquqlari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim

to'g'risida"gi Qonuni, jismoniy rivojlanish va sport bilan shug'ullanish borasida esa – "Jismoniy tarbiya va sport haqida"gi qonuni (2-modda) bilan belgilangan. Xotin-qizlarning qarorlar qabul qilish darajasidagi ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 1995 yil 2 martdagi "O'zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" hamda 2004 yil 25 maydagi "O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining mazkur masalalar yuzasidan qarori qabul qilingan. Ayollar va erkaklarning teng huquqliligi mamlakatimizning asosiy qonuni – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan, uning 46-moddasida qayd etilganidek, "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar". O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi har bir odam uchun Inson huquqlari haqidagi Xalqaro Konvensiyadagi shaxsiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy huquqlarining butun majmuini kafolatlaydi. Asosiy qonunimizda har bir insonga huquq va erkinliklari daxlsizligi, ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emasligi mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq demokratik tamoyillarni qo'llab-quvvatlab, inson huquqlarini ta'minlashga doir qariyb 70 ta asosiy xalqaro hujjatlarga qo'shildi. Bular – Umumjahon inson huquqlari Deklaratsiyasi, "Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiya, Ming yillik rivojlanish maqsadlari va boshqalar. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ham ayollar huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida bir qator xalqaro qonunlar qabul qilgan. Xususan, 1954-yilda qabul qilingan "Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risida Konvensiya", 1958-yilda ma'qullangan "Turmushga chiqqan ayollarning fuqaroligi to'g'risidagi Konvensiya", "Ayollarga nisbatan qo'llaniladigan diskriminatsiyaning har qanday shakllariga barham berish haqidagi Konvensiya" kabi hujjatlar bugungi kunda dunyo mamlakatlarining ushbu sohaga oid huquqiy islohotlarga asos bo'lib kelmoqda.

Bugungi kunga kelib respublikamizda xotin-qizlarning qariyb 80 % asosan ikki ijtimoiy soha – ta'lim va sog'liqni saqlashda faoliyat yuritib kelmoqda. Ammo, davlat va ijtimoiy boshqaruv jarayonidagi faolliklari xususan, diplomatiya va vazirlik singari sohalarda ularning o'zni haligacha yuqori emasligi nazarda tutilmoqda.

Mustaqillik yillarida respublikada qonunchilik va ijro etuvchi organlar darajasida huquqiy, tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda ayollar va erkaklar tengligiga oid konstitutsiyaviy prinsipni

ta'minlashga qaratilgan ayollar va erkaklarga nisbatan davlat siyosatini amalga oshirish uchun progressiv va ishonchli baza yaratilgan. Ayollar va erkaklar tengligi madaniyatini shakllantirish – bu tizimli va doimiy jarayon bo'lib, keng jamoatchilik va fuqarolik institutlari bilan hamkorlikni talab etadi. Bu borada jamiyatning barcha jabhalari davlat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari, biznes subyektlari, kasaba uyushmalari va keng aholi qatlamlarining birgalikdagi va hamjihatlikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Alohida sa'y-harakatlar ayollar va erkaklar xulq-atvoriga doir ijtimoiy va madaniy modellarni o'zgartirishga, omma ongida ayollar va erkaklarning jamiyatdagi rolga doir eskicha qarashlarni bartaraf etishga qaratilishi kerak.

Xulosa. Ayollar va erkaklar tengligi madaniyatini shakllantirish – bu tizimli va doimiy jarayon bo'lib, keng jamoatchilik va fuqarolik institutlari bilan hamkorlikni talab etadi. Bu borada jamiyatning barcha jabhalari – davlat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari, biznes subyektlari, kasaba uyushmalari va keng aholi qatlamlarining birgalikdagi va hamjihatlikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat barcha qatlamlarining maqsadli faoliyatini tashkil etish zarur gender-dezagratsiyalangan (ro'yxatga olingan) axborot bazasini yaratish, barcha hududlar darajasida gender vaziyatining gender tahlili va monitoringini o'tkazishni talab etadi.

Har bir mamlakatda ushbu ma'lumotlarni yaratish va ular mavjudligining dolzarbligi Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha IV Butunjahon anjumanida (Pekin, 1995 y., sentyabr) alohida qayd etilgan. Pekin Harakat dasturining 206-a moddasiga ko'ra, milliy statistika xizmatlari jamiyatda ayollar va erkaklar ahvoli bilan bog'liq muammolar va masalalarni aks etuvchi, jinsi va yoshiga ko'ra ajratilgan statistika ma'lumotlarini to'plash, ishlov berish, tahlil qilishni ta'minlashi zarur.

Respublikada gender rivojlanish haqidagi ma'lumotlardan barcha aholi qatlamlari keng foydalanishini va Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha IV Butunjahon anjumanining (Pekin, 1995 y., sentyabr) tavsiyalari ijrosini ta'minlash maqsadida davlat statistika idoralari tomonidan davlat va jamoat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikda tizimli ravishda O'zbekistondagi ayollar va erkaklarning ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va mehnat bozori, ijtimoiy himoya, davlat boshqaruvi kabi sohalaridagi aholini tariflovchi ma'lumotlardan iborat statistik to'plamlari nashr etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. "Xotin qizlar va erkaklar teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to'g'risida"gi qaror (02.09.2019.).

4. Икрамов, Р. А., & Хожиев, Р. Б. У. (2020). Воспитание гармонично развитого поколения является приоритетом государственной молодежной политики. Вестник науки и образования, (14-1 (92)).

5. Ikramov, R., Bekmirzayev, N. (2020). Yurist nutqi madaniyati. Toshkent: Akademnashr.

6. Aktamovich, I. R., Ziyadillayevich, I. A. (2020). Historical and Theoretical Roots of Establishing a Democratic Law in Uzbekistan. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 6(10), 507-510.

7. Жураев, Ю. А., Икрамов, Р. А. (2020). Фукарлар экологик назорати: юридик асослари ва тушунчаси. Academic research in educational sciences, (4).

8. Икрамов, Р. А. (2020). Теоретико-правовые проблемы экологических интересов человека. Universum: экономика и юриспруденция, 12, 76.

9. Файзиев, И. Ш. (2020). Ўзбекистонда электрон ҳукумат: мавжуд имконият ва истикболлар. Academic Research in Educational Sciences, 1(2), 232-240.

10. Файзиев, И. Ш. (2020). Дахлдорлик тарбияси орқали фуқаролик жамиятини шакллантириш. Science and Education, 1(7).

INSON RUHIYATINING O'ZGARISHI VA ULARDA NEGATIV TUSHUNCHALARNING O'RNI

Shohruxbek MINGBOYEV

*Namangan davlat universiteti, pedagogika-psixologiya fakulteti,
amaliy psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: M.B.Badritdinova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning ruhiyati va unga ta'sir etuvchi omillar to'g'risida fikr yuritilgan, tashqi va ichki omillar va ularning asosi bo'lgan xayolot olami ham muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: Sezgi, idrok, xotira, idrok, tafakkur, olam, depressiya, stress, dunyoqarash, ruhiyat.

Insonga ato etilgan aql, idrok, sezgi, xotira, hayot, tafakkur bularning barchasi inson uchun ruhiyat, ya'ni inson xayolot olami bilan uzviy bog'liq. Insonga ta'sir etayotgan omillar ikkiga bo'linadi. Birinchisi ichki omillar va

tashqi omillar. Bu omillarning insonga ta'sir qilishi har xil. Chunki, har bir insonning hayoti, xayolot olami ham o'zgachadir. Ichki omillar inson ichki hissiyotlar bilan amalga oshiruvchi, o'ylar, tafakkurlar va hokazolar kiradi. Tashqi omillar esa, muhit ta'sirida paydo bo'ladigan, tashqi olam orqali qabul qilinadigan reaksiyalar. Albatta, inson ruhiyati o'zgarib turadi. Bu o'zgarishga tashqi va ichki omillar ta'sir qiladi. Ma'lumki, har bir inson o'ylashi, fikrlashi, xarakteri, qilayotgan va qaytarayotgan reaksiyasi har xil. Bularning natijasi va ta'siri ham hamma shaxslarga alohida ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, bir inson yomon narsalarni o'ylayversa, faqat shu to'g'risida fikrlayversa, uning ongiga shu negativ tushuncha singa boshlaydi, natijada esa uning qaramog'iga tushib qoladi. Yashayotgan xalq, millat va elatlarning dunyoqarashi va hayotiy tushunchalari har xil. Bularning asosini ongli tafakkur tashkil etadi. U esa insonning hayotini belgilab beradi. Mavlono Rumiy shunday gaplarni gapirgan edi "O'ylaring so'zlaringa, so'zlaring fe'linga, fe'ling esa taqdiringfa nuqs etadi. Go'zal o'yla, go'zal yasha" bu gapning tagida katta tushuncha, katta ilmni ko'rish mumkin, bu ilm esa insonni yanada fikrlashga va hayotini yaxshi tomonga o'zgartirishga sababchi bo'la oladi. Shuning uchun taqdiringizni yaxshi va komil etish uchun avvalo, o'ylaringiz, fikrlaringizni, hayollaringizni va tafakkuringizni o'zgartira olishingiz darkor. Miyaga yomon o'y yoki, fikr keldimi, uni darkor yaxshilik bilan pozitiv narsalarga o'zgartish eng katta inson uchun tanlovdir. Bu tanlovdan o'ta olmasa, keyingi hayoti ham yomon, ya'ni negativ bo'lib ketaveradi. Har bir inson stress holatlarini o'zi yaratadi. Valeriy Sinelkinov bu haqida shunday deydi. "Sizning g'azab va nafratingiz oxir-oqibatda o'zingizga yana qaytib keladi (o'xshash o'xshashini tortadi), biroq kattaroq kuch bilan, o'zida yanada qo'rquv, qayg'u, depressiya va stress vaziyatlarning barcha ko'rinishlarini ko'targan holda qaytadi. Buni ko'tarish esa yanada og'irroq bo'ladi. Siz bu fikrlardan ularni kimgadir yo'llab qayta-qayta qutulishga harakat qilaverasiz. Bu to'ana shu yopiq doira kasallik, yoki jarohat yoki o'lim bilan uzilmaguncha davom etaveradi [1].

Depressiya ham insonning ruhiyatiga qattiq ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, Inson hayotda yashar ekan, har on, yoki har lahzada depressiya, stress va qiyinchilik holatlariga duch keladi. Buning asosiy sabablaridan biri inson uchun uning psixikasiga va ongiga qiyin bo'lgan holatlar, hodisalar va amaliyotlar sabab bo'lish ehtimoli katta. Uning ong faoliyati ham ba'zida inson uchun qarama-qarshi ishlashi mumkin. Misol uchun, bir inson depressiyaga, stressga tushdi. Uning ongi shu tarzda ich-ichigacha azobga kirib boraveradi. Buni balkim o'zi sezmas, lekin uning ruhiyati, uning jismidagi holatida o'zgarishlar katta bo'ladi. Depressiya so'zi tushkunlik,

ya'ni stressdan oldin paydo bo'ladigan kuchli, hissiyotli, o'zida yomon illatlar qoldiradigan, o'zida mudhish voqealar keltirib chiqaradigan holatlardan biridir. Har bir insonda sodir bo'ladigan yomon hissiy holatlardan biri bu-stress hisoblanadi. Stress har bir insonning yomon holatlaridan, siqilishlardan, depressiyaga tushishdan kelib chiqadi. Har bir inson o'ylashi, fikrlashi, xarakteri, qilayotgan va qaytarayotgan reaksiyasi har xil. Bularning natijasi va ta'siri ham hamma shaxslarga alohida ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, bir inson yomon narsalarni o'ylayversa, faqat shu to'g'risida fikrlayversa, uning ongiga shu negativ tushuncha singa boshlaydi, natijada esa uning qaramog'iga tushib qoladi. Yashayotgan xalq, millat va elatlarning dunyoqarashi va hayotiy tushunchalari har xil. Bularning asosini ongli tafakkur tashkil etadi. U esa insonning hayotini belgilab beradi.

Stress holatiga tushgan inson o'zini hayotini bulg'abgina qolmay, boshqalarning hayotiga ham xavf soladi, ko'rolmaslik holati paydo bo'ladi. Axir yashashni istamaslik – o'z joniga qasd qilish demakdir. Bunday inson har doim tajovuzkor holatda yuradi. Bunday hissiy holatlarning sababi esa uzoq vaqt davomida yig'ilib qolgan salbiy fikrlar va tuyg'ular bo'lishi mumkin. Shunday qilib insonlar o'ziga stress holatlarini yaratadi. Ko'pchilik insonlar hayotda qo'rquv, alam, qayg'u bilan yashaydi. Albatta bunday insonlar baxtli bo'lishi mumkinmi? Javob bitta-yo'q. Siz yaxshi bilasizki, qaysi inson qanday holatda stressga qarshi kurashishini. Ba'zi insonlar bor, stress holatiga tushganda o'zini yo'qotib qo'yadi, hech narsa qilgisi ham kelmaydi, go'yoki u uchun vaqt to'xtab qolganday. Insonlardagi hattoki fikrlar ham unga qarshi ishlashi mumkin. Chunki, har qanday inson o'z xulq-atvorini o'zi yaratadi. Misol uchun, siz shirin ovqat qilmoqchi bo'lsangiz unga turli xil sabzavotlar, ziravorlar va shunga o'xshash narsalar qo'shasiz. Inson ham huddi shunday, chiroyli xulq-atvorga ega bo'lish uchun bilim oladi, diniy ta'lim oladi, ota-bobosidan tarbiya oladi va inson mukammallikka erishadi.

Inson qay holatda fikrlasa va o'ylasa, aynan o'sha holat, yoki vaziyatni tortib oladi va inson xayolotida bu narsaning aksariyat qismini kashf qiladi. Misol uchun, bir inson kasalxonaga og'ir kasallik bilan, ya'ni ikki oyog'i qattiq shikastlangan bo'lib keldi. Bu ahvolda ko'p bemorlar noshukrlik qiladi va hayotdan umidini uzadi. Natijada esa hech qanday shifo topolmaydi, shifo uchun esa insonda iroda va qat'iyat rivojlanishi kerak. Insonda qat'iyat, iroda, shiddat yo'q bo'lar ekan, bu inson o'zini jarlikka tushib ketganday his qiladi. Natijada yanada hayotdan umidi qolmaydi. Negativ tushuncha esa, inson ikki holda yarata oladi. Insonning kayfiyatiga qarab, yoki boshidan o'tkazgan voqealar asosida, bu ikkisi ham agar yomonlikni o'ylasa bu inson uchun

qarama-qarshi ta'sir qilgan hisoblanadi. Birinchi navbatda uning o'ylashi buziladi, fikrlashi buziladi, natijada u insonning jismi ham bunga moslashadi. Nafaqat inson bunda ishtirok etadi, balki uning yaqin insonlari, yoki boshqa begona insonlar ham shunga hissa qo'shadi. Bu negativlar shakllana boshlaydi, bu degani inson psixikasida, ya'ni miyasida paydo bo'ladi va ko'payib boradi. Ikkinchi faoliyat esa uning rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi. Ya'ni u psixikada o'sib boradi, kengayib boradi. Uchinchi faoliyat esa uning maqsadi amalga oshadi. Misol uchun, fikr paydo bo'lgandan keyin uning amaliyotga kiritilishi boshlanadi. Amaliyot esa uni rivojlanishiga hissa qo'shadi. Bu rivojlanish kuchli holatga keladi, ya'ni eng kuchli holatga. Bu esa inson psixikasida portlashga olib keladi. Bir dinamit qanday portlasa, negativ fikrlar ham inson ongida va miyasida shunday portlaydi. Bizning o'ylarimiz sababi ham aynan shudir. Bir inson asabi buziladi va cho'qqiga chiqish pallasida uning ta'siri ortib borayotganini sezadi. Bu esa oxir-oqibat nimanidir sindirish bilan yakunlanadi.

Insonlarning hissiy holatlarini yomonlashtiradigan, xavotirni kuchaytiradigan zararli psixik jarayon. Bu esa psixologik kasalliklarini keltirib chiqaradi. Mavlono Rumi shunday ta'kidlaydi, "Boshingga eng qiyin kunlar tushib, sen bardosh bera olmaydigan nuqtaga kelganingda aslo sabringdan voz kechma, ana shu nuqta taqdiringni o'zgartiradigan nuqtadir" [2]. Jumladan, yashayotgan o'rni va amaliy hayoti ham alohida o'rin egallaydi. Ularning ongi va xayolot dunyosi ham shunga asoslanib o'sib boraveradi. Jamiyat qanday ketsa, u ham shunga qarab harakat qiladi. Mazmun, mohiyat, ilm, ong, ma'rifat, ma'naviyat ham alohida o'rin egallaydi. Inson psixikasi esa aynan shu hodisalarga bo'lgan jarayonlarni boshqarib boraveradi. Bir bora yaratilgan narsadan ko'p bora foydalangani singari, bizning psixikamiz ham yaratgan olamshumul ta'sir va reaksiyalardan har doim foydalanib kelmoqda. Bu reaksiya esa ularning yashayotgan atrof-muhitga ta'sir qilmay qolmaydi. Jumladan, yashayotgan o'rni va amaliy hayoti ham alohida o'rin egallaydi. Ularning ongi va xayolot dunyosi ham shunga asoslanib o'sib boraveradi. Jamiyat qanday ketsa, u ham shunga qarab harakat qiladi. Mazmun, mohiyat, ilm, ong, ma'rifat, ma'naviyat ham alohida o'rin egallaydi. Inson psixikasi esa aynan shu hodisalarga bo'lgan jarayonlarni boshqarib boraveradi. Bir bora yaratilgan narsadan ko'p bora foydalangani singari, bizning psixikamiz ham yaratgan olamshumul ta'sir va reaksiyalardan har doim foydalanib kelmoqda. Bu reaksiya esa ularning yashayotgan atrof-muhitga ta'sir qilmay qolmaydi. Misol uchun, fikr paydo bo'lgandan keyin uning amaliyotga tatbiq bo'lishi boshlanadi. Amaliyot esa uni rivojlanishiga hissa qo'shadi. Bu rivojlanish

kuchli holatga keladi, ya'ni eng kuchli holatga. Bu esa inson psixikasida portlashga olib keladi. Sharq mutafakkirlarining farzand tarbiyasi haqidagi fikrlari Farobiy bilimidan ma'rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: "Har kimki, ilm hikmatini o'rganmagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog'-salomatligi yaxshi bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo'lsin, barcha qonun qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo'lsin, ilmi va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin" [3]. Bu fikrlardan albatta Farobiy ham ta'lim va tarbiyaga katta e'tibor bergan. Uning fikricha, bilim, ma'rifat albatta yaxshi axloq bilan bezatmog'i lozim, unday bo'lmasa maqsadga erishib bo'lmaydi, yoshlarimiz ham yetuk kadr bo'lib chiqa olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Valeriy Sinelkinov "Dardingni sev" Toshkent Navro'z nashriyoti. 2019-yil, 66-bet.
2. <https://play.google.com/store/apps/details?id=com.sadirboyprogrammer.mavlonOrumiyhikmatlari>.
3. <http://www.myshared.ru/amp/1434130/>.

JIZZAX VILOYATIDA TURIZM SOHASI, SALOHIYAT VA IMKONIYATLAR

Navro'zbek OCHILOV

Jizzax davlat pedagogika universiteti

*Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya va sport
yo'nalishi 3-kurs 550-20-guruh talabasi*

Mashhura OCHILOVA

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: dotsent D.A. Karimov

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizning Jizzax viloyatida uning tabiiy potentsiali orqali hududning turistik imkoniyatlari va sayyohlarni qiziqtiradigan va o'ziga jalb etadigan jozibador brend namunalari ko'rsatish yo'nalishlari hamda uning institutsional asoslari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Turistik hududlar, rekreatsiya, madaniy-tarixiy meros, viza, infratuzilma, ziyorat, turizm mahallasi va qishlog'i, brend namunalari.

Mamlakatimizda turizm sohasini strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shuningdek, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, sayyohlarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari, sayyohlarni o'z jozibasi bilan o'ziga chorlovchi hududiy brendlar bilan tanishtirish, uning asosi sifatida viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiyalar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish imkonini beradi. Ammo, o'tkazilgan dastlabki tahlillar turizm tarmog'ini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asosning nomukammalligi, alohida turizm xizmatlarini ko'rsatish qoidalarining, shuningdek, rivojlangan dunyo ahlining mamlakatimiz tabiatining o'ziga xosligi, ko'plab hududlarda bahavo turistik obyektlar mavjudligi to'g'risida, qolaversa, o'z jozibasi bilan o'ziga chorlovchi hududiy brendlar to'g'risida ma'lumotlar mavjud emasligini ko'rsatmoqda.

Shuning uchun ham turizm resursining asosi sanalgan dunyo xilma-xilligini namoyish qiluvchi turizm predmetlari faqatgina reklama, targ'ibot orqaligina xalqaro turizm ixlosmandlarini o'z domiga tortishi mumkin. O'z navbatida ta'kidlash joizki, turizm sohasining kirib kelishi va uning rivojlanishi dunyoning har qanday mamlakatiga ham nasib qilavermaydi, chunki mazkur sohaga bo'lgan turizm mahsulotlari bozoridagi unga bo'lgan talab to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy ehtiyojlar bilan emas, balki ijtimoiy ehtiyojlar bilan belgilanadi. Ijtimoiy ehtiyojlar ichida ziyoratga, rekreatsiyaga bo'lgan ehtiyoj inson ruhiyatida uy-joyga bo'lgan ehtiyojdan ham ko'ra 3 marta ko'proqdir. Mamlakatimizda mazkur sohani rivojlantirishning dolzarbligi ham shundadir. Turizm sohasining serdaro-mad, shuning bilan birgalikda mashaqqati kamroq faoliyat turi ekanligini e'tirof etib, mamlakatimizda mazkur sohani rivojlantirish, takomillashtirish yuzasidan tinimsiz izlanishlarni olib borish maqsadga muvofiq sanaladi.

Ma'lumki, turizm sohasi dunyoda hech narsa bilan alishib bo'lmaydigan sohalardan biridir. Shuning uchun ham mazkur sohani rivojlantirishga bizning mamlakatimizda ham birmuncha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda, xususan 2019 yil 16 aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risida" gi Qonuni, 2019 yil 13 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5781 son Farmoni, 2019 yil 5 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining “O‘zbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-5611 son Farmonlari qabul qilingan bo‘lib, ularga ko‘ra turizm turlari, shakllari va ularning institutsional asoslari berilgan bo‘lsa, ba’zi manbalarda turistik qishloq ovullarini yaratish yo‘nalishlari va uning institutsional asoslari, shuningdek, hududlar kesimida turistik qishloq zonalarini yaratish yuzasidan [Aynaqulov M.A. Xudayberdiyev B.B, 2020] taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Tadqiqotda natijalar olish nuqtai nazaridan kuzatuv va tahlil usuli bo‘yicha ishlar olib borilganda O‘zbekiston, shuningdek, Jizzax viloyati turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli imkoniyatga, shuningdek, juda katta rekreatsiya salohiyatiga ega ekanligi, unda jami 7,4 ming madaniy meros obyektlari mavjud, ulardan 209 tasi to‘rtta muzey shaharlar – “Xiva shahridagi Ichan-qal’a”, “Buxoro shahrining tarixiy markazi”, “Shahrisabz shahrining tarixiy markazi”, “Samarqand shahri” hududida joylashgan bo‘lib, YUNESKO butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilganligi ma’lum bo‘ldi [2019 yil 5 yanvardagi PF-5611 son Farmon.].

Mamlakatimizda yaratilayotgan shunday institutsional imkoniyatlardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo‘lsak Jizzax viloyatida ham turizmni rivojlantirish uchun keng qamrovli imkoniyatlar mavjud.

Jizzax viloyati O‘zbekistonning markaziy mintaqasida joylashgan bo‘lib, shu tufayli har taraflama keng ko‘lamli xo‘jalik yuritish imkoniyatiga egadir. Uzunligi sharqdan g‘arbga, ya’ni Yangiobod tumanidan Forish tumanigacha 180 km, janubdan shimolga, ya’ni Baxmal tumanidan Mirzacho‘l tumanigacha 175 km. ni tashkil etadi. Maydoni 21,1 ming kv.km. Shundan 4,8 ming kv.km. (22,7 %) qishloq xo‘jaligida foydalanishda bo‘lgan yerlardir. O‘rmon va o‘rmonchilik bilan bog‘liq ekinlar ekiladigan maydon 1,8 ming (8,5 %) kv.km dan iboratdir. Maydoni-ning katta qismini sharqdan g‘arbga va qisman shimoli-g‘arb tomonga cho‘zilgan Chimqortog‘ va Molguzar, g‘arbdan sharqqa, sharqi-janubga va janubga tomon cho‘zilgan Nurota tizma tog‘lari, shimol tomondan Qozog‘istondagi Chordora to‘g‘onidan viloyatning shimoli-g‘arbidan Navoiy viloyati hududiga qadar cho‘zilgan Aydarko‘l tashkil etadi. Bu qadimiy yurtida ajdodlarimiz zakovati, salohiyatidan darak beruvchi – qadimiy turkiylarning quyosh yili timsoli – “Quyosh taqvimi”, (“Saklar taqvimi”), 19 fevraldan 21 martgacha quyosh nuri tushadigan Huttosh, shuningdek, Qantartosh, Hamaltoshlarning o‘zi sirli bir olam. Viloyatda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun ham Sa’d ibn Vaqqos, Usmand ota, Novqa ota, Xo‘jamushkent ota, Parpi ota, Sayfin ota, Savruk ota, Qulfisar ota kabi ziyoratgohlar xizmat qiladi. E’tiborli jihati bu yerdagi tabiiy

buloqlardan yiliga oʻrtacha 16-20 mln. kubometr suv olish imkoniyati mavjud. Eng asosiysi viloyatning Baxmal, Zomin, Gʻallaorol tumanlari hamda Sh. Rashidov va Forish tumanlarining togʻli hududlarida yogʻingarchilik nisbatan moʻl boʻladi. Shuningdek, haroratning moʻtadilligi tufayli Baxmal, Gʻallaorol va Forish botiqlarida, Zominsoy, Ettikechuv va Koʻrpasoyda suvning parchalanishi nisbatan kam. Viloyatda turizm va uning zaminidagi rekreatsiya klasterlarini rivojlantirish uchun ham birmuncha sezilarli imkoniyatlar, yaʼni viloyat tabiatining oʻziga xos xususiyatlaridan biri togʻlar va togʻ yon bagʻirlarida tarkibida temir, oltingugurt, vodorod, radiy, kremniy kislotasi, karbon gazi, ishqorli terma-minerallar boʻlgan bir qator shifobaxsh suv manbalari mavjud.

Darhaqiqat, ayni paytda viloyatning Gʻallaorol, Forish, Mirzachoʻl tumanlarida ana shunday balneologik suvlar bilan davolovchi “Marjonsuv”, “Birlashgan”, “Gagarin” nomli sanatoriylar va bir nechta profilaktoriylar ishlab turibdi. Shuning bilan birgalikda viloyatning Zomin, Jizzax, Baxmal tumanlarida ham maʼdanga boy manbalari bor. Viloyatdagi barcha maʼdanli suvlar kimyoviy va balneologik tarkibiga koʻra eng tabiiy oʻziga xosligi bevosita hududning ancha qismini egallagan togʻlik zona ekanligi bilan bogʻliqdir. Mazkur hududlarning togʻ yon bagʻirlarida bir-biridan goʻzal tabiat goʻshalari, archazorlar bodomzorlar yongʻoqzorlar, shifobaxsh oʻtloqlar, soyliklar, zilol suvlar, hatto, musaffo toza havo qatlamining oʻzi bir olam. Ulkan daralarda qir-adirlar va soyliklarda kamyob oʻsimliklar va hayvonlar, parrandalarning turfa xillari mavjud. Baxmal va Zomin tumanlaridagi qir-adirlar, ulkan bogʻ-rogʻlar, shuningdek, Baxmaldagi dengiz sathidan 2600 metr balandlikdagi maʼdanli suv, Xalq bogʻi va qoʻriqxonalar, ajoyib sharsharalar, qirlar bagʻridagi oʻnlab chashmalar insoniyatni oʻziga chorlovchi saxiy tabiatning oʻziga xos neʼmatidir. Viloyatda turizm klasterlarining asosiy poydevori sanalgan Zomin tumanidagi 1976-yilda tashkil etilgan 48 ming gektarli Xalq bogʻining tabiati oʻta goʻzal. Balandligi dengiz sathidan 4 ming metrgacha choʻzilgan togʻ yon bagʻrida yoz va bahorda havo qatlami kamalak rangida tovlanadi. Qalin archazorlar va bahaybat daralar, soyliklardagi toshqin suvlar goʻyo tabiatning haqiqiy tabiiy koʻrgazmasini namoyish etadi. Albatta bu kabi jarayonlarning xususiyati shundaki, inson hamisha koʻpincha oʻzlashtirilmagan, inson qoʻli tegmagan tabiiy goʻshalarga ehtiyoj sezishidadir. Xalq bogʻi yonida Zomin qoʻriqxonasi tashkil etilgan, Xalq bogʻi va qoʻriqxonaning umumiy maydoni 78 ming gektarni tashkil etadi. Bu qoʻriqxonada 100 dan ortiq shifobaxsh va dorivor oʻsimliklar, oq tirnoqli ayiq, yovvoyi choʻchqa, boʻrsiq, alqar, (togʻ echkisi), jayra kabi hayvonlar,

kemiruvchilar, kalxat, qora turna, bulduruq, tuvaloq, kaklik, tustovuq kabi parrandalarning 150 dan ortiq turlari uchraydi. Ushbu tabiat maskanida “Zomin” sanatoriysi, O‘rikli soy dam olish maskani, sayyohlar uchun ko‘plab mehmonxona uylari faoliyat ko‘rsatib turibdi. Shu sabab mazkur rekreatsion hududlarda yil mobaynida dam oluvchilarning, sayyohlarning, ya’ni rekrentlar oqimi uzilmaydi.

Viloyat hududida yog‘ingarchilik asosan qish va bahor fasllariga to‘g‘ri keladi. Shimoldan janubga tomon yog‘ingarchilik ko‘payib boradi. Yillik yog‘in miqdori balandligi 276 metr bo‘lgan Mirzacho‘lda 295, balandligi 392 metr bo‘lgan Sangzorda 400 mm.dan oshadi. Qor turib qoladigan kunlar bir yilda tekisliklarda 20- 22 kun, tog‘li hududlarda 60-70 kunni tashkil etadi. Hududning tekislik qismida yillik yog‘in miqdori 200 mm. atrofida. Bug‘lanish darajasi 100-120 mm.ga teng. Viloyat hududida shimoli-g‘arbda vaqti-vaqti bilan kuchli shamol bo‘lib turadi. Aprel va may oylarida kuchli shamol, do‘l va jala yog‘ish holatlari uchraydi. Viloyat aholisi 2021 yil yanvar oyi holatiga 1403100 kishini tashkil etib, yil boshidan 29700 kishiga yoki 102,2 foizga ko‘paydi. Shundan 647900 kishi –shahar joylarida (46,2%) va 755200 kishi qishloq joylarida (53,8 foiz) istiqomat qiladi. Tarkibiga ko‘ra 70 dan ortiq millat vakillari bor. Umumiy aholisining 83 foizini o‘zbeklar tashkil qiladi. O‘rtacha zichligi bir kv.km. ga 65,5 kishi.

Yuqorida qayd etilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, aholisi 163,6 ming kishi bo‘lgan viloyatning Zomin tumanida (viloyat aholisining 11,8 %), aholisi 155,8 ming kishi bo‘lgan Baxmal tumanida (viloyat aholisining 11,3 %), aholisi 171,4 ming kishi bo‘lgan G‘allaorol tumanlarida (viloyat aholisining 12,4 %) negizida rekreatsiya mavjud bo‘lgan turistik mehmon uylarini, shuningdek, ularning o‘zaro kooperatsiyasi asosidagi turizm klasterlarini tashkil qilish uchun keng qamrovli imkoniyatlar mavjud.

Xulosa. Hozirgi paytda nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyo bo‘yicha turizm sohasi uncha katta mehnat sarfini talab etmaydigan, ammo serdaromad soha hisoblanadi. Mazkur soha o‘ziga yarasha madaniyatni, etika, estetikani talab qilgan holda birmuncha jozibadorlikning tarafdori sanaladi. Turizm sohasining iqtisodiy jihatidan tashqari uning ham ijtimoiy ham ma’naviy jihatlarini alohida ta’kidlab o‘tish darkor. Ya’ni iqtisodiy jihatdan mehnatning 1 so‘miga to‘g‘ri keladigan ko‘p mehnat sarfi talab etadigan ba’zi, masalan qurilish tarmog‘i kabilarga nisbatan kam mehnat evaziga daromad topish imkoniyati mavjud. Ijtimoiy jihatdan esa mazkur sohada faoliyat yurituvchi xizmat ko‘rsatish xodimlari bir vaqtning o‘zida sayyohlarga xizmat ko‘rsatish bilan birgalikda mazkur soha mahsulotidan o‘zlari ham bahramand bo‘lishadi, bu esa o‘z navbatida inson umrining

uzayishiga sabab bo‘ladi. Ma’naviy jihatdan turizm sohasini rivojlantirish orqali ajdodlarimizdan meros bo‘lgan milliy qadriyatlarimiz timsoli sanalgan me’moriy yodgorliklarimizni, bahavo tabiatimizni butun dunyoga ko‘z-ko‘z qilish yo‘li bilan mamlakatimizni dunyo xaritasidagi o‘rnini mustahkamlab, butun dunyoga tanitish imkoniyati yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbekiston Respublikasining turizm to‘g‘risida” gi Qonuni. 2019 yil 16 aprelda qabul qilingan.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5781 son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi “O‘zbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-5611 son Farmoni.
4. Aynaqulov M.A. Xudayberdiyev B.B. Jizzax viloyatida turistik qishloq ovullarini yaratish yo‘nalishlari va uning institutsional asoslari // Институциональное развитие взаимоотношений финансово-кредитной системы с реальном сектором экономики. Материалы XII международной научно-практической конференции 10-11 июня 2020 года. Самарканд -2020-185 с.

YOSH AVLODNI INTELLEKTUAL VA MA’NAVIY SALOHIYATINI OSHIRISHDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ILMIY-ADABIY ME’ROSIDAN FOYDALANISH

Feruza USERBAYEVA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tarix 22/1 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: F. Kamoliddinov

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning asarlari va bugungi kundagi o‘rni, ahamiyati to‘g‘risida va hozirgi yoshlarda intellektual va ma’naviy salohiyatni oshirishga qaratilgan fikrlar xususida boradi.

Kalit so‘z: adabiyot, shoir, davlat arbobi, ilm, shoh, insonparvarlik, vatan.

Zahiriddin Muhammad Bobur Sharq adabiyotida ham o'zini chuqur izini qoldira olgan buyuk davlat arbobi hisoblanadi. Bobur deganda, o'tkir qalamli shoir va yetuk sarkarda ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Uning tarixiy shaklda yozilgan "Boburnoma" asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan joy olganini bu e'tirofning namunasidir. Bobur g'azallarida vatanga sog'inch, vatanni sevish hislari yaqqol ifodasini o'zida jam etgan. Uning yillar davomida o'zga yurtida shoh bo'lsa-da, o'z yurtida gadodek yashashga tayyorligi haqiqiy insoniy tushunchadir. Shuni aytish joizki, Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda umr guzoronlik qilib shu yerda "Boburiylar" davlatiga asos solgan.

"Bobur" so'zi fors tilidan olingan bo'lib, bars ya'ni yo'lbars degan ma'noni anglatadi. Boburning otasi Umarshayx Mirzo Sohirqiron Amir Temur avlodidan. Amir Temurning uchinchi o'g'li Mironshohning evarasi bo'lgan. Onasi Qutlug' Nigorhonim mo'g'ul xonlaridan birini qizi bo'lgan. Bobur yoshligini otasining saroyida o'tkazadi. Otasi erta vafot etgani uchun o'n ikki yoshida taxtga o'tiradi. Zahiriddin Muhammad Bobur yozganiga qaraganda, Umar Shayx Mirzo baland himmatlik yuksak orzu-havaslik podsho bo'lgani tufayli hamisha o'z saltanat hududini kengaytirishga harakat qilgan [1]. Umar Shayx Mirzoning yettita xotini uch o'g'li va besh qizi bor edi. Birinchi xotini – Qutlug' Nigorhonim bo'lib, Chig'atoyi naslidan bo'lgan Yunusxonning ikkinchi qizi. Shuningdek Toshkent hukmdori Sulton Mahmudning egachisi edi [2]. Bobur Umar Shayx Mirzoning katta o'g'li hisoblanadi. Zahiriddin Muhammad Boburning yoshligi asosan Andijon va Axsida kechgan. Otasining saroyida ilm ma'rifatli inson singari tarbiyalanib borgan.

Bobur o'zi guvohlik berishicha shoir sifatida ijodiy faoliyati Samarqandni ikkinchi marta qayta egallaganidan keyin boshlangan; "Ul fursatlarda birorikkirar aytur edim" deb yozadi u. Bobur Samarqandligini ilk oylarida Alisher Navoiy tashabbusi bilan ular o'rtasida yozishma boshlanadi. Bobur atrofida ijodkorlarni to'planishi ham shu oylarga to'g'ri keladi. Jumladan Binoiy, Abulbaraka va Bobur o'rtasidagi ruboiy mashoirasi Samarqanddagi qizg'in adabiy hayotdan darak beradi. Umuman davlat arbobi ko'p hayoti jang-u jadalda o'tgan sarkarda sifatida ijtimoiy hayotining eng qizg'in davrida ham, shaxsiy hayoti va davlati nihoyatda xatarli sharoitda qolgan chog'ida ham Bobur ijodiy faoliyatga vaqt topa bilgan. Ilm, san'at ahlini o'z atrofida to'plab homiylik qilgan, ularni rag'batlantirgan Adabiyot, tarix, musiqa sohalarga ixlos qo'ygan [3]. Qirq yetti yillik umri davomida tarix va adabiyotda ulkan iz qoldirgan. Bobur o'z ichki ifodasini shunday noziklik bilan tasvirlaydi.

Har yerdaki gul bo'lsa, tikon bo'lsa ne tong?!
Har qandaki may durdida bo'lsa, ne tong?!
She'rimda agar hazl, agar jid kechuring,
Yaxshi borida agar yomon bo'lsa, ne tong?!

Bobur timsoliga qancha ta'rif bersak shuncha kam. Uning 'Boburnoma' kitobi o'ttizdan ortiq tillarga tarjima qilinganligi bunga haqiqiy dalildir. Hozirgi kunda uning nomini abadiylashtirish bo'yicha turli tuman ishlar olib borilmoqda. Turli joylar uning nomi bilan atalmoqda. Bog'larga uning nomi berilmoqda. Hozirgi zamon olimlari ham Bobur to'g'risida turli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Z. Mashrapov, S. Shokarimov "Asrlarni bo'ylagan Bobur", S. Jalilov "Boburning Farg'ona davlati", "Bobur va Andijon", Qamchibek Kenja "Hind sorig'a", X.Sultonov "Boburning tushlari", "Boburiynoma", R. Shamsuddinov "Boburiylar izidan", "Boburiylar sulolasi" T. Hamidov "Iftixor" va boshqalar. O'zbekiston fanlar akademiyasida Bobur nomidagi medal ta'sis etildi. Sharqshunos olim Ubaydulla Karimov bu medalni birinchi sohibi bo'ldi. Andijonlik olim Zokirjon Mashrapov rahbarlik qilgan Xalqaro Bobur jamg'armasi(1993. 23. 12) Bobur hayotini o'rganishda katta ishlarni amalga oshirdi [4]. Mustaqillik sharofati bilan o'z qadr qimmat topdi. Andijon shahrida Bobur nomiga teatr, bog' barpo etildi. Bobur milliy bog'i majmuasida "Bobur va jahon madaniyati" muzeyi, shoirning ramziy qabr maqbarasi bunyod etildi. Toshkent istirohat bog'i, Xonobod shahridagi istirohat bog'iga, Andijon ko'chalaridan biriga uning nomi berildi[5].

Boburning ko'plab asarlari bizgacha yetib kelmagan. 400ga yaqin she'riy to'plami mavjud. 119ta g'azal, 231 ta ruboiy, tuyuq, qit'a, fard. Har bir asari insonni barkamollikka chorlaydi. G'azallari Vatanga tuyg'u hisida tarbiyalaydi. Bu asarlar yetishib chiqayotgan avlodlarni haqiqiy inson sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Qani edi hamma ham Boburdek o'z yurti tinchligi uchun, har qarich tuprog'i uchun jon berishga tayyor bo'lsa. Bu asarlar Vatan ishqida bitilgan. Haqiqiy insoniylik namunasi bu asarlar. Bu asarlar, tuyuqlar, ruboiylar haqiqiy ma'naviy salohiyatini, yoshlarda oshirishga yordam va ko'mak beradi. Bobur nafaqat adabiyotshunos. ilm ma'rifatli olim balkim yetuk sarkarda sifatida ham tarixga muhrlangan. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev Oliy Majlis Senatining yangi tarkibidagi ilk so'zga chiqqanida tarixni anglashga to'xtalib o'tadi. "Yaqinda xavfsizlik kengashi yig'ilishida Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz haqida gapirdim. Bobur 12 ming askari bilan, 100ming askarni yenggan. O'sha paytda shunday qilish mumkinmidi? Yo'q. Bobomizga nima yordam

bergandi? Vatanparvarlik, g'urur, iftixor, aql zakovat[6]". Bu ishlar bugungi kunda ham tahsinga loyiqdir.

Bobur Hind diyorida ham o'zining milliyligini yo'qotmadi. Garchi shohlik maqomiga erishsa-da, o'z yurtida bir gadodek yashashga tayyorligini yozadi. Yurtlar kezgan bobomiz, o'z yurtini, kindik qoni to'kilgan diyorni, ko'z ochib ko'rgan vatanini sog'inch hissida yashagan. Endi o'zingizga shunday savol bering. Men vatanim uchun nima qildim? Qaysi ishim orqali vatanning foydam tegdi? Boburdek buyuk inson shunday yurtda gado bo'lishga tayyor bo'lgan menchi... Boburning hayoti haqiqiy bizga real voqeadir. Uning asarlarini o'rganishimiz Kelajak avlodni yetuk qilib tarbiyalashda bizga as qotadi.

Hozirgi yoshlarning ma'naviy salohiyatini oshirishda asarlarning mohiyati juda beqiyosdir. Bu asarlar vatansiz darbadar yurgan vatanini qadriga yetmaganlarga munosib namunadir. Boburning beqiyos jasoratlari haqiqiy bizga namunadir. Uning shohlik, shohsupasida o'tirib qilgan ishlari e'tiborga molikdir. Bobur Hindistonda bo'lgan vaqtlarda katta siljishlar ro'y berdi va yangi rag'batlantirishlar hayotga, san'atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi. Madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi [7]. Biz bilamizki Shayboniyxon 1505-yiliga kelib butun Movarounnahrni egallab bo'lib Xurosonni qo'lga kiritishga tayyorgarlik ko'rayotgan edi.

Bobur Mirzo 1504-1507-yillar oralig'ida Mo'g'uliston va Movarounnahr yerlarida quvg'inda yuradi va nihoyat oz sonli askari bilan Hisor tog'laridan oshib, Qobul shahrini egallaydi. U boshidan juda og'ir kunlarni kechiradi. Bobur Mirzoni qizi Gulbadanbegim o'zining "Humayunnoma" asarida bunday yozilgan edi. "To'liq 11 yil davomida Movarounnahr o'lkasida chig'atoy, temuriy va o'zbek sultonlari bilan shunday janglar va mudofaalar qiladilarki, ularning sanog'ini batafsil bayon qilishga qalam ojiz va nuqsonlidir. Oxiri hamrohlari va qarindoshlari bo'lib 250 ga yaqin kishi piyoda, yelkalarida chopon, oyoqlarida choriq, qo'llarida tayoq bo'lgan hollarida beyaroq, xudoga tavakkal qilib Badaxshon va Qobulga qarab yo'l oldilar[8]" deb yozadi. So'ngra mana shu hududlarda o'z hukmronligini o'rnatadi. 1530-yil 47 yoshida Agrada vafot etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Bobur siymosi oldida barchamiz bosh egamiz. Uning haqiqiy insonparvarlik g'oyalari, vatanni sevish uning har bir tuprog'ini asrash, kim bo'lishidan qat'iy nazar (shoh shoh bo'lsin yoki bir gado) vatanni qadriga yetishga undashlik, Vatanni tarannum etishlik, hattoki jon berishlik haqiqiy farzandni burchi ekanligini ta'kidlaydi. Barchamiz bizga qolgan Bobur meroslarini asrashimiz va uning munosib

avlodi bo‘lishimiz kerak! Uning abadiy merosidan samarali yo‘llarda foydalanishimiz kerak. Bu bebaho asarlar bizga omonat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Turg‘un Fayziyev “Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari”. Toshkent Yozuvchi nashriyoti-1996. 6-bet
2. Turg‘un Fayziyev “Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari”. Toshkent Yozuvchi nashriyoti-1996. 7-bet
3. Tafakkur jurnali
4. uz.m.vikopedia.org
5. Kun.uz
6. Kun.uz
7. Tuit.uz
8. R. Shamsutdinov, Sh. Karimov, O‘. Ubaydullayev “Vatan tarixi”. Sharq nashriyoti Toshkent-2010. 16-bet

YUKSAK MA’NAVIYATLI AVLOD -UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLARI

Gulchehraxon UMATOVA
TDSHU, Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati
Yapon-ingliz guruhi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD dotsent, X.X. Jabborov

Annotatsiya: Mazkur maqolada, mamlakatimizda yuksak ma’naviyatli avlodni shakllantirishda yangi O‘zbekistonning Uchinchi Renessans g‘oyasini jonajon vatanimizda ikki buyuk uyg‘onish davrining mantiqiy davomi sanalgan ushbu davrning hozirgi shiddat bilan kechayotgan, har soniyada yangilanish, rivojlanish, innovatsion g‘oyalar, ilm-fan kashfiyotlari zamonida nechog‘lik mas’uliyatligi va yoshlar hayotida xususan, hozirgi zamon talablariga nafaqat javob bera oladigan, balki ta’bir joiz bo‘lsa ortda qoldiradigan uyg‘onish davrini bunyod etishga qaratilgan amaliy sa’y- harakatlar, buning uchun yo‘lga qo‘yilajak maqsadlar haqida so‘z ketadi. Shu bilan birgalikda, maqolada yuqoridagi masalalarga keng nigoh bilan qaralib, ushbu bosqichga o‘tish davridagi yosh avlodning qilinishi zarur bo‘lgan bir necha rejali harakatlari uchun taklif va mulohazalar berilgan.

Kalit soʻzlar: Uchinchi Renessans, sivilizatsiya, strategiya, sharq mentaliteti.

Mustaqilligimizning 29 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimda muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich oʻz nutqlarida yangi bir uygʻonish davri – Uchinchi renessans Davriga poydevor yaratilayotgani haqida gapirdilar¹. Barchamizga maʼlumki, buyuk kelajakni yaratishda maʼnaviyati yuksak, sogʻlom fikrli avlodning oʻrni benihoya ahamiyatlidir. Aynan mana shunday avlodgina kelajak poydevorini mustahkam qura oladi.

Oʻzbekistonning hali yosh boʻlishiga qaramay, dunyo davlatlari orasida davlat rahbarining oqilona qoʻyib olingan maqsadli strategik yoʻli sababli yuqori hurmat qozona oldi. Ammo taʼkidlash joizki, bizning Sharq mentalitetimizda maʼnaviyatimizga yod buzgʻunchi gʻoyalar, rivojlanishning “zamonaviy shakli” niqobi ostida yosh avlod mafkurasini buzishga qaratilgan, sharqona tarbiyamiz, dinimiz meʼyorlarini buzuvchi harakatlar uchrab turibdi.

Yangi Oʻzbekistonning uchinchi renessans gʻoyasi jamiyatimizning har bir jabhasida, sohasida yangi uygʻonish davri boʻlmoqda. Bu jarayonda biz tarixga, oʻtmishda oʻtgan necha-necha olim-u fuzalo, donishmand, dunyo tamadduniga tosh qoʻygan, yuksak ilm-maʼrifat egalari boʻlgan ajdodlarimizdan oʻrnak olishimiz, ularga mos avlod boʻlmogʻimiz, kimning avlodlari ekanimizni unutmasligimiz kerak. 1909-yilda Avstraliyalik mashhur sharqshunos Adam Mesning “Musulmon Renessansi” nomli fundamental asari² chop etilgandan soʻng, Renessans faqatgina Yevropaga oid hodisa emasligi, uni Sharq xalqlari yevropaliklarga nisbatan avvalroq boshdan kechirgani toʻgʻrisidagi qarashlar va tadqiqotlar paydo boʻldi.

Albatta hech bir qoʻyilgan maqsad oʻz-oʻzidan zabt etib qolinmaydi. Buning uchun mehnat, izlanish talab qilinadi. Avvalo ushbu Uchinchi Renessans nima sababdan aynan uchinchi ekanligiga eʼtibor qaratsak. Davlatboshimiz aytib oʻtganlaridek, Oʻzbekiston zamini qadimda ikki buyuk uygʻonish davriga- Birinchi (maʼrifiy -IX-XII asrlar) va ikkinchi (Temuriylar – XIV-XV asrlar) Renessansga beshik boʻlgan. “Bu – jahon ilm-fanida oʻz isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir”.

Uchinchi renessans bunyodkorlari eng asosiy eʼtiborini va kuchini ilm olishga, fan-madaniyat, sport sohalarida ildamlilik qilib, berilayotgan imkoniyatdan toʻliq foydalanib, doimo birinchilikka, yuqori natijalarni

¹ <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-yangi-bir-uygonish--uchinchi-renessans-davriga-poydevor-yaratilmoqda>

² Адам Мец. Мусульманский Ренессанс. Перевод с немецкого, предисловие, библиография и указатель Д.Е.Бертельса. – М.: Наука, 1966. – С.456

ko'rsatishga qaratishi shart. Bu o'rinda avvalo maktab tizimiga, yetishtirila-yotgan yosh bitiruvchilarning bilim salohiyatlariga, fikrlash darajalariga aholida e'tibor qaratilib, nafaqat maktab, kollej-litseylarda ham malakali kadrlar yetishtirilishiga, ularga imkoniyatlarini to'laligicha namoyon qilishlariga, qo'ldan kelgancha imkon yaratib berilishiga diqqatni qaratish zarur.

Yoshlar ongiga hozirgi paytda yoshlarning juda ko'p vaqtini olayotgan ijtimoiy tarmoqlar, behayolikni targ'ib qiluvchi, ongni zaharlovchi internet sahifalaridan chetlashtirib kitob mutolaasi orqali ta'sir o'tkazilib, vatanga bo'lgan muhabbat, yurt tinchligi va kelajagini kafolatlovchi mafkurani targ'ib qilishni asosiy maqsad qilib olish darkor.

Hozirgi globallashtan zamonda hayotni internet tizimisiz tasavvur qilib bo'lmaydi albatta. Diyorimizda bilim darajasi yuqori, yangicha uslubda, mentalitetimizga xos internet tizimini yaratuvchi yoshlarimiz juda ko'pchilikni tashkil qiladi. Yosh avlodning o'y-qarashlari, fikri to'g'ri yo'naltirilgan bo'lganligi, aynan mana shu yuksak ma'naviyatli avlod – Uchinchi Renessans bunyodkorlarini yetishtirib bera oladi. Imkoniyatlar eshigi lang ochilgan ayni paytda zamonamiz yoshlari bor kuch mahorati bilan sportda va fan sohalarida ilm cho'qqilarini zabt etib, mamlakatimizdagi yoshlarning ilm salohiyatini dunyoga tanitishmoqda. Bu albatta yaxshi, ammo jamiyatimizda bir illat borki, uni ildizi bilan sug'urib tashlash ancha oqsoqlanmoqda.

Aynan mana shu oqsoqlanish yoshlarning rivojlanishiga, shaxdam qadamlar bilan ko'zlagan maqsadga yetishlarida yo'llariga to'g'onoq bo'lguvchi jamiyatimizning og'riqli nuqtasi – poraxo'rlik illati, prezidentimiz Shavkat Miromonovichning jonkuyarliklari sabab sezilarli darajada pasaydi, buni tan olishimiz ayni haqiqat bo'lar edi. Diqqatni qaratish joiz bo'lgan yana bir masala yoshlarning til o'rganishlariga qaratilgan e'tibor. Dono xalqimiz tomonidan "Til bilgan – el biladi" degan naql bejizga aytilmagan. Ta'lim tizimida, olib borilayotgan ilg'or islohotlar yoshlar hayotida anchayin o'zgarishlar, ya'ni o'sish darajasini ta'minlab berdi. Yosh olim ayol – qizlarimizga ham yaratilgan imkoniyatlarga to'xtab otmaslikning iloji yo'q. Xususan, yosh xotin – qizlarni kelajakda ilmli, ma'rifati yuksak bo'lgan farzandlarni tarbiyalashlari lozimligini inobatga olib, ilmiy va doktorlik daraja(PhD,Ed.D)larini olishlariga va dunyo ilm-fanida O'zbek nomi bilan hurmat qozonishlariga, O'zbek millatining shuhratini jahonga yoyishlariga imkon yaratilayotgani quvonarli albatta.

O'tmishga nazar solsak, mustabid tuzum tizimi davrida o'zbek xalqining ziyolilari ma'naviyati yuksak, ilm-fan sohiblari bo'lgan ijodkor,

buyuk aql-idrok egalari, milliy mafkura tarafdorlari bo'lgan bobolarimiz anchagina qiyinchiliklarni boshlaridan o'tqazishgan bo'lishsa-da, o'zlaridan o'chmas iz qoldira olishdi. Buyuk allomalimizning ilmiy meroslarini qadrlab, ular qoldirgan bebaho asarlarni o'rganishimiz biz yoshlar uchun ham farz, ham faxrdir.

Mamlakatimiz rahbari 16.07.2021 yildagi PQ-5186-sonli qarorlariga¹ muvofiq Xalqning bunyodkorligi jo'sh urgan hozirgi zamonda Uchinchi Renessansning ilmiy-ma'naviy poydevorini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy-diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, mamlakatning islom sivilizatsiyasini rivojlantirish borasidagi rolini yanada oshirish hamda buyuk allomalarning jahon tamadduniga qo'shgan hissasini milliy va xalqaro miqyosda ommalashtirish maqsadida bir qator "Uchinchi Renessans – Yangi O'zbekiston g'oyasini targ'ib qiluvchi, manzil sari eltuvchi yo'l xaritasi tuzib olindi.

Ushbu qarorda keltirilgan bir band – Dunyo fondlarida saqlanayotgan O'zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk shaxslar, ular tomonidan asos solingan ilmiy va diniy maktablarga doir qadimiy kitoblar, tarixiy dalil va hujjatlar, shu yo'nalishdagi zamonaviy ilmiy tadqiqot ishlari kitob va to'plamlar boshqa hujjatlarning elektron nusxalarini olish va markaz fondiga taqdim etish choralarini ko'rish masalasi biz yoshlarni bag'oyat xursand qildi, zero ajdodlarimiz ilmiy merosini qo'lga olib, o'rganishimizning o'zi, ularga munosib avlod bo'lish mas'uliyatini qalbimizda g'urur bilan eslatadi.

Oldimizga qo'yilgan ma'rifat, madaniyat va tafakkurning taraqqiyoti hisoblanuvchi ushbu davrni bunyod qilish shak-shubhasiz yoshlarning qo'lidadir, maqsad qo'yib olingan -Uchinchi Renessansning boshlang'ich ilk bosqichlaridayoq yurtimiz olimlari tomonidan ilmiy-diniy merosimizni qaytarish ishlari 1984-yilda hech qanday dalolatnomalarsiz (olimlar xulosasiga ko'ra VII asrning so'nggi choragiga tegishli, bu xulosani fransuz sharqshunos olimi F.Derosh ham tasdiqlaydi.) olib ketilgan "Katta Langar Qur'on"ning O'zbekistonda qolgan ma'lum qismi Said Mirziyoyeva tashabbuslari bilan to'liq restavratsiya qilinib, Qur'onning 81 varaqli faksimil nusxasi Sank-Peterburgdan O'zbekiston musulmonlar idorasiga olib kelindi. Bundan tashqari, raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, Oliy ta'lim tizimida ham anchagina ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Respublikamizda 2020/2021 o'quv yilidan boshlab 725 ta mutlaqo yangi professional ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi.

¹ <https://lex.uz/docs/-5514989>

Respublika oliy ta'lim muassasalarida 22ta xorijiy davlatlar (AQSH, Germaniya, Rossiya, Belarus, Gollandiya, Isroil, Italiya, Finlyandiya, Fransiya, Chexiya, Xitoy, Hindiston, Koreya Respublikasi va b.)ning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari doirasida 83 ta ta'lim yo'nalishlari va 64 ta mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga bel bog'lagan yoshlar uchun bu ulkan imkoniyatdir. Xalqaro maydonlarda bizning maqolalarimiz, oxirgi 3 yilda xalqaro tan olingan ilmiy jurnallarda chop etilish darajasi to'rt barobarga oshdi. Xalqaro standartlarga javob bera oladigan "O'zbekiston ilmiy jurnallari" onlayn portali (<https://uzjournals.edu.uz>) yaratildi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz lozimki, biz yoshlar hozirgi hayotning barcha sohalari gullab yashnagan, keng imkoniyatlar eshigi ochilgan bu davrda tug'ilganimizdan, muhtaram prezidentimizning oqilona siyosatlari, qo'llab quvvatlashlaridan bag'oyatda xursand bo'lib bizga berilgan ishonchni oqlashga jon-u dilimiz bilan harakat qilmog'imiz lozim va darkordir. Yaratilgan imkoniyatlardan shunchaki foydalanmay, natija uchun, har sohada va jabhada, Jahon reytinglarida doimiy birinchilikni olishga, aniq konkret maqsadlar bilan kelajak uchun yuksak ma'naviyatli avlod bo'lib, Uchinchi Renessansning poydevorini mustahkam qurib tarix zarvaraqlarida O'zbek millatining haqiqiy oliy o'rnini egallashimizga ahd qilib, jonu jahd bilan harakat qilishimiz bizning ona vatan va ajdodlar oldidagi burchimizdir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-yangi-bir-uygonish-uchinchi-renessans-davriga-poydevor-yaratilmoqda>
2. <https://lex.uz/ru/docs/-5514948>
3. <https://m.aniq.uz>
4. Адам Мец. Мусульманский Ренессанс. Перевод с немецкого, предисловие, библиография и указатель Д.Е.Бертеля. – М.: Наука, 1966. – С.456

OGAHIY FENOMENIDA “USTOZ-SHOGIRD” AN’ANASI VA TA’LIM-TARBIYA NAMUNASI

Sevara SHERBOYEVA

TDSHU, xalqaro jurnalistika yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent M. SOLIYEVA

Annotatsiya. Maqolada ulug‘ shoir va mutafakkir Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning murabbiy-rahnamolari hamda she‘riyatda saboq bergan murshidlari o‘rtasidagi ilmiy-adabiy munosabatlar, ta’lim-tarbiya jarayoni “ustoz-shogird” an’ansi asosida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: saroy mushoirasi, “Tazkirayi shuaro”, qofiyalanuvchi nasr, saj, adabiy prosopografiya, qasida, madrasanishin, sadrnishin.

Mashhurligiga ko‘ra, uch toifa shoirlar bor. Birinchisi hayot davrida mashhur bo‘lib, keyin unutilgan. Ikkinchisi hayotligida nomi chiqmasa-da, vafotidan so‘ng dovuq qozongan. Uchinchisi foniy hayotidayoq boqiy nom qozongan. Muhammadrizo Ogahiy (1809 – 1874) so‘nggi toifaga mansub shoiridir. Xiva xonligi davrida turkiy tilda eng ko‘p bitilgan nazmiy va nasriy asarlarning muallifi, Turkiy til tarjimonlik maktabining Zahiriddin Muhammad Bobur lafzi bilan aytganda “eng ko‘p va eng xo‘b” ijodkori va peshqadami edi.

Ogahiy o‘zbek elining qiyot urug‘idan bo‘lib, uning hayotida Shermuhammad Munis katta rol o‘ynagan. Birinchi navbatda, shoir devonida yoshlik chog‘idan ilmga chanqoqligini, shoir-u olimlar davrasida bo‘lishga intilganini yozgan. U maktabni tugatgandan so‘ng, madrasanishinlik, zamonaviy til bilan aytganda oliy ta’lim muassasasiga o‘qishga kirib, ilm olishni davom ettirganini yozadi. Ogahiy odatdagi 7-8, 10-11 yoki 12-13 baytlik g‘azallar yozish tartibini buzib, mazmun talabi bilan 20 baytlik va 23 baytlik g‘azallar yozdi [1, 38]. Rahnamosi, maslakdoshi, shogirdining – davr hukmdorlari bo‘lgani, ularga so‘z qadrini bildirganligi, turkiy nazmni davlat siyosati darajasiga ko‘targani sohibiqalamning katta yutug‘idir. Ogahiyning pusht-u kamari bo‘lmasa-da, bir necha yuz yillardirki, ijodlarining sadoqatli izdoshlari bor. “Ogahiy Feruz shohning ijodga rag‘batlantirganini, natijada “ko‘ngliga quvvat va ta’biga jur‘at” bilan ko‘pdan-ko‘p she‘rlar yozganini so‘zlaydi, bu ham Navoiy debochalari mazmun-ruhini eslatadi [2, 51]. Ogahiy debochasidan quyidagi parcha ham Navoiyga “etishgan hukm”ning bir ko‘rinishi darajasida:

“... dilnavozlik yuzidin xitob qilib dedikim: – Barcha musavvadalardagi va bayozlardagi va o‘zga yerlardagi parishon bo‘lgan she‘rlaringni jam’ etib,

devon suvratida tartib bergil va anga debocha ham yozib so'ngra aytilgan ash'oringni dag'i hamul devonda o'z mahalida raqam silkiga gavhar yanglig' tergil!" Qo'ng'irotlar sulolasining Alisher Navoiyga ergashish adabiy prosopografiyasining boshida Shermuhammad Munis (1778 – 1829) turgan edi [3, 37]. Shoir Navoiyni ma'nan ustoz va piri deb biladi. Aynan Munis ijodi Ogahiyi Navoiy ijodiga bog'lovchi ko'prik vazifasini bajargan. Chunki Munis Muhammadrizo Ogahiyning ustozigina emas, rahnamosi ham bo'lgan. Ogahiy Navoiy singari otadan erta yetim qolgan. Hazrat Alisher tarbiyasiga tog'alari – yetuk shoirlar Mirsaid Kobuliy va Muhammadali G'aribiyning ta'siri kuchli bo'lganidek, Munis ham Muhammadrizoning tog'asi sifatida uning hayoti va ijodida yetakchi shaxs edi. U "dastparvardai Munis" ekanligini, tog'asining devoniga o'xshatib *debocha* yozganidan bilsa bo'ladi. Muhammadrahimxon I Munisga, Husayn Boyqaro (1469-1506) Alisher Navoiyga homiylik qilganidek, Muhammadrahimxon II Ogahiyga rahnamolik qilgan. Shuning natijasida Munis saroy mushoiralariga jiyani, amakizodasi Muhammadrizo Ogahiyi jalb qila olgan [4, 41]. Ogahiy iqtidori va fenomenal mehnatkashligi bilan Muhammadrahimxon II davriga kelib, sadrnishin martabasida erishadi: **"Mirobliq mansabi oliysig'a mansub va sadrnishinlik martabayi mutolisig'a mansubdurman"**.

Ogahiyning ona qishlog'i Qiyotda uning qarindoshi Tohir Xudoynazarov yashaydi [5, 21]. Uning ta'kidlashicha, Munis uning ona tomonidan amakisi bo'lgan. "Tazkirayi shuaro" asari muallif Hasanmurod Laffasiy (1880–1949) Ogahiyi Munisning jiyani (amakizodasi) deb ataydi [6, 24]. Nasabnomadadan ko'rinib turganidek, Munis va Ogahiy ajdodlari o'zbeklarning yuz urug'idan bo'lib, ular nasldan-naslga saroyda mirob lavozimida faoliyat yuritishgan. So'nggi vaqtlargacha ilmiy doiralarda Xorazmda mirob martabasini egallagan shaxs xonlikdagi irrigatsiya ishlari uchun javobgar bo'lgan, degan qarash mavjud edi [7, 335]. Biroq N. Toshevning aniqlashicha, Xivaning tarixiy xronologiyalarida mirob atamasi, ko'pincha, harbiy ish va kampaniyalar munosabati bilan tilga olingan [8, 38].

Ammo biz uchun muhimi – Munis va Ogahiy nomlarining harbiy yurishlarda emas, balki xonlik madaniy hayotidagi oid o'rinlarda tez-tez tilga olinishi. Qo'ng'irot xonlari ularni qudratli qalam sohibi va mohir tarjimon sifatida tarixnavislik ishiga jalb etishgan. Ogahiyning yozishicha, unga ijodiy ish bilan mashg'ul bo'lish, olim-u shoirlar davrasida yurish harbiy ishlarga jalb qilishdan afzalroq va qiziqroq bo'lgan.

1829-yili Ogahiy 20 yoshga kirganida ustoz, amakisi Munis vabo (xolera) kasali tufayli dunyodan o'tadi. "Tazkirayi shuaro" asari muallifi Hasanmurod Laffasiyning yozishicha, bu Xurosonga navbatdagi yurish

vaqtida ro'y bergan va Olloqulixon (1240–1258/1825–1842) buyrug'i bilan marhum jasadi Xiva keltirilgan. Laffassiy ta'kidlashicha, Olloqulixon Munisning to'satdan ro'y bergan o'limidan qattiq iztirobga tushgan. Aftidan, u Munisni juda qadrlagan [9, 76]. An'anaga ko'ra, saroydagi mansab avloddan avlodga erkaklar liniyasi bo'yicha o'tgan. Balki shu tufayli Ogahiy miroblik lavozimiga tayinlangan. Ogahiyning dastlabki iste'fosi 1268-yil 19-muharram 1856-yil 14-noyabrga to'g'ri keladi [10, 382]. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, Ogahiy miroblik lavozimidagi vazifasini unchalik istamay bajaradi. Buning ustiga uni bod kassaligi qiynar edi. Kasalligi tufayli u miroblik vazifasi bilan bog'liq majburiyatlarini bajara olmas hamda xon harbiy yurishlarida u bilan birga bo'la olmas edi. Shu sabab Muhammad Aminxon Ogahiyning o'z iltimosiga ko'ra xizmatdan bo'shatadi; uning o'rniga Ogahiyning yaqin qarindoshi (amakizodasi) Muhammad Karimbek tayinlanadi. Oradan to'rt yil o'tgach, Muhammad Karimbek Abdullohxon (1271/1855) bilan birga isyonchi yomutlarga qarshi jangda vafot etadi. Uning o'rniga kelgan taxt vorisi Qutluk Murodixon (1271–1272/1855–1856) Ogahiyning kasal bo'lishiga qaramay, yana mirob etib tayinlaydi.

Ogahiy hayoti va ijodi bilan shug'ullangan barcha olimlar uning miroblik lavozimidan ketganidan keyin bu joyga yana qaytib o'tirmagan, deb hisoblab kelganlar. Biroq N. Toshev Ogahiy umri oxirigacha miroblik vazifasida qolgan deb, asos sifatida beshta dalil keltirgan. Ularga yuqorida tilga olganimiz A. Vamberi so'zlarini ham qo'shsa bo'ladi. U 1863-yili Xiva xonligiga tashrif buyuradi va Ogahiyning mirob deb atab tilga oladi. A.L. Kun arxividan ham muhim fakt topish mumkin. Kunning yozishicha, u Xivaga kelgan vaqtida xon tarixchilaridan biri miroblik vazifasini egallab turgan ekan [11, 248]. Tabiiyki, bu mirob Ogahiy bo'lishi mumkin edi. Shu bilan birga Ogahiy devoni debochasida saroydagi o'z darajasini sadrnishin, deb ataydi. Bu atamani "saroy shoirlari peshvosi" deb talqin qilish mumkin.

U olti Xiva xoni davrida saroy tarixchisi sifatida faoliyat yuritgan. Ogahiy – Xiva xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan fath etilganidan bir yil o'tgach –1291/1874 yili vafot etgan. Uning qabri Munis maqbarasi singari Xivadan sakkiz kilometr masofada joylashgan Qiyot qishlog'idagi Shayx Mavlono Bobo mozorida joylashgan. Taxminlarga ko'ra uning tug'ilgan joyi ham ayni yerda bo'lgan Munis va Ogahiy qabrlari S.Dalimov, E.Samandar va O.Pirnazarovlarning hamkorlikdagi harakatlari natijasida Qiyot qishlog'idan topilgan. Ogahiy uy-muzeyi ham shu qishloqda joylashgan. Ogahiy ekan tut daraxti ham mana Qiyotda o'sayapti.

Ogahiy saroydagi lavozimlariga bir xil munosabatda bo'lmagan. Harbiy sohadagi ko'ngli yo'qligi natijasida ijodiy ishlari sohasidagi xizmatlarini

barcha narsalardan ustun qo‘ygan. Saroydagi lavozimi maosh olish uchun vosita bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Kamida Muhammad Aminxon davridan to umri so‘ngigacha u tarjimachilik va badiiy ijod bilan shug‘ullangan va ayni paytda miroblik lavozimini egallab, maoshini ham olib turgan. Ogahiy she‘rlari u hayotligi vaqtidayoq mashhur bo‘lgan. Muhammad Rahimxon II uni she‘riyatdagi ustoz, deb bilgan. Shoirlardan Muhammad Ya‘qubxo‘ja ibn Hoji Ibrohim Xolis (1287/1870-yili vafot etgan) va Pahlavon Niyoz mirzaboshi ibn Domulla Abdulloh axund Komil Xorazmiy (1316/1898-yili vafot etgan) kabilar Ogahiy shogirdlari hisoblanishadi [12, 6]. Ogahiyning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan g‘oyalari xon va shoir Feruzning siyosiy-ma‘rifiy tarbiyasiga ta‘sir qilgan. U tarixchi olim sifatida Xiva xonlariga, yirik tarixiy shaxslarga bag‘ishlab qasidalar yozgan. Ogahiyning “Qasidai nasihat” asari Feruzga bag‘ishlangan. U o‘z nasihatlarida saltanatni boshqarishning yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatadi, mamlakat va xalqni adolat bilan idora etish yo‘llarini belgilab beradi.

Qasida masnaviy janrida yozilgan bo‘lib, unda shoirning siyosiy-ma‘rifiy qarashlari yorqin aks etgan. Ogahiy fikricha, har qanday davlat boshlig‘i hokimiyatni mustahkamlash uchun barcha ijobiy fazilatlarga ega bo‘lishi lozim. Podshoh himmatli, shijoatli, adolatli, g‘ayratli, saxovatli, hayoli, sof niyatli, madaniyatli, hamiyatli, kambag‘alparvar bo‘lishi zarur. Hukmdor shu fazilatlarga ega bo‘lsa, uning hokimiyati kamol topadi, mamlakati farovon bo‘ladi, degan fikrni ilgari suradi. Ogahiy davlatni boshqarishning yo‘llarini ham ko‘rsatib o‘tgan. Shoirning fikricha, shoh shariat ahkomlariga qattiq amal qilmog‘i lozim. U aysh-ishratdan, fitna va g‘iybatdan, g‘aflatdan, yalqovlikdan, zulm-razolatdan, chaqimchilikdan, molparastlikdan uzoq bo‘lishi kerak. Feruz Ogahiyning davlatni boshqarish to‘g‘risidagi maslahatlariga quloq tutgan, uning hikmatli baytlarini marmar toshlarga yozdirib, arzxonalarga qo‘ydirgan, ko‘p ezgu ishlarni amalga oshirgan. Shu bois ham Ogahiy tarixiy asarlari badiiy nasr sifatida hamda 19-asr Xorazm voqeligini haqqoniy aks ettiruvchi nodir tarixiy hujjatlar sifatida qimmatlidir.

Xulosa qilib aytganda, Ogahiy tarixiy asarlari uslubi dabdabali va jimjimadordir. U har safar nafaqat she‘riy mahorat, balki qofiyalanuvchi nasr (saj‘) usulini ham a‘lo darajada bilishini namoyon etadi. Darhaqiqat, Ogahiyning ijodiy ishlari sohasidagi xizmatlarini barcha narsalardan ustun qo‘ygan. Ogahiy she‘rlari u hayotligi vaqtidayoq mashhur bo‘lgan. Umri so‘ngigacha u tarjimachilik va badiiy ijod bilan shug‘ullanish barobarida ustozlaridan o‘rgangan bilimlarni shogirdlariga astoydil o‘rgatib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fayzullayev A. Muhammad Rizo Ogahiy – ulug' shoir va mutafakkir. Toshkent, 2022.
2. Xallieva G. Ogahiy musammatlari. Toshkent: Mumtoz so'z. 2019.
3. Dolimov S. Ogahiy poeziyasida omonim va sinonim so'zlar // O'qituvchilar gazetasi. 1957. – № 51.
4. Do'simov Z. Ogahiyning "Zubdatut-tavorix" asarining leksik-grammatik xususiyatlari haqida // Ogahiy abadiyati. –Toshkent: O'zbekiston, 1999. – B. 37-41.
5. Dadaboyev H. Ogahiy tarixiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi xususida // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari (Ilmiy maqolalar to'plami) – №3. – Toshkent, 2009. – B. 21-24.
6. Muhammad Rizo mirob Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Asarlar. VI jildlik. V jild. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. –B. 202-210.
7. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Shohidu-l-iqbol. Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi N. Shodmonov. – Toshkent: Muharrir, 2009. – 335-bet.
8. Muhammad Riza Mirab Agahi. Jami al-vaqi'at-i sultani. Ed. in the original Central Asian Turki with an Introduction and Notes by Nouryaghdi Tashev. – Tashkent-Istanbul, 2012.
9. Muhmmad Riza mirab Agahi. Zubdat al-tavarikh. International institute for Central Asian Studies, Al-Beruni Center for Oriental Manuscripts under Tashkent State Institute of Oriental studies. Edited in the original Central Asian Turki with an Introduction and Notes by Khilola Nazirova. International Institute for Central Asian Studies (IICAS) by the UNESCO Silk Road Programme. – Tashkent–Samarkand, 2016.
10. Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. Firdavs ul-iqbol (Baxtlar bog'i). Nashrga tayyorlovchilar N. Jumaxo'ja, S. Ro'zimboev, A.Ahmedov. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. 382-bet.
11. O'razboev A.D. Ogahiyning "Riyoziy ud-davla" asarida ijtimoiy-siyosiy leksika. Filol. fanlari nomz. diss. – Toshkent, 2009. 155-b.; Ogahiyning tarixiy asarlari leksikasi. Filol. fanlari dokt. diss. – Toshkent, 2018. 248-bet.
12. Komilov N. Muhammadrizo Ogahiyning tarjimonlik mahorati. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya ishi. – Toshkent, 1970. 6-bet.

M U N D A R I J A			
1.	<i>Муҳаммадҷон ИМОМНАЗАРОВ</i>	МИЛЛИЙ МАЪНАВИЯТИМИЗ ТАРИХИДА АКАДЕМИК АЗИЗХОН ҚАЮМОВ МАКТАБИНИНГ ЎРНИ	3
2.	<i>Мирсодиқ ИСҲОҚОВ</i>	АЗИЗ ПЎЛАТОВИЧ ҚАЮМОВНИНГ ЭЪЗОЗЛИ ХОТИРАСИГА	6
3.	<i>Қосимҷон СОДИҚОВ</i>	АЗИЗ ҚАЮМОВНИНГ ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚЛАРИНИНГ КЎҲНА ЁЗМА ЁДГОРЛИКЛАРИНИ ЎРГАНИШДАГИ УЛУҒ ХИЗМАТЛАРИ	13
4.	<i>Боқижон ТЎХЛИЕВ</i>	КОМИЛЛИК КАЛИТИ ЁХУД АЗИЗ ҚАЮМОВ ФЕНОМЕНИ ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	17
5.	<i>Қудратулло ОМОНОВ</i>	АСЛО ЎЧМАС ЯХШИЛАР ЁДИ	22
6.	<i>Эркин АХУНЖОНОВ</i>	МАЪРИФАТПАРВАР СИЙМОЛИ ШАХС	25
TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK			
7.	<i>Aziza UMAROVA</i>	HOZIRGI XITOY TILIDA (快板儿) JANRI HAQIDA	30
8.	<i>Safiyaxon ABDULLAYEVA</i>	病，症，炎 IYEROG LIFLARINING AFFIKSLAR MISOLIDA YASALGAN TIBBIYOT TERMINLARI	34
9.	<i>Sabrina RO‘ZMATOVA</i>	XITOY TIL MADANIYATIDA “GO‘ZALLIK” TUSHUNCHASI	37
10.	<i>Shahlo RAHIMOVA</i>	MALAY TILIDA MAJHUL NISBAT VA UNING O‘ZBEK TILI BILAN O‘XSHASH VA FARQLI JIHATLARI	41
11.	<i>Gulzoda UTKUROVA</i>	INGLIZ TILIDAN QABUL QILINGAN QO‘SHIMCHALARINING MALAY	45

		AFFIKSATSIIYASIDAGI MUAMMOLARI.	
12.	<i>Хуршид ТОЛИБОВ</i>	ЗАПИСКИ О КОШАЧЬЕМ ГОРОДЕ: КИТАЙСКАЯ ФИЛОСОФИЯ И ИСТОРИЯ В РОМАНЕ ЛАО ШЭ	52
13.	<i>Fotima SAYFULLAYEVA</i>	“FAROSAT” UMUMIY MA’NOLI MAQOLLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI	56
14.	<i>Dilmira MAMIDOVA</i>	XITOIY TILIDA JOY NOMLARINING IFODALANISHI	60
15.	<i>Nafisa NORBEKOVA</i>	XITOIY VA O‘ZBEK TILLARIDAGI TABULARNING QIYOSIY TAHLILI	63
16.	<i>Aziza SODIROVA</i>	XITOIY TILIDA RUHIY HOLAT FE’LLARI	68
17.	<i>Mahbuba ABDULAZIZOVA</i>	XX ASR OXIRI XXI ASR BOSHIDA XITOIY ADABIYOTIDA DETEKTIV JANRINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	71
18.	<i>Sevinch ASHIRBAEVA</i>	SAN MAO ASARLARIDA INSON TABIATINING GO‘ZALLIGI HAQIDA	74
19.	<i>Юлдузхон ХОШИМОВА</i>	ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В ТВОРЧЕСТВЕ БИ ФЭЙЮЯ	78
20.	<i>Mohichehra MUSTAFOYEVA</i>	ABDULLA QAHHORNING “O‘TMISHDAN ERTAKLAR” ASARIDA QO‘LLANGAN TOPONIMLAR TALQINI	81
21.	<i>Ro‘zinor SHAYDULLAYEVA</i>	OGAHIY LIRIKASIDA TABIAT TASVIRI	85
22.	<i>Munisa SADULLAYEVA</i>	OGAHIY G‘AZALLARIDAGI TALMEH BADIY SAN’ATINING O‘RNI.	88
23.	<i>Shahobiddin YO‘LDOSHEV</i>	OGAHIY E’TIROFI YURTIMIZDA	92

24.	<i>Малика ЗУЛФИКОРОВА</i>	ЛЕКСИКОГРАФИЯ «ЗАЙЦА» В КИТАЙСКОЙ МИФОЛОГИИ И ЛИТЕРАТУРЕ.	96
GID HAMROHLIGI VA TARJIMASHUNOSLIK			
25.	<i>Fardona YAXSHIBOYEVA</i>	ALISHER NAVOIY IJODIY MEROSINING O‘RGANILISHI VA NAVOIYSHUNOSLIKNING YUZAGA KELISHI	104
26.	<i>Shohjahon MAJITOV</i>	JURNALISTIKADA HUQUQIY MULOQOT	107
27.	<i>Doniyor RAHIMOV</i>	DARIY TILIDAGI DINIY FRAZELOGIZMLARNI MUQOBIL VA EKIVALENT IBORALAR VOSITASIDA TARJIMA QILISH	111
28.	<i>Durdona CHORIYEVA</i>	ODIL YOQUBOV “ULUG‘BEK XAZINASI” ASARINING TURKCHA TARJIMASIDA PORTRET TASVIRIDA TARJIMON MAHORATI	115
29.	<i>Roziyaxon SHUKURXO‘JAYEVA</i>	XUDOYBERDI TO‘XTABOYEVNING “SARIQ DEVNI MINIB” ROMANIDAGI IBORALARNING TURKCHA TARJIMADA BERILISHI	120
TARIX VA FALSAFA			
30.	<i>Abbosxon UBAYDULLAYEV</i>	SULTON SAYFIDDIN QUTUZNING MO‘G‘ULLARGA QARSHI KURASHI	126
31.	<i>Azamat FAYZULLAYEV</i>	ISLOM DININING JANUBI- SHARQIY OSIYO MAMLAKATLARIDA TARQALISHI	130
32.	<i>Sevinch TILABJONOVA</i>	ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING MASHAQQATLI HAYOT YO‘LI	133

33.	<i>Ruxsora XUDAYBERGANOVA</i>	ISLOM DININING HINDISTONGA KIRIB KELISH TARIXI	139
34.	<i>Umidjon BAQOYEV</i>	ASHTARXONIYLAR DAVRI DIPLOMATIK MUNOSABATLARI TARIXI MANBASHUNOSLIGI	142
35.	<i>Abdubilol ABDURAXMONOV</i>	“SAYYOH RUBOIYLAR” YOHUD UMAR XAYYOM SHOIR BO‘LMAGANMI?	148
36.	<i>Qorako‘z TO‘LANBOYEVA</i>	DEDUKSIYA NAZARIYASI HAQIDA MULOHAZALAR	152
37.	<i>Mirjonbek OSTONOV</i>	O‘RNAKLI BIR HAYOT YO‘LI (MUHAMMAD RIZO OG‘AHIIY)	157
38.	<i>А. АБДУРАХИМОВ</i>	ФЕНОМЕНЫ «ХАРИЗМАТИЧНАЯ ЛИЧНОСТЬ» И «ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС» В КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФСКОЙ ГЕРМЕНЕВТИКИ	160
39.	<i>Mushtariy MUSTOFAYEVA</i>	OG‘AHIIY G‘AZALLARIDA MAVZU KO‘LAMINING HAR XILLIGI	164
40.	<i>Zuxriddin AMONOV</i>	ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING ILMIY-ADABIY ME‘ROSIDAN BA‘ZI LAVHALAR.	167
41.	<i>Yulduz G‘ANIYEVA</i>	IMOM TERMIZIYNING “AL- JOME’ AL-KABIYR” ASARI ORQALI HADIS ILMIGA QO‘SHGAN HISSASI	173
42.	<i>Ahrorjon OQILOV</i>	HURUFIYLIK TA‘LIMOTI VA UNING FALASFIY KATEGORIYALARDA AKS ETISHI	180
43.	<i>Zaynabxon MIRZOYEVA</i>	DAOSIZMDA INSON, TABIAT VA JAMIYATNING UYG‘UNLIGI FALSAFIY TAHLIL	184

44.	<i>Fazliddin BO'RIYEV</i>	YUVAL NOVA HARARINING “SAPIENS INSONIYATNING QISQACHA TARIXI” ASARINING QISQACHA BAYONI VA TAHLILI	189
45.	<i>Фарица СУЛАЙМОНОВА</i>	ПОНЯТИЕ “ЛИЦО” В КИТАЙСКОЙ КУЛЬТУРЕ	193
XALQARO MUNOSABATLAR VA IQTISODIYOT			
46.	<i>Kamola YUSUPOVA</i>	O'ZBEKISTON VA YAPONIYA ALOQALARINING USTUVOR YO'NALISHLARI	199
47.	<i>Kamola ESANOVA</i>	KO'RFAZ MINTAQASIDA ENERGETIKA XAVFSIZLIK MUAMMOLARI	202
48.	<i>Sadoqat HABIBULLAYEVA</i>	HINDISTON TASHQI SIYOSATIDA AFG'ONISTON MUAMMOSI	209
49.	<i>Zarina NORBOYEVA</i>	MUHAMMAD RIZO OGAHIY IJODIDA SIYOSIY TA'LIMOT VA QARASHLAR XUSUSIDA	214
50.	<i>Go'zal PARDAYEVA</i>	TURIZMNING MAMLAKAT IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI	221
51.	<i>Дильруза ИБРАГИМОВА</i>	ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В ГЕРМАНИИ.	224
PEDAGOGIKA VA METODIKA			
52.	<i>Sug'diyona MIRZAYEVA</i>	GENDER TENGLIGI	230
53.	<i>Shohruxbek MINGBOYEV</i>	INSON RUHIYATINING O'ZGARISHI VA ULARDA NEGATIV TUSHUNCHALARNING O'RNI	234
54.	<i>Navro'zbek OCHILOV, Mashhura OCHILOVA</i>	JIZZAX VILOYATIDA TURIZM SOHASI, SALOHİYAT VA IMKONIYATLAR	238

55.	<i>Feruza</i> <i>USERBAYEVA</i>	YOSH AVLODNI INTELLEKTUAL VA MA'NAVIY SALOHIYATINI OSHIRISHDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ILMIY-ADABIY MEROSIDAN FOYDALANISH	243
56.	<i>Gulchehraxon</i> <i>UMATOVA</i>	YUKSAK MA'NAVIYATLI AVLOD-UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLARI	247
57.	<i>Sevara</i> <i>SHERBOYEVA</i>	OGAHIY FENOMENIDA “USTOZ-SHOGIRD” AN'ANASI VA TA'LIM-TARBIYA NAMUNASI	252

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

KAMOLOT SARI



IQTIDORLI YOSHLAR ILMIY TO‘PLAMI

20-SON

Mazkur to‘plam 2023-yil 1-apreldagi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 8-sonli bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Maqolalarning mazmuniga ilmiy rahbar
va mualliflar mas’uldir.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2023